- 14 произошла вспышка неизвестной пневмонии и вскоре возбудитель заболевания был идентифицирован как коронавирус 2019-nCoV. В первой половине 2020 года он распространился по всему миру. Пандемия COVID-19 привела к глубокому кризису в туристической отрасли стран мира. В истории развития мирового туризма под влиянием пандемии 2020 год оказался очень тяжёлым кризисным годом. По данным Всемирной туристской организации (UNWTO), число международных посещений сократилось на 74 процента. Принимаются меры по созданию возможностей для безопасных международных путешествий. Хотя в развитых странах предпринимались активные усилия по борьбе с пандемией COVID-19, к сожалению, с точки зрения трагических последствий эпидемии, воздействия психологической депрессии, а также национальной и государственной безопасности страны в настоящее время страны восстанавливают ограничения на путешествия. Эти ограничения проявляются в виде обязательных процедур, введения карантина, полного или частичного закрытия государственных границ для отдельных стран. Несмотря на это, они принимают такие конструктивные меры, как поэтапная вакцинация против COVID-19, ослабление ограничений на путешествия и восстановление сертифицированного туризма. Из-за ограничений, введенных во время пандемии COVID-19, и последствий вызванного ею глобального кризиса туристическая отрасль понесла огромные убытки. В целях сохранения национальной индустрии туризма в Узбекистане, поддержания доходов более 250 000 человек и квалифицированных кадров, связанных со сферой туризма, а также ускоренного восстановления туристической отрасли по мере улучшения санитарно-эпидемиологической обстановки был издан указ Президента Республики Узбекистан УП-6002 «О неотложных мерах поддержки сферы туризма для снижения негативного воздействия коронавирусной пандемии»[13.С.150-155.]. Согласно этому указу были введены ряд таких льгот и преференций, как возобновление с 1 июня 2020 года в регионах «зелёной» и «жёлтой» категорий внутреннего туризма, поэтапное возобновление въездного туризма, в период до 1 января 2021 года приостановление начисления и уплаты туристского (гостиничного) сбора, представление дополнительной поддержки путём выделения грантов на разработку и продвижение новых туристических продуктов и маршрутов гидам в размере по 5 миллионов сумов, туроператорам — 10 миллионов сумов, пролонгация на срок от 18 до 24 месяцев выплаты основного долга по ранее выданным кредитам коммерческих банков, а в соответствии с постановлением за №ПП-4755 от 19 июня 2020 года отменить ограничения по количеству рейсов и направлениям, до 31 декабря 2020 года затраты хозяйствующих субъектов, включенных в Реестр безопасных объектов системы «Uzbekistan. Safe travel GUARANTEED» («Узбекистан. Безопасное путешествие ГАРАНТИРОВАНО»), на проведение противоэпидемиологических профилактических мероприятий в зданиях и сооружениях объектов туристской и сопутствующей инфраструктуры компенсировать за счет средств, выделяемых из государственного бюджета, услуги гида (гида-переводчика), экскурсовода и инструкторов-проводников включить в перечень видов деятельности (работ, услуг), которыми могут заниматься самозанятые лица[14. lex.uz.]. В период пандемии с 4 сентября 2020 года Узбекистан запустил международное авиасообщение с пятью странами – Казахстаном, Кыргызстаном, ОАЭ, Германией и Турцией. В период пандемии сфера туризма находилась на уровне первоочередных задач правительства, в связи с этим были приняты указы за №№ УП-6002, ПП-4755, УП-5781, УП-6165 и постановления Кабинета Министров, реализация которых позволит диверсифицировать туристские продукты и услуги, способствовать созданию конкурентоспособного турпродукта, благоприятной среды для внутреннего и международного паломнического туризма, адресному продвижению потенциала паломнического туризма, расширению воздушных и автомобильных маршрутов в рамках программы «Умра+», повышению качества транспортных услуг и дорог. Эти меры также укрепляют имидж Узбекистана как самого безопасного места для путешествий и отдыха и играет конструктивную роль в восстановлении и развитии после пандемии и ее последствий.

Новые тенденции развития в Центральной Азии: развитие туризма в Казахстане и вопросы сотрудничества.

Основными факторами нового динамичного развития туризма в Казахстане и Узбекистане являются, во-первых, государственная поддержка отрасли и ее субъектов, во-вторых, начиная с 2017 года выход на новый этап взаимодоверительного и конструктивного сотрудничества в Центральной Азии, а в-третьих, разработка в этих странах эффективных стратегий развития общества и их успешная реализация.

Большое значение в развитии Казахстана в качестве ведущего государства Центральной Азии сыграла руководящая роль первого Президента Республики Нурсултана Назарбаева. Казахстан с 1993 года является членом Всемирной туристской организации (UNWTO) и самостоятельно развивает туристическую индустрию. Развитие казахстанской туриндустрии началось с так называемых «шоп-туров» - поездок из бывшей столицы Алматы в Турцию, Китай, Объединённые Арабские Эмираты и Пакистан. Было создано несколько туристических агентств для организации чартерных рейсов и продажи авиабилетов, что впоследствии привело к увеличению числа таких агентств. Появились «сезонные» туристические компании, которые организуют поездки местных туристов по летним направлениям, к примеру, на Иссык-Куль (Кыргызстан) или к местам таких зимних достопримечательностей, как зимний каток Медео (Казахстан)[15. С.293-294.]. В Центральной Азии Казахстан постепенно вносил изменения в свою визовую политику и налаживал предоставление льгот и привилегий туристам, предпринимателям и другим посетителям. При Н.Назарбаеве модель экономического развития Казахстана сформировалась к 1997 году. В 1997 году был принят новый план развития страны - «Казахстан – 2030», согласно которому была поставлена цель создания профессионально развитого государства[16. <https://>]. В мае 1999 года была создана Казахстанская ассоциация туризма. Благодаря наличию объектов инфраструктуры для путешествий и туристической индустрии, а также культурно-исторических достопримечательностей, первая столица - Алматы стала удобным направлением для иностранных и отечественных туристов. В период с 2010 по 2012 год около 50 процентов туристических организаций располагались в Алматы и они обслуживали около 50 процентов всех туристов в стране.

Несмотря на то, что в первые двадцать лет независимости в развитии национального туризма существовали такие проблемы, как жёсткая визовая политика, нехватка кадров со специальными знаниями в сфере туризма в туристических агентствах и гостиничном хозяйстве, низкий уровень использования большинством турфирм и гостиниц информационных и коммуникационных технологий и возможностей глобальной информационной сети (Интернет) в развитии туризма, отсутствие передовых технических навыков, проблема нехватки гидов и квалифицированного персонала международного уровня, несоответствие транспортных средств международным стандартам, обслуживающих туристов по международным стандартам, нехватка жилья и проблемы с размещением, в сфере путешествий и туризма наблюдалась положительная тенденция. В 2012 году Казахстан занимал 51-место в мире по количеству посещения туристов. Всего в 2000 году Казахстан посетили 1,47 миллионов иностранных туристов, а в 2012 году их численность достигла 4,81 миллионов зарубежных гостей[17. <http://>]. Среди пяти государств Центральной Азии в настоящее время Казахстан лидирует по всем направлениям развития. Безусловно, роль Казахстана в развитии индустрии путешествий и туризма в Центральной Азии и предпринимаемые в этой стране отраслевые меры положительно сказываются не только на ее территории, но и на развитии индустрии туризма в Центральной Азии. В рамках безвизовой политики для стран, осуществивших крупные прямые иностранные инвестиции в экономику Казахстана, разработан безвизовый режим сроком до 30 дней. Программа стартовала 15 июля 2014 года, предоставив односторонний безвизовый въезд 10 странам, и распространилась до 19 стран в июле 2015 года, затем до 43 - в январе 2017 года и до 54 стран - в сентябре 2019 года. В Казахстане с 1 января 2019 года Миграционная служба Казахстана стала выдавать электронные визы гражданам 117 стран[18. <http://>].

Положительное влияние на развитие туристической индустрии Казахстана оказали следующие факторы:

1. Одной из мер, принимаемых для привлечения иностранных туристов в Казахстан, является проведение, благодаря большому вниманию государства, международных



16 саммитов, форумов и конференций по вопросам политики, экономики и образования, что способствовало к быстрому признанию государства и благодаря крупным промышленным сооружениям, а также большим экономическим возможностям превращению страны в очень важный бизнес-центр ведущих мировых предпринимателей, компаний. В этом, безусловно, неопределима роль современной новой столицы - Астана;

2. Ускоренное строительство отвечающих мировым стандартам гостиниц и других средств размещения, количество которых с 2056 в 2014 году увеличилось до 3322 в 2018 году, что положительно сказалось на решении проблемы размещения туристов и путешественников;

3. Организация национальной кухни и кухонь разных других народов (например, европейской и азиатской кухни) и высокий уровень их качества;

4. Большое количество авиакомпаний и рейсов, наличие конкурентной среды, наличие множества транзитных рейсов иностранных авиакомпаний в города Казахстана и приемлемые для казахстанцев и иностранцев средние цены на билеты по самым популярным направлениям;

5. На уровне требований находится качество международных и внутренних автомобильных дорог по стране, оснащённость современными автобусами, обслуживающих туристов и удобных для городского туризма. Организация по инициативе UNWTO на высоком уровне VIII Глобального саммита «Умные города, умные адреса» в городе Нур-Султан 9-12 октября 2019 года, в котором принимали участие 1200 делегатов, 80 стран[19. <https://>].

6. Для развития путешествий и туризма в Казахстане Международная туристская организация установила активные контакты с UNWTO и способствовала стремительному развитию национального туризма посредством организации международных туристических мероприятий. Международная казахстанская выставка КИТФ проводится с 2001 года[20.С. 16-21.]. Экспозиция является крупнейшей профессиональной туристической площадкой в Центральной Азии и главным событием в сфере туризма в стране.

7. Создание правовой базы для развития путешествий и туризма в стране, принятие решений и концепций по развитию отрасли, а также планомерная реализация этих мер способствовали наглядному росту показателей национального туризма. Из них большое значение имеет Государственная программа развития туризма Республики Казахстан на 2019-2025 годы (утверждена постановлением Правительства Республики Казахстан от 31 мая 2019 года за № 360)[21.С. 48-55.].

Осуществление широкомасштабных целевых планов мероприятий в сфере индустрии туризма в Казахстане дала свои результаты. Если мы сравним анализ развития туризма в соседнем государстве Центральной Азии и состоянием туризма в Узбекистане, то получим ещё более точный вывод. Количество посетителей, прибывших в Узбекистана по линии международного туризма в 2000 году, составило 302 000 человек, в 2013 году - 1 969 000 человек, в 2019 году - 6 749 тысяч туристов, а экспортные показатели - объём туристических услуг, соответственно, были равны в 2000 году – 63 миллионам долларов, в 2014 году - 660 миллионам долларов, в 2019 году - 1 миллиарду 679 миллионам долларов[22. [worldbank.org](http://worldbank.org)]. А Казахстан, самая развитая братская страна в Центральной Азии, приняла в 2000 году 1 683 000 туристов, в 2013 году - 6 841 000 и в 2019 году - 8 515 000. В частности, объём оказанных в Казахстане туристических услуг – экспортных показателей за тот же период составил в 2000 году - 403 миллионов долларов, в 2013 году - 2 миллиарда 365 миллионов долларов, в 2019 году - 2 миллиарда 922 млн долларов, который стал самым высоким показателем в Центральной Азии[23. [worldbank.org](http://worldbank.org)].

Развитие индустрии путешествий и туризма, а также смежных с ними отраслей способствует подъёму политического престижа Казахстана, социально-экономическому росту, появлению новых услуг в этой сфере, созданию новых рабочих мест, повышению благосостояния народа. Бурное развитие сферы путешествий и туризма в Казахстане стало основным фактором того, что, во-первых, доля ВВП в стране в 2019 году составила 5,2%, во-вторых, доля рабочих мест, созданных в туристской отрасли в 2019 году в общей занятости, составила 443,2 тыс. человек или 5,1%, в-третьих, экспорт услуг туристам достиг

2,832 миллиона долларов, или 4,4% от общего объема экспорта[24. wtcc.org.]. В связи с вышеуказанным фактором можно отметить, что важнейшими параметрами развития туризма в стране являются показатели въездного и выездного туризма, что положительная динамика роста в этом отношении в 2017 году явилась успешным годом для туристской индустрии Казахстана, с учётом роста показателей въездного туризма до 18,3 процента (на 7,7 миллионов человек), внутреннего туризма – до 20,2 процента (на 5,56 миллионов) (при этом большое значение имели проведение международных мероприятий “Универсиада” и “ЕХРО – 2017”) они являются самыми высокими показателями для центральноазиатского региона[25. <https://>].

Новые аспекты сотрудничества Казахстана и Узбекистана в сфере туризма.

К этому времени политические, экономические, общественные и культурные связи между Казахстаном и Узбекистаном вступили в фазу ускоренного развития, что привело к расширению нового прочного сотрудничества, прежде всего в сфере путешествий и туризма. На встречах представителей Казахстана и Узбекистана в 2020-2021 годах отмечалось, что предложенный ещё в 2018 году совместный проект «*Silk visa*» откроет огромные возможности для Центральной Азии и для реализации этого плана проводятся консультации по организационно-правовым вопросам. Внедрение проекта «*Silk visa*» затягивается из-за пандемии и других объективных причин.

Эта идея впервые была выдвинута казахстанским сенатором Даригой Назарбаевой в июне 2018 года, которая, намекая на Шенгенскую зону в Европе, сказала: «...необходимо стимулировать казахстанский и узбекский туризм, а также стимулировать приезд сюда иностранных туристов из ближнего и дальнего зарубежья. Они, когда приезжают в наш регион, хотят сразу все страны увидеть, все достопримечательности. Для Европы и Юго-Восточной Азии, где богатые туристы, Центральная Азия – все-таки не ближний свет. Поэтому, когда они преодолевают такие расстояния, хочется увидеть все за одну поездку, а для этого нужно создавать общую визу»[26. <https://>]. Она отметила, что это может стать нашим Азиатским Шенгеном. Узбекистан и Казахстан согласовали все технические вопросы по введению единой многократной туристической визы “*Silk Road Visa*”. Для реализации проекта будет запущен портал, на котором иностранцы смогут оставить заявку. Ответ на обращение придет в течение 48 часов. «К проекту хотят присоединиться и другие страны. Интерес проявляет Кыргызстан очень активно, есть автономные наработки с Азербайджанской республикой, потенциально к этому проекту могли бы присоединиться Таджикистан, Монголия, а также ряд закавказских республик», – сообщил журналистам 18 мая 2021 года вице-премьер-министр Узбекистана, министр туризма и спорта А.Абдухакимов[27. <https://>]. В дальнейшем реализация этих совместных планов откроет путь для ускоренного развития туризма в Центральной Азии. Новый план «*Silk Visa*», реализация которого ожидается в 2022 году, посредством развития туризма в центральноазиатском регионе будет способствовать расширению сотрудничества со многими развитыми странами, такими как Европейский союз, Китай, Турция и Индия, что станет фактором ускоренного экономического роста. В мире в целом, в том числе и в Центральной Азии, сокращение природных ресурсов или падение цен на продукты привели к снижению доходов. В этом процессе правительства, рассматривая индустрию туризма как локомотив будущего экономического роста, который оказался основным фактором привлечения новых притоков иностранной валюты в страну, уделяют ему пристальное внимание на уровне ключевых секторов экономики. С учетом инвестиционного и туристического потенциала Туркестанской области Казахстана реализован ряд проектов по дальнейшему развитию взаимного сотрудничества между Ташкентской и Самаркандской областями Узбекистана. 10 декабря 2018 года между городами Ташкент и Туркестан, а 14 апреля 2019 года между Туркестаном и Самаркандом запущено международное автобусное сообщение. Подписание меморандума о строительстве высокоскоростной железной дороги Ташкент-Туркестан в ходе заседания Межправительственной комиссии по двустороннему сотрудничеству между Узбекистаном и Казахстаном 18 июня 2019 года знаменует собой новый этап в отношениях. Пандемия нанесла серьезный удар как по мировому туризму, так и по туристической индустрии Казахстана, в результате чего в марте 2020 года в Казахстане

18 было введено чрезвычайное положение. На начало 2020 года в государственном реестре числилось 1484 туроператора и 4385 турагентов, большинство из которых прекратили свою деятельность. В условиях пандемии правительство продолжило расширять туристическую отрасль и совместно с частным инвестором в начале июля 2020 года ему удалось запустить крупный проект на побережье Каспийского моря – крупнейший 5-звездочный курортный отель в Центральной Азии “Rixos”. В одном только в августе месяце в отеле отдохнули около 20 000 человек, а к концу года их число возросло до более чем 75 000 человек[28. <https://>]. В период пандемии в соответствии с карантинными нормами ещё более укрепляются отношения с Узбекистаном, основным партнером в Центральной Азии. С 8 марта 2021 года казахстанской авиакомпании СКАТ дано разрешение выполнять регулярные рейсы по маршруту Актау — Ургенч — Актау, а с середины 2021 года - авиакомпании “Air Astana” по маршрутам Туркестан — Ташкент — Туркестан и Алматы — Самарканд — Алматы[29. <https://>]. Эти практические меры положительно сказываются на росте туристических потоков между двумя странами. С учётом того, что большинство граждан Республики Узбекистан среди стран СНГ выезжали в основном в Республику Казахстан, численность которых составило 51,6% (7139,8 тыс. человек), становится понятным значимость двусторонних отношений[30. <https://>].

В заключении следует сказать, что в Узбекистане, являющегося частью мирового сообщества и внесшего значительный вклад в мировую цивилизацию, наряду со всеми другими отраслями экономики в годы независимости начался процесс организации туризма на уровне международных стандартов, созданы правовые основы для развития индустрии туризма, однако, в результате недостаточного внимания к выполнению намеченных в этой сфере планов и программ стали наблюдаться перечисленные выше кризисные явления. В частности, на первом этапе развития туризма в Узбекистане в связи с такими основными преградами, как несовершенство управления, слабый контроль за окончательным выполнением программ и мероприятий в этой сфере, нехватка гостиниц и других средств размещения, высокая стоимость проживания и авиабилетов для гостей, отсутствие и нехватка прямых авиамаршрутов в туристические города, низкий уровень сервиса, отсутствие информационных центров для туристов, нехватка квалифицированных кадров в сфере туризма национальный туризм отстал в своём развитии от мирового туризма. На втором этапе развития сферы национального туризма наряду с новыми изменениями в управлении туризмом, организацией должности заместителя хокима, увеличением строительства гостиниц и других средств размещения, ростом предоставляемых предпринимателям кредитов, налоговых льгот и преференций в данной сфере, упрощением визовой политики, созданием благоприятных условий для иностранных инвесторов, налаживанием новых туристических услуг, улучшением транспортных услуг и дорог установление постоянного контроля за исполнением указов, постановлений, а также намеченных программ и мер способствовало началу нового периода в истории развития национального туризма. Поскольку туризм является динамичной отраслью, он требует от государства и предпринимателей постоянного поиска, осуществления новых проектов и активного сотрудничества во всех областях. Отношения между наиболее передовыми странами Центральной Азии - Казахстаном и Узбекистаном в первой четверти со времени обретения независимости не получили максимально возможного развития. Широкомасштабный рост и новые проекты сотрудничества стали происходить в 2017-2021 годах с вступлением на новый этап сотрудничества. Особое значение имели открытие автомобильного сообщения и авиалиний по направлениям Туркестан-Ташкент, Туркестан-Самарканд, Актау-Ургенч, Алматы-Самарканд. Внедрение весьма значимого проекта «*Silk visa*», продвигаемого по инициативе Казахстана и Узбекистана, откроет новые возможности для развития туризма не только в двух странах, но и в Центральной Азии, а также расширит процесс интеграции в мировой туризм.

### **Литературы**

1. <https://wtcc.org/Research/Economic-Impact> .( murojaat qilingan:19.12.2021)
2. НА РУз, фонд 141- М, опись 1, дело 38, листы 2-37.

3. НА РУз, фонд 141- М, опись 1, дело 38, листы 3-4.
4. "Tourism in Uzbekistan", 2019. - P. 32.
5. <https://data.worldbank.org/indicator/ST.INT.RCPT.CD?locations=UZ>( murojaat qilingan:19.12.2021)
6. Sh.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent:"O'zbekiston» NMIU, 2018. B-60-61.
7. <https://lex.uz/docs/-3077025>
8. <http://til.gov.uz/uz/news-and-announcements/news/195>.
9. <https://zamin.uz/uz/jamiyat/75991-ilhom-nematov-markaziy-osiyodagi-integratsiya-maslahat-uchrashuvlari-va-suv-muammolari-haqida.html>. ( murojaat qilingan:20.12.2021)
10. O'zbekistonda turizm, Statistik to'plam, Toshkent-2020 B-51-53.
11. <https://data.worldbank.org/indicator/ST.INT.RCPT.CD?locations=UZ> .( murojaat qilingan:19.12.2021)
12. <https://wtcc.org/Research/Economic-Impact>. ( murojaat qilingan:19.12.2021)
13. Халим Муродов. Пандемия даврида Ўзбекистонда туризмнинг ҳолати, Соҳибқирон юлдузлари. 2021- йил №3, Б-150-155.
14. <https://lex.uz/docs/4862987>
15. Mahmood A. Khan, Tourism in Central Asia. Toronto. New Jersey. Apple Academic Press 2015. P-293-294.
16. <https://news.rambler.ru/cis/41897134>.  
<http://mecometer.com/whats/kazakhstan/international-tourism-number-of-arrivals/>
17. [https://uz.hrvwiki.net/wiki/Visa\\_policy\\_of\\_Kazakhstan#cite\\_note-tim-1](https://uz.hrvwiki.net/wiki/Visa_policy_of_Kazakhstan#cite_note-tim-1)
18. Мамраева Д.Г., Ташенова Л.В. Современное состояние туризма в Казахстане: ключевые тренды. // «ВЕКТОР ЭКОНОМИКИ», №10, 2019. С.48-55.
19. <https://nursultancb.com/ru/news/8-y-globalnyy-sammit-yunvto-po-gorodskomu-turizmu-v-g-nur-sultan>.
20. Mahmood A. Khan. Tourism in Central Asia. Toronto. New Jersey. ©2015 by Apple Academic Press, Inc. P-16-21.
21. Мамраева Д.Г., Ташенова Л.В. Современное состояние туризма в Казахстане: ключевые тренды. // «ВЕКТОР ЭКОНОМИКИ», №10, 2019.
22. <https://data.worldbank.org/indicator/ST.INT.RCPT.CD?locations=UZ>.
23. <https://data.worldbank.org/indicator/ST.INT.RCPT.CD?locations=KZ>.
24. <https://wtcc.org/Research/Economic-Impact> .
25. <https://365info.kz/2018/04/>.
26. <https://camonitor.kz/31508-zachem-kazahi-i-uzbeki-tak-aktivno-zovut-k-sebe-inostrancev.html>
27. <https://eurasia.expert/kazakhstan-i-uzbekistan-gotovy-k-zapusku-edinoy-turisticheskoy-vizy/>.
28. <http://uza.uz/oz/culture/toshkent-turkiston-y-nalishida-tezyurar-poezd-atnovi-y-lga-y-22-06-2019>.
29. [https://t.me/Mintrans\\_uz/5884](https://t.me/Mintrans_uz/5884).
30. <https://stat.uz/uz/press-sluzhba/novosti-gks/5309>.



Ahmadova Zebiniso Shavkatovna  
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori  
(PhD), dotsent

## GLOBALLASHUV JARAYONIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA INSON KAPITALINI BOZOR TALABLARIGA MOSLASHTIRISHDA TARIXNING O'RNI VA YANGI ISLOHOTLAR

**Annotatsiya.** Globalizatsiya jarayoni ta'lim tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, inson kapitalini shakllantirishda yangi tarixiy yondashuvlarni talab qilmoqda. Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirish va uni bozor talablariga moslashtirishga qaratilgan islohotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion metodlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim tizimini rivojlantirishning dolzarb masalalari yoritiladi. Maqola ta'lim va iqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatib, inson kapitalini rivojlantirish uchun strategik tavsiyalarni taqdim etadi.

**Kalit so'zlar:** globalizatsiya, ta'lim sifati, inson kapitali, bozor talablari, ta'lim islohotlari, innovatsiyalar, zamonaviy texnologiyalar, iqtisodiyot va ta'lim integratsiyasi.

## РЕФОРМЫ ПО ПОВЫШЕНИЮ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ И АДАПТАЦИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА К ТРЕБОВАНИЯМ РЫНКА В ПРОЦЕССЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

**Аннотация.** процесс глобализации серьезно влияет на систему образования, требуя новых подходов к формированию человеческого капитала. В этой статье анализируются реформы, направленные на повышение качества образования и его адаптацию к требованиям рынка. Также будут освещены актуальные вопросы развития системы образования с использованием инновационных методов и современных технологий. В статье представлены стратегические рекомендации по развитию человеческого капитала, показывающие взаимосвязь между образованием и экономикой.

**Ключевые слова:** глобализация, качество образования, человеческий капитал, рыночные требования, образовательная реформа, инновации, современные технологии, экономика и интеграция образования.

## REFORMS IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION AND ADAPTING HUMAN CAPITAL TO MARKET DEMANDS IN THE PROCESS OF GLOBALIZATION

**Annotation.** the globalization process has a serious impact on the educational system, requiring new approaches to the formation of human capital. This article analyzes reforms aimed at improving the quality of education and adapting it to market requirements. Also, current issues of the development of the educational system are highlighted through the use of innovative methods and modern technologies. The article presents strategic recommendations for the development of human capital, showing the relationship between education and economics.

**Keywords:** globalization, quality of education, human capital, market demands, educational reform, innovation, modern technologies, economics and educational integration.

**Kirish.** Globallashuv jarayoni dunyo miqyosida iqtisodiy, siyosiy, tarixiy, madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Bu jarayonning ta'lim sohasiga ta'siri alohida e'tiborga loyiq, chunki dunyo bo'ylab bozor talablarining o'zgarishi, texnologik yangiliklar va iqtisodiy raqobat ta'lim tizimiga yangi talablar qo'yadi. Shu bois, ta'lim sifatini oshirish va inson kapitalini bozor talablariga moslashtirish uchun ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda globalizatsiya jarayoni har bir mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimi ushbu jarayonda muhim ahamiyat kasb etib, raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirishda asosiy omil sifatida maydonga chiqmoqda. Zamonaviy dunyo iqtisodiyoti bozor talablari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu talablar ta'lim jarayonini qayta ko'rib chiqishni, uni yangi texnologiyalar va innovatsion metodlar asosida rivojlantirishni talab qiladi. Shu sababli, ta'lim tizimini xalqaro me'yorlarga moslashtirish, uning sifatini oshirish va zamonaviy bozor talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar nafaqat iqtisodiy rivojlanish uchun, balki mamlakatlarning global maydonda raqobatbardoshligini ta'minlash uchun ham muhimdir. Bu jarayonda inson kapitali tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi, chunki bilimli, malakali va ijodkor insonlar har qanday jamiyatning rivojlanishida asosiy resurs hisoblanadi. Ushbu maqolada globalizatsiya sharoitida ta'lim sifatini oshirish va inson kapitalini bozor talablariga moslashtirish bo'yicha islohotlarning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2018-yil 3-dekabrda qabul qilingan rezolutsiyasiga muvofiq, 24-yanvar – Xalqaro ta'lim kuni deb e'lon qilingan. Bu muhim qaror xalqaro hamjamiyat tomonidan ta'limning tinchlik va taraqqiyot yo'lidagi ahamiyati nechog'lik yuksak e'tirof etilayotganining yaqqol tasdig'idir. Ushbu xalqaro sana joriy yilda beshinchi bor nishonlanmoqda. Ayni tadbirdan ko'zlangan maqsad nafaqat insoniyatning ilmi-ma'rifatga tashnalgini e'tirof etish, balki dunyo davlatlari hukumatlari va jamiyatlari e'tiborini ta'lim sohasida mavjud muammolarga, jumladan, savodsizlikni bartaraf etish, turli mintaqalarda yaxlit ta'lim dasturlari ishlab chiqish va amalga oshirish kabi masalalarga qaratishdan iboratdir.

**BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning fikricha, ta'lim – jamiyat, iqtisodiyot va har bir inson salohiyatining asosi hisoblanadi. Lekin talab darajasida investitsiya jalb etilmas ekan, ana shu salohiyatdan hech qanday foyda bo'lmaydi. "Aksariyat hukumatlarning siyosatida va xalqaro hamkorlik doirasidagi hujjatlarda ta'limga nihoyatda kam e'tibor qaratilgani meni doim qattiq xavotirga soladi, – dedi BMT Bosh kotibi. – Bu yilgi Xalqaro ta'lim kunining mavzusi ham investitsiyalar yo'naltirish asnosida ta'limga ustuvor ahamiyat qaratish zarurligini qat'iy eslatib turibdi". Investitsiyalar, A.Guterrish ishonch bilan uqtirganidek, Barqaror taraqqiyot sohasidagi 4-maqsadga erishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.**

#### **Asosiy qism.**

Globalizatsiya - bu dunyo miqyosida bog'liqlik va o'zaro ta'sirning ortishi jarayoni. U mamlakatlar, xalqlar va tashkilotlar o'rtasidagi savdo, investitsiya, texnologiya va madaniyat almashuvini o'z ichiga oladi.

#### **Globalizatsiyaning asosiy xususiyatlari:**

- mamlakatlar va mintaqalar o'rtasidagi savdo, investitsiya va texnologiya almashuvi ortib bormoqda.
- globalizatsiya xalqlar o'rtasidagi madaniy almashuvga olib keladi, bu esa yangi madaniy gibridlar va sintezlarni yaratadi.
- texnologiyalar global miqyosda tez sur'atlarda tarqalmoqda, bu esa innovatsiyalar va iqtisodiy o'sishga olib keladi.
- globalizatsiya mamlakatlar o'rtasida malzama va xom ashyoning xalqaro miqyosda harakatlanishiga olib keladi.
- globalizatsiya odamlarning mehnat, ta'lim va yaxshiroq hayot izlab mamlakatlar o'rtasida ko'chib yurishiga olib keladi.

#### **Globalizatsiyaning ijobiy va salbiy ta'sirlari mavjud:**

##### **Ijobiy ta'sirlar:**

- globalizatsiya savdo va investitsiya imkoniyatlarini oshirib, iqtisodiy o'sishga olib keladi.
- globalizatsiya yangi texnologiyalar va g'oyalarning tarqalishiga olib keladi, bu esa innovatsiya va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.
- globalizatsiya xalqlar o'rtasida madaniy almashuvni rag'batlantirib, tushunish va bag'rikenglikni oshiradi.

**Salbiy ta'sirlar:**

➤ globalizatsiya ish o'rinlarining yo'qotilishi va ish haqining pasayishiga olib kelishi mumkin, bu esa iqtisodiy tengsizlikni oshirishi mumkin.

➤ globalizatsiya mahalliy madaniyatlarni vayron qilishi va g'arbiy madaniyatning ustunligiga olib kelishi mumkin.

➤ globalizatsiya iste'molni oshirib, atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin.

Globalizatsiya murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u ijobiy ham, salbiy ham ta'sirlarga ega. Uning ta'sirini boshqarish va uning foydalarini maksimal darajada oshirish va uning salbiy ta'sirlarini kamaytirish uchun davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan siyosatlar va choralar ko'rilishi kerak.

**Globalizatsiyaning ta'lim tizimiga ta'siri.** Globalizatsiya jarayoni ta'lim tizimini bir qator muhim o'zgarishlarga olib kelmoqda. Avvalo, ta'lim jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Misol uchun, PISA (Programme for International Student Assessment) kabi xalqaro dasturlar orqali o'quvchilar bilim darajasini baholash, ta'lim sifatini global darajada solishtirish imkonini beradi. Ushbu jarayon milliy ta'lim tizimlariga yangi talablar qo'yadi: o'quv dasturlarini zamonaviylashtirish, o'qituvchilar malakasini oshirish va ta'lim jarayonini raqamlashtirish. Bundan tashqari, globalizatsiya ta'lim sohasida raqobatni kuchaytirib, mamlakatlarni chet elda ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga undaydi. Xalqaro universitetlar, masofaviy ta'lim platformalari va onlayn kurslar talabalarga cheksiz imkoniyatlar yaratib bermoqda. Shu sababli, milliy ta'lim tizimlari ham jahon standartlariga mos ravishda rivojlanishi lozim. ta'limning xalqaro bozor talablariga javob berishi uchun bir qator mamlakatlar ta'lim tizimlarini qayta ko'rib chiqmoqda.

Masalan, Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlar ta'limga ajratiladigan mablag'ni YAIMning 4-5 foizigacha yetkazib, xalqaro miqyosda eng yaxshi o'rinlarni egallab kelmoqda. Ular innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish va raqamli infratuzilmani rivojlantirish orqali o'quvchilarning malakasini oshirishga muvaffaq bo'lmoqda.

*Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan yondashuvlar.*

Ta'lim sifatini oshirish, avvalo, pedagogik jarayonni takomillashtirishni talab qiladi. Ta'limda innovatsion yondashuvlar, jumladan, STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) metodikasidan foydalanish bugungi kunda jadal rivojlanmoqda. Ushbu yondashuv o'quvchilarni nafaqat nazariy bilimlar bilan qurollantiradi, balki amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Masalan, onlayn platformalar orqali o'qituvchilarning tajribasini kengaytirish va ularning malakasini oshirish imkoni mavjud. Shu bilan birga, sun'iy intellekt asosida tuzilgan ta'lim resurslari o'quvchilar uchun individual yondashuvni ta'minlaydi, bu esa o'qitish samaradorligini oshiradi. Xususan, onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar va sun'iy intellekt texnologiyalari o'quvchilarning individual yondashuv asosida o'qitilishiga yordam beradi. Masalan, O'zbekistonda 2023-yilda ishga tushirilgan "Bilimlar Akademiyasi" loyihasi orqali maktab o'quvchilarining ta'lim sifatini monitoring qilish va interaktiv darsliklardan foydalanish imkoniyati yaratildi.

*Inson kapitalini bozor talablariga moslashtirish.*

Bozor talablariga mos mutaxassislar tayyorlash ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Hozirgi kunda iqtisodiyotning turli sohalarida texnologiyalar tez o'zgarib borayotgani sababli, ta'lim tizimi mehnat bozorining talablariga moslashuvchan bo'lishi kerak.

Masalan, raqamli iqtisodiyot uchun dasturchilar, sun'iy intellekt mutaxassislari va kibertahlilchilar kabi yangi kasblar shakllanmoqda. Ta'lim tizimi ushbu kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlashga qaratilgan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, yumshoq ko'nikmalar (soft skills), jumladan, jamoada ishlash, muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash kabi malakalarni rivojlantirishga e'tibor qaratilishi zarur. Ushbu ko'nikmalar mehnat bozorida yuqori raqobatbardoshlikni ta'minlaydi va inson kapitalining sifatini oshiradi.

Islohotlar samaradorligini oshirish uchun strategiyalar. Ta'lim islohotlarining samaradorligini oshirish uchun bir nechta strategik yo'nalishlarni amalga oshirish kerak:

1. Ta'lim va iqtisodiyot integratsiyasi: Ta'lim dasturlarini iqtisodiy sektorlar ehtiyojlariga mos ravishda yangilash va amaliy o'qitishga e'tibor qaratish. Germaniyada joriy etilgan "Dual Education System" modeli mamlakat iqtisodiyoti ehtiyojlariga mos mutaxassislar tayyorlashga imkon beradi. Bu tizimda talabalar o'qish bilan birgalikda amaliyot o'taydi, bu esa ularning bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlaydi.

2. Davlat va xususiy sektor hamkorligi: Xususiy sektorning ta'lim sohasiga sarmoya kiritishini rag'batlantirish va o'quv dasturlarini amaliy ehtiyojlarga moslashtirish. Hindistonda 2015-yildan buyon faoliyat yuritayotgan "Skill India" dasturi doirasida xususiy kompaniyalar ta'lim sohasiga sarmoya kiritmoqda. Natijada, 100 milliondan ortiq yoshlar zamonaviy kasblar bo'yicha malaka oshirish imkoniyatiga ega bo'lishgan.

3. Innovatsion infratuzilma yaratish: Ta'lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash va innovatsion laboratoriyalar tashkil qilish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilda qabul qilgan qarori asosida tashkil etilgan "Inha Universiteti Toshkent" yuqori texnologiyalar bo'yicha mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Ushbu universitetda sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot sohasida mutaxassislar tayyorlanmoqda.

4. Xalqaro tajriba almashinuvi: Chet el universitetlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, ilg'or ta'lim metodikalarini joriy etish. Xitoyda amalga oshirilayotgan "Belt and Road Education Initiative" loyihasi orqali talabalar va pedagoglarning xalqaro almashinuvi tashkil etilib, mamlakatning ta'lim tizimi raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshmoqda.

#### **Ta'lim sifatini oshirish.**

Globallashuv jarayonida ta'lim tizimining sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda bir nechta asosiy yo'nalishlar mavjud:

a) kadrlar tayyorlashda zamonaviy usullarni joriy etish; ta'lim tizimini bozor talablariga moslashtirishning eng muhim jihatlaridan biri - zamonaviy o'qitish metodlarini tatbiq etishdir. Bu o'zida innovatsion ta'lim texnologiyalarini, masofaviy o'qish tizimlarini, interaktiv darslar va laboratoriyalarga asoslangan o'qitish usullarini joriy etishni nazarda tutadi. Shuningdek, o'quv dasturlarini yangilash va malakali o'qituvchilarni tayyorlash ham ahamiyatli.

b) xalqaro standartlarga mos ta'lim dasturlari; ta'lim sifatini oshirish uchun xalqaro miqyosda tan olingan ta'lim standartlariga asoslangan dasturlarni ishlab chiqish zarur. Mamlakatlarda ta'lim tizimini rivojlantirishda Bologna jarayoni kabi xalqaro tashabbuslarga qo'shilish va ushbu tizimning talablariga mos keladigan o'quv reja va dasturlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu o'zida o'quvchilarga xalqaro bozor talablariga mos keladigan ta'lim berishga yordam beradi.

d) o'quvchilarga kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini berish; globallashuv sharoitida yaratish va innovatsiya masalalari juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta'lim tizimi nafaqat axborotlarni o'zlashtirish, balki o'quvchilarni kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish, jamoada ishlash va innovatsion g'oyalarni ilgari surish ko'nikmalarini rivojlantirishga ham e'tibor qaratishi kerak.

#### **Inson kapitalini bozor talablariga moslashtirishdagi islohotlar.**

Inson kapitali - iqtisodiy taraqqiyotda muhim omil bo'lib, ta'lim tizimidan to'g'ri foydalanish uning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bozor talablariga mos kadrlar tayyorlash uchun bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda:

a) kasb-hunar ta'limini rivojlantirish; bozor talablariga mos kadrlarni tayyorlashda kasb-hunar ta'limi, texnik va kasb-hunar o'quv yurtlarini rivojlantirish, iqtisodiyotning har bir sohasiga tegishli mutaxassislarni tayyorlash katta o'rin tutadi. Ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar kasb-hunar ta'limini iqtisodiyotning aniq ehtiyojlariga moslashtirishga qaratilgan. Bu esa ishsizlikni kamaytirishga va mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga yordam beradi.

b) yoshlarni ishga joylashtirish va malakali ishchi kuchini tayyorlash; yoshlar orasida ish bilan ta'minlanish va o'z kasbiga bo'lgan talabni oshirish uchun ko'plab dasturlar va loyihalar



24 ishlab chiqilmoqda. Kadrlar tayyorlashning eng samarali usuli bu amaliy o'quv kurslari, stajirovka, ishga joylashish bo'yicha ko'mak va tajriba almashish imkoniyatlarini yaratishdir. Shuningdek, ta'limni bozor talablariga moslashtirish uchun korxonalar va ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur.

d) raqamli iqtisodiyot va texnologik sohalarga oid kadrlar tayyorlash; globallashtirish jarayonida raqamli texnologiyalar va yangi iqtisodiy sektorlar katta ahamiyat kasb etmoqda. Shunday qilib, raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili, kiberxavfsizlik va boshqa zamonaviy texnologik sohalarda kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Bozor talablariga mos kadrlar tayyorlash uchun ta'lim tizimida texnologik infrastrukturani rivojlantirish, yoshlarni yangi sohalarga o'qitish, STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) ta'limini kuchaytirish zarur.

e) professional rivojlanish va ta'limda davomiylik; globallashtirish jarayonida texnologiyalar va bozor ehtiyojlari tez o'zgarib turadi. Shuning uchun inson kapitalini bozor talablariga moslashtirishda davomiy ta'lim va kasbiy rivojlanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Korxonalar va tashkilotlar o'z xodimlarining malakasini oshirish uchun ta'lim dasturlari va treninglar tashkil etmoqda. Bu esa ishchi kuchining malakasini oshirishga, yangi bozor talablariga javob berishga yordam beradi.

Inson kapitalini bozor talablariga moslashtirishdagi talablar quyidagilardan iborat:

**Ta'lim sohasida:** amaliy va kasbiy ta'limni rivojlantirish. Hunarmandchilik va texnik kollejlarni modernizatsiya qilish, ta'lim dasturlarini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish, o'qituvchilar va instruktorlarning malakasini oshirish

**Kasbiy ta'lim sohasida:** kasbiy ta'lim markazlarini tashkil etish va rivojlantirish, kasb-hunar talablariga mos keladigan malakali kadrlar tayyorlash, ish beruvchilar bilan hamkorlikni rivojlantirish, kasbiy ta'limning sifatini va samaradorligini oshirish

Globalizatsiya sharoitida ta'lim sifatini oshirish va inson kapitalini bozor talablariga moslashtirish mamlakatlar uchun strategik ahamiyatga ega. Bu jarayon muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun davlat siyosati, innovatsion texnologiyalar va xalqaro hamkorlikning uyg'unlashuvi talab qilinadi. Ta'lim tizimida amalga oshiriladigan islohotlar nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki jamiyatning barcha sohalarida ijobiy natijalarga olib keladi. Shu sababli, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan harakatlar doimiy ravishda yangilanib, global tendensiyalarga moslashib borishi lozim.

Globalizatsiya jarayoni ta'lim tizimining barcha jabhalarini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Ta'lim sifatini oshirish va inson kapitalini shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatlarning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda.

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim tizimlarini rivojlantirish uchun bir qator strategik yo'nalishlarni amalga oshirish zarur:

1. Ta'lim dasturlarini yangilash: Mehnat bozori talablariga mos keluvchi mutaxassislar tayyorlash, jumladan, innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga keng joriy etish.

2. Xalqaro standartlarga moslashish: PISA, TIMSS kabi xalqaro baholash tizimlariga faol qo'shilish va tajribalarni o'zlashtirish.

3. Malakali kadrlar tayyorlash: Yumshoq ko'nikmalar va raqamli bilimlarni rivojlantirish orqali o'quvchilarning bozor talablariga moslashuvchanligini oshirish.

4. Innovatsion infratuzilmani yaratish: Raqamli ta'lim platformalari va zamonaviy laboratoriyalarni tashkil etish.

5. Davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish: Ta'lim sohasiga xususiy sektorning jalb qilinishini ta'minlash.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish ta'lim tizimining sifatini sezilarli darajada oshirib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Eng muhimi, ta'lim orqali shakllangan bilim va malakali inson kapitali har qanday davlatning eng qimmatli boyligi hisoblanadi. Shu sababli, globalizatsiya sharoitida ta'limga sarmoya kiritish bugungi va kelajakdagi muvaffaqiyatning asosiy garovidir.

Globallashuv jarayonida ta'lim sifatini oshirish va inson kapitalini bozor talablariga moslashtirish - bu o'zaro bog'liq va muhim vazifalar. Ta'lim tizimining sifatini oshirish, kasb-hunar va texnologik ta'limni rivojlantirish, raqamli iqtisodiyot va zamonaviy texnologiyalarni o'rgatish orqali jamiyatda malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlanadi. Bu esa nafaqat bozor talablariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlashni, balki iqtisodiy rivojlanishni va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashni ta'minlaydi. Globallashuv jarayonida ta'lim tizimini doimiy ravishda yangilab borish, inson kapitalini rivojlantirish va bozor ehtiyojlariga moslashtirish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Raximov, O. D. (2024). Globallashuv davrida ta'lim tizimi muammolari. *golden brain*, 2(5), 10-16.
2. Toqsanbayev, Q. (2024, June). Globallashuv va telekommunikatsiya texnologiyalari. in international scientific research conference (Vol. 3, No. 25, pp. 26-28).
3. Nuriddinovna, A. A. L. (2024). Ta'lim sifati menejmentini rivojlantirishda xalqaro modellar. zamonaviy dunyoning ijtimoiy manzarasi va jamiyat tuzilmalari transformatsiyasi, 1(1).
4. Ismatovich, X. U. (2023). Zamonaviy ta'limda elektron va raqamli ta'lim resurslarning o'rni. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(15), 149-153.

## MUSTAQILLIK YILLARDA O'ZBEK XONLIKLARINING TARIXINI O'RGANILISHI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston mustaqilligi yillarida o'zbek xonliklarining tarixini o'rganish jarayoni tahlil qilinadi. Mustaqillikdan so'ng o'zbek xonliklari o'zining madaniy etnik va tarixiy merosini tiklashda muhim qadamlar qo'ygan. Maqolada mustaqillik yillarida o'zbek xonliklarining o'z tarixi va madaniyatini tiklash va o'rganish yosh avlodga yetkazish yo'lidagi sa'y harakatlar ko'rib chiqiladi. Xususan Buxoro xonligi siyosiy tarixi haqida ham to'xtalib o'tilgan. Ushbu maqola o'zbek xonliklarining mustaqil O'zbekiston tarixida o'rni va roli haqida chuqur tasavvur hosil qilishga xizmat qiladi

**Kalit so'zlar:** Buxoro, Xiva, Qo'qon, o'zbek, manba, kitob, maqola, to'plam, hujjat, pul, manbashunoslik, tarixshunoslik, kemachilik, lavozim, xalq, soliq, xonadon, mustaqillik, madaniyat.

## ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ УЗБЕКСКИХ ХАНСТВ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

**Аннотация.** В данной статье анализируется процесс изучения истории узбекских ханств в годы независимости Узбекистана. После обретения независимости узбекские ханства предприняли важные шаги по восстановлению своего культурного, этнического и исторического наследия. В статье рассматриваются усилия узбекских ханств в годы независимости по восстановлению своей истории и культуры, передаче их знаний подрастающему поколению. В частности, обсуждалась и политическая история Бухарского ханства. Данная статья призвана создать глубокое понимание места и роли узбекских ханств в истории независимого Узбекистана.

**Ключевые слова:** Бухара, Хива, Кокан, Узбек, источник, книга, статья, сборник, документ, деньги, источниковедение, историография, судоходство, положение, народ, налог, хозяйство, независимость, культура.

## THE STUDY OF THE HISTORY OF THE UZBEK KHANATES IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

**Annotation.** This article analyzes the process of studying the history of the Uzbek khanates during the years of Uzbekistan's independence. After independence, the Uzbek khanates took important steps to restore their cultural, ethnic and historical heritage. The article examines the efforts of the Uzbek khanates during the years of independence to restore and teach the younger generation their history and culture. In particular, the political history of the Bukhara Khanate is also discussed. This article serves to create a deep understanding of the place and role of the Uzbek khanates in the history of independent Uzbekistan

**Keywords:** Bukhara, Khiva, Kokand, Uzbek, source, book, article, collection, document, money, source studies, historiography, shipping, position, people, tax, household, independence, culture.

**Kirish.** Xonliklar davri tarixi o'zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan davrlardan biri hisoblansa-da, Xiva, Buxoro va Qo'qon xonliklari tarixini o'rganish va o'qitishga yetarli darajada e'tibor berilmagan. Aksincha, xonlarning "qonxo'rliqi", "axmoqligi", mingboshi, qozilarning "axloqsizligi" haqida ertaklar to'qilgan ediki, xalqning tasavvurida ularga nisbatan nafrat hissi tarbiyalandi. Uchta xonlik o'rtasidagi nizolarni tahlil etish borasida kechgan voqealar bilan tanishtirishdan tashqari, ularning mohiyati, oqibatlaridan tegishli xulosa chiqarish

tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Biz tarixchi sifatida bu muammolarni hal qilishimiz zarur va shartdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Maqolada o'zbek xonliklarning mustaqillik yillarda o'rganilishi xususida va Buxoro xonligi tarixi haqida ham fikr yuritilgan. Xiva va Qo'qon xonliklarining o'rganilish hamda Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy tarixiy masalalari yoritilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy - mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tizimlilik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, unda o'zbek xonliklari tarixi manbalar asosida o'rganilib tahlil qilindi.

**Tadqiqot natijalari.** O'zbekiston mustaqillikka erishgach, o'zbek davlatchiligi tarixiga katta e'tibor qaratila boshlandi. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori o'zbek davlatchiligi tarixi muammosining maqsadli rivojlanishiga imkon yaratdi[1]. Respublikaning Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning bir guruh tarixchi olimlar bilan uchrashuvidagi tarix fani borasida bildirgan fikrlari o'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi konsepsiyasining yaratilishiga g'oyaviy asos bo'lib, unda "ilmiy nuqtai nazarga tayangan davlatchilik tarixini yaratish" asosiy maqsad sifatida belgilangan [2.29].

Mustaqillik yillarida o'zbek xonliklari tarixi yaxshi o'rganildi. Ma'lumki Buxoro xonligi tarixiga nazar tashlanganda, uch sulola hukmronligini ko'rish mumkin. Bular shayboniylar (XVI asr), ashtarxoniylar (yoki joniylar: XVII-XVIII asr o'rtalari) va mang'itlar hukmronligi davri. Mazkur sulolalar davlat tizimida umumiylik jihatlarini ko'rinsa-da, xonlikning siyosiy nufuzi, kuch-qudrati turlicha bo'lganligi sababli uning o'ziga xos jihatlarini e'tirof etish zarur [3.31]. Buxoro xonligi yohud amirligi O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan uchta yirik xonliklardan biridir. Buxoro hukmdorlari O'rta Osiyodagi boshqa hukmdorlarga nisbatan mashhur va qudratli edilar. Bunga asosiy sabab sifatida davlat boshqaruvi an'analari har bir hukmdor doimiy ravishda yangilab borganligi, xonlarning davlat boshqaruvidagi o'zni benihoya ulkanligi bilan baholanadi. Buxoro hukmdorlarining barchasi haqida ham bunday fikr bildirish to'g'ri deya olmaymiz albatta, ammo xonlik qudratini boshlab bergan hodisa ham, davlat taraqqiyotining asosi ham hukmdorning shaxsiy fazilati edi degan xulosaga kelish mumkin. Buning natijasida mamlakat siyosiy, harbiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalgan. Buxoro xonligi aholisining farovonligi oshgan. Abdullaxon II, Imomqulixon, Shohmurod, Amir Nasrulloh hukmronlik davrida boshqaruv, pul va harbiy sohalarda ko'plab islohotlar o'tkazdiki ular mamlakat taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Buxoro xonligini o'rganishda ko'plab tarixchi olimlar tadqiqot ishlari olib borishgan. Shayboniylar sulolasining yirik vakili Abdullaxon II (1557-1598) nafaqat butun Movarounnahrni balki Xurosonni ham poytaxt Buxoro atrofida birlashtirgan hukmdor sifatida tarixda iz qoldirdi. Uning boshqaruv davri temuriylardan keyin Movarounnahrda yuz bergan qisqa markazlashuv jarayonining rivojiga va nisbiy barqarorlikning qaror topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi[4.133]. Mustaqillik yillarida ushbu hukmdorni ko'plab tarixchilarning ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rishimiz mumkin. Masalan aynan A. Zamonov va H. To'rayev o'zlarining tadqiqotlarida ushbu hukmdor faoliyatiga doir yangiliklarni berib bormoqda. XVII asrda kelib, Buxoro xonligida sulolalar almashinuvini yuz berganligi, bu hodisa xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'sir ko'rsatib borgan. Ashtarxoni hukmdorlaridan bo'lgan Imomqulixon tarixi haqida ham ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Ayniqsa uning hukmronligi davrida mamlakatdagi Jo'ybor xo'jalarining va darvishlarning mavqeyi yuqori bo'lgan. Juda ko'p mol-mulk Jo'ybor xo'jalarining qo'lida bo'lgan. Imomqulixon saroyida olimlar va shoirlar to'plangan, uning o'zi ham she'rlar yozgan [5.48]. Imomqulixon hukmronligi davrida ko'plab harbiy yurishlar natijasida mamlakat sarhadlari kengaydi. Buxorolik tarixchi olim Sh. Hayitov ham Buxoro tarixining turli masalalari bo'yicha qator ilmiy nashrlar e'lon qilgan bo'lib, uning yozishicha, Imomqulixon musulmonlarning muqaddas shaharlari bo'lgan Madinada chorbog', Makka shahridagi Kabaga kiraverish darvozalaridan biri ostonasiga oltin va kumush tutquchli yog'och zina qurdirgan [6.81]. Imomqulixon umrining so'ngi yillarida ko'zi ojiz bo'lib qolganligi tufayli saroy amaldorlarining



28 qarshiligiga qaramay, ukasi Nadrmuhammad foydasiga taxtdan voz kechadi. O'zi esa haj amallarini bajarish niyatida safarga o'tlanadi. Umrining qolgan qismini Madinada o'tkazdi va shu yerda vafot etdi. Ashtarxoniylar sulolasining to'rtinchi vakili Nadrmuhammadxon Buxoroda uch yil hukmronlik qiladi, va uning davrida davlatchilik poydevorining yemirilishi, markaziy hokimiyatning zaiflashuv jarayoni boshlanadi [7.81]. Shu bilan xonlik taxtiga chiqqan hukmdorlarning hech biri markazlashtirish uchun islohotlar amalga oshirmadi.

Ashtarxoniylar sulolasi tugagandan so'ng taxtga yangi sulola mang'itlar hokimiyatga keladi. Shu suloladan boshlab, hukmdorlar o'zlarini xon emas amir sifatida e'lon qilishadi. Buxoro amirligi davrida ko'plab hukmdorlar hokimiyatga kelgan. Ular ichidan faqat sanoqlilarigina islohot o'tkazib, mamlakatni markazlashtirishga harakat qilgan. Amirlik davrida mamlakat hayotini islohotlar orqali o'zgartirishga harakat qilgan hukmdorlardan biri bu amir Shohmuroddir. E. Karimov, F. Sultonov va F. Bozorboyev kabi tadqiqotchi olimlarning izlanishlari va tadqiqotlari davomida ushbu hukmdor tarixi o'rganilib, tahlil qilindi. Ayniqsa buxorolik tarixchi olimlardan biri bo'lgan H. To'rayev izlanishlaridan ko'rishimiz mumkin. Amir Shohmurod davlat arbobi bo'lib, ilm ahllarini hurmatlab, ularga homiylik qilgan. So'fiy, podshoh Shohmurodning ba'zi bir qarashlari uning o'zi yozgan "Aynul-hikmat" "Bilimdonlik manbai" nomli kitobida ham o'z ifodasini topgan. Shohmurodning o'ta so'fiyligi uni qahrli, qattiqqo'l hukmdor bo'lishiga, mang'itlar sulolasining davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun birqancha islohotlarni amalga oshirishiga to'sqinlik qilmadi. Uning tomonidan o'tkazilgan harbiy, ma'muriy, moliyaviy islohotlar ko'p o'tmay o'z ijobiy natijasini berdi va mamlakat iqtisodiyotining o'nglanishiga xizmat qildi. Xarob holga kelgan madrasa hujralarining talabalarga xususiy qilib berilishi va ta'mirlash xarajatlarini ular zimmasiga yuklatilishi bilan madrasalar ikki yilda nochor ahvoldan chiqib oldi [4.185]. Mang'it amirlaridan mamlakatni markazlashtirgan hukmdorlaridan yana biri Amir Nasrullodir.

Amir Xaydardan so'ng Buxoro amirligi taxtini mang'itlar sulolasining keyingi vakili amir Nasrullo (1826-1860) egallaydi. Amir Nasrullo o'z hukmronligi davrida islom shariati ko'rsatmalariga qat'iy amal qilgan. Jasur va dovyurak bo'lganligi bois, uning ismiga «bahodir», «botir» unvonlari qo'shib ishlatilgan. Amir Nasrullo davlat hokimiyatini mustahkamlash maqsadida urug' va qavm boshliqlari bo'lgan ko'plab amaldorlarni quyi tabaqalardan chiqqan yosh va g'ayratli kishilar bilan almashtirdi. Tarixchi va sayohatchilarning ma'lumotlariga qaraganda, amir Nasrullo hukmdor sifatida davlatning ichki va tashqi dushmanlariga zarba berdi. Uning tomonidan olib borilgan harbiy-siyosiy islohotlar natijasida davlatning harbiy qudrati mustahkamlana bordi. Amir Nasrullo Xiva va Qo'qon xonliklarini Buxoro atrofida birlashtirishga urindi. Mamlakatning hududiy yaxlitligini tiklash uchun Qo'qon xonlari tomonidan tortib olingan Xo'jand, O'ratepa, Toshkent, Jizzax va Zominni Buxoro amirligiga qaytardi. Amir Nasrullo Buxoro davlatida qat'iy markazlashtirish siyosatini olib bordi. Markaziy hokimiyatga bo'ysunishni istamagan Shahrisabz va Kitob bekliklarining qarshiligini sindirib, ayirmachiliklarga barham berdi. Amir o'z siyosatida butun Movarounnahr va Xorazmni yagona davlatga birlashtirishga intildi [4.187].

Buxoro hukmdorlari, ularning tarixiy shaxsiga baho berish maqsadida ular haqida bugungi kunga ham ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Chunki mustamlaka davri adabiyotlarida Buxoro hukmdorlari shaxsi qora bo'yoqlar orqali faqatgina tanqid ostiga olinib, go'yoki ular hech qanday tadbirni amalga oshira olmaydigan kaltabin, qonxo'r hukmdor sifatida tasvirlangan. Aslida ham sobiq sovet tuzumining tarixni qora ranglarda tasvirlashdan maqsadi ham, millatni o'zligini yo'qotish, uning ajdodlariga bo'lgan mehrini so'ndirishdan iborat edi. Buxoro xonligi tarixi bo'yicha 1920-yilgacha yozilgan asar va maqolalarda, garchi bir tomonlama fikr va mulohazalar bildirilganligi, hamda o'sha davr Rossiya imperiyasi istilochilik kayfiyatini aks ettirgan bo'lishiga qaramay, mavzuni o'rganish borasidagi ahamiyati kattadir. Zero, tarixning jonli guvohi sifatida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda bevosita ishtirok etgan mualliflar asarlari Buxoro xonligi tarixi haqida ayrim qimmatli ma'lumotlar bera oladi.

O'rta Osiyoda joylashgan yana bir o'zbek xonliklaridan biri Xiva xonligidir. Mustaqillik sharofati bilan Xiva xonligi tarixi ham o'rganila boshlandi. Mustaqillikdan keyin nashr qilingan

qator to'plamlarda xonlik tarixshunosligiga oid maqolalar o'rin olgan. Jumladan, "O'zbekistonda tarix fani: yutuqlar va rivojlanish muammolari" to'plamida O.G. Pugovkina, U.A. Abdurasulov, M.U. Qayumovlar tomonidan Xiva xonligining Qo'ng'irotlar sulolasi davri tarixining tarixshunoslikdagi talqini, Rossiya tarixshunosligida Xivaga yurishning yoritilish masalalari yangicha yondashuvlar asosida talqin qilindi.

E. Karimovning Xiva qozilik hujjatlari va xon yorliqlari tavsifi nomli asarida ham muhim ma'lumotlar mavjud [7.150]. Shuningdek G.A. Ahmadjonovning tadqiqotlari mazmuni Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosati tarixi va tarixshunosligiga bag'ishlangan bo'lib, ushbu tadqiqotlar o'rganilayotgan muammoni tahlil etishda nazariy asos bo'la oladi [8.100].

Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlarga oid O.Qo'shjonov va N. Polvonov monografiyasining birinchi bobida Xiva xonligi tarixining so'nggi davri manbashunosligi va tarixshunosligi xususida so'z yuritilgan. Xususan birinchi davr adabiyotlarida XIX asr so'nggi choragidan mustaqillik yillarigacha – 1991-yilga qadar olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy izlanishlar, chop etilgan adabiyotlar kiradi. Ikkinchi davr adabiyotlarini mustaqillik yillarida olib borilgan ilmiy izlanishlar, chop etilgan adabiyot va risolalar tashkil etadi [9.10].

Xiva xonligida davlat boshqaruv tizimi, mavjud amal va unvonlar va ularning egalari haqida mustaqillik davri tadqiqotchilaridan M. Matniyozov, A. Sotliqov, Q. Munirov, Davlatyor Raxim, Shihnazar Matrasul, Sh. Vohidov, N. Polvonov, S. Soburovalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Tadqiqotchi S. Soburova o'zining nomzodlik dissertatsiyasida xonlikdagi amal va unvonlarning to'liq nomlarini, ularning ma'nosi, amaldorlarning shaxsi va ularga to'lanadigan maosh xususida fikr yuritgan [10.102]. Mustaqillik davri tadqiqotchilari tomonidan Xiva xonligi tarixining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga oid keng ma'lumotlar taqdim qilingan bo'lib, ularni o'rganish va tahlil qilish tarixshunoslar oldiga katta vazifa qo'yadi.

Mustaqillik yillarida Qo'qon xonligi tarixini o'rganish uchun keng imkoniyatlar ochildi. Ilmiy jurnallarda va ilmiy-nazariy konferensiyalarda xonlik tarixiga oid yuzlab ilmiy maqolalar e'lon qilindi. H. Bobobekov, Sh. Vohidov, Y. Qosimov kabi tarixchilarning asarlari nashr etilib, keng kitobxonlar ommasiga taqdim etildi. Ustoz tarixchilarning izidan borgan bir necha yosh tarixchilar esa Qo'qon xonligi tarixi bo'yicha tadqiqod ishlarini olib bordilar. Tez orada bu yosh tadqiqodchilarning izlanishlari o'z natijasini berdi. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun 2004-yilda Z. A. Ilhomov "Aliquli amirlashkar va uning Qo'qon xonligi siyosiy hayotida tutgan o'rni" mavzusida, 2006- yilda B. Ya. Tursunov "Qo'qon xonligida harbiy ish va qo'shin: holati, boshqaruvi, an'analari" mavzusida, Sh. Yu. Mahmudov 2007-yilda "Qo'qon xonligining ma'muriy-boshqaruv tizimi mavzusida, Z. Sh. Madrahimov 2009-yilda "Qo'qon xonligida savdo munosabatlari" mavzusida, Sh. T. Qo'ldoshev 2009-yilda "Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy madaniy aloqalar (XVIII-XIX asrning birinchi yarmi) mavzusida dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildilar [11.35]. Mustaqillik yillarida xonlik davri tarixini o'rganishga alohida e'tibor berildi. Qo'qon xonligi tarixiga oid muhim asarlardan biri 1994-yili Namanganda nashr etilgan. Bu asar tarix fanlari nomzodi, dotsent Y. Qosimov qalamiga mansub bo'lib, "Qo'qon xonligi tarixi ocherklari" deb nomlanadi. Asar ikki bobdan iborat: birinchi bobda xonlikning aholisi, hududi, davlat tuzilishi, yer-suv munosabatlari, hunarmandchilik, savdo, shaharlar, qo'shin tuzilishi, Qo'qon-Buxoro, Qo'qon-Rossiya munosabatlari, madaniy hayot haqida ma'lumotlar mavjud. Ikkinchi bobda esa xalq harakatlari, xususan, Po'latxon qo'zg'oloni, Qo'qon xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi bayon qilinadi [11.10]. Mustaqillik yillarida Qo'qon xonligi tarixiga oid ilmiy izlanishlar katta mehnatlar evaziga ortib bordi. 2007-yili yana bir tarixchi N. Topildiyevning "Qo'qon xonligining Rossiya bilan diplomatik aloqalari tarixidan (XIX asr - 1876-yilgacha)" asari "Fan" nashriyotida chop etildi. Nomidan ko'rinib turibdiki, asarda Rossiya-Qo'qon aloqalari haqida bayon etilgan. Savdo munosabatlari haqida Z. Sh. Madrahimovning tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozgan "Qo'qon xonligida savdo munosabatlari" mavzusidagi dissertatsiyasi (2009-y.) Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda xonlikdagi savdo-iqtisodiyot markazlari va ularning iqtisodiy hayot rivojida

30 tutgan o'zni, ichki savdo, xonlikning tashqi iqtisodiy aloqalarida savdoning tutgan o'zni, uning muhim yo'nalishlari, Qo'qon xonligining Buxoro va Xiva xonliklari bilan savdo aloqalarining asosiy jihatlari, bozorlar, karvonsaroylar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, bojxona ishi, savdo soliqlarining asosiy jihatlari, bozor infrastrukturasini hamda vaqf instituti aloqalarining harakterli xususiyatlarini yoritgan [11.11].

Z. Madrahimov va I. Omonov ham birgalikda tadqiqotlar olib borishdi ular "Qo'qon xoni Umarxon – savdo sotiq homiysi" nomli maqolalarida ushbu hukmdorning davrida mamlakat qanday taraqqiy topganligi xususida to'xtalib o'tilgan [12.24]. Mashhur yana bir tarixchi olimlardan biri bu Shodmon Vohidovdir. Aynan ushbu tarixchi olim Qo'qon xonligi to'g'risida ko'plab tadqiqot ishlari olib borgan. Aynan Shodmon Vohidovning "Qo'qon xonligi manbalarda" asarida Qo'qon xonligidagi siyosiy jarayonlar, xonlikdagi tarixnavislik, Qo'qon xonligi tarixchilari va ularning asarlari haqida ma'lumot berilgan [13.6] Shuningdek, mustaqillik yillarida Qo'qon tarixnavislik maktabi vakillari tomonidan yaratilgan xonlik tarixiga oid bir nechta asarlar o'zbek tiliga tarjima qilindi va chop etildi.

**Xulosa.** Umuman olganda, O'rta Osiyoning uchta xonlik davri tarixi O'zbekiston tarixining o'ziga xos bir qismi bo'lib, uni yoritishda puxta bilim va pedagogik mahoratga ega bo'lish lozim. Ushbu mavzu talabalarining O'zbekiston tarixiga doir bilimlarni oshirish, o'z yurtiga bo'lgan muhabbat va Vataniga sadoqat tuyg'ularini shakllantirishga katta ahamiyatga ega. Milliy davlatchilik qaror topayotgan tarixiy davrda mamlakatimizda tarixshunoslik va manbashunoslik sohalarida rivojlanish kuzatilmoqda. Natijada ko'plab manbalar o'rganilib, ilmiy jihatdan tadqiq qilinmoqda. Mustaqillik davri tadqiqotchilari tomonidan xonliklarda kechgan siyosiy jarayonlar va islohotlar, madaniyat, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo, xonliklarning xorijiy davlatlar bilan olib borgan diplomatik munosabatlari, shaharsozlik va davlatchilik tarixiga oid keng doiradagi ma'lumotlar ilmiy muomalaga kiritildi. Ushbu masalalar yuzasidan risola va maqolalar nashr etildi, nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Uchta xonlik o'rtasidagi nizolarni tahlil etish va ularning mohiyati, oqibatlaridan tegishli xulosa chiqarish tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Zero, mamlakatning, xalqning mustahkamligi, avvalo uning ahilligidadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish "To'g'risida"gi qarori. - 1998 yil, 28 iyul.
2. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q – Toshkent. 1995. B-31.
3. Abdurahimova N.A. Isakova M. S. Suleymanova Z. M. Davlat muassasalari tarixi – Toshkent. 2007. B 128.
4. To'rayev H. Buxoro tarixi – Buxoro. 2020. B-316
5. Sultonov F. Bozorboyev F. O'zbekiston hukmdorlari – Toshkent. 2007 B- 88.
6. O'tayeva F. Ashtarxoniylar hukmdorlari boshqaruv faoliyati mustaqillik yillaridagi matbuot talqinida// Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi, 2021 B-303
7. Каримов Э.Э. Регесты казийских документов и ханских ярлыков Хивинских ханов XVII – начала XX в. – Т.: Фан, 2007. – 224 с.
8. Ахмеджанов Г.А. Советская историография присоединения Средней Азии к России. – Ташкент, 1989. – 156 с.
9. Qo'shjonov O. Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va – Toshkent, 2007. – B-387.
10. Soburova S XIX asr va XX asr boshlarida Xiva xonligining davlat tizimi Tarix fan. Nomz.... diss. – Toshkent. 2002. B- 207.
11. Kuzikulov I. Qo'qon xonligi tarixi – Namangan. 2014. B-83.
12. Madrahimov Z. Omonov I. Qo'qon xoni Umarxon – savdo-sotiq homiysi// O'zMU xabarlari, 2016 B-168
13. Vohidov Sh. Qo'qon xonligi manbalarda - Guliston, B-1493

## XI-XII ASARLARDA MAHALLIY SULOLALAR O'RTASIDAGI MUNOSABATLARDA BUXORONING TUTGAN O'RNI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'rta asrlarda strategik ahamiyatga ega bo'lgan Buxoroning Somoniylar hukmronligidan keyingi taqdiri haqida, o'zaro Qoraxoniylar, Qoraxitoylar va Xorazmshohlar urushlarida Buxoroning o'rtadagi nufuzi haqida ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Xorazmshohlar, Xuroson, Buxoro, Qoraxoniylar, Qoraxitoylar, Otsiz, Elarslon, Takash, Ibn Al-Asir, Burhoniddin, sadr, Xusomiddin Umar, Sulton Sanjar, Movarounnahr, G'iyosiddin, Balx, Samarqand.

## XI-XII ВЕКАХ РОЛЬ БУХАРЫ В ОТНОШЕНИЯХ МЕЖДУ МЕСТНЫМИ ДИНАСТИЯМИ

**Аннотация.** В данной статье проводится научный анализ судьбы Бухары, имевшей стратегическое значение в Средние века, после правления Саманидов, а также её влияния в войнах между Караханидами, Каракитаи и Хорезмшахами.

**Ключевые слова:** Хорезмшахи, Хорасан, Бухара, Караханиды, Каракитаи, Оциз, Эларслан, Текеш, Ибн аль-Асир, Бурханиддин, садр, Хусамиддин Умар, Султан Санджар, Мавераннахр, Гийасиддин, Балх, Самарканд.

## BUKHARA'S ROLE IN RELATIONS BETWEEN LOCAL DYNASTIES IN WORKS XI- XII

**Annotation.** This article scientifically analyzes the fate of Bukhara, which was of strategic importance in the Middle Ages, after the Samanid rule, and the influence of Bukhara in the wars between the Karakhanids, Karakhitai, and Khorezmshahs.

**Keywords:** Khorezmshahs, Khorasan, Bukhara, Karakhanids, Karakhitai, Atsiz, Elarслан, Takash, Ibn Al-Asir, Burkhaniddin, Sadr, Khusamiddin Umar, Sultan Sanjar, Movaraunnahr, Ghiyosiddin, Balkh, Samarkand.

**Kirish.** Biz vatanimiz tarixini chuqur o'rganib, ajdodlarimizga munosib bo'lishimiz lozim. Shu o'rinda, O'rta Osiyoning eng qadimiy shaharlardan biri Buxoroning tarixiy o'tmishini o'rganish, uning XI-XII asrlar sulolalar o'rtasida qanday nufuzga ega ekanligini keng ommaga yoyish hozirgi kunda yangi bir bosqichga ko'tarilib bormoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Mazkur maqolada Василий Владимирович Бартольд. Сочинения. Том I. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Москва. 1963. – 763-betlik kitobi asosida, Buxoroning XI-XII asrlar mahalliy sulolalar o'rtasida tutgan o'rni masalalari yoritilgan.

**Muhokama.** Malikshoh Xurosondan Buxoroga kelib, bir hamla bilan shaharni oldi. Samarqand hokimi Muhammad (ibn) Sulaymon isyon va tug'yon damini urdi va bu voqea besh yuz yigirma to'rtinchi (1129-1130) yilda sodir bo'ldi. Qamal muddati cho'zilib ketgach, xalq vabo va ochlikdan qirila boshladi. Muhammad ibn Sulaymon chor-nochor omonlik surab, shahardan tashqari chiqdi. Sulton Samarqandni o'zining g'ulomlaridan biriga berib, uni (Muhammad ibn Sulaymonni) o'zi bilan Xurosonga olib ketdi. Bir qancha muddatdan so'ng, Malikshohning roziligi bilan ul mamlakat hukumati yana Muhammad Sulaymonga taalluqli bo'ldi. Olamning obodon



32 joylarining katta qismi Sulton Sanjar noiblarining qo'l ostiga o'tib, chor atrof maliklari uning hukm chizig'iga boshlarini qo'yishgach, uning farmoni olamning sharqu g'arbiga joriy bo'ldi.

Amirlar va arkoni davlat mamlakat kengligi va ne'matlar ko'pligidan o'z dimog'larida g'urur va kibru havoga berilib, intizomsizlik sodir eta boshladilar. Mulk ahvolidagi bu beqarorliklar sultonning Samarqandga o'tlanish sabablaridan biri bo'ldi. U vaqtda Movarounnahr hokimi Ahmadxon bo'lib, uning o'n ikki ming zarxarid quli bor edi. U falaj kasaliga chalingan bo'lsada, sulton kelayotgani xabaridan voqif bo'lgach, qal'adorlik ishlariga mashg'ul bo'ldi. Olti oydan so'ng qal'ani ishg'ol qilishdi va Ahmadxonni zambilga solib, sultonning oldiga keltirishdi. Uning og'zi qiyshayib, so'lagi oqar, chunonchi, so'zlashga quvvati yo'q edi. Ahmadxonning holi sahifasiga ma'zul raqamini chekib, ul diyorni o'g'li Nasrxonga berdi. Uni Xurosonga olib ketib, so'ngra yana Movarounnahrqa qaytardi. Shamsobod butunlay vayron bo'lgani tufayli, Ahmadxon o'zi uchun Jo'yborda saroy bino qilishni buyurdi. O'ttiz yil mobaynida bu saroy Buxoroning dorulmulki edi. Arslonxon akasi To'g'onxondan so'ng uning Buxorodagi qoyimmaqomi bo'lgach, saltanat markazini ushbu saroyga ko'chirdi va uning laqabi "sharaf ud-davla" bo'ldi. Qachonki Buxoroda bo'lsa, ushbu saroyda istiqomat qilardi. So'ngroq ul saroyini hisor (ark)ga ko'chirib o'tkazdi va ul mavze xarob bo'ldi. Arslonxon Buxoro hisorini obod qilishga buyurdi va imoratlar qurishdi. Xon o'z qarorgohini shu yerga o'rnatdi va yirik bir amirini shart-sharoitiga qarab turishi uchun bu hisorga kutvol etib tayinladi. Xaloyiqning bu hisorga nisbatan extiromi baland edi. 1139-1140-yilda Xorazmshoh Buxoroga kelganida. Alloh uning dalilini munavvar qilgur Sulton Sanjarning farmoniga ko'ra, Amir Zangi Ali Buxoro hokimi edi. Xorazmshoh uni qo'lga olib, qatl etdi va hisorni vayron qildi. Ikki yildan ziyodroq vayrona holida yotdi. Besh yuz oltmish oltinchi (1170-1171) yilda Alptegin go'rxon tarafidan Buxoroga voliy etib tayinlandi va shu yildayoq (go'rxon) hisorni obod qilishni buyurdi. Go'rxon tarafidan arkning ta'mir qilinishi hisob jihatidan to'rtinchi ta'mir bo'lib, o'z saltanati qarorgohini shu yerga o'rnatdi. Hisor oldingidan ham ko'rkamroq bo'lib qoldi. Besh yuz uttiz sakkizinchi yilning ramazon oyida (1144 mart-aprel) g'uz askarlari Buxoroga yetib. Ayn ud-davla Qarochabek va Shahobiddin dasturni o'ldirishdi hamda hisorni oldingidek xarob etishdi.

Hijriy 534-yil, milodiy 1139-1140-yillarda Otsiz Buxoroga hujum qiladi va shahar noibi Zan ibn alini asirga olib qatl etadi hamda Arkni buzdirib yuboradi. 1141-yilda Movarounnahrda odatiy toj-u taxt uchun kurash boshlanadi Mahmudxon qarluqlarga qarshi Sulton Sanjarni yordamga chaqiradi va iyulda Saljuqiylar qo'shinlari mamlakatga kiradi. Qarluqlar yordamga Qoraxitoylar hukmdori G'o'rxonga murojaat qilishadi, bu paytda u Bolasog'unda xonni himoya qilayotgan edi, shundan so'ng u qarluqlar to'lqinini qabul qildi va Sulton Sanjarga qarshi kurashdi butun davlat Qoraxitoylarga bo'ysunadi. Shu bilan birgalikda ular hijriy 536-yil milodiy 1141-1142-yillarda Buxoroni ham egallashadi bu paytda Buxoro avloddan-avlodga o'tuvchi shahar raislari qo'lida edi bular o'zlarining asoschilari nomi bilan Burxonlar deb atalar edi. Kitobi mullazoda asarini muallifining yozishicha bu raislar Dunyo saidlari unvonini olishgan, "Salla kiyib yuruvchilar ahlidan", ruhoniylardan bo'lishgan. Shunday bo'lsada toju-taxt egalari ularning darvozalardan panoh istashgan sulola asoschisi edilar. Buyuk sadr Burhon al millat vad-din "Jamova va e'tiqod dalolatchisi", Abdal-aziz bin umar "ikkinchi no'mon" (Abu Hanifa) "Go'yolar dengizi" nomlarini olgan bo'lib xalifa Umar avlodidan sanalgan bu haqida tarixchi Abul Hasan Bayhaqiy (1123-yil avgustda vafot etgan) aytib o'tgan. Qoraxitoylar hujumi paytida Buxoroda Sadr Abdal-azizning o'g'li Xusomiddin Umar edi. Buxorodagi qarshilik harakatida kuchlar notengligi bois Sadr o'ldirildi shundan so'ng Qoraxitoylar Buxoroga Alpteginni hukmdor qilib qo'yishdi. 1143-1144-yillarda Sulton Sanjar Otsizni mag'lub etish va Marvdagi jangda yo'qotgan xazinalarini qaytarib olish uchun Xorazmga yurish qiladi ushbu yurish bilan bog'liq holda o'zlarining Buxoroga muvvafoqiyatli yurishi bo'lib o'tadi Ark qal'asi vayron etiladi.

Qoraxoniylar xoni Qoraxitoylar xonidan o'z qo'shinlarini Samarqand va Buxorodan Qashqarga chiqarib yuborishni talab qiladi xon ularga Qashqardagi Qoraxitoylarning qurollarini tashlab avvalgiday, dehqonchilik va shu kabi boshqa mehnat turlari bilan shug'ullanishni oddiy turmush tarziga qaytishni istardi xon Qarluqlarga bu murojaatni yo'llaydi va uning bajarilishini talab qiladi, bunga javoban qarluqlar qo'zg'olon qilishadi va qoraxitoylar qo'shini bilan birlashib Buxoroga yurish qilishadi. Buxorolik rais 1141-yilda o'ldirilgan Umarning o'g'li Muhammad

xonga bu yurish haqida xabar beradi va qarluqlar qo'shini yetib kelib shaharni bo'shatishdan oldin tezda qo'shin yuborishni so'raydi.

Hijriy 558-yil Milodiy 1163-yilda tangalarning guvohlik berishicha Qoraxoniylar taxtiga Qutlug' bega bek va "Yerdagi tinchlik va iymon ustini", nomini olgan Abul Muzaffar Qilich tamg'achxon Ma'sud ibn ali keladi u, Hijriy 560-yil Milodiy 1165-yilda Buxoro devorini qayta tiklaydi va poydevorini pishgan g'ishtdan barpo etadi bu qurilish uchun u o'g'uzlar tomonidan vayron etilgan Buxoro arkining poydevori va minorasidan qolgan pishiq g'ishtlardan foydalanadi 1182-yilning noyabrida yozilgan maktubdan anglanishicha bu Turkistonda xorazmshoh Takash huzuriga ko'plab qipchoqlar otryadlari kelib qo'shiladi ularning, Movarounnahrda yurishi haqida to'xtaladigan bo'lsak bu haqida ma'lumot beruvchi Buxoroda xorazmshoh Takash tomonidan yozilgan Xorazmga o'z vaziriga yuborgan maktubini keltirib o'tishimiz mumkin. Amudaryoni kesib o'tib, xorazmshoh Buxoroga o'z otryadini yuboradi harbiylarga shaharning tinch aholisini xafa qilmaslik ularga hujum qilmaslikni buyuradi ammo shaharning zolimlar to'dasi va ba'zi bir muridlar ularga qarshilik qilishadi xorazmshohning rahm-shavqatliligi sababli u uzoq vaqt davomida bu qarshilik harakatlarini ko'ndirishga harakat qiladi, lekin bu foyda bermaydi.

Burhoniddin esa sadr etib tayinlanadi va xutbada xalifadan so'ng Sultonning ismini aytish kerakligini aytib o'tadi. Ko'plab tarixchilarni yozishicha 1183-yilda qipchoqlar Buxoroga kelib o'rtnashib olishadi va shu paytda Xorazmshoh Takash Buxoroga yurish qiladi va bu yerda hukmronligini o'rnatadi bu voqealar bo'lgan paytda Sultonshoh vafot etib Malikshoh esa Janddan chiqib ketgan edi. Bu Buxoroga yurishlar va ularning sabablari haqida faqatgina tarixchi Ibn Al-Asirdan ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin uning yozishicha XII asrlarga kelib Qoraxitoylar Xorazmshohlar poytaxtini ancha vaqt qamal qilishadi lekin biror bir natijaga erisha olmaydilar garchi ularga yordamga juda ko'p kuchlar kelib qo'shilgan bo'lsada, shundan so'ng qoraxitoylar qo'shini orqaga chekinadi va endi Xorazmshohlar qo'shini ularni ortidan taqib qilib Buxoroni egallashga harakat qiladi.

**Natija.** Buxoro shahri aholisi qoraxitoylarga ishonch bildirishadi va Xorazmshohlar qo'shiniga qarshi qat'iy kurash olib borishadi ish shu darajaga borib ketadiki, Buxoroliklar bir ko'zi ko'r otni olib unga bir qalpoq va kiyim kiydirib shahar devori bo'ylab olib yurishadi va shu otni Xorazmshoh deb atashadi (buning sababi Takashning bir ko'zi ko'rmas edi), shundan so'ng ular snaryad (uzoq masofaga o'q otadigan qurol) o'tni qo'shib dushman harbiy qarorgohiga o'tishadi va baland ovozda "manashu sizning sultoninggiz" deb baqirishadi. Xorazmshohlar qo'shini buxoroliklarning bu qilgan ishlardan keyin ularni "dindan qaytgan murtidlar" deb atashadi. Va nihoyat ko'p o'tmay shahar Xorazmshohlar tomonidan egallanadi. Buxoro aholisining Takashga qilgan yomon xatti-harakatlariga qaramasdan, Takash ular bilan yaxshi muomilada bo'ladi va hatto ularga ko'p xayr-ehsonlar tarqatadi va biroz vaqtdan so'ng Xorazmga qaytib ketadi.

**Xulosa.** Bu davrda boshqa shaharlar kabi o'zining o'rta asrlardagi o'tmishi davomida Buxoro zaminida ko'pdan ko'p urushlar, isyon va qo'zg'olonlarning shohidi bo'ldi, hokimiyatni amalga oshirgan sulolalar o'rtasidagi to'qnashuvlar, toju taxt uchun olib borilgan kurashlar oxir-oqibatda xalqning boshiga og'ir musibatlar olib keldi, uning hayoti va turmush tarzida qiyinchiliklar to'xtovsiz sodir bo'lib turdi. Xalqimiz o'tmishining ajralmas qismi bo'lmish Buxoro tarixi shukuhli va muborak kunlar bilan bir qatorda juda og'ir va musibatli damlarga ham guvoh bo'ldi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Василий Владимирович Бартольд. Сочинения. Том I. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Москва. 1963
2. Василий Владимирович Бартольд. История Туркестана. Т. 1922
3. Фазлуллах Рашид-ад-Дин. Джами-ат-таварих. Б.: Нагыл Еви, 2011
4. Ибн Ал-Асир. Ал-каmil фи-т-та'рих. (Полный свод истории). -Т.: Цюрих, 2005
5. Barakayev J, Haydarov Y. Buxoro tarixi. -Т.: "O'qituvchi", 1991
6. Ремпел Л.И. Далекое и близкое. Бухарские записи. -Ташкент., Литературы и искусства, 1981

# ANIQ FANLAR

**Qurbonov G‘ulomjon G‘afurovich**  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
matematika va informatika kafedrası  
dotsenti,  
[gulomjonqurbonov0880@gmail.com](mailto:gulomjonqurbonov0880@gmail.com)

**Shodmonova Nozima Ro‘zimurod qizi**  
**Buxoro davlat pedagogika instituti**  
3-bosqich talabasi  
[nozimashodmonova48@gmail.com](mailto:nozimashodmonova48@gmail.com)

## HOSILA VA UNING TADBIQLARINI O‘QITISHDA KASBIY MAZMUNLI MASALALARNING O‘RNI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada akademik litsey va kasb-hunar kollejlari algebra va matematik analiz asoslari kursida funksiyaning hosilasi va uning tadbiqlari bo‘yicha o‘quv materiallarini yoritishda qo‘llaniladigan metodlar, shuningdek, kasbiy mazmunli masalalarga misollar keltirish bu mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish hamda uzviylikni o‘rnatishdan iborat.

**Kalit so‘zlar:** hosila, tezlik, moment, orttirma, limit, argument. funksiya orttirmasi, hosilaning geometrik ma‘nosi, egri chiziq, argument.

## РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНО ЗНАЧИМЫХ ВОПРОСОВ В ОБУЧЕНИИ ПРОДУКТУ И ЕГО ПРИМЕНЕНИЮ

**Аннотация.** В данной статье использованы методы освещения учебного материала по производной функции и ее применениям в курсе основ алгебры и математического анализа в академических лицеях и профессиональных колледжах, а также приводятся примеры вопросов профессионального содержания. , будет использоваться учащимися по данной теме, состоит из организации самостоятельной работы и установления единства.

**Ключевые слова:** производная, скорость, момент, приращение, предел, аргумент. сложение функции, геометрический смысл производной, кривая, аргумент.

## THE ROLE OF PROFESSIONAL MEANINGFUL ISSUES IN TEACHING THE PRODUCT AND ITS APPLICATIONS

**Annotation.** In this article, the methods used in covering educational materials on the derivative of a function and its applications in the course of the basics of algebra and mathematical analysis of academic lyceums and vocational colleges, as well as giving examples of issues of professional content, will be used by students on this topic. consists of organizing independent work and establishing unity.

**Key words:** derivative, speed, moment, increment, limit, argument. addition of a function, geometric meaning of the derivative, curve, argument.

**Hosila tushunchasi.** Jism to‘g‘ri chiziqli harakat qilganda uning tezligini hisoblash. Aytaylik jism to‘g‘ri chiziqli harakat qilayotgan bo‘lsin. Ravshanki vaqtning har bir paytiga o‘tilgan yo‘lning belgisi, tayin qiymati mos kelib, yo‘l vaqtning funksiyasi bo‘ladi, ya‘ni

$$S = f(t) \quad (1)$$

ammo bu moslik turli harakatda turlichadir; bir jism tezroq harakatlansa, ikkinchi bir jism sekinroq harakatlanishi mumkin; bir jism bir xil vaqt oraliqlarida bir xil masofani bosib o‘tsa, ikkinchi bir jism bir xil vaqt oraliqlarida turlicha masofani bosib o‘tishi mumkin [1].

Harakatni xarakterlash uchun *tezlik* deb ataluvchi fizik miqdor kiritiladi.

O'tilgan yo'lining shu yo'lni o'tish uchun ketgan vaqtga nisbati jism harakatining *o'rtacha tezligi* deyiladi.

Agar  $t_2 - t_1 = \Delta t$  vaqt oralig'ida jism  $\Delta S$  yo'l o'tsa, u holda jism harakatining o'rtacha tezligi:

$$v_{o'rt} = \frac{\Delta S}{\Delta t} \quad (2)$$

Jism tekis harakat qilganda uning o'tgan  $S(m)$  yo'li

$$S = v \cdot t(m)$$

Formula bilan ifodalanadi. Bu holda jism bir xil vaqt oraliqlarida bir xil masofa bosib o'tadi. Masalan: birinchi sekund davomida  $S(1) = v(1) = v(m)$ , birinchi sekunddan ikkinchi sekundgacha  $S(2) - S(1) = 2v - v = v(m)$  va hokazo yo'l bosib o'tadi [2].

O'rtacha tezlik  $M$  nuqta harakatining  $t$  momentdagi tezligini hamma holda ham aniq xarakterlayvermaydi. Masalan, jism  $\Delta t$  oraliqning boshida juda tez, oxirida esa juda sekin harakatlangan bo'lsa, u holda o'rtacha tezlik nuqta harakatining ko'rsatilgan xususiyatlarini aks ettira olmasligi va bizga nuqta harakatining  $t$  momentdagi haqiqiy tezligi haqida tasavvur bera olmasligi ravshan. Bu haqiqiy tezlikni o'rtacha tezlik yordami bilan aniqroq ifodalash uchun  $\Delta t$  kichik vaqt oralig'ini olish kerak. Nuqta harakatining  $t$  momentdagi tezligini  $\Delta t \rightarrow 0$  dagi o'rtacha tezlikning intilgan limiti to'la xarakterlaydi. Bu limit harakatning berilgan momentdagi tezligi deyiladi [3]:

$$v(t) = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{\Delta S}{\Delta t} \quad (3)$$

Shunday qilib, vaqt orttirmasi  $\Delta t$  nolga intilgan holda yo'l orttirmasi  $\Delta S$  ning vaqt orttirmasi  $\Delta t$  ga nisbatining limiti harakatning berilgan momentdagi tezligi deyiladi. Biz (3) tenglikni yoyilgan shaklda yozamiz. Masofaning orttirmasi  $\Delta S = f(t + \Delta t) - f(t)$  bo'lgani uchun

$$v = \lim_{\Delta t \rightarrow 0} \frac{f(t + \Delta t) - f(t)}{\Delta t}$$

Buning o'zi notekis harakatning tezligi bo'ladi. Shunday qilib, notekis harakat tezligi tushunchasi limit tushunchasi bilan uzviy ravishda bog'langanligini ko'ramiz. Faqat limit tushunchasi yordami bilan notekis harakat tezligini topish mumkin [4].

**Hosilaning ta'rifi:** Biror oraliqda aniqlangan  $y = f(x)$  (1) funksiyaga  $x$  argumentning shu oraliqdagi har bir qiymatida  $y = f(x)$  funksiya ma'lum qiymatga ega. Argument  $x$  biror (musbat yoki manfiy)  $\Delta x$  orttirmani olsin. U vaqtda  $y$  funksiya biror  $\Delta y$  orttirmani oladi. Shunday qilib: argumentning  $x$  qiymatida  $y = f(x)$  ga, argumentning  $x + \Delta x$  qiymatida  $y + \Delta y = f(x + \Delta x)$  ga ega bo'lamiz. Funksiyaning orttirmasi  $\Delta y$  ni topamiz:  $\Delta y = f(x + \Delta x) - f(x)$ . Funksiya orttirmasining argument orttirmasiga nisbatini tuzamiz:

$$\frac{\Delta y}{\Delta x} = \frac{f(x + \Delta x) - f(x)}{\Delta x}$$

Bu nisbatning  $\Delta x \rightarrow 0$  dagi limitini topamiz. Agar bu limit mavjud bo'lsa, u berilgan  $(x)$  funksiyaning *hosilasi* deyiladi va  $f'(x)$  bilan belgilanadi. Shunday qilib, ta'rifga ko'ra,  $f'(x) =$

$$\lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x}$$

yoki

$$f'(x) = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{f(x + \Delta x) - f(x)}{\Delta x}$$

Demak, berilgan  $y = f(x)$  funksiyaning argument  $x$  bo'yicha hosilasi deb, argument orttirmasi  $\Delta x$  ixtiyoriy ravishda nolga intilgan holda funksiya orttirmasi  $\Delta y$  ning argument orttirmasi  $\Delta x$  ga nisbatining limitiga aytiladi. Umumiy holda  $x$  ning har bir qiymati uchun  $f'(x)$  hosila ma'lum qiymatga ega, yani hosila ham  $x$  ning funksiyasi bo'lishini takidlab o'tamiz. Hosila uchun  $f'(x)$  belgi qatorida boshqacha belgilar ham ishlatiladi [5], masalan,  $y'$ ,  $y'_x$ ,  $dy/dx$ .


Hosilaning  $x = a$  dagi aniq qiymati  $f'(a)$  yoki  $\frac{y'}{x} = a$  bilan belgilanadi. Berilgan  $(x)$  funksiya dan hosila olish amali shu funksiyaning differensiallash deyiladi.



**Hosilaning geometrik ma'nosi:** Endi hosilaning geometrik ma'nosini o'rganamiz. Buning uchun avval egri chiziqqa uning berilgan nuqtasida o'tkazilgan urinmaning ta'rifini kiritamiz.



1-chizma



2-chizma

Bir egri chiziq va unda tayin  $M_0$  nuqta berilgan bo'lsin. Egri chiziqda bir  $M_1$  nuqtani olamiz va  $M_0M_1$  kesuvchini o'tkazamiz (1-chizma). Agar  $M_1$  nuqta egri chiziq bo'yicha  $M_0$  nuqtaga cheksiz yaqinlasha borsa, u holda  $M_0M_1$ , kesuvchi  $M_0M_1'$   $M_0M_1''$  va hokazo turli vaziyatlarni kelib chiqadi. Agar  $M_1$  nuqta egri chiziq bo'yicha istalgan tomondan  $M_0$  nuqtaga cheksiz yaqinlasha borganda kesuvchi ma'lum  $M_0T$  to'g'ri chiziq vaziyatini egallashga intilsa, u holda bu to'g'ri chiziq  $M_0$  nuqtada egri chiziqqa urinma deyiladi. Biz  $f(x)$  funksiyani va to'g'ri burchakli koordinatalar sistemasida unga mos  $y = f(x)$  egri chiziqni ko'rib chiqamiz (2-chizma).  $x$  ning biror qiymatida funksiya  $y = f(x)$  qiymatga ega. Egri chiziqda  $x$  va  $y$  ning bu qiymatlariga  $M_0(x, y)$  nuqta to'g'ri keladi [6]. Argument  $x$  ga  $\Delta x$  orttirmani beramiz. Argumentning yangi  $x + \Delta x$  qiymatiga funksiyaning "orttirilgan"  $y + \Delta y = f(x + \Delta x)$  qiymati to'g'ri keladi. Egri chiziqning bunga mos nuqtasi  $M_1(x + \Delta x, y + \Delta y)$  nuqta bo'ladi.  $M_0M_1$  kesuvchini o'tkazamiz va uning  $Ox$  o'qning musbat yo'nalishi bilan hosil qilgan burchagini  $\varphi$  bilan belgilaymiz.  $\frac{\Delta y}{\Delta x}$  nisbatni tuzamiz. 2-chizmadan

$$\frac{\Delta y}{\Delta x} = \operatorname{tg} \varphi \quad (4)$$

ekanligi kelib chiqadi.

Agar endi  $\Delta x$  nolga intilsa, u holda  $M_1$  nuqta egri chiziq bo'yicha harakat qilib,  $M_0$  nuqtaga yaqinlasha boradi.  $M_0M_1$  kesuvchi  $M_0$  nuqta atrofida aylanadi va  $\Delta x$  o'zgarishi bilan  $\varphi$  burchak o'zgaradi. Agar  $\Delta x \rightarrow 0$  da  $\varphi$  burchak biror  $\alpha$  limitga intilsa, u holda  $M_0$  nuqtadan o'tuvchi va abssisalar o'qining musbat yo'nalishi bilan  $\alpha$  burchak tashkil qiluvchi to'g'ri chiziq izlangan urinma bo'ladi. Uning burchak koeffitsiyentini topish qiyin emas.

$$\operatorname{tg} \alpha = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \operatorname{tg} \varphi = \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta x} = f'(x)$$

Demak,

$$f'(x) = \operatorname{tg} \alpha \quad (5)$$

Ya'ni argument  $x$  ning berilgan qiymatida  $f'(x)$  hosilaning qiymati  $f(x)$  funksiyaning grafigiga uning  $M_0(x, y)$  nuqtasidagi urinmasining  $Ox$  o'qning musbat yo'nalishi bilan hosil qilgan burchak tangensiga teng [7].

**Murakkab funksiyaning hosilasi.** Faraz qilaylik,  $y = f(x)$  murakkab funksiya, ya'ni shunday funksiya berilganki, uni  $y = F(u)$ ,  $u = \varphi(x)$  yoki  $y = F[\varphi(x)]$  ko'rinishida tasvirlash mumkin bo'lsin.

$y = F(u)$  ifodada  $u$  o'zgaruvchi oraliq argument deyiladi.

**Teorema.** Agar  $u = \varphi(x)$  funksiya biror  $x$  nuqtada  $u'_x = \varphi'(x)$  hosilaga ega bo'lsa,  $y = F(u)$  funksiya esa  $u$  ning mos qiymatida  $y'_x = F'(u)$  hosilaga ega bo'lsa, u holda ko'rsatilgan  $x$  nuqtada  $y = F[\varphi(x)]$  murakkab funksiya ham  $y'_x = F'_u(u) \varphi'(x)$  ga teng hosilaga ega bo'ladi, bu yerda  $u$  o'rniga  $u = \varphi(x)$  ifodani qo'yish zarur. Qisqacha  $yx' = yu'ux'$  ya'ni murakkab funksiyaning hosilasi berilgan funksiyaning oraliqdagi argument  $u$  bo'yicha hosilasining oraliqdagi argumentning  $x$  bo'yicha hosilasi bilan ko'paytmasiga teng [8].

**Isbot.** Argument  $x$  ning ma'lum qiymatida  $u = \varphi(x)$ ,  $y = F(u)$ . Argumentning o'stirilgan  $x + \Delta x$  qiymatida  $u + \Delta u = \varphi(x + \Delta x)$ ,  $y + \Delta y = F(u + \Delta u)$ . Shunday qilib,  $\Delta x$  orttirmaga  $\Delta u$  orttirma

mos keladi, bunga esa  $\Delta y$  orttirma mos keladi, buning ustiga  $\Delta x \rightarrow 0$  da  $\Delta u \rightarrow 0$  va  $\Delta y \rightarrow 0$ . Shartga muvofiq

$$\lim_{\Delta u \rightarrow 0} \frac{\Delta y}{\Delta u} = y'_u$$

Bu munosabatdan, limit ta'rifidan foydalanib, ( $\Delta u \neq 0$  da),  $\frac{\Delta y}{\Delta u} = y'_u + \alpha$  (4) tenglikni hosil qilamiz, bu yerda  $\Delta u \rightarrow 0$  da  $\alpha \rightarrow 0$ . Bundan (5) tenglikni

$$\Delta y = y'_u \Delta u + \alpha \Delta u \quad (6)$$

ko'rinishida yozamiz. Bu (6) tenglik ixtiyoriy  $\alpha$  da  $\Delta u = 0$  bo'lganda ham to'g'riligicha qoladi, chunki u  $0=0$  ayniyatga aylanadi.  $\Delta u = 0$  da  $\alpha = 0$  deb hisoblaymiz. (6) tenglikning barcha hadlarini  $\Delta x$  ga bo'lamiz:

$$\frac{\Delta y}{\Delta x} = y'_u \frac{\Delta u}{\Delta x} + \alpha \frac{\Delta u}{\Delta x}. \quad (7)$$

Shartga ko'ra

$$\lim_{\Delta x \rightarrow 0} \frac{\Delta u}{\Delta x} = u'_x, \quad \lim_{\Delta x \rightarrow 0} \alpha = 0.$$

(7) tenglikda  $\Delta x \rightarrow 0$  da limitga o'tib, shuni hosil qilamiz [9]:

$$y'_x = y'_u u'_x$$

### Kasbiy mazmunli masalalar:

**1-misol.** To'g'ri to'rtburchak shaklidagi yer maydoni atrofini 80m panjara bilan o'rashmoqchi. Bu panjara ko'pi bilan necha metr yer maydonini o'rashga yetadi.

$$\text{Yechish: } 2x + 2y = 80; \Rightarrow 2y = 80 - 2x; \Rightarrow y = 40 - x$$

To'g'ri to'rtburchak yuzi  $S = x \cdot y = x(40 - x) = 40x - x^2$

Yuzasi eng katta bo'lishi uchun  $S$  dan hosila nolga tenglaymiz.

$$S' = 40 - 2x = 0$$

$$2x = 40; \Rightarrow x = 20; \Rightarrow y = 40 - x = 40 - 20 = 20$$

Natijada to'g'ri to'rtburchak yuzi  $S = x \cdot y = 20 \cdot 20 = 400 (m^2)$

**Javob:**  $400 m^2$

**2-misol.** Hajmi  $V$  bo'lgan asosi kvadratdan iborat to'g'ri parallelepiped shaklidagi basseyn kavlash kerak. Basseyn tubi devorlarini qoplash uchun eng kam miqdordagi material(masalan,kafel) sarf bo'lishi uchun uning o'lchamlari qanday bo'lishi kerak?

**Yechish:** H-basseyn chuqurligi, a-kvadrat asosining tomoni bo'lsin. O'rganilayotgan yuzaning o'lchami  $S = 4aH + a^2$ , bu yerda  $4aH$ -basseyn devorining yuzasi,  $a^2$ -asosining yuzasi Ikki  $a$  va  $H$  noma'lumlarning sonini kamaytirish uchun berilgan hajmdan foydalansak, ya'ni  $V = a^2H$  dan  $H = \frac{V}{a^2}$

$$S = 4a \frac{V}{a^2} + a^2 = 4 \frac{V}{a} + a^2$$

$$S' = (4 \frac{V}{a} + a^2)' = -4 \frac{V}{a^2} + 2a = 0$$

$$a = \sqrt[3]{2V}$$

$$H = \frac{V}{a^2} = \frac{V}{\sqrt[3]{(2V)^2}} = \sqrt[4]{\frac{V}{4}}$$

$$\text{Javob: } H = \sqrt[4]{\frac{V}{4}}$$

**3-misol.** Tomoni  $a$  sm bo'lgan kvadrat shaklidagi kartondan usti ochiq quti tayyorlashmoqchi. Bunda kartonning uchlaridan bir xil kvadratchalar kesib olinadi. Qutining hajmi eng katta bo'lishi uchun uning asos tomoni uzunligi necha sm bo'lishi kerak?

**Yechish:** Kartonning tomonligi uzunligi  $a$  bo'lsa, qutining asosini  $x$  deb olamiz va kesib olinishi lozim bo'lgan kvadratchalar tomoni  $\frac{a-x}{2}$  deb olamiz. U holda izlanayotgan quti hajmi  $V = \frac{a-x}{2} \cdot x \cdot x$  ga teng bo'ladi.

$$V = \frac{a-x}{2} \cdot x \cdot x = \frac{ax^2 - x^3}{2}$$

Berilgan hajmdan hosila olib nolga tenglaymiz.

$$V' = \left( \frac{ax^2 - x^3}{2} \right)' = \frac{2ax - 3x^2}{2}$$

$$\frac{2ax - 3x^2}{2} = 0 \Rightarrow 2ax - 3x^2 = 0$$

$$x = \frac{2}{3}a$$

**Javob:**  $x = \frac{2}{3}a$

**4-misol.** 3 kg massaga ega jism  $S(t) = t^3 - 3t^2 + 2$  qonuniyat bilan harakatlanmoqda. 4 sekunddagi jismda mavjud kuchni aniqlang.

**Yechish:** Berilgan jism  $S(t) = t^3 - 3t^2 + 2$  qonuniyat bilan harakatlanishiga ko'ra 4 sekundagi tezlanishni aniqlaymiz. Bunda  $S(t)$  qonuniyatdan  $t$ -vaqt bo'yicha olingan birinchi tartibli hosila tezlikni, ikkinchi tartibli hosila tezlanishni berishidan foydalanamiz.

$$v(t) = S'(t) = 3t^2 - 6t$$

$$a(t) = S''(t) = 6t - 6$$

$$t = 4s \Rightarrow a(4) = 18$$

Jismda mavjud kuch  $F = ma$  ga ko'ra  $F = 3 \cdot 18 = 54 N$  ga teng

**Javob:** 54 N

**5-misol.** Karima ko'ylak tikish uchun buyurtma oldi. Bir oyda  $x$  ta ko'ylak tiksa,  $p(x) = -x^2 + 100x$  ming so'm daromad qiladi. Quyidagilarni toping:

- 1) eng katta daromad olish uchun qancha ko'ylak tikish kerak?
- 2) eng katta daromad qancha bo'ladi?

**Yechish:** 1)  $p(x) = -x^2 + 100$  funksiyani maksimumga tekshiramiz:  
 $p'(x) = (-x^2 + 100x)' = -2x + 100 = 0$  bundan  $x_0 = 50$ .  $(0; 50)$  kesmada  $p'(x) > 0$  va  $(50; +\infty)$  oraliqda  $p'(x) < 0$  bo'lgani uchun  $x_0 = 50$  bo'lganda funksiya eng katta qiymatga ega bo'ladi. Demak, eng katta daromad olish uchun 50 ta ko'ylak tikish kerak ekan.

2) Eng katta daromad qanchaligini topish uchun  $p(x) = -x^2 + 100x$   
 Ifodaga  $x_0 = 50$  ni qo'yamiz:

$$p(50) = -50^2 + 100 \cdot 50 = -2500 + 5000 = 2500(\text{ming so'm}) = 2500000 \text{ so'm.}$$

**Javob:** 1) 50 ta ko'ylak; 2) 2500000 so'm

**Xulosa:** Hosila mavzusi matematikaning muhim bo'limi hisoblanib, turli fanlar va sohalaridagi amaliy masalalarni yechishda keng qo'llaniladi. Ushbu mavzuni samarali o'qitishda kasbiy mazmunli masalalarning roli beqiyosdir. Chunki bunday masalalar nafaqat mavzuning nazariy jihatlarini o'zlashtirishga yordam beradi, balki o'quvchilarda kasbiy qiziqishni uyg'otadi va ularning amaliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, fizik va iqtisodiy mazmunli hosila tushunchasi asosida masalalar yechiladi. Shu sababli, kasbiy yo'nalishda tashkil etilgan masalalar orqali hosilaning hayotdagi qo'llanilishlarini namoyish etish mumkin. Shuningdek, bunday yondashuv o'quvchilarning kasbiy ko'nikmalarini shakllantiradi va ularga kelajakdagi tanlagan sohasida matematik bilimlarini muvaffaqiyatli qo'llash imkonini beradi. Shu bois hosila mavzusini o'qitishda kasbiy mazmunli masalalarni kiritish o'quvchilarning o'quv jarayonidagi faolligini oshiradi va ularni chuqurroq bilim olishga undaydi. Umuman olganda, hosila va uning tadbirlarini o'qitishda kasbiy mazmunli masalalar o'quvchilarni nazariyani amaliyot bilan bog'lashga, kasbiy ehtiyojlarni anglashga va hayotiy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

### Foydanilgan adabiyotlar

1. Ш.А. Алимов и др. Алгебра и начала математического анализа, учебник для 10–11 класса. Учебник для базового и профильного образования, Москва, "Просвещение", 2016.

2. Mal Coad and others. Mathematics for the international students. Mathematical Studies SL 2nd edition. Haese and Harris publications. 2010.
3. А.Н. Колмогоров и др. Алгебра и начала анализа. Учебное пособие для 10–11 классов. Москва, “Просвещение”, 2018.
4. Э. Сайдаматов и др. Алгебра и основы математического анализа. часть 2 учебное пособие, Ташкент, “Ilm ziyo”, 2016.
5. A.U. Abduhamidov va boshqalar. Algebra va matematik analiz asoslari, 1- qism, Toshkent, “O‘qituvchi”, 2012.
6. Н.П. Филичева. Уравнения и системы уравнений: Учебно-методическое пособие. “Рязань”. 2009.
7. М.И. Исроилов. Ҳисоблаш методлари. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1988.
8. Г.К. Муравин и др. Алгебра и начала анализа. Учебник для 10 класса. Москва, “Дрофа”, 2006.
9. Алгебра. Учебное пособие для 9–10 классов. Под ред. Н.Я. Виленкина. Москва, “Просвещение”, 2004.



**Jabborova Gulasal Sultonovna**  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
o'qituvchisi  
[gulasaljabborova96@gmail.com](mailto:gulasaljabborova96@gmail.com)

**Qahhorova Maftuna Baxtiyorovna**  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
o'qituvchisi  
[qaxorovamaftuna77@gmail.com](mailto:qaxorovamaftuna77@gmail.com)

## **“KVADRAT FUNKSIYA GRAFIGINI YASASH“ MAVZUSINI SUN'IIY INTELLEKT ORQALI O'QITISH METODIKASI**

**Annotatsiya.** Matematika fanlarning otasi sanaladi. Shu munosabatdan matematikani yaxshi bilish boshqa fanlarni ham o'rganish poydevor vazifasini bajara oladi. Matematikani oson va qiyinchiliklarsiz o'rgatish maqsadida xorijda va o'zimizda ko'plab izlanishlar va metodlar yaratilmoqda. Shuning uchun bu sohada ham hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ushbu maqolada 9-sinf algebra darsligidagi mavzular misolida o'quvchilarning qiziqishini orttirish metodikasi berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** matematika, sun'iy intellekt, algebra, zamonaviy texnologiya, internet, simulyatsiya

### **МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА “СОЗДАНИЕ ГРАФА КВАДРАТИЧНОЙ ФУНКЦИИ” С ПОМОЩЬЮ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА**

**Аннотация.** Математика считается отцом наук. В этом отношении хорошее знание математики может послужить основой для изучения других предметов. За рубежом и в нашей стране создается множество исследований и методик, позволяющих легко и без затруднений обучать математике. Поэтому в настоящее время создаются широкие возможности для использования современных технологий в этой области. В данной статье представлена методика повышения интереса учащихся на примере тем из учебника по алгебре для 9-го класса.

**Ключевые слова:** математика, искусственный интеллект, алгебра, современные технологии, интернет, моделирование

### **METHODOLOGY OF TEACHING THE TOPIC “GRAPHING A QUADRATIC FUNCTION” THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE**

**Annotation.** Mathematics is considered the father of sciences. In this regard, good knowledge of mathematics can serve as a foundation for studying other sciences. In order to teach mathematics easily and without difficulties, many studies and methods are being created abroad and in our country. Therefore, wide opportunities are being created in this area to use modern technologies. This article presents a methodology for increasing students' interest using the example of topics from the 9th grade algebra textbook.

**Keywords:** mathematics, artificial intelligence, algebra, modern technology, internet, simulation

**Kirish.** Matematika darslarida sun'iy intellekt (AI)dan foydalanish zamonaviy ta'limda yangi imkoniyatlarni ochib beradi. AI texnologiyalari orqali o'quv jarayonini shaxsiylashtirish, o'quvchilarning bilim darajasini aniq baholash va darslarni yanada qiziqarli va samarali qilish mumkin. Quyida matematika darslarida AI dan qanday qo'llash mumkinligi haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan.

AI asosidagi adaptiv o'qitish platformalari (masalan, Khan Academy, DreamBox) har bir o'quvchining bilim darajasini avtomatik ravishda baholab, ularga moslashgan mashqlar va darsliklarni taklif qiladi. Bu orqali har bir o'quvchi o'z darajasiga mos materiallar bilan

shug'ullanadi, natijada ularning bilimlari yanada mustahkamlanadi. Shuningdek, AI o'quvchilarning zaif va kuchli tomonlarini aniqlab, ularga individual yondashuvni ta'minlaydi.

Pozitiv fikrlash diskursi L. Kirichuk tomonidan muammoli vaziyatga optimistik nuqtai nazarni aks ettiruvchi muloqot turi sifatida ko'rib chiqiladi. N.Pezeshkian, "yaxshi / yomon" baholashdan "hammasi maqsadga muvofiq" (bu menga nima uchun kerak?) pozitiv fikrlash, har bir vaziyatda shaxs rivojlanishi va hayotdan ma'no izlashi uchun asos bo'ladi. Ya'ni, gap ma'no izlash jarayoni haqida ketmoqda, ("yaxshi" vaziyatga adekvat munosabat bilan solishtirish mumkin, "yomon" - xafagarchilik, g'azab va boshqalarga sho'ng'ish natijasida azoblanish kuchayishi) bu ham bizga sanogen fikrlash bilan o'xshashlikni ko'rsatadi.

Pozitiv fikrlash tushunchasini sanogen fikrlash bilan solishtirganda shuni ta'kidlash mumkinki, "manfiy zaryadni o'chirish" effekti, "men" dinamizmining negativ hayotiy vaziyatlar aks etuvchi obrazlar dunyosi bilan bog'liq umumiy muammolarini hal qilishga e'tibor beradi. Biroq, bizning fikrimizcha, pozitiv fikrlash mafkuraviy ko'rsatmalarga, "Men-konsepsiya" va shaxsiy muhokamalarning xususiyatlariga hamda optimizmning rivojlanishiga asoslanadi. Sanogen fikrlash esa ushbu voqelikning tasvirlarini adekvat aks ettirish va idrok etishga qaratilgan bo'ladi.

Shunday ekan, pozitiv fikrlash bilan sanogen fikrlash o'rtasidagi eng sezilarli farq fikrlash yo'nalishidir. Pozitiv fikrlashda, odatda, bu faoliyatda ijobiy yo'naltirilganlik, muvaffaqiyatning ma'lum bir dasturlanganligi [5; 6; 7], sanogen fikrlashda esa chuqur anglash jarayoni va psixologik farovonlikka erishish uchun hissiy holatlarni tartibga solish tushuniladi [1; 8; 9; 10].

M. Mols hatto sanogen fikrlashni pozitiv fikrlashning tarkibiy qismlaridan biri deb hisoblaydi. Hayotdagi umumiy muvaffaqiyatlar ta'siri tufayli "Men" ining pozitiv obrazini yaratish, doimiy ravishda qo'llab-quvvatlash va mustahkamlashni nazarda tutadi. M. Molsning fikricha, bizning barcha harakatlarimiz, his-tuyg'ularimiz, amallarimiz, hatto qobiliyatlarimiz ham o'zini boshqarishning ongli va beixtiyoriy mexanizmlari orqali "men" imiz obrazi bilan moslashadi. Shuning uchun bu obraz ijobiy bo'lishi va xatti-harakatlarda, faoliyatda, hatto hayotda muvaffaqiyatsizlikka uchragan yoki boshqa "xatolar" bo'lsa ham buzilmasligi juda muhimdir [11].

Bir tomondan, M. Molsning pozitsiyasiga qo'shilish mumkin, biroq ikkinchi tomondan, sanogen fikrlash baribir chuqurroq jarayon hisoblanib, o'z mazmuniga ko'ra optimistik fikrlashga ancha yaqinroqdir.

Pozitiv fikrlash ko'pincha optimistik bo'lish bilan gavdalanadi. Optimistik fikrlash - bu inson hayotiy muammolarni hal qilishda kamchiliklarni emas, balki asosan afzalliklarni ko'rishidir; muammolar emas, balki maqsad va vazifalar; to'siqlar emas, balki imkoniyatlarni nazarda tutadi. Optimistik fikrlash samarali shaxsiy faoliyat va ruhiy salomatlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

1) kompetensiya - ishonchlilik hissiga va u orqali ichki motivatsiyaga; 2) maqsadlarni belgilash va ularga erishishda qat'iyatlilik: muvaffaqiyatga erishish imkoniyati va faoliyatda muvaffaqiyatli natijaga erishish uchun harakat qilish muhimligiga ishonadigan inson murakkab vazifalarni bajarishdan qo'rqmaydi, qat'iyatlilik, samaradorlik va boshlangan ishni yakunlashga tayyorligini namoyon qiladi;

3) qiyin hayotiy vaziyatlarga va stressga moslashishga yordam beradi: muvaffaqiyatsizliklarning konstruktiv talqini muvaffaqiyatsizlikka moslashuvchan xatti-harakatlar, hissiy reaksiyalarni va ularni bartaraf etish uchun muammoga yo'naltirilgan strategiyalardan foydalanishni rag'batlantiradi.

Optimizmning intensivligi pozitiv fikrlashning ham asosiy ko'rsatkichidir. Biroq, pozitiv fikrlash - bu fikrlarni ongli ravishda nazorat qilish, salbiy fikr va his-tuyg'ularning ildiz otishiga yo'l qo'ymaslik hamda ma'lum darajada haqiqatdan chekinishdir. Optimistik fikrlash realistik bo'lib, narsa-hodisalarning ijobiy va salbiy tomonlarini ko'radi, bu esa uni ijobiy fikrlashdan ajratib turadi.

T. Gordeeva shaxsiy salohiyatning asosiy komponenti sifatida psixologik farovonlik va faoliyatda samaradorlik mexanizmlarini tushuntirishga imkon beruvchi konstruktiv-optimistik fikrlash tushunchasini kiritadi. Konstruktiv fikrlash yangi g'oyalar, echimlar, tushunchalarni topish va amalga oshirishga qaratilgan. Konstruktiv faoliyat jarayonida vujudga keladigan "yakuniy xulosa" konstruksiya, ya'ni, fikrlashning alohida turi konstruktiv fikrlash deb ataladi. Konstruktiv fikrlash transformatsiya, innovatsiyalar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ushbu turdagi fikrlash uchun muammolar yangi narsalarni tasdiqlash vositasidir.

Pozitiv va sanogen fikrlashning asosiy xususiyatlarini tahlil qilish ularning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi:

1) ularning umumiy belgisi - har ikkala fikrlash turida shaxsning ichki muammolarini hal qilishga qaratilganligi, "salbiy zaryadni so'ndirish" effekti, salbiy hayotiy vaziyatlarni aks ettiruvchi "men"ning tasvirlar dunyosi bilan bog'liqlik dinamikasi;

2) sanogen va pozitiv fikrlash ko'nikmalarini egallash uchun muammolarni hal qilishga qaratilgan ongli harakatlar jarayoni xarakterlidir, ammo sanogen fikrlash tashqi emas, balki ichki maqsadlarni ko'zlab, o'z tabiatini o'zgartiradi;

3) pozitiv fikrlash optimizm singari xususiyatini rivojlantirishga asoslangan, pozitiv fikrlash orqali shaxsning "Men"ida pozitiv konsepsiya shakllanadi va qo'llab-quvvatlanadi; sanogen fikrlash esa boshqariladigan psixik holatlarning tuzilishini ongdagi aniq fikrga, salbiy his-tuyg'ularning shakllanishi haqidagi ma'lum bilimlarga asoslanadi;

4) pozitiv fikrlash real muammoli vaziyatni qabul qilish va talqin qilish usulini qayta ko'rib chiqish orqali uning idrokini o'zgartirishga urinish bilan tavsiflanadi. Sanogen fikrlash esa avtomatik fikrlar, salbiy yo'nalgan his-tuyg'ular va kechinmalarning paydo bo'lishining sababini chuqur anglash jarayonini o'z ichiga oladi; sanogen fikrlash chuqur aqliy mehnatga asoslanadi, bu salbiy his-tuyg'ular va kechinmalarning paydo bo'lishining mohiyatini tushunishga e'tibor



qaratishga imkon beradi, o'z navbatida bu yuzaga keladigan vaziyatlarga insonning adekvat munosabatini va hayotiy sharoitlarni idrok etishini ta'minlaydi;

5) pozitiv fikrlash ongli fikrlashning doimiy ijobiy ta'siridan masalan, affirmatsiya (so'zlarni takrorlash) yoki tasavvur qilishdan iborat bo'lgan dasturlashga qaratilgan; inson o'z fikrlarida uzoq muddatli konstruktiv va optimistik kayfiyatga erishadi, shu orqali o'zining hayotdan qoniqishini oshiradi.

Sanogen fikrlashda muammoli vaziyatni hal qilish jarayoni uni samaradorlik tushunchasiga yaqinlashtiradi. M.Vertgeymer (1987) va K.Dunker (1965) tadqiqotlaridan hammaga ma'lum bo'lgan "samarali fikrlash" tushunchasi mahsuli sub'ekt bilimiga nisbatan yangi bo'lgan fikrlarni o'zida nomoyon qiladi. Samarali fikrlash - insonning intellektual qobiliyatlari va ijodiy salohiyati eng to'liq namoyon bo'ladigan fikrlash turidir. Bu fikrlash bilimlarni yangi sharoitlarga o'tkazishning mohiyati, muammolarni hal qilishning o'ziga xosligi, ob'ektni yangi nuqtai nazardan ko'rishga imkon beradigan moslashuvchanlik va odatiy fikr oqimidan voz kechish bilan ajralib turadi. Samarali fikrlash uning asosida olingan xulosaning yangiligi, o'ziga xosligi bilan tavsiflanadi. Psixoterapevtik nuqtai nazardan, samarali fikrlashning mahsuli - bu insonning muammoli vaziyatda xatti-harakatlar orqali javob berishning yangi usullarini taklif etadi. Ta'kidlab o'tish kerakki, umumiy pedagogik atamaga ko'ra, fikrlash voqelikning o'zida ham, sub'ektda ham ayni vaqtda mavjud bo'lmagan natijani hosil qiladi. Bu, ehtimol, "samaradorlik" har qanday fikrlashning atributi hisoblanadi degan savolni tug'diradi. L. Kalmikova bu taxminga - u sub'ekt tomonidan qabul qilinadigan mahsulotning yangilik darajasiga ko'ra, samarali va reproduktiv fikrlashni bir-biridan farqlaydi, deb javob beradi. Uning fikricha, fikrlash voqelikni umumlashtirilgan va bilvosita bilish jarayoni sifatida doimo samaralidir, ya'ni yangi bilim olishga qaratilgan. Shuning uchun samarali va sanogen fikrlashni tenglashtirib bo'lmaydi, deb ta'kidlaydi [12; 13].

Pozitiv va sanogen fikrlash bilan bir qatorda emotsional fikrlash ham ajralib turadi. Jumladan, G.Mayer fikrlashni o'rganishda ikki turni ko'rsatadi: 1) mulohaza qiluvchi fikrlash, bunda asosiy o'rinda anglash hohishi turadi; 2) emotsional fikrlashda-hissiy va irodaviy ehtiyojlarni birinchi o'ringa chiqaradi [14].

Doslinik emotsional fikrlashni affektiv va irodaviy turlarga ajratadi. Affektiv fikrlash estetik va diniy tafakkurda o'ziga xos qo'llanilishga ega. G.Mayer irodaviy fikrlashni talqin qilishda uning uchta turini belgilab berdi: so'zning to'g'ri ma'nosida irodaviy, ijobiy va imperativ fikrlash aktlari (buyruqlar, taqiqlar). Misol uchun: "Men falon narsaga ishonaman" - bu shunchaki psixologik anglash mulohazasi, ammo "Xudo bor" mulohazasi - bu e'tiqodiy fikr. Bunday e'tiqodlar, birinchi navbatda, anglash emas, balki affektiv va irodaviy impuls bilan yuzaga keladi.

Sanogen va emotsional fikrlashning umumiyligi hissiy-irodaviy sohani boshqarish funksiyasidir. Biroq, hissiy tafakkur, xususan, G. Mayer tadqiqotiga ko'ra, asosan, estetik va diniy yo'nalishdagi mulohazalarda qo'llaniladi.

Kognitiv psixoterapiya asoschilari (A. Bek, 1967, 1979, 1990; A. Ellis, 1999, 2002; Mak Mallin, 2001) samarali fikrlash bilan birga ratsional fikrlashni ham o'rganaganlar. Ularning fikricha, ratsional fikrlash shaxsning pedagogik-psixologik farovonligining asosiy omilidir [15; 16; 17].

Ratsional fikrlash (lotincha "*gaiio*" - aql) - ob'ektiv olamning predmeti, hodisalar, tushunchalar, mulohazalar va xulosalarning mantiqiy shakllaridagi o'zaro bog'liqligini anglaydigan tafakkur turidir. Uning teskarisi irratsional fikrlashdir, ya'ni obrazning adekvat mantiqiy shakliga ega bo'lmagan yoki hozirgi tarixiy davrda mantiqiy jihatdan aks ettirib bo'lmaydigan fikrlashdir. Kengroq ma'noda "irratsional" atamasi aql va mantiq bilan idrok etilmagan "beixtiyoriy", "o'ylab ko'rilmagan", "ong bilan bog'liq bo'lmagan" narsalarni anglatadi. Bu sof kognitiv jarayon bo'lib, unda shaxsiy his-tuyg'ular va voqelikni baholashning imkoni yo'q.

Sanogen fikrlash tushunchasi bilan o'xshashligi shundaki, ikkala tushuncha ham vaziyatni yoki, ayniqsa, hissiy kechinmani refleksiv tahlil qilishga asoslangan. Ratsional fikrlash va sanogen fikrlash o'rtasidagi farq shundaki, birinchisi tushunchalar va boshqalar o'rtasidagi mantiqiy munosabatlarni aks ettirishga asoslanadi, ikkinchisi esa, shaxsning hissiy sohasini tahlil qilish,

86 hissiy kechinmalarni chuqur tushunishdir. Bu ratsional fikrlashga xos emas, chunki ratsional fikrlash hissiy sohani hisobga olmaydigan fikrlash tarzini nazarda tutadi. Kognitiv fikrlash tarafdorlari ratsional fikrlashni: moslashishga imkon beruvchi (ratsional) va halaqit beruvchi (irratsional) - uning funksional tomonlarini ta'kidlaydi.

Ratsional fikrlash, sanogen fikrlash kabi, hissiyotlar bilan chambarchas bog'liq. A.Ellis ta'kidlaydiki, "biz his-tuyg'ular deb ataydigan narsalarni, boshqacha qilib aytganda, oldindan o'ylangan, baholovchi fikrlashga yo'nalgan tanqidiy fikrlash deb atash mumkin. Fikrlash va his-tuyg'ular bir-biri bilan shunchalik kuchli bog'langanki, o'zaro ahamiyatli tarzda, odatda yonmayon namoyon bo'ladi, ba'zan ular mohiyatan birlashadi – fikr hissiyotga, his-tuyg'u esa fikrga aylanadi". Bu his-tuyg'ular har doim ham ijobiy bo'lmaydi. Kognitiv sohada salbiy his-tuyg'ular, noto'g'ri fikrlash jarayonlari va noto'g'ri xatti-harakatlarning "chekinib bo'lmaydigan" doirasida bo'ladi. Shunga ko'ra, idrok va fikrlashdagi o'zgarishlar og'ir kechinmalar, xatti-harakatlarning modifikatsiyasiga (o'zgarishiga) olib keladi va ma'lum kognitsiyalar tomonidan to'sib qo'yilgan inson resurslariga imkon beradi. A.Bekning fikrlaridan kelib chiqadiki, kognitiv terapiya jarayonida mutaxassislar kognitiv jarayonning ikki darajasi:

a) joriy ma'lumotlarni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan, ayni vaqtda sodir bo'layotgan voqealarga reaksiyasi "avtomatik" obrazlar va fikrlari; b) shaxsning o'zi va uning atrofidagi dunyo haqidagi chuqur g'oyalar tizimini ifodalovchi, o'tmish tajribasi, e'tiqodlari, munosabati va qoidalari bo'yicha fikr bildiradi. Shunday qilib, olimlar hayotiy vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolar, ularni hal qilish yo'llari orqali samarali, ratsional va tanqidiy fikrlash atamalarining mazmunini ochib beradilar. Fikrlashning o'xshash turlarini farqlovchi belgilari 1-jadvalda keltirilgan.

1- jadval

**Fikrlashni o'xshash turlarining asosiy xususiyatlari**

| <b>Fikrlash turi</b> | <b>Belgilar</b>                                                                                                                                                                                |
|----------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Sanogen              | shaxsning ichki muammolarini hal qilishga yo'nalganlik                                                                                                                                         |
| Ijobiy               | muvaqqafiyatni dasturlashga qaratilgan, muammoli vaziyatga optimistik qarashni aks ettiradi; muammoning faqat ijobiy tomoni hisobga olinadi                                                    |
| Optimistik           | narsa va hodisalarning ijobiy va salbiy tomonlari hisobga olinadi                                                                                                                              |
| Emotsional           | anglash jarayoni sustlashgan, ammo iroda, his- tuyg'ular, ehtiyojlar va shaxsning ularni boshqarish qobiliyati faollashadi; asosan estetik va axloqiy yo'nalishdagi mulohazalarda qo'llaniladi |
| Samarali             | undan olinadigan mahsulotning yuqori darajadagi yangiligi, o'ziga xosligi bilan tavsiflanadi                                                                                                   |
| Konstruktiv          | yangi g'oyalar, echimlar, konsepsiyalarni izlash va amalga oshirishga qaratilgan                                                                                                               |
| Tanqidiy             | puxta o'ylab ko'rilgan va mustaqil qarorlar qabul qilish bilan tavsiflanadi                                                                                                                    |
| Ratsional            | tushunchalar orasidagi mantiqiy munosabatlarni aks ettirish asosida qurilgan                                                                                                                   |

Shunday qilib, sanogen fikrlashga o'xshash fikrlash turlarining asosiy xususiyatlarini tahlil qilish natijasida shunday xulosaga kelishimiz mumkin: sanogen fikrlash va barcha keltirilgan fikrlash turlarining asosiy umumiy xususiyati shaxsning pedagogik-psixologik farovonlikka intilishi (pozitiv fikrlash, samarali fikrlash), o'z-o'zini takomillashtirish (pozitiv fikrlash, tanqidiy fikrlash), stereotiplardan qochishdan iborat.

Shu bilan birga, sanogen fikrlash o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Pedagogika va psixologiya fanida keltirilgan "sanogen fikrlash" tushunchasining turli xil ta'riflaridan biz ushbu konsepsiyaning quyidagi xususiyatlarini ajratib oldik:

- fikrlash jarayonida yuqori darajadagi metakognitsiya va monitoring;
- irodaviy sa'y-harakatlar asosida va his-tuyg'ularda o'z-o'zini tartibga solishni ta'minlash;

- fikrlarning salbiy oqimi bilan bog'liq ichki muammolarni hal qilish;  
 - keskin vaziyatlarda adekvat javob berish ko'nikmalari va emotsional kechinmalarda konstruktiv, refleksiv strategiyalar va tartibga solish yo'nalishining mavjudligi.

**Xulosa.** Keltirilgan muammoga oid adabiyotlarni nazariy tahlil qilish va olimlarning ilmiy yutuqlarini o'rganish asosida biz sanogen fikrlash tushunchasini yuqori darajadagi metakognitsiya va monitoring bilan tavsiflanuvchi voqelikni aks ettirishning ruhiy jarayoni sifatida tushunamiz. Bu jarayon travmatik hissiy omillarni tushinishda, nokonstruktiv xatti-harakat dasturlarini anglashda namoyon bo'ladi va ularni tuzatish, keskinlik holatlarida adekvat javob berish usullari hamda ko'nikmalarini egallashni o'z ichiga oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Орлов Ю. М. Самопознание и самовоспитание характера: Беседы психолога со старшеклассниками: Кн. для учащихся / Ю. М. Орлов — М.: Просвещение, 1987. — 224 с.
2. Калошин В. Ф. позитивное мышление как фактор профессионального самоопределения молодежи в условиях ПТУЗ: методическое пособие/ В. Ф.Калошин. — К., 2012. — 114 с.
3. Гордеева Н. А. Самоактуализация личности студента: учебное пособие. / Н. А. Гордеева, И. А. Винтин, В. Г. Хусточкин. — Саранск : Изд-во Мордов. ун-та, 2006. — 208 с.
4. Мольц М. Я. Я — это Я, или как стать счастливым? / М. Я. Мольц. - СПб.: Питер, 1992. — 234 с.
5. Пезешкиан Н. Психотерапия повседневной жизни : тренинг разрешения конфликтов / Н. Пезешкиан. - СПб.: Речь, 2002. — 288 с.
6. Улицкая Г. С. Особенности развития позитивного мышления старшеклассников: автореф. дис... канд. психол. наук: 19.00.07 / Г. С. Улицкая ; Нац. пед. ун-т им. М. П. Драгоманова. — К., 2011. — 20 с.
7. Калошин В. Ф. позитивное мышление как фактор профессионального самоопределения молодежи в условиях ПТУЗ: методическое пособие/ В. Ф. Калошин. — К., 2012. — 114 с.
8. Морозюк С. Н. Саногенная рефлексия, акцентуации характера и эффективность учебной деятельности / С. Н. Морозюк. — М.: Изд-во М. А. Штыкова, 2000. - 265 с.
9. Данина М. М. Кинотерапия как средство развития саногенного мышления / М. М. Данина // Журнал "Человек. Сообщество. Управление". — Краснодар , 2011. — Вип. 1. — С. 99–109.
10. Рубцова Л. В. Саногенное мышление: учебно-метод. комплекс / Л. В. Рубцова. — Новосибирск: Изд. : НГПУ, 2010. — 205 с.
11. Мольц М. Я. Я — это Я, или как стать счастливым? / М. Я. Мольц. - СПб. : Питер, 1992. — 234 с.
12. Вертгеймер М. Продуктивное мышление / М. Вертгеймер. — М.: Прогресс, 1987. — 320 с.
13. Дункер К. Психология продуктивного (творческого) мышления / К. Дункер. // Психология мышления / Под ред. А. М. Матюшкина. - М.: Прогресс, 1965. — С. 86–234.
14. Майер Г. Психология эмоционального мышления // Хрестоматия по общей психологии. Психология мышления : учебное пособие для студентов вузов / под ред. Ю. Б. Гиппенрейтер, В. В. Петухова. — М., 1981. - 123 С.
15. Бек А. Когнитивная психотерапия расстройств личности / А. Бек, А. Фримен. - СПб. : Питер, 2002. — 349 с.
16. Эллис А. Гуманистическая психотерапия. Рационально эмоциональный подход / А. Эллис. — М. : Сова, ЭКСМО-Пресс, 2002. — 272 с.
17. Мак Маллин Р. Практикум по когнитивной терапии / Р. МакМаллин. - СПб.: Речь, 2001. — 179 с.

**Adizova Nigora Baxtiyorovna**  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
dotsenti, filologiya bo'yicha falsafa  
doktori (PhD)

**Muqimova Gulruh Ilyos qizi**  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
magistranti

## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KREATIV FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN DIDAKTIK VAZIYATLAR**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik vaziyatlar va ularni tanlash prinsiplari kreativ faollik ko'rsatish uchun kognitiv, ya'ni mustaqil fikrlash layoqati alohida ahamiyatga ega. O'quvchilarni kreativ faoliyat ko'nikmalarini rivojlantiruvchi o'quv vaziyatlariga olib kirish natijasida ularda o'quv jarayoniga nisbatan ijobiy munosabat tajribasi shakllanishi ta'kidlab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** kreativ, diqqat, idrok, assotsiatsiyalar jarayoni, divergent, tafakkur, motiv, faoliyat, reproduktiv, ijodiy fikrlash, mustaqil, evristik, ta'lim-tarbiya, didaktik o'yinlar, pedagogik texnologiya

## **ДИДАКТИЧЕСКИЕ СИТУАЦИИ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ТВОРЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

**Аннотация.** В данной статье особое значение для познавательной, то есть умения самостоятельно мыслить, для творческой деятельности приобретают дидактические ситуации и принципы их подбора, направленные на формирование творческой активности учащихся младших классов. Подчеркивается, что в результате знакомства студентов с учебными ситуациями, развивающими навыки творческой деятельности, у них происходит формирование позитивного отношения к учебному процессу.

**Ключевые слова:** творчество, внимание, восприятие, процесс ассоциаций, дивергентное, мышление, мотив, деятельность, репродуктивное, творческое мышление, самостоятельное, эвристическое, обучение, дидактические игры, педагогическая технология.

## **DIDACTIC SITUATIONS AIMED AT FORMING CREATIVE ACTIVITY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS**

**Annotation.** In this article, didactic situations and principles of their selection aimed at developing the creative activity of primary school students acquire special significance for cognitive, that is, the ability to think independently, for creative activity. It is emphasized that as a result of students' familiarization with educational situations that develop creative skills, they develop a positive attitude toward the educational process.

**Key words:** creativity, attention, perception, association process, divergent, thinking, motive, activity, reproductive, creative thinking, independent, heuristic, learning, didactic games, pedagogical technology.

**Kirish.** Hozirgi kunda Fransiya, Shvetsiya, Italiya kabi rivojlangan davlatlar ta'lim tizimlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ fikrlash faolligini shakllantirishda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy layoqatlarni erta aniqlash va maqsadli rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kreativ faollikni tarbiyalash masalasi Angliya, AQSH, Braziliya, Tailand, Malayziya, Indoneziya, Kolumbiya ta'lim tizimida rivojlangan bo'lib, o'quv jarayonini samaradorligini oshirishga qaratilgan.

O'quvchilarning kreativ faoliyatini shakllantirishda jahon ta'lim tizimining yutuqlariga asoslanish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy layoqatni barvaqt rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonlarning pedagogik-psixologik, didaktik xususiyatlarini aniqlashtirish, ijodkorlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik texnologiyalarini takomillashtirish, o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini hosil qilish, muloqot va o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

**Asosiy qism.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik vaziyatlar va ularni tanlash prinsiplari Kreativ faollik ko'rsatish uchun kognitiv, ya'ni mustaqil fikrlash layoqati alohida ahamiyatga ega. O'quvchilarning tahliliy faoliyatlarini jadallashtirish maqsadida quyidagi vaziyatlar tashkil etildi:

1. Baholash va o'z-o'zini baholash vaziyati. Bu ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'z faoliyatlarini tahlil qilish va tekshirishlarini taqozo etadi. Qabul qilingan qarorlarni himoya qilishda dalillardan foydalanish, o'zligini anglash, o'z mohiyatlarini bilish uchun zarur bo'lgan kechinmalarning vujudga kelishini ta'minlaydi. Bunday vaziyatlarning mohiyati o'quvchi qandaydir yangilikni yaratib, uning o'zi uchun betakrorligini his etishi, undan qoniqish hissini tuyishi natijasida o'zining qandaydir yangilik yaratganligini ijod qilganligini his etadi. Yangilik yaratish, ijod qilishni o'rganish uchun o'quvchilar o'z nuqtayi nazarlariga ega bo'lishlari, bir qolipdagi tafakkurdan voz kechishlari, uning o'z kreativ faollik ko'rsatishlari uchun muhimligini anglab yetishishlari kerak.

2. «Aqliy hujum» vaziyati. To'g'ri tushunish maqsadida muammoli topshiriqlarni jamoa bo'lib tahlil qilish, mazkur topshiriqlarning muqobil yechimlarini topish, bunday yechimlarni topgan o'quvchilarni rag'batlantirish, o'quvchilar tomonidan berilgan javoblarning sifatini baholash, g'oyalarni tanqidiy baholash kabilari o'quvchilarda kreativ faollikning shakllanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Javoblarning umumiy miqdoridan kelib chiqqan holda to'g'ri javoblar ham ko'payadi.

3. Tanlov vaziyati. Tanlov vaziyatining mazmuni yutuqqa erishish yo'llarini tahlil qilish, taftishdan o'tkazish, o'quv vazifalarini bajarish jarayonida qiyinchiliklarni bartaraf etish tajribasidan foydalanish, bir qolipdagi faoliyat va hatti-harakatdan voz kechish kabilarni o'z ichiga oladi.

4. Mashqlantirish vaziyati. Bunday vaziyatlarda pedagogik harakatlarning turli variantlari ko'rib chiqiladi. Ular sirasiga musobaqa vaziyati, o'yin vaziyatlari, dialoglar, hamkorlik va birgalikda ishlash, vazifalarni teng taqsimlash vaziyatlari, muvaffaqiyat qozonishga undash vaziyati, ijodkor o'quvchilar bilan hamkorlik qilish vaziyati kabilarni kiritish mumkin.

5. Qadriyatlar olamiga kirish vaziyati. Bu jarayonda o'quvchilar tarixiy voqelik bilan tanishish asosida o'zbek xalqining qadriyatlari, urf odatlari, ajdodlarimizning tajribalari va ijod namunalarini o'zlashtiradilar, undan ilhom oladilar va o'zlari ham ijod qilishga kuch quvvatlarini sarflashga intiladilar.

6. Muammolarga yechim izlash vaziyati. Bu jarayonda o'quvchilar faoliyat subyekti sifatida turli qiyinchiliklarga duch keladilar, mazkur muammolarga darhol javob bera olmaydilar va bunday muammolarga javob izlash o'quvchilardan intellektual kreativ faollikni talab qiladi. Bu jarayonda o'quvchilardagi qo'rquv holatlariga chek qo'yilib xato qilishdan cho'chimaslik ko'nikmalari tarkib topadi. Buning natijasida ular yuqori darajadagi kreativ faollikka ega bo'ladilar. Bunday vaziyatlarning asosiy mohiyati shundaki, ularning mantiqiy bog'lanishlarni mustaqil tarzda aniqlashlari natijasida bir qator yangiliklar vujudga keladi.

7. Asosiy mantiqni izlash vaziyati. O'quv jarayoni haqidagi eski tasavvurlarni taftish qilish, mantiqiy izlanish jarayonini jadallashtirish, ichki bosimning vujudga kelishi, o'quv faoliyati mantiqini izlash ko'nikmasining shakllanishiga asos bo'ladi.

O'quv jarayonida yuqorida ko'rsatib o'tilgan birinchi va ikkinchi turdagi o'quv vaziyatlarini vujudga keltirish, o'quvchilarning tahliliy faoliyatlarini jadallashtirish maqsadini nazarda tutib, uchinchi va to'rtinchi turdagi vaziyatlar o'quv harakatlarini jadallashtirishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Beshinchi, oltinchi va yettinchi vaziyatlar esa, o'quvchilarning jadallashtirishga xizmat qiladi. shaxsiy tahliliy faoliyatini Shaxsga yo'naltirilgan didaktik



vaziyatlarning ajratilishi shartli xarakterga ega. O'quvchilarning tahliliy fikriy sohasiga ta'sir ko'rsatish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday ta'sir natijasida o'quvchilarning ijodiy quvvatlari ro'yobga chiqadi. Mazkur vaziyatlarni vujudga keltirish mezoni sifatida o'quvchilarning harakatlari, uni amalga oshirish jarayonida o'quv faoliyatiga nisbatan shaxsiy munosabatini namoyon qilishiga asoslandik. Jumladan: - o'qituvchi tomonidan taklif etilgan qiziqarli va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyatni qabul qilish; - taqdim etilgan axborotlarga nisbatan baholovchi harakatlarni amalga oshirish; - to'siqlarni bartaraf etishda turli darajadagi tahliliy harakatlarni amalga oshirish; - ijodiy ish jarayoniga qiziqish bilan qarash; - o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarining namoyon bo'lishi kabilar. Bu jarayonda o'quvchilar quyidagi harakatlarni bajarishlari lozim: - o'z g'oyalarini muayyan algoritmlar va shaxsiy ish dasturlari tarzida taqdim etish; - muayyan topshiriqlarni yechish usullarini muvofiqlashtirish ko'nikmasini egallash; - o'z ishlarini aniq mezonlar asosida mustaqil baholash ko'nikmasiga ega bo'lish; - o'quvchilarning muammolarni aniqlashga xizmat qiladigan so'rovlarni to'g'ri shakllantirish; - o'z hukmlarining mantiqiy asoslarini to'g'ri izohlay olish ko'nikmasiga ega bo'lish; - o'z tafakkur tarzlarini aniq ifodalash kabilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv vaziyatlarining mazmuni shaxsga yo'naltirilgan pedagogik jarayon sifatida o'quv ijodiy faoliyat jarayonida ularga taqdim etilishi nazarda tutilgan bilimlar, axborotlar, ko'nikmalar, malakalar, faoliyat tajribasi va ijtimoiy tajribani o'zida mujassamlashtiradi.

O'quvchilarning o'z-o'zini baholashi haqida fikr yuritilganda, uning ijodiy faoliyat jarayonida rivojlanish maromini quyidagilar asosida o'lchash mumkin: - axborotlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning ruhiy jismoniy jihatdan faollik ko'rsatishlari; - o'quv vaziyatida o'zi bajaradigan rollarni tahlili qilishi; - ijodiy topshiriqlarni yechish jarayonida izlanishga asoslangan tahliliy faoliyat ko'rsatishi; - muloqot qilish jarayonida o'z faoliyatini ijodiy tarzda amaliyotga tadbiq etishi; - o'quvchilarning o'yinga asoslangan kreativ faoliyatlarini modellash tirish kabilar. Bularning barchasi o'quvchilarda kreativ faollikni shakllantirish imkonini beradi. Buning uchun birinchi o'rinda o'quvchilarning tahliliy faoliyat ko'nikmalari rivojlantiriladi. Jumladan, vujudga kelgan shart sharoitlarni tahlil qilish, maqsadlarning tadrijiy tizimini tarkib toptirish, ijodiy topshiriqlarni yechish bosqichlarini loyihalash, topshiriqlarni bajarish usullarini bir holatdan ikkinchisiga ko'chirish, ijodiy faoliyat natijalarini tahlil qilish va tanqidiy baholash kabilar. Bunday vaziyatlarda o'quvchilar o'zlarining kreativ faollik ko'nikmalarini namoyon qiladilar va mustaqil rivojlanishlari uchun sharoit yaratadilar. Yangi tipdagi ijodiy topshiriqlarni bajarish yordamida qulay yechimlarni izlash ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Mazkur vaziyatda o'quvchilarni intellektual, ma'naviy, axloqiy, estetik jihatdan rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

O'quvchilarda kreativ faollik ko'nikmalarining keng ko'lamda shakllanishi ularda fikrlash, qayta fikrlash, intellektual jihatdan rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuning uchun ham, shaxsga yo'naltirilgan o'quv vaziyatlari o'quvchilarning intellektual, kreativ faolliklarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. O'quvchilarning izlanish va ijod qilishga bo'lgan ehtiyojlari ularda ijodiy vazifalarni bajarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ushbu vaziyatlarda o'quvchilar o'z shaxsiy tajribalarini namoyon qiladilar va kengaytiradilar. Muayyan to'siqlar vujudga kelganda esa o'z shaxsiy nuqtayi nazarlarini ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday o'quvchilar ijtimoiy jihatdan istiqbolli, obro'li mavqeni egallaydilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni rivojlantirish vositalari va tizimini aniqlash bir qator o'quv vaziyatlarini tashkil etish zarurligini ko'rsatdi. O'quvchilarni muayyan vaziyatga olib kirish jarayonida biz, turli o'quv topshiriqlari va didaktik ish turlaridan foydalandik. Bunday ish turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: a) muayyan o'quv predmeti bo'yicha o'quv materiallarini taqdim etish jarayonida ko'pvariantli topshiriqlardan foydalanish, b) sinf jamoasi orasida o'quv materiallarini taqsimlash, v) imitatsion xarakterdagi o'quv-biluv jarayonini tashkil etish kabilar. Biz mazkur o'quv materiallarini tanlashda bir qator prinsiplarga tayandik: 1. O'quv jarayonini individuallashtirish prinsipi. Bu jarayonda o'quvchilarning imkoniyatlari va kreativ faollik ko'rsatish ko'nikmalarini hisobga olgan holda ularga topshiriqlar beriladi. Bunda har bir o'quvchiga individual yondashiladi. Shu asosda ularning individual ta'lim yo'nalishlarini tanlashlari va rivojlanishlariga imkoniyat yaratiladi. Individual hamda tabaqalashtirilgan

yondashuv o'quvchilarni mustaqil faoliyatga jalb etish orqali amalga oshadi. Ular sirasiga insholar, referatlar yozdirish, rasmlar chizdirish, tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etish, o'zlari yaratgan yangiliklarni sinab ko'rishga undash, o'zlarining nazariy-amaliy bilimlarini tahlil qilishga o'rgatish, individual reja asosida bilim olishlarini rag'batlantirish kabilar. O'quv dasturlarida nazariy-amaliy xarakterdagi o'quv materiallarini tabaqalashtirish pedagogik jihatdan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bu o'quv materiallarini murakkablik darajasiga qarab savollar va topshiriqlarga ajratishda namoyon bo'lishi kerak. Bunda o'zlashtiriladigan o'quv materiallarining ko'lamini va o'quv faoliyatining turlarini aniq hisobga olish talab qilinadi. Bu o'z navbatida o'quvchilarni ijodiy intellektual jihatdan rivojlantirishga qaratilgan tizimning vujudga kelishiga asos bo'lib, o'quvchilarni turli murakkablik darajasiga ega bo'lgan o'quv materiallari bilan ishlashga undab, topshiriqlarni muvofiqlashtirish, ularni o'quvchilar idroki, diqqati, xotirasi, fikrlash jarayonlari, temperamenti, moslashtirishni taqozo qiladi.

2. ixtiyoriy sifatleri, o'z mayllariga O'quvchilarning o'z-o'zlarini mustaqil rivojlantirishlari va mustaqil bilim olishlarini ta'minlash prinsipi. Mazkur prinsip o'quvchilarning mustaqil bilim olishlari uchun sharoit yaratishdan iborat bo'lib, ularning mustaqil bilish, o'z faoliyatlari ahamiyatini mustaqil tarzda aniqlash, o'zlarini takomillashtirish, mustaqil rivojlanish, mustaqil bilim olish va mustaqil o'rganishdan iborat ekanligini namoyon qilish imkonini beradi. O'quvchi shaxsining shakllanishi jarayonida yechilishi muhim bo'lgan vazifalardan biri, ularning o'zligini namoyon qilishlariga imkoniyat yaratishdan iborat. O'quvchilarning ongli tarzda faollik ko'rsatishlari ularning ijodiy layoqatlarini rivojlantiradi, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun sharoit yaratadi va o'z faoliyatlarini dolzarblashtirish imkonini beradi. O'z faolliklarini namoyon qilish jarayonida o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishlari va faoliyatlarini takomillashtirishlari uchun sharoit yaratiladi. Bu esa o'quvchilarda kreativ faollikning shakllanishi va ijodiy layoqatlarini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratadi. Shaxsga yo'naltirilgan o'quv vaziyatlarini tashkil etish natijasida o'quvchilarning o'quv hamda ijodiy mustaqilliklari ta'minlanadi. O'quvchilarda kreativ faollikning rivojlanishi natijasida ularning mustaqil bilim olish, o'rganish, o'z-o'zlarini tarbiyalash, rivojlanish, o'z faoliyatlarini dolzarblashtirish va ro'yobga chiqarishlari uchun qulay sharoit yaratiladi. Mazkur pripsipning tatbiq etilishi ta'lim jarayonida o'quvchilarning imkoniyatlarini ochishga ko'maklashadi. O'quvchilarda o'z-o'zini rivojlantirish layoqatining namoyon bo'lishi mustaqil o'qish, rivojlanish, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z mavqeini aniqlash hamda o'z faoliyatini amalda tatbiq etish kabilarida namoyon bo'ladi.

3. O'quvchilarning ijodiy imkoniyatlari ko'lamini kengaytirish prinsipi. O'quvchilarning ijtimoiy faollik layoqatlarini rivojlantirish ta'lim olish va rivojlanish mikrosotsium talablariga javob berishi lozim. O'quvchilar ijtimoiy layoqatlarining rivojlanish imkoniyatlari darajasi ularning kreativ faolliklariga bog'liq. Chunki ijtimoiy muhit o'quvchilarning ruhiyati va ijodiy imkoniyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ularni o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish haqida o'ylashga undaydi.

4. O'quvchilar tajribasining shaxsiy xarakter kasb etishi prinsipi. Mazkur prinsip o'quvchilarning shaxsiy tajribalarini hisobga olish asosida ta'limni individuallashtirish va tabaqalashtirish, har bir o'quvchiga pedagogik ta'sir ko'rsatish usullarini belgilash imkonini beradi. Har bir o'quvchi shaxsiy ijtimoiy tajriba sohibi hisoblanadi. Bu tajriba ta'lim jarayonida uzluksiz tarzda boyib boradi. O'quvchilarning shaxsiy tajribalari ortishiga quyidagi holatlar sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi: a) o'quvchilar intellekti, bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarining rivojlanish darajasi; b) har bir o'quvchining mayllari, istaklari, o'ziga xos xususiyatlari, o'ziga xos tafakkur tarzi, atrof-muhitni idrok etishi va bilishi, o'quv materiallari ustida ishlash usullari; v) har bir o'quvchi erishgan muvaffaqiyatlari darajasi kabilar. O'quvchilarning fikriy darajasiga ta'sir ko'rsatadigan barcha holatlar ular hayotiy tajribasining manbai bo'lib, bilim olishga yo'naltiruvchi asosiy omil hisoblanadi. O'quvchilar hayotiy tajribalarining manbai sifatida o'quv materiallari, yangicha metodik yondashuvlar, ularga taqdim etiladigan turli didaktik topshiriqlar bo'lishi mumkin. Kreativ faollik faoliyat ko'nikmalari o'quvchilarga o'z faoliyatlarini ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda mavjud bilimlari va o'quv faoliyati maromi doirasida tashkil etishga ko'maklashadi. O'quvchilarning shaxsiy tajribalariga tayanish ularga aniq yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash imkonini berib, o'z-o'zlarini namoyon qilish ehtiyojlarini

- 92 qondirishga xizmat qiladi. 5. O'quvchilarning ruhiy fiziologik xususiyatlarini hisobga olish prinsipi. Mazkur prinsipga asoslangan holda o'quvchilarda kreativ faollikni shakllantirish ularning layoqatlari, istaklari, mayllari, qiziqishlarini hisobga olishni taqozo qiladi. Ta'limning insoniy paradigmasi o'quv jarayonida muayyan texnologiyalarni qo'llashda nafaqat mikrosotsium talablari, balki o'quvchilarning individual, ruhiy va shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olish lozimligini ko'rsatmoqda. O'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishda ularning ruhiy fiziologik xususiyatlari hisobga olingandagina kutilgan samaradorlikka erishish mumkin. Buning uchun dastlab o'quvchilarning intellektual darajalarini aniqlash, ular ruhiyati va jismining o'ziga xos jihatlarini hisobga olish talab qilinadi. O'quvchilar o'z imkoniyatlari, mayllari, xususiyatlari, layoqatlari, kechinmalari, fikrlari, maqsadlari, qo'lga kiritgan natijalarini hissiy fikriy jihatdan to'g'ri baholagandagina ijod qilish imkoniyati vujudga keladi. Ijod qilishga moyil bo'lgan har bir o'quvchi o'z faoliyati jarayonida jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy-madaniy me'yorlarga amal qilish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Mustaqil bilish faoliyatining tarkibiy qismlaridan biri – o'z-o'zini baholashdir. O'z-o'zini baholash asosida o'quvchilarning shaxsiy fikrlari tizimi hamda qadriyatli yo'nalishlari namoyon bo'ladi. O'quvchilarda o'zidan qoniqish darajasining namoyon bo'lishida o'z-o'zini baholash faoliyati davomida erishgan yutuqlari va kamchiliklarini aniq ko'ra olish imkonini beradi.

**Xulosa qilib aytganda** kreativlik – o'quvchilarning ruhiy faolliklarini namoyon qiluvchi muhim vositalardan biridir. O'quvchilarning faolliklari ularning mayllari va o'z-o'zini boshqarish imkoniyatlari bilan bevosita bog'liq. O'quvchilarning kreativliklari ular ruhiyatiga xos bo'lgan belgilar yig'indisidan iborat bo'lib, faoliyatlaridagi muhim jihatlarining shakllanishiga ko'maklashadi. O'quvchilarning kreativliklari ularning o'z o'zlarini boshqarish faoliyatining tarkibiy qismi sifatida mazkur faoliyatning rivojlanish tarzini ifodalaydi. Kreativlikning rivojlanishi uchun o'quvchilarda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalari yuqori darajada shakllangan bo'lishi lozim. Kreativ faoliyatning muhim mezonlaridan biri o'zgaruvchan tafakkurdir. Bu ochiq, ijodiy xarakterga ega bo'lgan, hodisalarni ommalashtirishga moyil, o'zaro aniq bog'lanishga ega bo'lmagan tafakkurdir. Mazkur jarayonda o'quvchilarni fikrlashga undaydigan topshiriqlar ulardagi kreativlikni amalda namoyon qilish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarda izlanuvchanlik, yaratuvchanlik faoliyatini ham ta'minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdinazarova Z.X. Pedagogik texnologiyalarning talabalar aqliy taraqqiyotiga psixologik ta'siri. Psix.fan.nomz...diss.-Toshkent, 2012.–144b.
2. Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fanl. dokt. diss. – Toshkent, 2003. –276 b.
3. Gilford Dj. Formirovanie divergentnogo mishleniya u studentov pedagogicheskix spetsial'nostey v usloviyax sovremennogo vuza//Vestnik Vostochno-Sibirskoy gosudarstvennoy akademii obrazovaniya. 2012. № 17. S. 20-23.
4. Adizova. N.B. On the problem of scientific and theoretical research on the development of divergent thinking of primary class students. E3S Web of Conferences 431, 09020 (2023) ITSE-2023

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILIDAN SAVODXONLIK  
DARAJASINI OSHIRISH METODLARI**

**Annotatsiya.** Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidan savodxonlik darajasini oshirishning samarali metodlarini o'rganadi. Tadqiqotda kommunikativ metod, mnemonika texnikalari va audio-lingval yondashuvlarning ta'lim jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Eksperimental guruhda o'quvchilar bu metodlar orqali ingliz tilidagi so'zlarni tezroq o'zlashtirgan va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirgan. Tadqiqot natijalari, innovatsion yondashuvlarning an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroq ekanligini ko'rsatadi, hamda ta'lim jarayonida motivatsiyaning muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi.

**Kalit so'zlar:** Ingliz tili, savodxonlik, boshlang'ich sinf, metodlar, kommunikativ metod, mnemonika, audio-lingval yondashuv, o'quvchilar, ta'lim jarayoni, motivatsiya.

**МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ГРАМОТНОСТИ ПО АНГЛИЙСКОМУ  
ЯЗЫКУ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются эффективные методы повышения уровня грамотности по английскому языку учащихся начальных классов. В исследовании анализируется влияние коммуникативного метода, приемов мнемотехники и аудиолингвальных подходов на процесс обучения. В экспериментальной группе учащиеся быстрее усваивали английские слова с помощью этих методов и развивали коммуникативные навыки. Результаты исследования показывают, что инновационные подходы более эффективны по сравнению с традиционными методами, а также подтверждают, что мотивация играет важную роль в процессе обучения.

**Ключевые слова:** английский язык, грамотность, начальный класс, методы, коммуникативный метод, мнемоника, аудио-лингвальный подход, учащиеся, учебный процесс, мотивация.

**METHODS TO INCREASE THE LITERACY RATE OF PRIMARY SCHOOL  
STUDENTS FROM ENGLISH**

**Annotation.** This article explores effective methods to increase the literacy rate of Primary School students from English. The study analyzes the impact of communicative method, mnemonics techniques and audio-lingual approaches on the educational process. In the experimental group, Students acquired faster English vocabulary and developed communication skills through these techniques. The results of the study show that innovative approaches are more effective than traditional methods, as well as confirm that motivation plays an important role in the educational process.

**Keywords:** English, literacy, primary grade, methods, communicative method, mnemonics, audio-lingual approach, learners, educational process, motivation.

**Kirish.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidan savodxonligini oshirish zamonaviy ta'lim jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Globalizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, texnologiyalarning rivojlanishi va xalqaro aloqalarning kuchayishi natijasida ingliz tilini erta bosqichda o'rgatish dolzarb masalaga aylandi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, yosh bolalar til o'rganishda yuqori qobiliyatga ega bo'lib, ularning nutqiy va yozma ko'nikmalarini erta rivojlantirish keyingi ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi (Shaturaev, 2023). Ingliz tilidan savodxonlikni oshirishda turli metodlar mavjud bo'lib, ularning



94 samaradorligi o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qabul qilish darajasi va o'qitish jarayonida qo'llanilayotgan texnologiyalarga bog'liq. Zamonaviy yondashuvlar orasida kommunikativ metod, mnemonika (eslab qolish texnikalari), audio-lingval metod va vizual yondashuvlar muhim o'rin tutadi (Mamedova, 2023). Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ingliz tilini o'rganish jarayoni tabiiy til muhitiga yaqinlashtirilgan holda tashkil etilishi samarali natijalar beradi.

Psixologik va pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida savodxonlikning rivojlanishi bevosita eshitish va ko'rish orqali ma'lumotni qabul qilish darajasiga bog'liq (Muminova, 2020). Shu sababli, tinglab tushunish (audirovaniye) ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodlar o'quvchilarning nutqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (Biryukova, 2015). Bunday metodlar orasida audio-materiallardan foydalanish, ingliz tilida hikoyalar tinglash va audio-lingval mashg'ulotlarni o'tkazish katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ingliz tilidan savodxonlikni oshirishda interfaol ta'lim metodlari, jumladan, o'yin texnologiyalari, rol o'yinlari va multimediya materiallaridan foydalanish bolalarning qiziqishini oshirib, o'zlashtirish jarayonini tezlashtiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ingliz tilini o'yinlar yordamida o'rganish, vizual materiallar bilan boyitilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi (Shaturaev, 2023). Shunday qilib, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion metodlar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidan savodxonligini oshirish mumkin.


**Adabiyotlar tahlili.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidan savodxonligini oshirish metodlari turli tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Shaturaev (2023) o'zining "Methodology of Teaching English at the Primary School Level" nomli maqolasida boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'qitish usullari haqida batafsil to'xtalib, kommunikativ metod va interfaol yondashuvlarning samaradorligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, bolalar bilan o'tkaziladigan ingliz tili mashg'ulotlari tabiiy til muhitiga yaqinlashtirilgan bo'lsa, ularning qobiliyati tezroq shakllanadi. Mnemonika texnikalari yordamida ingliz tilini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda Mamedova (2023) bolalarning eslab qolish qobiliyatini oshirish usullariga e'tibor qaratgan. Uning fikriga ko'ra, eslab qolish texnologiyalari, vizual materiallar va assotsiativ yondashuvlar orqali yangi so'zlarni o'rganish jarayoni tezlashadi.

Tinglab tushunish (audirovaniye) metodlari haqida Biryukova (2015) o'z tadqiqotida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun audiolingval metodning ahamiyatini ta'kidlagan. U dars mashg'ulotlarida audio-materiallardan foydalanish orqali bolalarning talaffuzi va tinglab tushunish ko'nikmalari yaxshilanishini ko'rsatib bergan. Muminova (2020) esa bolalar savodxonligi va ularning yozma ko'nikmalarining rivojlanishi bo'yicha olib borgan tadqiqotida o'qituvchilarning didaktik yondashuvlarini o'rganib, interfaol metodlarning samaradorligini qayd etgan. Uning fikricha, erta yoshdagi ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar qo'llanilishi bolalarning til ko'nikmalarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, yuqoridagi tadqiqotlar ingliz tilidan savodxonlikni oshirishda interfaol metodlar, mnemonika texnikalari va audio-lingval usullar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu metodlarni o'quv jarayoniga keng joriy etish boshlang'ich sinf o'quvchilarining til o'rganish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidan savodxonlik darajasini oshirish uchun uch asosiy metod qo'llanildi: kommunikativ metod, mnemonika texnikasi va audio-lingval yondashuv. Kommunikativ metod doirasida o'quvchilar bilan faol muloqot olib borilib, darslarda suhbat va rolli o'yinlar tashkil etildi. Maqsad bolalarning tabiiy ravishda gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirish edi. Bunda har bir darsning kamida 30 foizi og'zaki muloqotga ajratildi. Mnemonika texnikasi yordamida yangi so'zlarni yodlash jarayoni soddalashtirildi. Bu usul asosida so'z va tasvirlar o'rtasida bog'liqlik yaratilib, o'quvchilarga maxsus kartalar va rasmlar yordamida eslab qolish texnikalari o'rgatildi. Audio-lingval metod orqali esa bolalarning eshitish qobiliyatini oshirishga e'tibor qaratildi. Ushbu metod bo'yicha har bir darsda 10-15 daqiqa davomida audio-matnlar tinglatildi va ularga asoslangan savol-javob mashg'ulotlari o'tkazildi. Bu metodlarning barchasi eksperimental sinfda bir oy davomida sinovdan o'tkazildi.



O'quvchilar savodxonlik darajasining oshishi ushbu metodlarning samaradorligini ko'rsatdi. Tadqiqot uchun ikkita guruh tanlandi: eksperimental (innovatsion metodlar qo'llangan) va nazorat guruhi (an'anaviy usulda ta'lim olgan). Sinov natijalari quyidagi ko'rsatkichlarni berdi:



1-rasm. Natijalar umumiy ko'rinishi

Eksperimental guruhdagi o'quvchilarning yangi so'zlarni eslab qolish ko'rsatkichi 85% ni tashkil etdi, bu esa nazorat guruhidagi 60% bilan solishtirganda 25% yuqori ekanligini ko'rsatdi. Bu natijalar mnemonika texnikasidan samarali foydalanish natijasi ekanligini tasdiqlaydi. Rasm va so'zlarni bog'lash orqali bolalar yangi lug'at birliklarini tezroq o'zlashtirishgan.

Shuningdek, eksperimental guruhdagi o'quvchilarning mustaqil gap tuzish qobiliyati ham yaxshilandi. Sinov natijalariga ko'ra, ularning 78% i oddiy gaplarni mustaqil tuza olgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 55% ni tashkil etdi. Kommunikativ metodning qo'llanilishi natijasida o'quvchilar real hayotiy muloqotga o'xshash sharoitlarda ingliz tilini qo'llash imkoniga ega bo'lishdi. Ularning fikr bildirish qobiliyati kuchaydi va til to'siqlari kamaydi.

Tinglab tushunish bo'yicha mashg'ulotlar ham sezilarli natija berdi. Eksperimental guruhdagi o'quvchilarning 82% i eshitilgan matnni tushuna oldi, bu esa nazorat guruhiga qaraganda 24% yuqoridir. Ushbu natija audio-lingval metoddan foydalanish samaradorligini ko'rsatadi. Dars jarayonida tinglov mashg'ulotlariga alohida e'tibor berilgani sababli, o'quvchilar ingliz tilidagi tabiiy nutqqa o'rganib bordilar va intonatsiya, talaffuz hamda asosiy ma'nolarni anglashda ancha oldinga siljish kuzatildi.

Ingliz tilida muloqot qilish ko'nikmalari ham eksperimental guruhda ancha yuqori bo'ldi. Mazkur guruhdagi o'quvchilarning 75% i suhbat qurish qobiliyatiga ega bo'lib, ular o'z fikrlarini oddiy jumlar yordamida ifodalashni o'rgandilar. Nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 50% ni tashkil etdi. O'quvchilar bilan olib borilgan suhbatlar natijasida aniqlanishicha, rolli o'yinlar, dialoglar va jamoaviy mashg'ulotlar bolalarning til bilishiga ijobiy ta'sir qilgan. Bu esa kommunikativ metodning samaradorligini yana bir bor tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida aniqlangan yana bir muhim jihat – motivatsiyaning oshishi. Eksperimental guruhdagi bolalar ingliz tilini o'rganishga yanada qiziqish bildirgan bo'lsa, nazorat guruhidagi o'quvchilar an'anaviy usullar sababli qiyinchiliklarga duch kelgan. Ushbu farq pedagogik metodlarning ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, innovatsion metodlar, xususan, kommunikativ metod, mnemonika va audio-lingval yondashuvlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidan savodxonligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Ushbu metodlarning kombinatsiyasi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirib, bolalarning ingliz tilini tabiiy va qiziqarli usulda o'rganishiga imkon yaratadi. Bu metodlar orqali ta'lim berishning ahamiyati, ayniqsa, yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqishda e'tiborga olinishi lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilini o'qitishda faqat grammatik qoidalarga asoslangan yondashuv o'rniga, kommunikativ yondashuvni kuchaytirish kerak. Kelgusida bu metodlarni yanada kengroq sinovdan o'tkazish va ularni o'quv dasturlariga tatbiq etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidan savodxonligini oshirishda an'anaviy usullarga qaraganda innovatsion yondashuvlar samaraliroqdir. Eksperimental guruhdagi o'quvchilarning natijalari shuni tasdiqlaydi. Xususan, kommunikativ metod bolalarning muloqot qobiliyatini sezilarli darajada oshirdi. Mnemonika texnikasi esa yangi so'zlarni tezroq eslab qolishga yordam berdi, bu esa lug'at boyligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu natijalar Shaturaev (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan hamohang bo'lib, uning ishida ham boshlang'ich sinflarda interaktiv metodlarning samaradorligi ta'kidlangan. Shuningdek, Мамедова (2023) mnemonika texnikasining ahamiyatini ta'kidlab, bu usul bolalarning eslab qolish jarayonini sezilarli darajada yaxshilashini ko'rsatgan. Bizning tadqiqotimiz ham ushbu natijalarni tasdiqlaydi.

Biroq, bu metodlarning har biri o'quvchilarning individual xususiyatlariga bog'liq bo'lib, ayrim bolalar an'anaviy metodlarga ham ehtiyoj sezishi mumkin. Masalan, Бирюкова (2015) eshitish orqali o'qitish muhimligini qayd etib, audio-lingval metoddan to'g'ri foydalanish zarurligini ta'kidlagan. Bizning tadqiqotimizda ham ushbu metod samarali natijalar bergan bo'lsa-da, uni boshqa usullar bilan uyg'unlashtirish muhimligini ko'rsatdi. Shuningdek, o'quvchilarning qiziqishini doimiy saqlash muhim masalalardan biri ekanligi kuzatildi. Muminova (2020) ta'kidlaganidek, erta yoshdagi ta'lim jarayonida motivatsiya yetakchi rol o'ynaydi. Bizning tajribalarimizda ham interaktiv metodlar orqali o'quvchilarning darslarga bo'lgan qiziqishi ortgani kuzatildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidan savodxonlik darajasini oshirish uchun turli metodlarni sinovdan o'tkazgan holda, ushbu tadqiqot innovatsion yondashuvlarning samaradorligini isbotladi. Kommunikativ metod bolalarning muloqot qobiliyatini rivojlantirishga yordam bergan bo'lsa, mnemonika texnikasi yangi so'zlarni eslab qolish jarayonini tezlashtirdi. Audio-lingval metod orqali esa bolalarning tinglab tushunish ko'nikmalari oshdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ushbu yondashuvlarning kombinatsiyasi o'quvchilarning barcha til ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Eksperimental guruhdagi natijalar nazorat guruhiga qaraganda sezilarli darajada yuqori bo'ldi. Xususan, yangi so'zlarni eslab qolish darajasi 25% ga, gap tuzish qobiliyati esa 23% ga yaxshilandi. Ushbu metodlarning samaradorligi boshqa tadqiqotlar bilan ham tasdiqlanib, ayniqsa, motivatsiyani oshirish borasida muhim natijalarga erishildi.

Biroq, tadqiqot shuni ham ko'rsatdiki, har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olish zarur. Ba'zi bolalar an'anaviy yondashuvlarga ham ehtiyoj sezishi mumkin, shuning uchun muvozanatli metodlar qo'llash muhimdir. Kelgusida bu metodlarning uzoq muddatli ta'siri va ularni yanada samarali qilish yo'llari bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borish tavsiya etiladi. Umuman olganda, boshlang'ich sinflarda ingliz tilidan savodxonlikni oshirish uchun innovatsion metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday yondashuvlar nafaqat o'quvchilar natijalarini yaxshilaydi, balki ularning chet tiliga bo'lgan qiziqishini oshirib, mustaqil ta'lim olishga motivatsiya beradi. Shunday qilib, bu usullar ta'lim jarayoniga yanada kengroq joriy etilishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Shaturaev, J. (2023). Methodology of teaching English at the primary school level: Enhancing English language skills. *Academic research in educational sciences*, 4(1), 152-166.
2. Мамедова, Л. В. (2023). Влияние применения мнемотехники на эффективность изучения английского языка. *Управление образованием: теория и практика*, 13(10-2), 27-33.
3. Бирюкова, Е. А. (2015). Обучение аудированию на уроках английского языка в начальной школе. *Педагогический журнал*, (6), 83-95.
4. Muminova, D. (2020). Preschool Teachers' Beliefs and Practice Regarding Emergent Literacy in a Post-Stagnation Period: The Case of Uzbekistan. *Journal of Contemporary Educational Studies/Sodobna Pedagogika*, 71(3).
5. Wyse, D., Bradford, H., Jones, R., & Wolpert, M. A. (2018). Teaching English, language and literacy. Routledge.
6. Адаева, О. М., & Каргина, А. Т. (2021). Роль и место театральных технологий на уроке английского языка в начальной школе. *Поволжский педагогический вестник*, 9(3 (32)), 100-108.

**Jo'rayev Akmal Razzoqovich**  
Buxoro davlat pedagogika institute  
professori, pedagogika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)

**Shodiyeva Sitora Ulug'bek qizi**  
Buxoro davlat universiteti  
tayanch doktoranti

### **BO'LAJAK TEXNOLOGIK FANI O'QITUVCHILARINING TEXNIK-KONSTRUKTORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-METODIK AHAMIYATI**

**Annotatsiya.** Hozirgi kundagi yangiliklar, yuqori samaradorlikka asoslangan innovatsiyon texnologiyalarning o'sib borishi, hayotning barcha jabhalarida to'rtinchi texnologik inqilobni yuzaga keltirayotganligi bugungi kun shaxsining ushbu jaryonlarga nisbatan motivatsiyalari real hayotdagi va jamiyatning talablariga asosan o'zgarishi va ijtimoiy kundalik hayotni ilmiy-tadqiqot, texnika taraqqiyoti konsepsiyalari bilan ta'limning integrativ yondashuvini amalga oshirishni uzviy davom ettirishni taqazzo etmoqda.

**Kalit so'zlar:** Texnik-dizayn, kompetensiya, salohiyat, kasbiy kompetensiya, kasbiy faoliyat, qobiliyat, faoliyat, ko'nikma, dizayn, modellashtirish.

### **THE SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL IMPORTANCE OF DEVELOPING THE TECHNICAL AND DESIGN COMPETENCE OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS**

**Annotation.** The current news, the growing rise of innovative technologies based on high efficiency, and the emergence of the fourth industrial revolution in all areas of life are driving the motivation of today's individual in relation to these processes. These motivations are changing according to the real-life and societal demands, and this requires the continuous implementation of an integrative approach to education, combining scientific research, technical progress, and conceptual frameworks.

**Keywords:** Technical design, competence, potential, professional competence, professional activity, ability, activity, skill, design, modeling.

### **НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ТЕХНИЧЕСКО-КОНСТРУКТОРСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН**

**Аннотация.** Актуальные новости, рост инновационных технологий, основанных на высокой эффективности, и возникновение четвертой промышленной революции во всех сферах жизни формируют мотивацию современного человека в отношении этих процессов. Эти мотивации меняются в зависимости от требований реальной жизни и общества, что требует непрерывного внедрения интегративного подхода в образование, сочетая научные исследования, технический прогресс и концептуальные рамки.

**Ключевые слова:** Технический дизайн, компетенция, потенциал, профессиональная компетенция, профессиональная деятельность, способность, деятельность, навыки, проектирование, моделирование.

**Birinchi navbatda kompetentlik tushunchasiga izoh berilsa, kompetentlik – bu inglizcha “competence” tushunchasidan olingan bo'lib, lug'aviy ma'nosi “qobiliyat” tushunchasini ifodalasa, mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish” tushuniladi**

**Kompetentlik** – tushunchasi shaxsning doimo o'sib boruvchi tasnifiy belgisi bo'lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni yechish qobiliyati, o'z bilimi, o'quv va hayotiy

98 tajribalari, qadriyatlari va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari hisoblanib, olingan bilimlarni kasbiy faoliyda qo'llashning o'ziga xos tipi bo'lib, shaxsning umumiy intellektual rivojlanishida, kasbiy masalalarni maksimal darajada samarali hal qila bilish va atrofdagi borliq talablarini ob'ektiv ravishda baholay bilish imkonini beruvchi mavjud aqliy tajribaning tarkibiy qismlari, axborotni qayta ishlash mexanizmining, individual ravishda intellektual faoliyatni tanlay bilishning shakllanganligida o'z ifodasini topishi izohlangan.

Dissertatsiya mavzusi "Talabalarni texnik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish" deb nomlangan bo'lib, ushbu 1.2-poragraf nomi esa dissetatsiyaning asosiy mazmuniga oid ya'ni, "Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining texnik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-metodik ahamiyati" sifatida tadqiq qilinib, ushbu poragrafda asosiy tushuncha – talabalarning texnik-konstruktorlik kompetentligini batafsil ochib berish maqsadida, birinchi navbatda quyida texnik-konstruktorlik kompetentlik haqida izohlash maqsadga muvofiq deb topildi:

**Texnik-konstruktorlik kompetentlik** – mutaxassis tomonidan texnik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni real amaliyotda yuqori darajada qo'llay olishi tushunilib, har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

*Konstruktorlik – ishlab chiqarishga oid tizimlar, qurilmalar, inshootlar yoki mexanik va texnik tuzilmalarni yaratish, loyihalash va modellashtirish ishlab chiqarish jarayonlariga oid faoliyat bo'lib, yangi mahsulotlarni yaratish, mavjud tizimlarni yaxshilash va ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish hisoblanib, loyihalash, modellashtirish, yaratish va ishlab chiqarish, texnik va mexanik tuzilmalarni yaratish.*

**Loyihalash** – konstruktorlik jarayonining dastlabki bosqichi bo'lib, ko'zda tutilgan yoki mavjudligi mumkin bo'lgan ob'yekt yoki amalga oshirilishi lozim bo'lgan faoliyatni oldindan qanday tartibda va ko'rinishda bo'lishini belgilangan holatining timsoli - loyihasini yaratish jarayoni hisoblanadi. (51)

**Modellashtirish** – konstruktorlik jarayonida ishlab chiqilayotgan ob'yektning loyihasi asosida modelini yaratish yoki virtual ko'rinishda namoyon qilish, muayyan hodisa, jarayon yoki ularning modellarini yasab o'rganish yo'li bilan tekshirish orqali yangi yaratilayotgan ob'yektlar haqidagi ma'lumotlarni aniqlash va ularni qurish tushuniladi.

*Yaratish va ishlab chiqarish – konstruktorlik faqat loyihalash bilan cheklanmaydi. Mahsulotni yaratish, ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish va texnik xatoliklarni tuzatish ham konstruktorlik faoliyatining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.*


*Texnik va mexanik tuzilmalarni yaratish – konstruktorlik ko'pincha mexanik, elektron va boshqa texnik tuzilmalarni yaratishga qaratilgan bo'lib, o'z ichiga qurilmalarni, mashinalarni, avtomatlashtirilgan tizimlarni va boshqa texnologik inshootlarni loyihalashni qamrab oladi.*

*Konstruktorlik nafaqat yangi texnologiyalarni yaratishda, balki mavjud tizimlarni yaxshilash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.*

Ushbu tadqiqot ishida bo'lajak o'qituvchilarning kompetentligi tushunchasi asosiy mazmun sifatida aks etganligi sababli quyida ushbu tushunchaga qisqacha mazmundagi mualliflik ta'rifi berib o'tildi.

**Bo'lajak o'qituvchilarning kompetentligi** – mutaxassis tomonidan bo'lajak o'qituvchilarning faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda mutaxassislikka oid bilimlarni doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida amalda yuqori darajada qo'llay olinishi tushuniladi.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'lishi izohlangan (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini namoyon bo'lish holatlari.**

Quyida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligining namoyon bo'lish holatlarining mazmun-mohiyati izohlangan:

**Murakkab jarayonlarda** – dars mashg'ulotlarni samarali tashkil etish va boshqarishda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi, innovatsion texnologiyalarni mukammal o'rganish, shuningdek, amaliy faoliyatda ilmiy va texnik bilimlarni integratsiyalash kerak bo'ladi. Bu jarayonlar o'qituvchidan nafaqat texnik bilimlarni mukammal egallashni, balki ularni pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ijodiy yondashuvlarni qo'llashni ham talab etadi.


**Noaniq vaziyatlarni bajarishda** – bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarni yangi texnologik yechimlarni ishlab chiqish, amaliy vazifalarni hal qilish hamda mustaqil qarorlar qabul qilishga tayyorlash va o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslashishni taqazo etadi. Texnologiya fani o'qituvchisi noaniq yoki murakkab vaziyatlarda, masalan, texnologik inqiloblar yoki raqamli o'zgarishlar ta'sirida ta'lim tizimida yuzaga keladigan yangi muammolarni hal qilish va tezkor, samarali qarorlar qabul qilishda yuqori kompetentlikka ega bo'lishi lozim.

**Bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda** – bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari turli manbalardan olingan axborotlarni tahlil qilish va ularni muvozanatli tarzda umum o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga taqdim etishda, o'qituvchi, texnologiya sohasida yuzaga keladigan qarama-qarshi fikrlarni va turli nuqtai nazarlarni to'g'ri tahlil qilish, ulardan samarali foydalanish va bu ma'lumotlarni ta'lim jarayoniga muvofiq tarzda integratsiya qilish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak.

**Kutilmagan vaziyatlarda harakat rejasiga ega bo'la olishda** – texnologik asbob-uskunalar yoki dasturiy ta'minotdagi nosozliklar, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarning texnik qobiliyatlaridagi o'zgarishlar yoki o'qitish jarayonida yuzaga kelgan boshqa kutilmagan holatlarni tezda aniqlash va samarali ravishda yechishlari lozim bo'ladi. O'qituvchi, bu kabi vaziyatlarda aniq va tezkor qarorlar qabul qilish, umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarga yordam ko'rsatish va o'qitish jarayonini to'xtatib turmasdan davom ettirish uchun zarur bo'lgan rejani ishlab chiqishi tushuniladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etishi izohlangan (2-rasmga qarang).





## 2-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarning kompetentlik negizidagi sifatlar.

**Ijtimoiy** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olishdir. Bu, o'z navbatida, bir kishining ijtimoiy muhitda o'zini qanday tutishi, boshqalar bilan samarali muloqotga kirishish va o'z fikrlarini aniq ifoda etish qobiliyatiga bog'liqdir.

**Maxsus** – bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatini tashkil etishga tayyorlash va kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish hamda faoliyati natijalarini real baholash demakdir. (52)

**Shaxsiy** – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish tushuniladi.

**Texnologik** – bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olishi bilan izohlanadi.

**Ekstremal** – bo'lajak o'qituvchilarning favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik hamda shu yo'lda xizmat qila oladigan bo'lishlari lozim.(53)

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kompetentligi – bu talabalarning pedagogik, ilmiy, texnik va metodik bilim va ko'nikmalarni o'zida jamlagan holatini anglatadi. Ushbu kompetentlik bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining "Texnologiya" fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilariga ta'lim berish jarayonini samarali tashkil etish va yuksak natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirganligini ifodalaydi va zamonaviy texnologiyalarga, ilmiy-texnik bilimlarga ega bo'lishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan bir qator ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirishda quyidagi asosiy jihatlar muhim hisoblanadi:

- bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi texnologik sohadagi asosiy ilmiy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi zarur. Bu, masalan, yangi texnologiyalar, dasturiy ta'minot, robototexnika, 3D modellash, sanoat texnologiyalari, elektrotexnika va boshqa sohalarni o'z ichiga oladi.

- zamonaviy texnologiya fani o'qituvchisi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, jumladan, kompyuter, internet, multimedia va interaktiv o'quv vositalarini umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilariga ta'lim berish jarayonida samarali ishlashda kompetent bo'lishi hamda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisiga elektron resurslar, onlayn darslar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va boshqa texnologik vositalarni qo'llashda hamda ta'lim berishda katta yordam beradi.

- bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi doimiy ravishda yangi bilimlarni o'rganishga va o'z malakasini oshirishga intilishi kerak. Bu, yangi texnologiyalarni, o'qitish usullarini va pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari o'z kompetentliklarini rivojlantirgan holda, umumiy o'rta ta'lim o'quvchilariga zamonaviy texnologiyalarni samarali va ulardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Bo'lajak texnologiya fani o'quvchilarning texnik-konstruktorlik (texnologik) savodxonligini oshirish, ularni kelajakda raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlashga yordam beradi.

**Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining texnik-konstruktiv kompetentligi** – bu

texnologiya fani doirasida konstruktiv fikrlash, texnik jarayonlarni boshqarish, turli texnologik qurilmalarni yaratish va ishlab chiqishda zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishini anglatadi. Bu kompetentlik talabaning texnik sohadagi bilimlarini o'quvchilarga yetkazishda, amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda va texnik yechimlarni yaratishda muvaffaqiyatli bo'lishiga imkon yaratadi.

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarning texnik-konstruktiv kompetentligini rivojlantirishda quyidagi asosiy komponentlardan iborat: texnik bilimlar, konstruktiv fikrlash va innovatsion yondashuvlar bo'lib quyida izohlangan (1-jadvalga qarang).

#### 1-jadval

#### Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarning texnik-konstruktiv kompetentligini rivojlantirishning asosiy komponentlari

| №  | Asosiy komponentlar      | Asosiy komponentlar mazmuni                                                                                                                                                                                                                                |
|----|--------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | Texnik bilimlar          | Materiallar va ularning xususiyatlari, asbob-uskunalar, texnologik jarayonlar, energetika tizimlari, va boshqalar. Bu elementlar bo'lajak o'qituvchining ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni tushunishini ta'minlaydi..                            |
| 2. | Konstruktiv fikrlash     | Texnologik tizimlarni yaratish va ularni optimallashtirishda kerakli bo'lgan texnik muammolarni hal qilish qobiliyati. Bu konstruktiv fikrlashni rivojlantirish talabalarga nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalarni ham berishga imkon yaratadi. |
| 3. | Innovatsion yondashuvlar | Texnologik yangiliklarni qo'llash, yangi konstruksiyalarni yaratish va ishlab chiqarishni raqamlashtirish, robototexnika, 3D bosib chiqarish texnologiyalari kabi yangi texnologiyalarni o'qitish jarayoniga integratsiya qilish.                          |

Talabalarning texnik-konstruktiv kompetentligini rivojlantirishning asosiy komponentlari, bo'lajak o'qituvchilarning texnologiya fanini samarali o'rgatish, murakkab texnik muammolarni hal qilish, yangi metodlarini ishlab chiqish, hamda ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Texnik bilimlar bo'lajak o'qituvchilarga texnologiya fanining nazariy va amaliy asoslarini chuqur tushunishga imkon yaratadi hamda konstruktiv fikrlash va faol ishtirokini ta'minlab, ularning o'z bilimlarini mustahkamlashda yordam beradi. Innovatsion yondashuvlar esa yangilikka intilish, o'qitishning samaradorligini oshirish va ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qilishda muhim rol o'ynaydi. Texnik-konstruktiv kompetentligining asosiy komponentlarini integratsiyalash bo'lajak o'qituvchilarning professional salohiyatini yuksaltiradi, texnologiya fanini ta'lim jarayonida samarali qo'llashga imkon beradi hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilarga zamonaviy va innovatsion bilimlarni taqdim etishga yordam beradi. Bularning barchasi ta'limdagi muvaffaqiyatni ta'minlab, zamonaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilariga yuqori sifatli va zamonaga mos ta'lim berish imkonini yaratadi.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining texnik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish bugungi kunda ta'lim tizimida juda muhim masala bo'lib qolmoqda. Talabalarga texnologiya fanini samarali o'rgatish uchun ilg'or texnik bilimlarga ega bo'lishi va konstruktorlik (yaratish, ishlab chiqish) kompetentliklarini mukammal egallashi zarur. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining texnik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishning metodik ahamiyatini quyidagi asosiy sifatleri bilan ko'rib chiqish mumkin (2-jadvalga qarang).

**Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining texnik-konstruktorlik kompetentligini  
rivojlantirishning metodik ahamiyatining  
asosiy sifatlari**

| <b>№</b> | <b>Asosiy sifatlari</b>                                                | <b>Asosiy sifatlari mazmuni</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
|----------|------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.       | Innovatsion ta'lim metodlarida asoslangan yondashuv                    | Texnik-konstruktorlik kompetentlik bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarda innovatsion va zamonaviy ta'lim metodlarini qo'llashga imkon yaratadi. Bunday metodlarni talabalarga yaratish jarayonini o'rgatish va amaliy faoliyatga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Agar bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi texnik-konstruktivlik kompetentlikka ega bo'lsa, umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilariga yangi texnologiyalarni o'rgatish va ularni yaratish jarayonlarida yordam bera olishadi. |
| 2.       | Zamonaviy texnologiyalarni o'rgatish imkoniyati                        | Bugungi kunda texnologiya fani ta'limi tizimida zamonaviy robototexnika, texnik-ijodkorlik va konstruksiyalash va shunga o'xshash fanlardan dasturiy ta'lim vositalari asosida o'qitish hamda boshqa ilg'or texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Bunda talabalarning texnik bilimlarini yangilab borish, yangi texnologiyalarni o'rgatish va amaliy mashg'ulotlarni tashki, etish muhimdir.                                                                                                            |
| 3.       | Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining qobiliyatini rivojlantirish | Texnik-konstruktorlik kompetentlik talabaning yaratuvchanlik, ixtirochilik va muammoni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Talabalar o'z fikrini yaratish, yangiliklarni amalga oshirish va yangi texnik loyihalarni ishlab chiqish qobiliyatlarini shakllantiradi. Bu o'z navbatida talabaning kelajakda texnologiya sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlariga zamin yaratadi.                                                                                        |

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan har bir bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining texnik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishga oid pedagogik faoliyatida dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish, uzluksiz o'z-o'zini tahlil qilish, zamonaviy bilimlarga ega bo'lish, texnik-konstruktorlikka oid loyihalar bajarish, dasturlash texnologiyalaridan foydalanish, o'zining butun bilim va tajribasini, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga yo'naltirishi bugungi kunning muhim dolzarb masalasidir. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining texnik-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-metodik ahamiyati hamda zamonaviy texnologiyalarni o'rgatish va ularning yaratish va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, ta'lim sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini texnik-konstruktorlik kompetentlik negizidagi sifatlar orqali ilmiy darajasini oshirish, balki ularni kelajakda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlash imkoniyatlarini yaratadi hamda malakali kadrlarni tayyorlash va jamiyatni ilg'or texnologiyalar bilan ta'minlashga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Zhuraev A.R. "Berlin Studies" – Transnational journal of science and humanities. Vol.2 Issue 1.5 Pedagogical sciences. 2022. Pg. 842-848.
2. Zhuraev A.R. "Development of the Future Creativity of Future Technology Teachers on the Basis of an Innovative Approach "Central asian journal of theoretical and applied sciences". Vol. 3 No. 11, 2022 y. Pg. 39-42.

3. Jo'rayev A.R., Z.D.Rasulova "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini elektron ta'lim resurslardan foydalanib tashkil etish imkoniyatlari "Pedagogik akmeologiya". Xalqaro ilmiy-metodik jurnali. 2022 y. Maxsus son. Buxoro sh. 240-246 b.
4. Jo'rayev A.R., O.O.Xalloqova "Texnologiya darslarini pedagogik texnologiya asosida tashkil etish "Pedagogik akmeologiya". Xalqaro ilmiy-metodik jurnali. 2022 y. Maxsus son. Buxoro sh. 271-278 b.
5. Жураев А.Р., Н.Ш.Шадыева "Совершенствование электронного программного и методического обеспечения учебного процесса по профильным предметам "Ilm sarchashmalari". Ilmiy-nazariy, metodik jurnal. 2022 y. № 11 . Urganch sh. 111-115 b.
6. Jo'rayev A.R., X.A.Turayev "Chizma geometriya va muhandislik grafikasini "ubiquitous learning" texnologiyasi asosida o'qitish metodikasi "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar". Xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2022 y. № 11. Buxoro sh. 211-217 b.
7. Jo'rayev A.R., F.X. Baychayev, U.I. Bahranova "Fizika fanidan kon-metallurgiya sanoatiga oid kasbiy yo'naltirilgan masalalarni shakllantirish. UzMU xabarlar. Ilmiy-nazariy, metodik jurnali. 2022 y. № 1/12/1. Toshkent sh. 66-68 b.
8. Jo'rayev A.R., N.Sh. Shadiyeva, A.M. Shoyimov "Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalarning o'rni. UzMU xabarlar. Ilmiy-nazariy, metodik jurnali. 2022 y. № 1/12/1. Toshkent sh. 168-171 b.
9. Jo'rayev A.R., N.Sh. Shadiyeva "Dasturiy ta'lim vositalari asosida talabalarning geografik obyektlarni 3D loyihalash va modellashtirish kompetentligini rivojlantirish modeli "Pedagogik mahorat". Ilmiy-nazariy va metodik jurnal № 2 / 2023-yil. Buxoro sh. 149-155 b.
10. Jo'rayev A.R., O.O. Xalloqova "Zamonaviy yondashuvlar asosida texnologiya darslarini tashkil etish zarurati "Pedagogik mahorat". Ilmiy-nazariy va metodik jurnal № 2 / 2023-yil. Buxoro sh. 69-75 b.
11. Jo'rayev A.R., A.N. Murtazoyev, Z.O.Latipova "Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy faoliyatga oid kompetentligini rivojlantirishda mobil ilovalarni ishlab chiqish "Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў". Ilmiy-metodik jurnal № 2 / 2023-yil. Nukus sh. 342-350 b.

**Hakimova Nargiza Supxonovna**  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)

**Hamdamova Sitara Rustam qizi**  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
tayanch doktoranti

### **TALABALARNI OILAVIY QADRIYATLARGA BO'LGAN MUNOSABATLARINI SHAKLLANTIRISHDA "OILA PEDAGOGIKASI" FANINING O'RNI VA DOLZARBLIGI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqoladan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarga oilaviy hayot haqida bilim berish va oilada bolalarni tarbiyalash mazmuni, fanning rivojlanish tarixi, oila pedagogikasining ijtimoiy-iqtisodiy, meyoriy-huquqiy asoslari, oilaning vazifalari, turlari, zamonaviy oilalar rivojining o'ziga xos xususiyatlari, oila tarbiyasining mazmuni, metod, shakl va vositalari, oilada bolalar bilan muloqotning pedagogik psixologik shart-sharoitlari, ta'lim muassasi, o'qituvchilarning oila bilan olib boradigan ishlarining shakl, metod va vositalarini o'rgatishdan iborat. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalangan holda, oila va oiladagi tarbiyaviy jarayonni milliy lashtirish-xalqimiz orasida unut bo'layotgan milliy an'analar, urf-odatlar, marosimlarni qayta tiklash, yoshlar qalbida dinimiz, e'tiqodimizga hurmat munosabatini yanada o'stirishdan iboratdir.

**Kalit so'zlar:** milliy, ma'naviy, diniy qadriyatlar, yoshlar ma'naviyati, axloqiy tarbiya, ezgulik, bunyodkorlik, urf-odatlar, an'analar, marosimlar.

### **РОЛЬ И АКТУАЛЬНОСТЬ ПРЕДМЕТА "СЕМЕЙНАЯ ПЕДАГОГИКА" В ФОРМИРОВАНИИ ОТНОШЕНИЯ СТУДЕНТОВ К СЕМЕЙНЫМ ЦЕННОСТЯМ**

**Аннотация.** Основная цель данной статьи - дать учащимся знания о семейной жизни и содержании воспитания детей в семье, истории развития науки, социально-экономических, нормативных и правовых основах семейной педагогики, задачах и типах семьи, особенностях развития современной семьи, содержании, методах, формах и средствах семейного воспитания, педагогических и психологических условиях общения с детьми в семье, образовательном учреждении, форме работы педагогов с семьей. Оно заключается в методах и средствах обучения. Использование национальных ценностей в духовно-нравственном воспитании детей в семье, национализация семьи и воспитательного процесса в семье – это восстановление забываемых среди нашего народа национальных традиций, обычаев и обрядов, дальнейшее развитие уважения к нашей религии и убеждениям в сердцах молодежи.

**Ключевые слова:** национальные, духовные, религиозные ценности, духовность молодежи, нравственное воспитание, добро, творчество, обычаи, традиции, обряды.

### **THE ROLE AND RELEVANCE OF THE SUBJECT "FAMILY PEDAGOGY" IN SHAPING STUDENTS' ATTITUDES TOWARDS FAMILY VALUES**

**Annotation.** The main goal of this article is to provide students with knowledge about family life and the content of raising children in the family, the history of the development of the science, the socio-economic, normative and legal foundations of family pedagogy, the tasks and types of the family, the specific characteristics of the development of modern families, the content, methods, forms and tools of family education, the pedagogical and psychological conditions of communication with children in the family, the educational institution, the form of the work of teachers with the family. It consists in teaching methods and tools. Using national values in the spiritual and moral upbringing of children in the family, nationalization of the family and the educational process in the family is the restoration of the national traditions, customs, and



*ceremonies that are being forgotten among our people, and the further development of respect for our religion and beliefs in the hearts of young people.*

**Key words:** *national, spiritual, religious values, youth spirituality, moral education, goodness, creativity, customs, traditions, rituals.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF5938-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 820-sonli qarori va "Xalqaro oila kuni" munosabati bilan 2021-yilning 18-may kuni O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot institutida "Oila institutini mustahkamlashning dolzarb masalalari: milliy va xorijiy tajriba" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Shuningdek, Prezidentimiz tomonidan beshta muhim tashabbusning ilgari surilishi, 30-iyun sanasini mamlakatda "Yoshlar kuni" deb e'lon qilinishi, o'tgan uch yilning o'zida yoshlarga oid 50 dan ortiq qonun. Oila institutini mustahkamlashning dolzarb masalalari: milliy va xorijiy tajriba va qonunosti hujjatlarining qabul qilingani, Senatda va Qonunchilik palatasida "Yoshlar parlamentlari" faoliyatining yo'lga qo'yilishi, Yoshlar ishlari agentligi tashkil etilgani yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini ta'minlab kelmoqda. Ma'lumki, har qanday davlatning jadal taraqqiy etishi, barcha sohalarida salmoqli yutuqlarga erishishi, xalqining farovon bo'lishi yoshlarga yaratib beriladigan imkoniyat va qulayliklar bilan chambarchas bog'liq. Yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalamay turib, ularni ma'naviy komolotga yetkazish, jamiyatni ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash mumkin emas. Talaba yoshlarni oilaviy qadriyatlarga tayyorlash, ma'naviy yuksak e'tiqodga ega bo'lgan umuminsoniy fazilatlar ruhida shakllantirish, yuqori malakali mutaxassis qilib yetishtirish bugungi kunning dolzarb muammosi sanaladi. Oila pedagogikasi darsligi ma'no va mazmuni bilan uyg'unlashgan yuksak maqsad yo'lida, murakkab vazifani bajarishga qaratilgan ezgulik nishonasidir. Talabalarni oilada bolalarni har tamonlama barkamol qilib tarbiyalashga o'rgatish: oila, oilada farzand tarbiyasi muammolari, oilada manaviy muhit, muomila madaniyati masalalari, oilada islomiy manaviyatdan qadiriya sifatida foydalanish, chet elda oila, oilaviy munosabatlar va ularning xususiyatlari, mustaqil oilaviy hayot, oila xo'jaligini yuritishda iqtisodiy tarbiya, oilaviy tarbiya jarayonida ijtimoiy institutlarning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish, oila tarbiyasining o'ziga xosliklari bilan tanishtirish, oilada bolalarni tarbiyalashning samarali shakli, metod va vositalarini tanlay olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish iboratdir.

Har bir xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida azaliy an'ana, urf-odat, marosim, bayramlar alohida o'rin tutadi. Ular kishilar turmush tarzining o'ziga xos hodisasi sifatida namoyon bo'ladi. "An'ana", "odat", "marosim" bevosita "bayram" tushunchasi bilan bog'liq. "An'ana" – tarixiy taraqqiyot jarayonida va ijtimoiy ehtiyojlar orasida vujudga keladigan, avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan, kishilar ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatadigan madaniy hodisadir. An'ana o'ziga xos ijtimoiy majmua hisoblanadi. Xalq an'analari – uzoq taraqqiyot jarayonida etnoslarning ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, ularning aqliy – ijodiy faoliyati asosida, atrof – muhit, tabiat, mehnat jarayoniga bog'liq holda avloddanavlodga o'tib, taraqqiy etgan va asrlararo ajdodlar fikri, orzu-o'ylari, tajribalari, yutuqlari va boshqa qadriyatlarini mujassamlashtirgan bebaho ijtimoiy-madaniy merosga aylangan. Urf – odat kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko'nikmasidir. Masalan: kichiklarning kattalarga salom berishi, uy hovlini tartibga keltirish, mehmonlarga alohida hurmat ko'rsatish, bayram arafasida keksa qariyalar, kasal, ojiz, qiynalgan kishilar holidan xabar olish, qo'ni- 108 qo'shnilarining biror ishiga yordam berish, hasharga borish kabilar o'zbek xalqiga xos yaxshi odatlar hisoblanadi. Urf-odat degan tushuncha psixologiyada ham mavjud bo'lib, u ma'lum sharoit ta'sirida vujudga kelib, kishining fe'l-atvorida mustahkamlanib qolgan va keyinchalik o'z-o'zidan beixtiyor bajariladigan harakat ma'nosini

bildiradi. An'ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatining barcha sohalariga xos hodisa sifatida juda keng doirani qamrab oladi. Urf-odat esa muayyan bir kishining turmush tarzi, xatti-harakati, xulq-atvori, muloqoti va oilaviy munosabatlarida namoyon bo'ladi. Marosim – inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadigan, tartib-qoidalarga amal qilinadigan tadbir sanaladi. Masalan: ism qo'yish, nikohdan o'tish, dafn qilish, xotiralash, urug'qadash marosimlari. Oilaviy marosimlar oila paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Shu bilan birga o'zgargan, rivoj topgan. Taraqqiyot, zamon talabiga javob bermagan odat, marosimlar unutilgan. Ularning o'rnini esa oila ehtiyojlarini qoniqtiradigan yangi marosimlar egallagan. O'zbek xalqining oilaviy marosimlari ham tarixiy zaruriyat asosida vujudga kelgan va zamon chig'iriqlaridan o'tib, muhim ma'naviy qadriyat sifatida ravnaq topgan. Sho'rolar davrida har bir kishi yaxshi yashay olmasa, butun jamiyat ham 110 yaxshi yashay olmasligi uqturiladi. Bu davrda asosiy e'tibor umumdavlat ishlariga qaratildi. Shaxs, oila ehtiyojlari esa diqqat markazidan tushib qoldi. Jumladan, katta davlat bayramlari birinchi darajali, oilaviy – maishiy bayramlar ikkinchi darajali bo'lib qoldi. Xalqning asrlar mobaynida to'plangan bebaho boyligi – shaxs va oila hayoti bilan bog'liq marosim va bayramlar unutila bordi. Xalqimizning avloddan-avlodga o'tib kelayotgan oilaviy marosimlari sho'rolar davrida jiddiy to'siqlarga uchragan bo'lsa ham mustaqillikka erishilgandan so'ng ular qayta tiklana boshladi. Bu an'ana, urf-odat va marosimlar to'g'risida qator kitoblar chop etildi. Oilaviy marosimlar xalq ma'naviyatining tarkibiy qismi, muhim axloqiy qadriyati, ta'sirchan tarbiya vositasi sanaladi. Oilaviy marosimlar jarayonida namoyon bo'ladigan axloq-odob, mehr-oqibat kabi xislatlar yoshlar ma'naviyati shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Xalq an'analari qadrlanadigan oilalarda tarbiya topgan yoshlar ibratli axloqi bilan boshqalardan ajralib turadi. Bunday oilalardan jinoyatchi, bezori kishilar chiqmaydi. Shu bois xalq an'analari va oilaviy urf-odatlar yordamida yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.

Oila tarbiyasi haqida gap ketganda, avvalo, oilaning o'zi nima ekani, uning ichki qurilishi, insoniyat taraqqiyotida tutgan o'rni, ahamiyati haqida gapiriladi. Oiladagi tarbiya nimalar asosida qurilishi, bu asosning tarixiy yo'li, o'tmish ajdodlarimizning oilaviy munosabatlar borasidagi izlanishlari yoritib beriladi. Har bir oilaning o'z maktabi, an'analari, urf-odatlari haqida gap boradi. Oila a'zolari, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'rni va ahamiyati haqida gap boradi. Bundan tashqari, bugungi kunda oila tarbiyasi yo'nalishida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'zaro uyg'unlik kasb etgan. O'z an'alarini ajdodlarning boy tajribalari asosiga qurgan va ularni muntazam boyitib borishga odatlangan, sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitga ega bo'lgan oila har qanday ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ham o'zligini yo'qotmaydi va hamisha o'z davri bilan hamnafas va hamkor bo'la oladi. Oila azal-azaldan jamiyatning asosiy bo'g'ini, muqaddas maskan sifatida qaralib kelinadigan hamda insoniyat taraqqiyoti va mavjudligining zaruriy sharti bo'lgan bo'g'in hisoblanadi.

Bugungi O'zbekiston uning kelajak ravnaqi, avvalo uning fuqarolariga, ularning amaliy faoliyatiga ko'p jihatdan oilaga va oiladan bolalarga singdirilgan tarbiyaga bog'liqdir. Oilani mustahkamlash, uning turmush darajasini oshirish eng avvalo oila a'zolarining sog'lig'ini yaxshilash eng dolzarb masalalaridir. Biz doimo farzandlar kelajagini o'ylashga, tarbiyasiga e'tibor berishga ko'nikkanmiz. Chunki farzandlarimiz kelajagimizdir. Har bir jamiyat o'zining maqsadidan kelib chiqib inson shaxsining yuzaga keltiradi. Jamiyatimizning demokratik asosda qayta qurishdir. Iqtisodiy islohotlarni yanada rivojlantirishda ma'naviy axloqiy shakllantirishda oila oilada olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiyaning asosiy o'chog'i hisoblangan oila millat davomiyligini saqlash, milliy qadriyatlar rivojini ta'minlaydigan yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'nan va jismonan sog'lom qilib tarbiyalaydigan muqaddas maskandir. Ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy muhit sog'lom qaror topgan oilada bolaning ongi yaxshilik, ezgulik, mehr-oqibat, odamiylik, or-nomus, g'urur, samimiyat, to'g'riso'zlik kabi fazilatlar bilan to'lib, jamiyatga kerakli inson sifatida voyaga yetadi. Bugungi ta'lim-tarbiya masalalarida xalqimizda o'zligini anglash, milliylik va milliy qadriyatlarga sodiqlikni saqlashning psixologik asoslarini tadqiq qilish muhimdir

O'z an'analarini ajdodlarning boy tajribalari asosiga qurgan va ularni muntazam boyitib borishga odatlangan, sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitga ega bo'lgan oila har qanday ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ham o'zligini yo'qotmaydi va hamisha o'z davri bilan hamnafas va hamkor bo'la oladi.

Ota-bobolarimizdan meros qolgan chiroyli va ramziy ma'noga ega bo'lgan urf-odatlarni bilish, bevosita ularda ishtirok etish va aynan ana shu urf-odatlarni o'tkazish tartibini bilish yoshlarni ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bunday malaka va ko'nikmalarni yoshlarda tarkib toptirish vazifasi, avvalo, ota-onaga, oilaga yuklatiladi. Oilada ota-onalar farzandlariga mehmonnavozlik malakalarini o'rgatish bilan birga, bevosita mehmonda o'zini qanday tutish, ovqatlanish, so'zlashuv odoblarini ham o'rgatib boradilar.

Umuman, ota-onalar oilada bolalarga axloqiy tarbiya berishda milliy an'analarni to'g'ri tushunib olishlari, qaysi an'analarni qanday maqsad uchun xizmat qilishini yaxshi anglab yetishlari juda muhim. Chunki talqin etilgan an'analarni, urf-odatlarni mazmunini, avvalo, ota-onalarning o'zlari yaxshi o'zlashtirib, kundalik hayotda qo'llay olsalargina, farzandlariga uning ta'siri samaraliroq bo'ladi. Mana shu ma'noda oilalarda o'rnatilgan, o'rganilgan, xalqimiz turmush tarzida eng ko'p qo'llaniladigan an'analarni bilan birga, mustaqillik sharoiti talablaridan kelib chiqib, ijobiy samara berishi mumkin bo'lgan an'analardan - o'z xalqi va ona Vatani bilan faxrlanish, o'z Vataniga mehrmuhabbat bilan qarash, o'z Vatanining o'tmishi va tarixiga cheksiz hurmat, o'z xalqining milliy an'analarni e'zozlash, milliy ongi shakllangan, milliy e'tiqodli vatanparvarlarni tarbiyalash zarurdir. Umuman olganda, tarbiya so'zi aytilishi bilan inson ko'z oldida oila namoyon bo'ladi. Zero, oila tarbiya maskanidir. Shunday ekan, ma'naviy-axloqiy tarbiya oiladan boshlanadi. O'zbek oilasining ma'naviyati – o'zbekning milliy g'ururidir.

Oilaviy marosimlar tarixiy jarayonda xalq pedagogikasi va donishmandligi bilan uyg'unlashib ketib, asrlar davomida yoshlarni tarbiyalashdagi asosiy shakllardan biri bo'lib kelgan. Shu sababli, hozirgi davrda ham xalq an'analarni qadrlagan, turli marosimlarni o'tkazishda ma'naviy-estetik jihatlarga alohida e'tibor bergan oilalarda voyaga etgan yoshlar odob-axloqli bo'lib ulg'ayadi.

Talabalarimizni barcha o'quvchi yoshlarimizni milliy qadriyatlarimizga bo'lgan mehr muhabbatlarini qiziqishlarini uyg'otgan holda barcha urf-odat, an'ana va qadriyatlarimizni anglashliklariga imkon yaratib berishimiz lozim deb o'ylayman. Avlodlarimiz asrab-avaylab kelgan urf-odatlarmizni, sharqona odobimizni, naslimiz pokligini, buyukligimizni asrab-avaylab kelgusi avlodga etkazish siz-u bizning qo'limizdadir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston - 2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PF-6079 sonli "Raqamli O'zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni savarali amalga oshirish tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

4. Musurmonova O. Oila ma'naviyati - milliy g'urur -T ., 1999.

5. Hasanboeva O. va boshqalar. Oila pedagogikasi. - T., 2007.

6.Munavvarov A. Oila pedagogikasi. T., "O'qituvchi" 1994.

## BO'LAJAK INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI O'QITUVCHILARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

**Annotatsiya.** Maqolada pedagogik faoliyatning sifati va samaradorligini oshirish, shuningdek, bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda didaktik yondashuvlarning ahamiyati tahlil qilingan. Ta'lim jarayonida didaktik imkoniyatlardan samarali foydalanish, ta'lim muhitini shakllantirish va bo'lajak pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot ishlarining mazmuni va ularning didaktik jihatdan tizimli tahlili keltirilgan. Maqolada pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatga erishishning didaktik usullari va ularning amaliy tatbiqi haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** informatika, axborot texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, raqamlashtirish, ta'limda axborot texnologiyalari, axborot-kommunikatsiyalari, didaktika, didaktik tamoyillar, axborot xavsizligi.

## ДИДАКТИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИНФОРМАТИКИ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВОЗМОЖНОСТИ

**Аннотация.** В статье анализируется значение дидактических подходов в повышении качества и эффективности педагогической деятельности, а также в подготовке будущих учителей информатики и информационных технологий к педагогической деятельности. В образовательном процессе рассматривались вопросы эффективного использования дидактических возможностей, формирования образовательной среды и развития профессионального потенциала будущих педагогов. Также представлено содержание научно-исследовательских работ и их дидактический систематический анализ. В статье описаны дидактические методы достижения успеха в педагогической деятельности и их практическое применение.

**Ключевые слова:** информатика, информационные технологии, цифровые технологии, искусственный интеллект, автоматизация, цифровизация, информационные технологии в образовании, информационно-коммуникации, дидактика, дидактические принципы, информационная безопасность.

## DIDACTIC POSSIBILITIES OF PREPARING FUTURE TEACHERS OF INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES FOR PEDAGOGICAL ACTIVITY

**Annotation.** The article analyzes the importance of didactic approaches in improving the quality and efficiency of pedagogical activity, as well as in preparing future teachers of informatics and information technologies for pedagogical activity. The issues of effective use of didactic opportunities in the educational process, formation of an educational environment and development of professional potential of future teachers are considered. Also, the content of scientific research works and their didactic systematic analysis are presented. The article presents ideas about didactic methods of achieving success in pedagogical activity and their practical application.

**Keywords:** *informatics, information technologies, digital technologies, artificial intelligence, automation, digitization, information technologies in education, information and communications, didactics, didactic principles, information security.*

Respublikamizda so‘nggi yillarda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini zarur axborotlar bilan ta‘minlash, o‘zlashtirishning maqbul yeshimlarini topish va joriy qilishning me‘yoriy asoslari yaratilmoqda. “Oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma‘naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish” [1] ustuvor etib vazifalar belgilangan. Natijada bo‘lajak o‘qituvshilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish redagogik, psixologik imkoniyatlari yanada kengayadi.

Bugungi kunda pedagogika oliy ta‘lim muassasalarining 60110600 – Matematika va informatika yo‘nalishida tahsil olib kelayotgan talabalarni ushbu ta‘lim yo‘nalishining malaka talablarida belgilangan kasbiy faoliyat ob‘yektlari bandida izohlangan umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining o‘quv rejasidagi “Informatika va axborot texnologiyalari” fanidan 1-2- va 5-11-sinf o‘quvchilariga dars beruvchi o‘qituvchi sifatida qaralib, ularning kelajakdagi kasbiy pedagogik faoliyatlarini amalga oshirishga oid faoliyatlari yuzasidan ushbu dissertatsiya ishida bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilari mazmunida fikr yurutildi.

Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari tayanch o‘quv rejasida 18 ta fan mavjud bo‘lib, ushbu fanlarni o‘qitishda informatika va axborot texnologiyalari fani muhim o‘rin egallaydi. Ya‘ni o‘quvchilarga turli axborot manbalaridan foydalanishni, ma‘lumotlarni samarali boshqarishni va texnologik vositalardan foydalangan holda o‘rganishni o‘rgatadi. Informatika algoritmik fikrlashni rivojlantirib, boshqa fanlardagi masalalarni yechishda yordam beradi. Shuningdek, axborot texnologiyalari orqali hamkorlikda o‘qish va loyihalar yaratish imkoniyatlari kengayadi. Masofaviy ta‘lim imkoniyatlari esa mustaqil bilim olishga ko‘maklashadi. Shu sababli, informatika va axborot texnologiyalari boshqa fanlarni samarali o‘qitishda muhim vosita hisoblanadi.

Pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olib kelayotgan 60110600 – Matematika va informatika ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun malaka talablarida jami 7200 soat umumiy yuklama belgilangan bo‘lib, bu 240 kreditga teng. Ushbu umumiy yuklamaning 5070 soati majburiy 23 ta fanlarga ajratilgan va bu 169 kreditni tashkil etadi. Bundan tashqari tanlov fanlari 1050 soat 35 kreditni hamda malakaviy amaliyot 1080 soat 36 kreditga teng ekanligi izohlangan bo‘lib, 60110600 – Matematika va informatika ta‘lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar majburiy va tanlov fanlarining mazmunini o‘zlashtirishlari belgilangan. Biroq, ushbu fanlarning mazmuni va o‘qitish metodikasi innovatsion talablarga to‘liq mos emas. Bu holat mazkur ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2023-yil 27-apreldagi 08-740-son xatiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining 2023- yil 15-maydagi “Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari uchun 2023-2024 o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida” 115-son buyrug‘iga asosan “Informatika va axborot texnologiyalari” fani 1-sinfдан boshlab o‘qitilishi belgilanganligi, ushbu ta‘lim yo‘nalishidagi fanlar mazmunini optimallashtirish hamda o‘qitish metodikasini takomillashtirish orqali bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatga tayyorlash imkoniyatlarini oshirishga e‘tibor qaratish kerakligidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 7-avgustdagi 344-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 60110600 – Matematika va informatika ta‘lim yo‘nalishining malaka talablaridagi fanlar katalogi mazmuni quyidagicha izohlangan (1.1-jadvalga qarang).



**60110600 – Matematika va informatika ta'lim yo'nalishining malaka talablaridagi fanlar katalogi**

| T.r                | Fanning makakaviy kodi | O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi (Soati) | Umumiy yuklamaning hajmi (kredit) | Semestri |
|--------------------|------------------------|--------------------------------------------------------|----------------------------------|-----------------------------------|----------|
| Majburiy fanlar    |                        |                                                        | 5070                             | 169                               |          |
| 1.                 | MATA 1128              | Matematik analiz                                       | 630                              | 21                                | 1-5      |
| 2.                 | ASNM 1129              | Algebra va sonlar nazariyasi                           | 660                              | 22                                | 1-5      |
| 3.                 | GEOM 1128              | Geometriya                                             | 630                              | 21                                | 1-5      |
| 4.                 | O‘YET 105              | O‘zbekistonning eng yangi tarixi                       | 120                              | 4                                 | 2        |
| 5.                 | PSY 110                | Umumiy psixologiya                                     | 300                              | 10                                | 1-2      |
| 6.                 | IRTM 2128              | Informatika va raqamli texnologiyalar                  | 240                              | 8                                 | 3-4      |
| 7.                 | KTAM 1105              | Kompyuter ta’minoti                                    | 150                              | 5                                 | 1        |
| 8.                 | ZDTM 3604              | Zamonaviy dasturlash tillari I                         | 120                              | 4                                 | 6        |
| 9.                 | ZDTM 4704              | Zamonaviy dasturlash tillari II                        | 120                              | 4                                 | 7        |
| 10.                | PED 208                | Umumiy pedagogika                                      | 240                              | 8                                 | 3-4      |
| 11.                | InkT.GP 304            | Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika                  | 120                              | 4                                 | 5        |
| 12.                | FUNN 3604              | Funksiyalar nazariyasi                                 | 120                              | 4                                 | 6        |
| 13.                | MOME 3568              | Matematika o‘qitish metodikasi                         | 240                              | 8                                 | 5-6      |
| 14.                | ENMS 4804              | Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika          | 120                              | 4                                 | 8        |
| 15.                | ELMA 4704              | Matematikadan misol va masalalar yechish metodikasi    | 120                              | 4                                 | 7        |
| 16.                | PEDV 4808              | Pedagogik dasturiy vositalar                           | 120                              | 4                                 | 8        |
| 17.                | IOMM 4705              | Informtika o‘qitish metodikasi                         | 150                              | 5                                 | 7        |
| 18.                | KGWD 4788              | Kmpyuter grafikasi va veb dizayn                       | 240                              | 8                                 | 7-8      |
| 19.                | FIZM 3604              | Fizika                                                 | 120                              | 4                                 | 6        |
| 20.                | AXAM 4804              | Axborot xavsizligi                                     | 120                              | 4                                 | 8        |
| 21.                | FALS 1205              | Falsafa                                                | 120                              | 4                                 | 2        |
| 22.                | O‘RT 104               | Amaliy o‘zbek (rus) tili                               | 150                              | 5                                 | 1        |
| 23.                | DIN 204                | Dinshunoslik                                           | 120                              | 4                                 | 6        |
| Jami               |                        |                                                        | 5070                             | 169                               |          |
| 24.                | Tanlov fanlari         |                                                        | 1050                             | 35                                | 3-6      |
| Jami               |                        |                                                        | 6120                             | 204                               |          |
| Malakaviy amaliyot |                        |                                                        | 1080                             | 36                                | 3-8      |
| Umumiy             |                        |                                                        | 7200                             | 240                               |          |

Yuqoridagi 60110600 – Matematika va informatika ta'lim yo'nalishining malaka talablaridagi fanlar katalogi jadvalida izohlangan fanlar tahlil qilinganda 8 ta fan ya'ni (Informatika va raqamli texnologiyalar 240 soat 8 kredit, Kompyuter ta'minoti 150 soat 5 kredit, Zamonaviy dasturlash tillari I 120 soat 4 kredit, Zamonaviy dasturlash tillari II 120 soat 4 kredit, Informatika o'qitish metodikasi 150 soat 5 kredit, Kompyuter grafikasi va veb dizayn 240 soat 8 kredit, Axborot xavsizligi 120 soat 4 kredit, Pedagogik dasturiy vositalar 120 soat 4 kredit) jami 1260 soat 42 kreditga oid fanlar mazmuni bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarining kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini rivojlantirishning ilmiy-metodik ahamiyatiga oid bo'lgan fanlar hisoblanadi.

Birinchi navbatda pedagogikaga izoh berilsa, pedagogika bu – grekcha so'z bo'lib, "paydogogos" — "bola yetaklovchi" ma'nosini anglatadi. Insonlarning ma'rifiy va ma'naviy barkamollikka munosabatlari o'zgarib borishi natijasida pedagogika (bolani to'g'ri yo'lga solish san'ati) fani xalq orasida o'z mavqeyiga ega bo'ldi. Shu tariqa insonni tarbiyalovchi fan sifatida pedagogika dunyo fanlari tizimi qatoridan alohida o'rin egalladi [2].

Pedagogika va pedagogik faoliyat o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, biri nazariy asos, ikkinchisi esa bu nazariyani amalda tatbiq etish jarayonini ifodalaydi. Pedagogika insonni tarbiyalash, o'qitish va rivojlantirish haqidagi fan bo'lsa, pedagogik faoliyat – bu ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil qilish orqali o'quvchilarning intellektual, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan kasbiy faoliyatdir. Bu jarayon ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka asoslanib, maqsadga yo'naltirilgan va tizimli tarzda olib boriladi. Pedagogik faoliyatning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarga bilim va ko'nikmalarni singdirish, ularning axloqiy sifatlarini shakllantirish hamda ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Bu jarayonda o'qituvchi o'z pedagogik mahoratini ishga solib, innovatsion yondashuvlar va texnologiyalardan foydalanadi, shuningdek, ta'lim oluvchilarning ta'lim natijalarini baholash va tahlil qilish orqali jarayonni samarali tashkil etadi. Pedagogik faoliyat zamonaviy ta'lim talablariga mos ravishda shakllanib, shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash hamda jamiyat ehtiyojlariga mos bilimli va tarbiyali avlodni yetishtirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilari nafaqat ta'lim oluvchilarga zamonaviy texnologiyalarni o'rgatish, balki ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, shaxs sifatida rivojlanishiga ko'maklashish va jamiyatning texnologik taraqqiyotiga moslashishlariga yordam berish vazifasini bajaradi. Bu ta'lim beruvchilarning asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarga texnologiyadan maqsadli va samarali foydalanishni o'rgatish bilan birga ularning ijtimoiy-madaniy muhitga integratsiyasini ta'minlashdir.

Bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga integratsiya qilish bilan uzviy bog'liq. Bu jarayon innovatsion ta'lim usullarini qo'llash, dasturlash va raqamli resurslardan foydalanishni talab etib, talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning didaktik imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Didaktika – pedagogikaning mustaqil tarmog'idir. Ta'lim – tarbiya nazariyasi, ya'ni maqsadlari, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi [3; 10-b.].

Didaktika pedagogikada ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi qismidir. Didaktika grekcha so'z bo'lib, "didasko" – o'qitish, "didaskol" – o'rgatuvchi degan so'zlardan kelib chiqqan [3; 10-b.].

Didaktika ning so'zining tarjimasini ta'lim nazariyasini anglatadi. Umumiy didaktika o'z navbatida ayrim fanlarga oid usullar bilan juda mustahkam bog'langan bo'lib, ularga oid ma'lumotlariga tayanib o'qitishning umumiy qonuniyatlarini ochib beradi va ayni vaqtda har bir o'quv fanini o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xususi didaktika – muayyan o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlari, usullari, vositalari, shakllari va yo'llarini o'rgatuvchi metodika (tadris) fanlari ham pedagogika fanlari turkumining asosiy sohalaridan biri bo'lib hisoblanadi [3; 10-b.].

Didaktik tamoyillar – bu ta'lim jarayoni qonuniyatlari, mazmuni va metodlarini belgilab beruvchi o'qitish tamoyillaridir [3; 10-b.].

Ta'lim vositalari – o'quv jarayonining tashkil etilishi va o'tib borishini ta'minlaydigan xilma- xil o'quv jihozlari, o'quv qo'llanmalari va boshqalar [3; 10-b.].

Malaka – avtomatlashgan, o'rganib qolingani, muayyan usul bilan bexato bajariladigan harakatdir [3; 10-b.].

O'qish – bevosita bajariladigan jarayon bo'lib, uning yordamida odamlar butun hayotlari davomida yangi axborotlar oladi [3; 10-b.].

Vosita – o'quv jarayonini predmetli qo'llab – quvvatlanishi. Vositalarga o'qituvchining jonli nutqi, keng ma'noda uning mahorati, darsliklar, sinf jihozlari va boshqalar. Didaktikaning so'zma- so'z tarjimasi "Ta'lim nazariyasini" anglatadi [3; 10-b.].

Umumiy didaktika o'z navbatida ayrim fanlarga oid usullar bilan juda mustahkam bog'langan bo'lib, ularga oid ma'lumotlariga tayanib o'qitishning umumiy qonuniyatlarini ochib beradi va ayni vaqtda har bir o'quv fanini o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi [3; 11-b.].

Didaktika o'z oldiga o'qitish jarayonida o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash maqsadlariga mos keladigan umumiy qonuniyatlarni o'rganish vazifasini qo'yadi.

Didaktikada ta'limni tashkil qilishning asosiy masalalari, o'qitish jarayonining mohiyati, ta'lim mazmuni, o'qitishning asosiy qonuniyatlari, tamoyillari, usullari va shakllari keng yoritiladi.

O'z o'rnida shuni takidlash joizki bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilari uchun didaktik imkoniyatlar zamonaviy ta'limni shakllantirish va o'quvchilarni raqamli dunyoga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Informatika fani tez rivojlanayotgan soha bo'lganligi sababli, bo'lajak o'qituvchilar didaktik imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli o'tishlari lozim. Quyidagi 1.2-jadvalda bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari ko'rsatilgan.

1.2-jadval

| Didaktik imkoniyatlarning asosiy jihatlar |                                                    |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
|-------------------------------------------|----------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| №                                         | Didaktik imkoniyatlar                              | Didaktik imkoniyatlar mazmuni                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
| 1                                         | Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish            | Bo'lajak informatika o'qituvchilari darslarda raqamli texnologiyalarni (masalan, dasturlash muhitlari, virtual laboratoriyalar, sun'iy intellekt asosidagi vositalar) qo'llash orqali o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishlari mumkin. Bu didaktik imkoniyatlar orqali o'quvchilarning texnologik savodxonligi oshiriladi                               |
| 2                                         | Interfaol o'qitish metodlari                       | Informatika o'qituvchilari loyihalar asosida o'qitish, muammoli yondashuv, teskari sinxronlash (flipped classroom) kabi innovatsion metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning faolligini oshirishlari mumkin. Bu metodlar didaktik imkoniyatlarni kengaytirib, o'quvchilarning mustaqil fikrlash va yechim topish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi                         |
| 3                                         | Individual yondashuv va differensiallashgan ta'lim | Informatika fani har xil darajadagi o'quvchilar uchun murakkab bo'lishi mumkin. Didaktik imkoniyatlar orqali bo'lajak o'qituvchilar har bir o'quvchining qobiliyatiga moslashuvchan darslar tashkil qilishlari mumkin. Masalan, dasturlashni o'rgatishda boshlang'ich va yuqori darajadagi o'quvchilar uchun alohida topshiriqlar berish orqali individual yondashuvni amalga oshirish mumkin |
| 4                                         | Raqamli ta'lim resurslari                          | Bo'lajak informatika o'qituvchilari elektron darsliklar, onlayn kurslar, interfaol dasturlar va boshqa raqamli resurslardan                                                                                                                                                                                                                                                                   |

|   |                                                      |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
|---|------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 5 | Sun'iy intellekt va avtomatlashtirishdan foydalanish | foydalanish orqali o'quv jarayonini boyitishlari mumkin. Bu resurslar didaktik imkoniyatlarni kengaytirib, o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada qulay va samarali qiladi<br>Informatika o'qituvchilari sun'iy intellekt asosidagi yordamchi vositalardan (masalan, avtomatik baholash tizimlari, chat-botlar, adaptiv o'rganish platformalari) foydalanish orqali o'quv jarayonini avtomatlashtirishlari va o'quvchilarning natijalarini doimiy ravishda kuzatishlari mumkin. Bu didaktik imkoniyatlar orqali o'qituvchilar vaqtni tejash va o'quvchilarga individual yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishadi<br>Bo'lajak informatika o'qituvchilari STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi, robototexnika, kiberxavfsizlik kabi sohalarni o'qitishda didaktik imkoniyatlardan foydalanishlari mumkin. Bu yondashuvlar orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, ijodkorlik va texnologik qobiliyatlari rivojlanadi |
| 6 | Ta'limda innovatsion yondashuvlar                    |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |

Xulosa qilib aytganda bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilari didaktik imkoniyatlardan to'g'ri foydalangan holda o'quvchilarni zamonaviy texnologiyalar va raqamli dunyoga tayyorlashlari bilan birga, bu imkoniyatlar orqali ular nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, balki ularning ijodiy qobiliyatlari, texnologik savodxonligi va kelajakdagi kasbiy salohiyatini rivojlantiradilar.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Axborot texnologiyalari vazirligining faoliyati va 2022 yildagi rejalari muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish nutqi. 14 aprel, 2022.
2. Ivanov D.A., Mitpofanov K.T, Cakolova O.V. Kompetentnosnyy podxod v obpazavanii. Ppoblemы, ponyatiya, inctpumentapiy. Uchebno-metodicheskoe pacobie. OMCK, 2003. – C.101.
3. A.R. Jo'rayev "Bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari" "Psixologiya". Ilmiy jurnal. № 3 / 2018-yil. Buxoro sh. 30-32 b.
4. A.R. Jo'rayev "Bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish". "Pedagogik mahorat". Ilmiy-nazariy va metodik jurnal № 1 / 2019-yil. Buxoro sh. 58-61 b.
5. Lutfillaev M.H. Oliy ta'lim o'quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalari iintegratsiyasi (Informatika va tabiiy fanlar misolida): Dis. dokt. ped. nauk. - Toshkent: O'zDPITI, 2006. –212 b.
6. Shirinov F. Sh. Bo'lajak informatika o'qituvchilarining elektron metodik ta'minot yaratish kompetentligini rivojlantirish metodikasi ("Kompyuter grafikasi" fani misolida). Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent, 2023-yil. 58 b.
7. Kuralov Y.A. Bo'lajak informatika o'qituvchilarining dasturlashtirish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Chirchiq, 2023 – yil. 52 b.
8. Raxmonkulov F.R. Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak informatika o'qituvchilarining web-dizayn bo'yicha komretentligini rivojlantirish metodikasi. Redagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (rhd) dissertatsiyasi avtoreferati Chirchiq, 2023 – yil 46 b.
9. Lutfillaev M.H. Oliy ta'lim o'quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalari iintegratsiyasi (Informatika va tabiiy fanlar misolida): Dis. dokt. ped. nauk. - Toshkent: O'zDPITI, 2006. –212 b.

10. Lutfillaev M.H. Axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida ta'lim samaradorligini oshirish // Kasb hunar ta'limi. –Toshkent, 2004. -№5. –B. 28-29.
11. Zaripov N. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda webfreelance faoliyati //sentr nauchnykh publikatsiy (buxdu. uz). – 2021. – T. 3. – №. 3.
12. Sohibov, D. (2023). О квадратичном стохастическом операторе с неподвижной точкой. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(10), 747-752.
13. Mamurov, B. J., Sharipova, M. Sh., & Soxibov, D. B. (2021). О неподвижных точках одного квадратичного стохастического оператора в  $C$ . *Problemy nauki*, (4 (63)), 13-16.
14. Mamurov, B. J., & Soxibov, D. B. (2021). О типах неподвижных точек одного квадратичного стохастического оператора. *Nauka, texnika i obrazovanie*, (2-2 (77)), 10-14.



## TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA KOMPYUTERDAN FOYDALANIB TA'LIM LOYIHALARINI MODELLASHTIRISH

**Annatasiya.** Ushbu maqolada Tasviriy san'at darslarida kompyuterdan foydalanib, ta'lim loyihalarini modellash tirishning ahamiyati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Kompyuterda ma'lumotlarni qayta ishlashda kompyuter grafikasi, tasvirlarni qayta ishlash hamda tasvirlarni hosil qilish kabi bajarish vazifalarini qo'llay bilish haqida ma'lumotlar mavjud.

**Kalit so'zlar:** kompyuter grafikasi, fundamental, vizualizatsiya, rastrli, vektorli, fraktal, animatsiya.

## МОДЕЛИРОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ КОМПЬЮТЕРА НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

**Аннотация.** В этой статье представлена информация о важности моделирования образовательных проектов с использованием компьютеров на уроках изобразительного искусства. Компьютерная обработка включает в себя знания в области компьютерной графики, обработки изображений и генерации изображений.

**Ключевые слова:** компьютерная графика, основы, визуализация, растр, вектор, фрактал, анимация.

## MODELING EDUCATIONAL PROJECTS USING A COMPUTER IN FINE ARTS CLASSES


**Annatation.** This article provides information about the importance of modeling educational projects using computers in fine arts classes. Computer processing includes knowledge in the field of computer graphics, image processing and image generation.

**Keywords:** computer graphics, basics, visualization, raster, vector, fractal, animation.

Tasviriy san'at darslarida kompyuter grafikasi foydalanuvchilar uchun oddiy bir instrument bo'lib xizmat qilsada, lekin uning strukturasi va uslublari fundamental va amaliy fanlar yutuqlariga asoslanadi. Shuning uchun kompyuter grafikasi informatika va kompyuter texnikasining eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Berilganlarni grafik ko'rinishda tasvirlash 50-yillarning o'rtalarida katta EHMLarda ilmiy va harbiy sohalarida qo'llana boshlangan. Shundan buyon berilganlarni grafik usulda tasvirlash shaxsiy kompyuterlarning ajralmas qismi bo'lib qoldi.

Ma'lumki kompyuterlarning asosiy vazifasi – ma'lumotlarni qayta ishlashdan iborat. Bunda grafik ko'rinishdagi ma'lumotlarni qayta ishlash alohida o'rin tutadi. Grafik ma'lumotlarni qayta ishlashning uch yo'nalishi mavjud:



Kompyuter grafikasi – bu informatikaning asosiy bo'limlaridan biri bo'lib, u tasvirlarni hosil qilish, qayta ishlash va ularni saqlash usul va uslublarni o'rganadi. U inson ko'rish qobiliyati

orqali qabul qila oladigan barcha turdagi va ko'rinishdagi tasvirlarni kompyuter xotirasida tasvirlashni o'z ichiga oladi.

Kompyuter grafikasining asosiy vazifasi – tasvirlarni hosil qilishdan (vizualizatsiya) iborat. Tasvirlarni hosil qilishning ko'plab usul va algoritmlari mavjud. Tasvirlar hosil qilish hozirda inson faoliyatining ko'plab sohalarida keng ko'lamda qo'llanilmoqda.

2. Kompyuter grafikasi tasvirlarni hosil qilish usullariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Rastrli (nuqtali) grafika;
2. Vektorli grafika;
3. Fraktal grafika.
4. Uch o'lchovli (3D) grafika;
5. Kompyuter grafikasi va animatsiya.

Bu turli grafikalarining har birini o'ziga hos afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Shuning uchun tasvirlarni qayta ishlashda tasvir hossalardan kelib chiqqan xolda grafik turlarini tanlash kerak.

Rastr deb - bir xil o'lchamga ega bo'lgan nuqtalar to'plamiga aytiladi. Bu nuqtalarning har biri ko'rsatilgan rangga bo'yalish hossasiga ega bo'lib, ular piksellar deb ataladi.

Rastrli tasvirlar deb – bir xil o'lchamga va bir xil yacheykalarga ega bo'lgan piksellar to'plami orqali tasvirlangan tekis geometrik shakllarga aytiladi. Bu shakllarga u yoki bu usulda rang beriladi va bu ranglar fiksirlangan razryadli sonlar bilan kodlashtiriladi. Kompyuter xotirasida rastrli tasvirlarning nuqtalari rangi haqidagi ma'lumotlar biror bir usul yordamida tartiblangan massiv ko'rinishida saqlanadi.

Rastrli grafika – bu nuqtalar to'plamiga asoslangan grafika bo'lib, uning asosiy elementi nuqta hisoblanadi. Shuning uchun bu grafikada har qanday tasvir nuqtalar yordamida tashkil qilinadi. Boshqacha qilib aytganda rastrli grafika asosini rangi ko'rsatiluvchi piksel (nuqta) tashkil qiladi. Bu piksellar qabul qilishi mumkin bo'lgan ranglar diapozoni – ranglar palitrasi (guruxi) orqali aniqlanadi. Masalan oq-qora tasvirlar uchun palitrada ikki xil rang, ya'ni oq va qora ranglar bo'ladi. Rangli tasvirlar uchun esa palitrada 16, 256, 65536 va 16777216 xil ranglar bo'lishi mumkin. Rastrli grafikada tasvirlarning sifati bir dyumdagi nuqtalar soniga bog'liq bo'ladi. Mumkin bo'lgan nuqtalar soni (razreshenie) deganda ma'lum o'lchamli to'g'ri to'rtburchak shaklidagi to'rga bog'langan nuqtalar soni tushiniladi. Kompyuterda esa monitor ekranining bo'yi va enining piksellar bilan berilgan o'lchami hisoblanadi. Kompyuter monitorida mumkin bo'lgan nuqtalar soni qancha ko'p bo'lsa monitor sifatli hisoblanadi. Nuqtali tasvirlarni ekranga yoki qog'ozga chiqarish jarayoni juda oson, chunki ekranda har bir pikselga mos keluvchi har xil rangda tovlanuvchi lyuminafor zarralar uchligi mavjud. Printerda esa har bir nuqtaga rangli siyoh tomchisi zarralari mos keladi. Nuqtali tasvirlarning asosiy kamchiligi ularning fiksirlangan o'lchamga ega bo'lganligi, ichki strukturaga ega bo'lmasligi va xotiradan ko'p joy egalashidir.

Fiksirlangan o'lchamga ega bo'lganligi – tasvirlarning o'lchamini kattalashtirish yoki kichiklashtirishda tasvir ko'rinishini buzilishiga olib keladi. Bunga sabab tasvir o'lchami kattalashtirilganda nuqtalar orasidagi masofa ham kattalashadi. Agar tasvir o'lchami kichiklashtirilsa undagi nuqtalarning aniqligi (rezkosti) va yorug'ligi (yarkosti) o'zgarishi hisobiga tasvir sifati yomonlashadi.

Ichki strukturaga ega bo'lmasligi ularni tahrirlashda qiyinchilik tug'diradi. Rastrli grafikada tasvirlar o'lchamini o'zgartirishda uning sifati yomonlashadi.

Vektorli grafika – bu vektorli tasvirlar yaratish, qayta ishlash va ularni saqlash usullarini o'rganuvchi kompyuter grafikasining bir bo'limi hisoblanadi. Tugun nuqtalar deb ataluvchi ikki nuqta bilan chegaralangan chiziq elementar chizik deb ataladi va bu elementar chiziq vektorli grafikaning asosiy elementi bo'lib xizmat qiladi. Elementar chiziqlar ham boshqa ob'ektlar kabi o'z xossalariiga ega bo'ladi, ya'ni:

- chiziq ko'rinishi (to'g'ri chiziq, egri chiziq);
- chiziqqalinligi (ingichka va yo'g'on chiziq);
- chiziq rangi;

- chiziq turi ( uzluksiz va uzlukli chiziq) va boshkalar.

Vektorli grafikada har bir ob'ekt elementar chiziqlar yordamida hosil qilinadi. Masalan to'g'ri to'rtburchak 4ta elementar chiziqni birlashtirish asosida hosil qilinadi.


Vektorli tasvirlar deb – tuzilishi jihatidan murakkabroq bo'lgan va har xil ko'rinishga ega bo'lgan geometrik ob'ektlar to'plamiga aytiladi. Bunday ob'ektlarga misol tariqasida to'g'ri to'rtburchaklarni, aylanalarni, ellipslarni, ko'p burchaklarni, kesmalarni va chiziqlarni keltirish mumkin. Vektorli grafikaning xarakterli xususiyatlaridan biri undagi har bir ob'ekt uchun ularni tashqi ko'rinishlarini o'zgartirish imkonini beradigan boshqarish parametrlari mavjud. Masalan aylana uchun boshqarish parametri sifatida aylana diametri, rangi, turi, chiziq qalinligi va ichki soxasi rangi kabilarni olish mumkin.

Uch o'lchovli (3D, 3 Dimensions) grafika – bu kompyuter grafikasining bir bo'limi bo'lib, hajmli obyektlar tasvirini yaratishning usul va vositalarini o'rganadi. Bu grafika arxitektura, kinomatografiya, televideniya, kompyuter o'yinlari va boshqa shunga o'xshash sohalarga tegishli tasvirlarni yaratishda qo'llanadi. Bundan tashqari ilmiy tadqiqotlarda va sanoatda ham qo'llanadi. Nuqtali tasvirlardan farqli ravishda vektorli tasvirlar ixtiyoriy ichki strukturaga ega bo'lishi mumkin. Vektorli tasvirlarni ichki strukturasi rassom yoki dizayner tomonidan vektorli tasvir chizayotganida aniqlanadi.

Vektorli tasvirlarni xotiradan joy egalashi, ya'ni o'lchami nuqtali tasvirlar o'lchamiga qaraganda ancha kichik bo'ladi. Bundan tashqari vektorli tasvirlarni nuqtali tasvirlarga aylantirish foydalanuvchi ishtirokisiz, amaliy dastur tomonidan amalga oshiriladi. Lekin nuqtali tasvirlarni vektorli tasvirga aylantirish foydalanuvchidan katta mahorat talab qiladi.

Fraktal grafika – bu matematik formulalarga asoslangan grafika bo'lib, uning asosiy elementi matematik formulalar hisoblanadi. Shuning uchun kompyuter xotirasida tasvirlar emas, balki ularning formulalari saqlanadi. Bu grafika yordamidaham oddiy va murakkab strukturali tasvirlar yaratish mumkin.

*Rang formati va rang modeli tushunchalari va turlari:* Kompyuter grafikasining amaliy dasturlarining asosiy xususiyatlaridan biri shuki, ularda turli tuman ranglar bilan bo'yalgan tasvirlar yaratish imkoniyati mavjud. *Rang formati va rang modeli tushunchalari va turlari:* Kompyuter grafikasining amaliy dasturlarining asosiy xususiyatlaridan biri shuki, ularda turli tuman ranglar bilan bo'yalgan tasvirlar yaratish imkoniyati mavjud.




2. *Ranglarni moslashtirish tizimi formati:* Ranglarni moslashtirish tizimi formati deganda ranglar namunasi saqlanuvchi ranglar bibliotekasi tushiniladi. Bu bibliotekadagi ranglar ma'lum nomlar bilan yuritiladi va ular tizimlashtirilgan bo'ladi. Agar ba'zi ranglar modelida kerakli rang shu rangning son qiymatlar orqali aniqlansa, bu modelda kerakli rang ranglar bibliotekasida namunalar orqali aniqlanadi.

3. *Jadvalli format;* Bu formatda ranglar bir necha ranglarni o'z ichiga olgan rang namunalaridan tashkil topgan jadvallar orqali beriladi. Jadvaldagi rang namunalari soni 256 tadan oshmaydi. Tasvirlarda ranglarni jadval usulida berilishi quyidagicha amalga oshadi.

Tasvirdagi har bir rang tovlanmasi (svetovoy ottenok) jadvaldagi o'ziga yaqin bo'lgan rang namunasi bilan almashtiriladi. Tasvirlarni bunday qayta ishlash natijasida tasvirning sifati biroz yomonlashsa ham, lekin tasvir faylining hajmi ancha kichiklashadi. Bu formatdan badiiy effektlar hosil qilishda va elektron nashrlar tayyorlashda ishlatiladi. Corel Draw dasturida 3 xil

118 turdagi oq-qora (Black and White), kul rang tovlanuvchi (Grayscale) va rangli tovlanuvchi ranglar palitrasi (Paletted) jadvali formatlar ishlatiladi.



Bu format boshqa rang formatlarining kombinatsiyasi orqali hosil qilingan format hisoblanadi. Format rastrli tasvirlar tashkil qilishda ishlatiladi.

Bo'lajak zamonaviy o'qituvchi doimo o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradigan yangi, yanada samarali texnologiyalarni izlaydi. Loyiha usulidan foydalanish dars sifatini yanada rivojlantiradi va o'quvchini fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

*Birinchidan*, loyiha usuli ta'lim sifatini oshirish uchun katta imkoniyatlar ochadi.

*Ikkinchidan*, loyihalar uslubi hayotiy pozitsiyalarga mos keladi: bola faqat o'zi tanlagan, o'zi qiziqqan narsani zavq bilan qiladi; Shogird to'ldiriladigan idish emas, balki yondiriladigan mash'aldir.

*Uchinchidan*, ba'zan o'quvchilar tomonidan olingan bilimlar ba'zan nazariya bo'lib qoladi va loyiha usulining maqsadi - bolalarni o'rganilayotgan nazariyani amaliy hayotda aniq muammolarni hal qilishda qo'llashga o'rgatish;

*To'rtinchidan*, loyiha ustidagi ishning individual sur'ati har bir bolaga o'ziga xos rivojlanish darajasini ta'minlaydi.

Ta'lim loyihalari ustida ishlash orqali o'quvchilar tadqiqot o'tkazish, turli ma'lumotlarni tahlil qilish va yangi g'oyalarni taqdim etishni o'rganadilar. Shunday qilib, loyiha usullari ijodkorlik, axborot makonida harakat qilish va o'z bilimlarini mustaqil ravishda qurish qobiliyatiga asoslanadi.


Tasviriy san'at darslarida loyiha asosida o'qitish usuli dasturda taklif etilgan deyarli barcha mavzularda qo'llash mumkin. Loyihaviy ta'lim usuli o'quvchilarning passivligini yengishga yordam beradi. Maktab o'quvchilari o'zlarining ijodiy imkoniyatlarini "Applikatsiya", "Mozaika" ("Monumental rangtasvir" mavzusi) mavzularida ijodiy loyihalarni amalga oshirish orqali amalga oshiradilar; "Grafika" mavzusi, "Relief", "Modellashtirish", "Haykaltaroshlik" mavzusi, "Xalq amaliy bezak san'ati" mavzusi) va boshqalar.

Bo'lajak o'qituvchilarimizga Tasviriy san'at darslarida loyihalashtirish usuli bilan dars o'tish metodlari va usullarini o'rgatsak, ulat pedagogik ish faoliyatida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, muammolarni topishga va hal qilishga o'rgatish, buning uchun turli sohalardan



bilimlarni jalb qilish, turli xil yechimlarning natijalari va mumkin bo'lgan oqibatlarini bashorat qilish qobiliyati, sabab va muammolarni aniqlash qobiliyatini o'rgatib biladi.

Loyihalarni amalga oshirish natijasida maktab o'quvchilari:



Loyiha usuli talabalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga, o'z bilimlarini mustaqil ravishda qurish qobiliyatiga, zamonaviy axborot texnologiyalari makonida harakat qilish qobiliyatiga, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga asoslangan.

Loyiha usuli "loyiha" tushunchasining mohiyatini tashkil etuvchi g'oyaga, uning ko'rish, anglash, real amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan natijaga pragmatik yo'naltirilishiga asoslanadi. Loyiha uslubi bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil harakatlari natijasida ma'lum bir muammoni ushbu natijalarni majburiy taqdim etish orqali hal qilishga imkon beradigan o'quv va kognitiv usullarning to'plamini o'z ichiga oladi. Ushbu texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy bo'lgan tadqiqot, izlanish, muammoli usullar majmuasi hisoblanadi.

Loyiha usulini qo'llash uchun asosiy talablar:

1. Ilmiy- ijodiy nuqtai nazardan ahamiyatli, yaxlit bilimlarni, uning yechimini izlanishni talab qiladigan vazifaning mavjudligi;

2. Kutilayotgan natijalarning amaliy ahamiyati;

3. Talabalarning mustaqil (yakka, juftlik, guruh) faoliyati.

4. Loyiha mazmunini tizimlashtirish;

5. Muayyan harakatlar ketma-ketligini ta'minlovchi usullaridan foydalanish:

-muammo va undan kelib chiqadigan tadqiqot vazifalarini aniqlash ("aqliy hujum", "davra suhbat" usulidan foydalanish);

-ularni hal qilish uchun farazlarni ilgari surish;

-dars o'tish usullarini muhokama qilish (statistik usullar va kuzatishlar);

-yakuniy natijalarni loyihalash usullarini muhokama qilish (taqdimotlar, himoya, ijodiy hisobotlar).

-olingan ma'lumotlarni to'plash, tizimlashtirish va tahlil qilish;

-xulosa qilish, natijalarni rasmiylashtirish, ularni taqdim etish;

-xulosalar, yangi muammolarini ilgari surish.

6. Kollektiv muhokama, ekspertiza, tashqi baholash natijalari, xulosalar.

Tasviriy san'at darslarini modellashtirish nazariya va amaliyot o'rtasidagi oqilona muvozanatni saqlash, o'quv faoliyatini tashkil qilish imkonini beradi. Ta'lim jarayoniga bolalarning nafaqat intellektual, balki axloqiy rivojlanishini, ularning mustaqilligini, faolligini



ta'minlaydi. O'quvchilarga ijtimoiy o'zaro ta'sir qilish tajribasini o'zlashtirishga imkonini beradi. O'quvchilarni birlashtiradi hamda muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Mashg'ulotlarni yaxshiroq tashkil etish va o'tkazish uchun an'anaviy pedagogika fani birinchi navbatda darsning rejasini tuzishni tavsiya qiladi. Dars modeli tuzilmaviy elementlarni, o'qituvchining darsdagi pedagogik faoliyati usullarini, bosqichma-bosqich vazifalarni qo'yishni, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining turlarini, darsni o'z-o'zini tekshirish va o'z-o'zini baholashni o'z ichiga oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Muzafarovna A. S. METHODS OF ORGANIZING THEORETICAL AND PRACTICAL TRAINING AND IMPROVING FORMS OF CAREER ADVICE //Web of Teachers: Inderscience Research. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 48-50.

2. Muzafarovna A. N., Zubrilin K. M. DISCLOSURE OF STUDENTS'KNOWLEDGE AND SKILLS ABOUT THE TYPES OF PAPER USED IN FINE ARTS LESSONS AND PREPARING FOR THEIR WORK //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. – T. 4. – №. 4. – C. 337-340.

3. Авлиякулова Н.М. Bo'lajak o'qituvchilarni tasviriy-ijodiy faoliyatga tayyorlashda san'at va madaniyat sohalarining o'rni. "O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar" mavzisidagi respublika 12-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari to'plami. Toshkent.2020, B,16-18 bet

4. Авлиякулова Н. М. и др. Роль культуры и искусства в подготовке будущих учителей к творческой деятельности //European science. – 2021. – №. 2 (58). – C. 95-97.

## EKOLOGIK TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINING BARQAROR RIVOJLANISH TA'LIMIDA TUTGAN O'RNI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasining bajarilish holati haqida bayon qilingan. Barqaror rivojlanish ta'limida ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasining muhimligi va ahamiyati xususida yoritilgan. Mazkur konsepsiyada keltirilgan oliy ta'lim tizimida ekologik ta'limni takomillashtirish masalalariga to'xtalgan. Ekologik ta'limni rivojlantirish barqarorlikka erishishning yagona va muhim yo'li ekanligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** ekologiya, barqarorlik, konsepsiya, barqaror rivojlanish, ekologik ta'lim, oliy ta'lim, barqaror ta'lim, uzluksiz ta'lim.

## РОЛЬ КОНЦЕПЦИИ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ В ОБЛАСТИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

**Аннотация.** В статье описывается ход реализации концепции развития экологического образования. Подчеркивается важность и значимость концепции развития экологического образования в образовании для устойчивого развития. В данной концепции рассматриваются вопросы совершенствования экологического образования в системе высшего образования. Утверждается, что развитие экологического образования является единственным и наиболее важным способом достижения устойчивого развития.

**Ключевые слова:** экология, устойчивость, концепция, устойчивое развитие, экологическое образование, высшее образование, устойчивое образование, непрерывное образование.

## THE ROLE OF THE CONCEPT OF ENVIRONMENTAL EDUCATION DEVELOPMENT IN SUSTAINABLE DEVELOPMENT EDUCATION

**Annotation.** The article describes the implementation of the concept of environmental education development. The importance and significance of the concept of environmental education development in education for sustainable development is emphasized. This concept examines issues of improving environmental education in the higher education system. It is argued that the development of environmental education is the only and most important way to achieve sustainable development.

**Keywords:** ecology, sustainability, concept, sustainable development, environmental education, higher education, sustainable education, continuous education.


**Kirish.** Hozirgi globallashuv davrida ekologik muammolar va ularning oldini olish, birgalikda ekologik xavfsizlikni ta'minlash har bir fuqaroning burchidir. Atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini hal etishda ekologik ta'lim-tarbiya eng yetakchi o'rin hisoblanadi. Zero, Barqaror rivojlanish ta'limi har bir insonda barqaror rivojlanishga qaratilgan me'yorlar va qadriyatlarni bilish va anglab etishga, jamiyatning ekologik muammolarini tushunishga, tabiatning real sharoitlarini va dinamikasini hisobga olishga, tabiiy resurslarni saqlab qolish va rivojlantirishga oid bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish imkonini beradi.

Barqaror rivojlanish uchun ta'lim Dekadasining Xalqaro rejasini amalga oshirish loyihasida barqarorlikka erishishga olib boruvchi quyidagi istiqbollari aniqlanadi (YUNESKO, 2005).

- sotsial-madaniy: inson huquqlari, dunyo va insoniyat xavfsizligi va h.k;
- ekologik: tabiiy resurslar, iqlim o'zgarishi va h.k;

- iqtisodiy: kambag'allikni kamaytirish, korporativ javobgarlik, bozor iqtisodiyoti va h.k. [4].

2011-yil 19-iyulda O'zbekiston Respublikasi Barqaror rivojlanish ta'limi bo'yicha Konsepsiyasi qabul qilinishi ham muhim ahamiyatga egadir [1]. Butun dunyo hozirgi paytda barqaror rivojlanish tamoyillari asosida rivojlanmoqda.



[Purvis, Ben; Mao, Yong; Robinson, Darren (2019). "Three pillars of sustainability: in search of conceptual origins". *Sustainability Science* 14 (3): 681–695]

Barqaror taraqqiyot ta'limining asosiy g'oyasi - ijtimoiy faoliyatga jalb etilgan va muammolarni yechishda ishtirok etayotgan fuqarolarni tarbiyalashga qaratilgan (BMT sammiti, Yoxannesburg, 2002 yil). Barqaror taraqqiyot ta'limining asosiy tamoyillari sifatida quyidagilar e'tiborga olinadi:

1. Jamiyatning qadriyaviy yo'nalishlari – adolat, kelajak avlodlar oldidagi javobgarlik etikasi (kelgusi avlodlar manfaatlarini hisobga olgan holda);
2. Fanlararo yondoshuv – ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik maqsadlarning o'zaro bog'liqligi [6].

Shunga asosan BMT Bosh assambleyasining 59-sessiyasida Barqaror rivojlanish ta'limi o'n yilligi e'lon qilindi (2005-2014 yillar).

Barqaror rivojlanish uchun ta'lim – bu [BMT](#) tomonidan rasmiy ravishda qo'llaniladigan ibora. Ushbu tushuncha barqaror va adolatli jamiyatni qurish uchun bilim, ko'nikma, qadriyat va o'zaro munosabatlarda o'zgarishlarni rag'batlantiruvchi ta'lim amaliyotlari sifatida ta'riflanadi.

Agenda 21 barqaror rivojlanish yo'lida ishlab chiqilgan maqsadlarga erishishda ta'lim-tarbiyani asosiy vosita qilib ko'rsatgan birinchi xalqaro hujjat hisoblanib, ta'lim sohasi yo'lidagi harakatlar uchun zarur yo'nalishlarni ko'rsatib bergan. [United Nations Conference on Environment & Development Rio de Janeiro, Brazil, 3 to 14 June 1992. ]

Shuningdek, Barqaror rivojlanish 17 ta maqsadni o'z ichiga oladi, ularning 12.8-maqsadi esa shunday ifodalanadi: "2030-yilgacha aholini barqaror rivojlanish va tabiat bilan uyg'un yashash tarziga oid zarur ma'lumot va ongga ega bo'lishini ta'minlash" [3].

UNESCOga ko'ra, barqaror rivojlanish uchun ta'lim quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

Barqaror rivojlanish masalalarini ta'lim jarayoniga qo'shish. Bu, masalan, iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish, biologik xilma-xillik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ta'limni o'z ichiga olishi mumkin. Shuningdek, bu ishtirokchi o'qitish va o'rganish usullarini joriy etishni talab qiladi, bunda o'quvchilarni o'z xulq-atvorlarini o'zgartirishga va barqaror rivojlanish

uchun amaliy harakatlar qilishga ilhomlantirish zarur. Shu tariqa, BRT tanqidiy fikrlash, kelajak vaziyatlarini tasavvur etish va hamkorlikda qaror qabul qilish kabi malakalarni rivojlantiradi. [“Education for Sustainable Development”. UNESCO (2013-yil 10-may).

Xalqaro Ta’lim Ensiklopediyasida bu ta’lim yondashuvi „insonning tabiiy dunyo bilan o‘zaro aloqasini hurmat qilishga asoslangan, hayotiy munosabatlar etikasi tarafidan ongni o‘zgartirishga qaratilgan harakat“ sifatida tavsiflanadi. Maqsad esa jamiyatning kelajak a’zolarini ekologik ong va barqarorlikka bo‘lgan mas’uliyat hissi bilan ta’minlashdir [Peterson, Penelope L.; Baker, Eva L.; McGaw, Barry, (2010), *International encyclopedia of education (3rd-edition)*, Oxford: Elsevier]

Barqaror rivojlanish ta’limining asosini ekologik ta’lim tashkil qiladi va shu asosida rivojlanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, Barqaror rivojlanish bo‘yicha ma’lumotlar o‘quv adabiyotlarida hozirgacha yetarli berilmagan. Barqaror rivojlanishni o‘rganayotganda ekologik ma’naviyat, ekologik madaniyat, barkamol shaxsni tarbiyalash masalalariga ham alohida e’tibor beriladi.

Yer sharidagi har bir insonning turmush darajasini yaxshilash - barqaror taraqqiyotning ustuvor vazifalaridan biridir [5].

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi vazifalaridan kelib chiqib shuni alohida ta’kidlash joizki, ekologik ta’limning mohiyatini anglab olgan har bir fuqaro atrof-muhitga bo‘lgan e’tiborini kuchaytiradi. Shu bois, ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasining to‘liq amalga oshirilishi, jamiyat va tabiat barqarorligini ta’minlashning asosiy vositasi hisoblanadi.

**Asosiy qism.** barqaror rivojlanishning muhim jihatlaridan biri tabiatni muhofaza qilish va ekologik barqarorlikka erishishdir. Yurtimiz tabiatini muhofaza qilish uchun esa aholining barcha qatlamida ekologik savodxonlikni yuqori darajaga ko‘tarish lozim bo‘ladi. Bu ishlarni bajarishda uzluksiz ta’lim tizimi asosida olib boriladi va ta’limning hamma bo‘g‘inida ekologiya fan sifatida o‘qitilishi talab etiladi. Zero ekologik ta’lim uzluksiz ta’limning asosiy ajralmas qismi sifatida qabul qilinadi.

Respublikamizda ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi ekologik ta’lim tizimidagi ko‘plab muammolarning yechimini topishda dasturi amal bo‘lib xizmat qiladi.

Xususan, konsepsiyaning 6-bobida Oliy ta’lim tizimida ekologik ta’limni takomillashtirish yo‘llari belgilab berilgan.

-oliy ta’limning “Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi va fan dasturlari ekologiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan kelib chiqib takomillashtiriladi.

-vazirliklar va idoralarning talab va takliflari, kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj va tahlillar asosida ekologik vaziyatning mavjud holatidan kelib chiqib oliy ta’lim tizimida “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”ga yangi yo‘nalishlar va mutaxassisliklarni kiritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

-oliy ta’lim tizimining bakalavriat va magistratura bosqichlari ekologik yo‘nalishlarida ekologiya va atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha tegishli o‘quv fanlari mazmuni kuchaytiriladi va qo‘shimcha mavzular bilan boyitiladi. Talabalarga fan dasturlarida belgilangan hajmda tegishli bilimlar beriladi hamda ularda zarur malaka va ko‘nikmalar shakllantiriladi.

-noekologik yo‘nalishlarda tegishli o‘quv fanlariga ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga oid mavzular kiritiladi hamda ilm-fanda erishilgan yutuqlar, ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga oid yangi texnologiya va tadqiqotlar asosida muntazam yangilanib boriladi.

-ekologiya va atrof muhit muhofazasi ta’lim sohasi bo‘yicha magistrlik dissertatsiyalari tayyorlanadi, zamonaviy va dolzarb ilmiy-amaliy masalalarga bag‘ishlangan mavzular bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar o‘tkaziladi.

Noekologik ta’lim sohalari bo‘yicha magistrlik dissertatsiyalari tayyorlanishida tegishli mutaxassisliklarga xos bo‘lgan ekologiya va atrof muhit muhofazasiga oid masalalar dissertatsiya ishining asosiy mavzu va yo‘nalishlariga mantiqiy javob beradigan tarzda yoritib boriladi.

-oliy ta'lim muassasalarining amaliyot darslari bevosita yirik sanoat korxonalari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, suv xo'jaligi tashkilotlari, qo'riqxonalar, ekologik inqiroz kuzatilayotgan hududlar va ekologiya sohasidagi boshqa korxonalarda olib borilishi yo'lga qo'yiladi.

-ekologiya sohasidagi mavjud Internet veb-saytlariga talabalarni qiziqitiruvchi materiallar kiritib boriladi, shuningdek, turli tanlovlar ("Eng qiziqarli maqola muallifi", "Eng dolzarb material muallifi" va boshqalar) tashkil etiladi.

-oliy ta'lim muassasalarining davriy nashrlarida, shuningdek, gazeta va ilmiy jurnallarda ekologiya va atrof muhit muhofazasiga bag'ishlangan ruknlar ochiladi va unda professor-o'qituvchilar, magistrantlar va talabalarining ushbu masalalarga bag'ishlangan ilmiy maqolalari chop etib boriladi.

-oliy ta'lim muassasalari, talabalar turar joylarida "Eko-klublar" tashkil qilinadi, ularning yillik rejalari tuziladi hamda faoliyati ta'minlanadi.

-internet tarmog'ida ekologik ijtimoiy sahifalar tashkil qilinadi, fikr almashishni yo'lga qo'yish maqsadida internet-platformalar va messengerlar joriy etiladi, ular yordamida yoshlar ishtirokida "flesh-mob", "xeshteg" va ekologik masalalarga bag'ishlangan, yoshlarni qiziqitiruvchi boshqa tadbirlar muntazam amalga oshirib boriladi [2].

**Muhokama va natijalar.** O'zbekiston Respublikasining ekologik ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasiga asosan, ekologik muammolarning tobora global ahamiyat kasb etib borayotganligini inobatga olib, so'ngi yillarda muhim ustuvor vazifalar bilan bir qatorda, atrof-muhit muhofazasi, ekologik madaniyat, ekologik ta'lim-tarbiya, ekologik ma'rifat masalalariga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

*Ekologik ta'lim tizimining dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof-muhitni beqarorlik va izdan chiqishidan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o'ta jiddiy, hayotiy masalaga aholining barcha qatlami, ayniqsa, yoshlar tomonidan salmoqli hissa qo'shilishi zarurligi bilan belgilanadi.*

*Biroq, ekologik ta'limni amalga oshirish jarayonining tizimli tahlili va olib borilgan chuqur tahlil natijalari ekologik ta'limni tashkil etishda islohotlarni to'liq ro'yobga chiqarishga to'stinlik qiluvchi jiddiy kamchiliklarning saqlanib qolayotganligidan dalolat bermoqda. Xususan:*

*- barcha turdagi ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida nazarda tutilgan ekologiya o'quvining majburiyligiga oid talablar yetarli darajada bajarilmayapti;*

*- respublikamizdagi ta'lim tizimida amalda bo'lgan davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari mazmunan ekologik bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar bilan zarur darajada boyitilmagan;*

*- hozirga qadar ekologik ta'lim-tarbiya yo'nalishida ilg'or milliy va xorijiy tajribalarni o'rganish va ular asosida ta'lim oluvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning aniq parametrlari ishlab chiqilmagan;*

*- ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalda bo'lgan ta'lim dasturlari bugungi kundagi global ekologik muammolarni bartaraf etish, mavjud ekologik xavf-xatar darajasini kamaytirish, tabiiy muhitni qayta tiklashga qaratilgan umummilliy tadbirlar mohiyati bilan muvofiqlashtirilmagan;*

*- maktabgacha ta'lim muassasalari va o'rta ta'lim maktablaridagi ta'lim dasturlarida tabiat to'g'risidagi bilimlar berishga oid mavzular bugungi kun talablariga javob bermaydi, jumladan, ularda ta'lim oluvchilarda ekologik ongni shakllantiruvchi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, ona tabiatni asrab-avaylash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasiga oid mavzular yetarli emas;*

*- ilg'or xorijiy tajribani o'rganish, bolalarni tabiat va atrof muhitni asrash, oqilona foydalanish va tiklashga alohida urg'u berish hamda amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish.*

*Ta'lim sohasidagi o'qituvchi-murabbiylarning faoliyatini uslubiy jihatdan ta'minlovchi o'quv materiallari, shu jumladan, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasiga oid o'quv qo'llanmalari, o'quvchi va talabalar uchun zarur bo'lgan darsliklar yetarli emas;*



*Shu munosabat bilan, aniq maqsad va vazifalarni hamda yo'nalishlarni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasining Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali respublikamizda ekologik ta'lim tizimini yanada rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.*

Konsepsiyada asoslangan yana bir muhim vazifa yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ekologik ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish hisoblanadi.

Mazkur konsepsiyaning ishlab chiqilishi va hayotga jorish etilishi uzluksiz ta'lim tizimining muhim vazifalarini amalga oshirishda va yoshlarni barkamol avlod etib tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Yurtimizda mavjud bo'lgan ko'plab ekologik muammolarning hal etilishida, xususan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirishda ekologik madaniyatini yuksaltirishda katta hissa qo'shadi.

**Xulosa.** Shuningdek, barqaror rivojlanish ta'limini amalga oshirish maqsadida "Barqaror rivojlanish konsepsiyasi" tamoyillaridan samarali foydalanish nomaqsadga muvofiq. Mazkur konsepsiyaning ishlab chiqilishi va dunyo bo'yicha keng miqyosda joriy qilinishidan maqsad, aholining o'sib borishi va ijtimoiy himoyasi o'rtasidagi muvozanatni rivojlangan va rivojlanayotgan barcha davlatlarda amal qilinishini hisobga oladi. Chunki sayyoramizdagi atrof-muhit holati ularning birgalikdagi faoliyati majmuasidir.

So'ngi yillarda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasida yurtimizda katta ishlar amalga oshirilmoqdaki, bu o'rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan mazkur ekologik muammolarga diqqat e'tibor qaratilayotganini ta'kidlashimiz lozim. Zero, 2025-yilni "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili" deb nomlanishi buning yaqqol ifodasidir.

Qolaversa, respublikamizda ekologik muammolarning mavjudligi va murakkablashuvi, har bir insonni atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatda bo'lishini talab etadi. Tabiatni muhofaza qilish va ekologiya muammolarining og'ir tus olishi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, ekologik, madaniy-tarixiy masalalarga yangicha qarashlarni taqozo qilmoqda. Zero, buning uchun yoshlarda ekologik ta'lim yuqori darajada bo'lishi lozim. Ekologik ta'lim-tarbiyaga e'tiborni kuchaytirib, uni takomillashtirish ishlarini amalga oshirish zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim va Xalq ta'limi vazirliklarining "O'zbekiston Respublikasining Barqaror taraqqiyot maqsadlari uchun ta'lim konsepsiyasi to'g'risidagi"gi 2011 yil 19 iyuldagi 20/2/305-sonli qo'shma qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-434-sonli qarori, 2019-yil 27 may.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 83-son qarori, 2022 yil 21 fevral.

4. Nigmatov A., va boshqalar. Barqaror rivojlanishning geoekologik jihatlar. -Toshkent. PATENT-PRESS, 2006. 120 b.

5. Tursunov X. Ekologiya va barqaror rivojlanish. – T. O'qituvchi, Mehridaryo, 2009. 167 b.

6. Xo'janazarov O'.E., Mirsovurov M., Norboboyeva T. "Ekologiya va barqaror taraqqiyot ta'limi". –T.: Navruz, 2014. 193 b.

**Sidiqova Dilara Shavkatovna**  
Buxoro davlat pedagogika instituti,  
pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafadoktori (PhD)

**Barotova Feruza Bahrilloyevna**  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
magistranti

## **BOSHLANG'ICH SINIF YANGI AVLOD MATEMATIKA DARSЛИKLARI TUZILISHI VA UNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI**

**Annotatsiya.** Yangi avlod matematika darsliklari boshlang'ich ta'limda o'quvchilarga matematik bilimlarni taqdim etishda zamonaviy yondashuvlar va metodlardan foydalanadi. Bu darsliklar o'quvchilarni faqat matematik ko'nikmalar bilan ta'minlab qolmay, balki ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ham qaratilgan. Boshlang'ich sinf matematika darsliklarining didaktik imkoniyatlaridan keng foydalangan holda darslarni tashkillashtirish o'quvchilarning matematik bilimlarini oshirish bilan birga ularni real hayotga har tomonlama tayyor shaxs sifatida tarbiyalash uchun xizmat qiladi. Bunday darslarning tashkil qilinishi esa albatta, o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq.

**Kalit so'zlar:** 4K modeli, TIMSS, innovatsiya, texnologiya, didaktika, dastur, kreativlik, kritika, kommunikatsiya, integratsiya, matematika, geometriya, kasr, koordinata.

## **СТРУКТУРА УЧЕБНИКА МАТЕМАТИКИ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ ДЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ И ЕГО ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ**

**Аннотация.** В учебниках математики нового поколения использованы современные подходы и методы обеспечения математических знаний учащихся начальных классов. Эти учебники направлены не только на то, чтобы дать учащимся математические навыки, но и на развитие у них способности логически мыслить. Организация занятий с широким использованием дидактических возможностей учебников математики для начальных классов служит повышению математических знаний учащихся, воспитанию их как личностей, полностью подготовленных к реальной жизни. Организация таких уроков, безусловно, зависит от педагогического мастерства учителя.

**Ключевые слова:** 4K модель, TIMSS, инновация, технология, дидактика, программа, творчество, критика, коммуникация, интеграция, математика, геометрия, дробь, координата.

## **THE STRUCTURE OF A NEW GENERATION MATHEMATICS TEXTBOOK FOR ELEMENTARY GRADES AND ITS DIDACTIC CAPABILITIES**

**Annotation:** New generation mathematics textbooks use modern approaches and methods to provide students with mathematical knowledge in primary education. These textbooks are aimed not only at providing students with mathematical skills, but also at developing their ability to think logically. The organization of classes with the wide use of didactic possibilities of primary grade mathematics textbooks serves to raise the students' mathematical knowledge and educate them as individuals who are fully prepared for real life. The organization of such lessons certainly depends on the pedagogical skills of the teacher.

**Key words:** 4K model, TIMSS, innovation, technology, didactics, program, creativity, criticism, communication, integration, mathematics, geometry, fraction, coordinate.

**Kirish.** Yangi innovatsion yondashuv natijasini o'quvchining dunyoqarashi, fikrlashi, muammolarni mustaqil hal eta olishi, o'sishida ko'rish mumkin. XXI asr o'quvchisida XXI asr ko'nikmalari bo'lishi kerak. Innovatsion yondashuvni qo'llashdan asosiy maqsad ham shu. Qolaversa, ta'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarga nafaqat bilim berish, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat. Shu sababli ham maktablarda yangi darsliklar joriy

etilishining guvohi bo'lmog'damiz. Joriy o'quv yilida 1-4-sinflarning o'quvchilari yangi darsliklar bilan ta'minlanib, darslar davomida fanlardan mavzularni o'rganish bilan bir qatorda darslikdagi rang-barang rasmlar, qiziqarli rebuslar, mantiqiy topshiriqlar hamda loyihalar bilan ishlashni o'zlashtirmoqda. Maktablardagi sifatli ta'lim ko'p jihatdan yaratilayotgan darsliklarga bog'liq. Ya'ni u ta'lim standartlariga javob berish bilan birgalikda o'quvchini qiziqitirish va fanga bo'lgan mehrini uyg'otishi kerak. Boshlang'ich sinf darsliklarining tubdan yangilangani nafaqat o'quvchi va ustozlarni, balki ota-onalarni ham quvontirdi. 1-4-sinflar uchun yaratilgan yangi zamonaviy maktab darsliklari 4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuvni taqdim etishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo'lib, quyidagi asosiy kompetensiyalarni o'z ichiga oladi:

Kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativ fikrlash va kritik fikrlash o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi.

**Asosiy qism.** Yangi avlod boshlang'ich sinf matematika darsliklari O'zbekistonda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish maqsadida ishlab chiqilgan. Ushbu darsliklar bir qator muhim jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Interaktiv yondashuv: darsliklarda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun interaktiv mashqlar, o'yinlar va vazifalar kiritilgan. Bu orqali bolalar matematikani qiziqarli va samarali o'rganadilar.

2. Hayotiy vaziyatlar: darsliklarda hayotiy misollar va vaziyatlar orqali matematik nazariyalarni amaliy hayotga qo'llash ko'rsatiladi. Bu o'quvchilarga matematikaning kundalik hayotdagi ahamiyatini tushunishga yordam beradi.

3. Bosqichma-bosqich o'qitish: darsliklar mavzularni bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga o'tish prinsipiga asosan tartiblangan. Bu esa bolalarga har bir mavzuni chuqurroq tushunish imkonini beradi.

4. Differensial yondashuv: o'quv dasturlari turli darajadagi bilimga ega bo'lgan o'quvchilarni hisobga oladi, shuning uchun darsliklarda har bir mavzu bo'yicha qo'shimcha masalalar va qiyinchilik darajalari mavjud.

5. Vizual materiallar: rasm, diagramma va grafiklardan foydalanish orqali matematik tushunchalarni yaxshiroq anglash imkoniyati yaratiladi.

6. Oila ishtiroki: ba'zi darsliklarda ota-onalarning ham ishtirok etishini rag'batlantirish uchun maxsus vazifalar yoki maslahatlar berilgan.

Ushbu yangi avlod darsliklari ta'lim jarayonining sifatini oshirish, o'quvchilarning matematik ko'nikmalarini rivojlantirish va ularni zamonaviy bilimlarga ega bo'lishlariga yordam berish maqsadida mo'ljallangan.

Yangi boshlang'ich sinf matematika darsliklari 4K modeliga asoslangan bo'lib, bunda o'quvchilar osondan murakkabga tamoyili asosida matematika darsliklaridagi mavzularni 4 yil davomida o'zlashtirib boradilar va 4-sinfda yuqori bosqichga- o'rta maktabga o'tishga tayyorgarlikni boshlaydilar. Buning uchun o'quvchilar sonlarning yangi xossalari bilan tanishadilar, matematik qonunlarning kundalik hayotimiz bilan qanday bog'liqligini bilib oladilar. Undan tashqari o'quvchilar hozirgi matematika darsliklari orqali O'zbekistonning qadim zamonlardan to hozirgi kungacha bo'lgan tarixi bilan tanishadilar, qadimiy va zamonaviy binolarda geometriyaning qanday qo'llanilganini tushunadilar, jadval va diagrammalar yordamida O'zbekistonning taraqqiyotini o'rganadilar. Negaki, bunday xildagi topshiriqlarni boshlang'ich sinf matematika darsliklarida ko'plab uchratish mumkin. Masalan, 4-sinf matematika (I qism) darsligida keltirilgan topshiriqdan namuna keltirsak.

2-misol. Ko'paytirishni qulay usulda bajaring.

O  $6 \cdot 5 \cdot 700$

U  $7 \cdot 4 \cdot 25$

R  $90 \cdot 4 \cdot 5$

I  $4 \cdot 5 \cdot 17$

B  $16 \cdot 5 \cdot 5$

X  $11 \cdot 2 \cdot 2 \cdot 25$

O'zbekistonda qanday mashhur turistik shahar bor?

|     |     |      |       |      |       |
|-----|-----|------|-------|------|-------|
| 400 | 700 | 1100 | 21000 | 1800 | 21000 |
|     |     |      |       |      |       |

Bu kabi topshiriqlar 3- va 4-sinf yangi matematika darsliklarida ko'p uchraydi. Ushbu topshiriqlarni bajargan o'quvchilar esa nafaqat matematik bilimlarni egallaydilar, balki qiziqarli

ma'lumotlar bilan tanishadilar va tarixiy, dunyoviy, zamonaviy bilimlarni ham egallaydilar.

Yangi boshlang'ich sinf matematika darsliklarining yana bir afzalligi shundaki, unda yangi mavzu bilan tanishish bilan birga tabiat, kundalik hayotda kerakli jarayonlar haqidagi yondosh mavzularning berib borilishidir. Bu esa matematika fanining boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holatini bildiradi. Integratsiyalashgan darslarning tashkil etilishi esa o'quvchilarda fanlarning o'zaro aloqadorligini bilish, egallangan bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Bunday darslarning qiziqarli, sifatli tashkil etilishi esa albatta, o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq.

Yangi darsliklar hayotiyli va jamoa bo'lib ishlashni oshirishi haqida hamda aslida matematikada faqat misol va masalalar emas, balki to'g'ri qaror qabul qilish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun o'quvchi mantiqiy va tanqidiy fikrlashi kerak. Kitobda shunday o'yinlar borki, ular o'quvchini jamoaviy bo'lib ishlashga o'rgatadi. Jamoada o'z fikrini ifodalay olishi esa bolada liderlik qobiliyatini oshiradi. Avvalgi darsliklarda milliy valyuta bilan bog'liq mavzular yo'q edi. 3-sinfning matematika darsligiga esa ana shunday mavzu ham kiritilgan. Undagi masalalar hayotiy misollar bilan berilgani esa o'quvchini yanada qiziqtirayapti. Ular nafaqat valyutaning son qiymatiga, balki uni qayerda ishlab chiqarilishi va unda nimalar tasvirlanganiga ham e'tibor berishadi.

Yangi boshlang'ich sinf matematika darsliklari o'zining qat'iy mazmuni va talabchan muammolar to'plami bilan mashhur bo'lib, o'quvchilarni analitik fikrlashga va kuchli matematik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga undaydi. Mantiqiy fikrlashga urg'u beradi. Bu darsliklarda ko'pincha mantiqiy fikrlash va deduktiv fikrlashga urg'u beriladi, bu esa o'quvchilarda muammoni yechishda tizimli yondashuvni shakllantirishga yordam beradi. Boshlang'ich ta'limda matematika fani nafaqat raqamlarni bilishni emas, balki kritik fikrlash va muammo yechish qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Yangi avlod darsliklari yordamida bolalar matematikani qiziqarli va foydali tarzda o'rganadilar, bu esa ularning kelgusidagi muvaffaqiyatlariga katta hissa qo'shadi. Umuman olganda, yangi avlod matematika darsliklari boshlang'ich ta'lim jarayonini yanada sifatli va qiziqarli qiladi, shu orqali bolalarning bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Darslikning ko'pgina topshiriqlari shunday tuzilganki, o'quvchilar turli xil sohalaridagi jarayonlar bilan tanishib boradilar. Bu esa ularni real hayotga tayyorlaydi. Har bir yangi mavzu bilan yondosh mavzuning berib borilishi matematikaning boshqa fanlar: tabiiy fanlar, ona tili, texnologiya, ingliz tili kabilar bilan integratsiyasini ifodalaydi. Bu esa o'quvchilarni fanlarga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, matematika darsligining yangi talqini eng so'nggi o'quv dasturlari ko'rsatmalariga mos kelishi, mazmuni o'qituvchilar, o'quvchilar va ta'lim tizimi uchun dolzarb bo'lishini ta'minlaydi. Yangi darslikning oldiga qo'yilgan bu maqsadini amalga oshirish esa matematika dars jarayonlarini oqilona tashkillashtirishga ham bog'liqdir. Buning uchun har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi matematika fanining ahamiyatini chuqur anglagan holda o'quvchilarga nafaqat fanga oid kerakli bilimlarni bera olishi, balki yangi avlod darsliklari tuzilishining didaktik imkoniyatlaridan keng foydalangan holda darslarni tashkillashtirishi zarur. Bu esa ta'lim sifatini oshirish bilan bir qatorda, o'quvchilarning kelgusida og'zaki va yozma savodxonligi yuqori shaxslar bo'lib yetishishi uchun xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori
2. Tojiyev B.B. (2024), Boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarini shakllantirish. ISSN: 2181-4066 DOI Journal 10.56017/2181-4066
3. Boymurodova Nodirabegim Bahodir qizi (2023), Boshlang'ich ta'limda milliy o'quv dasturi va yangi avlod darsliklarini amalga oshirishning didaktik asoslari. [https://journal.buxdu.uz/index.php/journals\\_buxdu/article/view/10974/7093](https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/10974/7093)
4. Repyova I.V. Boshlang'ich sinf matematika darsligi 4-sinf, I qism. Toshkent-2023.
5. Madaminova I.R. Boshlang'ich ta'limda integratsiya. <https://newjournal.org/index.php/01/article/view/9676/9375>.2023

**Jo'rayev Akmal Razzoqovich**  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
professori

**Raxmonova Sojida Muxammadovna**  
Buxoro davlat universiteti tayanch  
doktoranti

## INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING METODIK AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion texnologiyalar asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularda pedagogik bilimlar va ko'nikmalar, innovatsion fikrlash, kreativlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali ta'lim jarayoni interaktivligi va qiziqarliligini ta'minlash, talabalarning kognitiv va ijodiy salohiyatini maksimal darajada rivojlantirish imkonini yaratishning metodik ahamiyati haqida ma'lumot keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, texnologiya, kasbiy faoliyat, shaxs, salohiyat, kasbiy kompetensiya, yondashuv, metodik ahamiyat, kompetentlik, qobiliyat, faollik, mahorat.

## МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПОДГОТОВКИ ВОСПИТАННИКОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

**Аннотация.** сведения о методической значимости подготовки воспитанников дошкольного образования к профессиональной деятельности на основе инновационных технологий, развития педагогических знаний и умений, инновационного мышления, творческих способностей и способностей к решению задач, а также обеспечения интерактивности и интереса образовательного процесса посредством современных педагогических технологий, создающих возможность максимального развития познавательного и творческого потенциала учащихся.

**Ключевые слова:** инновация, технология, профессиональная деятельность, человек, потенциал, профессиональная компетентность, подход, методологическая значимость, компетентность, способность, активность, умение.

## METHODOLOGICAL SIGNIFICANCE OF PREPARING PRESCHOOL STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY BASED ON INNOVATIVE TECHNOLOGIES

**Annotation** Information is provided on the methodological significance of preparing preschool students for professional activity based on innovative technologies, developing pedagogical knowledge and skills, innovative thinking, creativity and problem-solving abilities, as well as ensuring the interactivity and interest of the educational process through modern pedagogical technologies, and creating opportunities to develop the cognitive and creative potential of students to the maximum.

**Keywords:** innovation, technology, professional activity, personality, potential, professional competence, approach, methodological significance, competence, ability, activity, skill.

**Innovatsion texnologiyalar zamonaviy ta'lim tizimida muhim rol o'ynaydi, ayniqsa, maktabgacha ta'lim sohasida.** Bugungi kunda ta'lim jarayoniga yangi texnologiyalarning joriy etilishi nafaqat talabalarning bilim va ko'nikmalarini oshirish, balki ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ham katta ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun innovatsion texnologiyalar asosida kasbiy faoliyatga tayyorlanish metodikasini o'rganish, ularni



*zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish va o'quv jarayonini samarali tashkil etish, nafaqat kasbiy mahoratni rivojlantirish, balki ta'lim jarayonida yangi imkoniyatlarni yaratishga yo'l ochib beradi.*

*Maktabgacha ta'limning o'ziga xos xususiyatlari, bolalarning psixologik, aqliy va jismoniy rivojlanishi, shuningdek, pedagoglar tomonidan innovatsion metod va texnologiyalarni qo'llash orqali rivojlanayotgan yangi yondashuvlar, talabalar uchun ta'lim jarayonini yanada samarali va interaktiv tarzda tashkil etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni ta'limda qo'llash, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda zarur bo'lgan pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.*

*Innovatsion texnologiyalar - bu jamiyatning barcha sohalarida yangi, ilg'or yechimlar yaratish maqsadida qo'llaniladigan texnik va ilmiy yutuqlarni yuzaga chiqaruvchi jarayondir. Innovatsiyalar faqatgina texnologiyalarni rivojlantirish bilan cheklanmaydi, balki yangi usullar, jarayonlar yaratishni ham o'z ichiga oladi. Bugungi kunda, innovatsion texnologiyalar iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, energiya, transport va boshqa sohalarda samarali faoliyatni ta'minlashga yordam bermoqda.*

*"Innovatsiya" so'zi inglizcha "innovation" so'zidan olingan bo'lib, "yangilanish" yoki "o'zgartirish" degan ma'noni anglatadi. Innovatsiya - bu yangi g'oya, metod, mahsulot yoki xizmatni yaratish yoki mavjud narsalarni yaxshilash jarayonini ifodalaydi. U, odatda, ilm-fan, texnologiya, biznes va ijtimoiy sohalarda yangi yondashuvlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Innovatsiyalar yangi imkoniyatlar yaratish, samaradorlikni oshirish va muammolarni hal etishda muhim rol o'ynaydi.*

*Innovatsiya yangi fikrlarni hayotga tatbiq qilish va ularni amalda qo'llash orqali mavjud tizimlarni yaxshilashga xizmat qiladi.*

*Ta'lim sohasida birinchi innovatsiya sifatida yozuv va yozuv tizimining paydo bo'lishi ko'riladi. Insoniyatning ilk davrlarida, bilimlar og'zaki ravishda uzatilgan bo'lsa, yozuv tizimining rivojlanishi orqali bilimlarni saqlash va uzatish yanada samarali va kengroq miqyosda amalga oshirilgan. Sumerlar va Misrlilar tomonidan yaratilgan ilk yozuv tizimlari, jumladan, kuntili yozuv (miloddan avvalgi 4-ming yilliklarda **Sumer** -hozirgi Iroq hududida rivojlangan bo'lib - bu tasviriy va grafik belgilarni o'z ichiga olgan, g'ishtar yoki boshqa materiallar yuzasiga chizilgan yozuv turi) va hierogliflar (qadimgi Misr madaniyatining yozuv tizimi bo'lib, tasviriy belgilardan tashkil topgan. Ushbu yozuv tizimi miloddan avvalgi 3300-yillar atrofida rivojlanib, **Misr**da diniy matnlar, tarixiy voqealar, yasalgan buyumlar va boshqalarni yozish uchun keng qo'llanilgan., ta'limning asosiy vositalaridan biriga aylangan).*

*Innovatsiyalar tarixan bosqichma-bosqich, turli madaniyatlarda va davrlarda sodir bo'lgan. Eng qadimgi va muhim innovatsiyalardan biri sifatida olovni kashf etish va undan foydalanish ko'riladi, bu innovatsiya insoniyat tarixida katta burilish yasagan. Olov kashf etilgandan keyin, u insonlarga ov qilish, oziq-ovqat tayyorlash, issiqlik olish va xavfsizlikni ta'minlashda yordam bera boshladi. Olov, avvalo, tabiatdan himoya qilish va oziq-ovqatni pishirish uchun ishlatilgan. Keyinchalik, olovdan metallni eritish va asboblarni yasashda foydalanish boshlandi, bu esa insoniyatning texnologik rivojlanishiga katta turtki berdi.*

*Birinchi innovatsiya tarixda aniq bir joyda yoki vaqtda yuzaga kelmagan, lekin olovning kashf etilishi, yozuv tizimlarining joriy etilishi, bosma press va elektronika kabi texnologiyalar insoniyat taraqqiyotida asosiy burilish yasadi. Har bir innovatsiya o'z davrida jamiyatni, iqtisodiyotni va madaniyatni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lib, bugungi kunda innovatsion texnologiyalga aylandi.*

*Texnologiya - bu so'z texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan "techné" (mahorat, san'at) va "logos" (bilim, tushuncha) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, uning ma'nosi "san'at yoki mahorat asosida bilimlarni amaliyotga tatbiq etish" deganidir. Texnologiya - bu insonlarning tabiiy resurslarni, ilmiy bilimlarni va innovatsion g'oyalarni amalda qo'llab, turli muammolarni hal qilish uchun ishlab chiqilgan vositalar, usullar, tizimlar va jarayonlarning yig'indisi.*

Texnologiyaning asosiy maqsadi - inson hayotini osonlashtirish, samaradorlikni oshirish, yangi imkoniyatlar yaratish va tabiiy muhitni boshqarishdir. U nafaqat ilmiy va texnik yutuqlarni, balki bu yutuqlarni amalda qo'llashni ham o'z ichiga oladi.


"Innovatsiya" tushunchasining paydo bo'lganiga ko'p bo'lmagan bo'lsada, pedagogik sohadagi o'rni mustahkamlandi. "Innovatsiya" ijodiy faoliyat, kreativlik bilan bog'liq hodisalar hisoblanadi. Shu bilan birga, olimlar fikriga ko'ra kreativlikda yangi g'oyalarni olg'a surish tushunilsa, innovatsiyaning farqli tarafi uni amalga oshirish jarayonidir.

Innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini oshirib borish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari bo'lajak mutaxassisi sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshiradilar. Bu faoliyatda ular bolalar uchun qulay va rivojlantiruvchi muhit yaratadilar, ta'lim jarayonini zamonaviy metodlar va texnologiyalar yordamida olib borib, bolalarning ijtimoiy, hissiy, axloqiy va intellektual rivojlanishlarini qo'llab-quvvatlaydilar.

Maktabgacha ta'lim sohasida yangiliklarni joriy etish, innovatsion metodlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanish talabalar uchun muhim kasbiy faoliyatdir. Ushbu mutaxassislar ta'lim texnologiyalarni o'rganish va joriy etish, ta'lim jarayonini yangi metodlar bilan takomillashtirishda faol ishtirok etadilar.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta'limiy texnologiyalari muhim o'rin egallaydi. Ta'limiy texnologiyalar mazmun-axborot aspektini bildirsa, o'qitish texnologiyasi jarayonga aloqador deb hisoblanadi, ya'ni ular orasida hali ham aniq farqlar belgilanmagan. Adabiyotlarda keltirilishicha Ta'lim texnologiyasining elementlari quyidagicha izohlangan (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Ta'lim texnologiyasining elementlari**

Ta'lim texnologiyasi - ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun turli xil vositalar, metodlar va yondashuvlarning umumiy tizimidir. U nafaqat o'qitishni, balki o'quv jarayonining barcha qismlarini (o'qish, o'qitish, baholash, ta'lim oluvchilarni tarbiyalash, texnik va pedagogik yordam, boshqaruv)ni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion texnologiyalar asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni – bo'lajak mutaxassislarning faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda mutaxassislikka oid bilimlarni doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, innovatsion texnologiyalarni ta'limda samarali qo'llashni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida amalda yuqori darajada qo'llay olinishi tushuniladi.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislari innovatsion texnologiyalar asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashni rivojlantirish bugungi kunda ta'lim tizimida juda muhim masala bo'lib qolmoqda. Talabalarga mutaxassislikka oid fanlarni samarali o'rgatish uchun chuqur bilimlarga ega bo'lishi va zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayonlarida maqsadli va samarali qo'llay olish ko'nikmasini yanada rivojlantirish zarur. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining innovatsion kasbiy faoliyatini rivojlantirishning metodik ahamiyatini quyidagi asosiy sifatlari bilan izohlanadi (1-jadvalga qarang).

**1-jadval****Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining innovatsion kasbiy faoliyatini rivojlantirishning metodik ahamiyatining asosiy sifatlari**

| <b>№</b> | <b>Asosiy sifatlari</b>                    | <b>Asosiy sifatlari mazmuni</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
|----------|--------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.       | Pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish | Maktabgacha ta'lim mutaxassislari bolalar bilan samarali ishlash, ularning ehtiyojlarini tushunish va to'g'ri ta'lim metodikalarini qo'llashni o'rganishlari kerak. Mustahkam pedagogik bilimlar, metodik yondoshuvlar va psixologik tushuncha ustunlikni tashkil etadi.                                        |
| 2.       | Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish        | Talabalarga nazariy bilimlar bilan birga, amaliy mashg'ulotlar, simulyatsiyalar, pedagogik tajribalar orqali ko'nikmalarni rivojlantirish. Ta'lim jarayonida bolalarga individual yondashuvni, guruhda ishlashni va turli didaktik metodlarni qo'llashni o'rgatish.                                             |
| 3.       | Innovatsion yondashuvlar                   | Maktabgacha ta'lim sohasidagi yangi pedagogik texnologiyalar va metodlardan foydalanish, innovatsion materiallar, interaktiv o'quv dasturlarini ishlab chiqish, ko'plab yangi texnologiyalar va metodlarni qo'llash, masalan, raqamli vositalardan foydalanish orqali pedagogik faoliyatni zamonaviylashtirish. |
| 4.       | Bolalar psixologiyasini o'rganish          | Maktabgacha ta'lim mutaxassislari bolalar psixologiyasi va ularning rivojlanish xususiyatlarini chuqur o'rganishlari kerak. Bu, bolalar bilan muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur bo'lgan empatiya va individual yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi.                                                     |
| 5.       | Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish  | Maktabgacha ta'lim pedagoglari, nafaqat bolalar bilan, balki ota-onalar va jamiyat bilan samarali muloqot o'rnatishlari kerak. Bolalar tarbiyasi va ta'limidagi eng yaxshi natijalarga erishish uchun keng kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish zarur.                                                     |
| 6.       | Etik va ma'naviy tayyorgarlik              | Maktabgacha ta'lim sohasidagi mutaxassislar o'z ishlarini samimiylik va axloqiy mas'uliyat bilan bajara olishlari kerak. Etik talablar, tarbiyaviy qadriyatlarni bolalarga yetkazish, ularning shaxsiy rivojlanishini ta'minlash bo'yicha ma'naviy tayyorgarlik zarur.                                          |

Ushbu sifatlari bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarning professional tayyorgarligini kuchaytirish, ularning kasbiy faoliyatda samarali bo'lishini ta'minlash va bolalar ta'limida yuqori sifatni amalga oshirish uchun metodik jihatdan juda muhimdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan har bir bo'lajak pedagoglarining innovatsion texnologiyalar asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashga pedagogik faoliyatida dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish, muntazam o'zini rivojlantirish va tahlil qilish, zamonaviy bilimlarga ega bo'lish, innovatsion texnologiyalarni yaratish va amaliyotda samarali qo'llay olish,

loyihali hamda dasturlash texnologiyalaridan foydalanish, o'zining butun bilim va tajribasini, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga yo'naltirishi bugungi kunning muhim dolzarb masalalardan biridir. Innovatsion texnologiyalar asosida maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-metodik ahamiyati zamonaviy texnologiyalarni o'rgatish va yaratish va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, ta'lim sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini innovatsion texnologiyalar asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash, ularni kelajakda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlash imkoniyatlarini taqdim etadi. Innovatsion texnologiyalar orqali talabalar yangi ma'lumotlarni osongina o'zlashtiradilar. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonlarni samarali va zamonaviy qilish, talabalarni ilg'or bilimlar va ko'nikmalar bilan ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bunday texnologiyalarni qo'llash, pedagoglar va bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqani, o'rganish jarayonini va faoliyatni yanada interaktiv va qiziqarli kechishiga yordam beradi. Bunday yondashuv kasbiy tayyorgarlikni sifatli va zamonaviy qilish orqali jamiyat uchun malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Bunda, ta'lim tizimi barqaror va zamonaviy bo'lib, jamiyatning umumiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuhamedov R., M.Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: 2013 y. -279 bet.
2. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017 yil. -416 bet.
3. Migranova E.A., Sh.X. Poziova Kasbiy pedagogik faoliyatga kirish / O'quv qo'llanma. - Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2018 y. - 200 bet
4. To'ldoshev O'.J. Umumiy pedagogika. – T.: "Fan va texnologiya", 2017 y. -376 bet.
5. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.
6. Жураев А.Р., Махсудова М.Д. Педагогические основы обеспечения непрерывности при обучении предмету технологии. "Проблемы педагогики" научно-методический журнал № 3 (35) / 2018 г. Россия, Москва с 25 – 27.
7. Zhuraev A.R., Kh.Bmukhamedova, F.N.Mirzhamolova G.A.Mirzhamolova. Scientificmethodological basis for coordination of labor education curriculum. "The Way of science" International scientific journal. № 6 (40) / 2017, Russia Volgograd. Pg, 70-72.
8. Жураев А.Р., Тулкинова Х.Т. Педагогические и психологические основы выбора оптимизированного содержания трудового образования. "Молодой учёный" международный научно журнал № 13 (117) / Июль 2016-г. С 794 – 796.
9. Жураев А.Р., Бахранова У.И. [Использование задач и понятий, относящихся к геометрическим фигурам, для интегрированного обучения трудовому образованию с предметом геометрия](#). "Достижения науки и образования" ежемесячный научно – методический журнал № 7 (8) / 2016 – г. Россия, Москва, с 83 – 85.
10. Raxmonova S. "Practical features of preparing primary education students for professional activity". Science and innovation in the education system, 2023 y.
11. Raxmonova S.M., D.M. Murtazoyeva. "Ta'lim jarayonida pedagogning innovatsion kasbiy faoliyati va xususiyatlari". Science and Education, 2023 y.
12. Raxmonova Sojida Muxammadovna. "Preparing the graduate students of primary education for innovative professional activity". Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) ISSN. 2776-0979
13. Raxmonova S.M., Sh. Hikmatova. "Pedagogik faoliyatni tashkil etishda bo'lajak pedagogning kasbiy faoliyatga oid kompetentligini rivojlantirish" - Science and Education, 2023 y. 634-638.

14. Muxammadovna R.S. "Maktabgacha ta'lim o'quv-tarbiya jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida shakllantirish". Наука и технологии, 2024 y.
15. Raxmonova S. "Bo'lajak o'qituvchining pedagogik qobiliyati hamda kasbiy va shaxsiy sifatlar uyg'unligi". Theoretical aspects in the formation of pedagogical ..., 2024 y
16. Muxammadovna R.S. "Didactic possibilities of improving the methodology for preparing future primary education students for innovative professional activities" - Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 2024 y.



**Rustamov Akbar Askarovich**  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
o'qituvchisi  
akbaraskarovich93@gmail.com

### MAXSUS MASHQLAR ORQALI 5-6 YOSHLI BOLALARNING HARAKAT FAOLLIGINI OSHIRISH METODIKASI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 5-6 yoshli maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining harakat faolligini oshirishda maxsus mashqlardan foydalanish metodikasi ochib berilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning turli yosh xususiyatlari hamda salomatlik darajasini inobatga olib ularga jismoniy yuklamalar berish va toliqishlarining oldini olish usullari ishlab chiqilgan. Bolalarning harakat faolligini o'zgarishi, maxsus jismoniy mashqlar, harakatli o'yinlar va sayrlarga bevosita bog'liqligi, maxsus mashqlardan foydalanib kichik yoshli bolalarning har tomonlama kamol topishi, jismoniy rivojlanishi va salomatlik darajasining yaxshilanishi bilan bog'liq bir qator masalalar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Maxsus mashqlar, jismoniy rivojlanish, tarbiya, harakat faolligi, jismoniy sifatlar, mashg'ulot, maktabgacha yosh, jismoniy mashqlar, salomatlik, harakatli o'yinlar, shaxs, chiniqish, metod.

### МЕТОДИКА ПОВЫШЕНИЯ ДВИГАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ДЕТЕЙ 5-6 ЛЕТ С ПОМОЩЬЮ СПЕЦИАЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ

**Аннотация.** В данной статье раскрыта методика использования специальных упражнений в повышении двигательной активности воспитанников ДОУ 5-6 лет. С учетом различных возрастных особенностей и уровня здоровья дошкольников разработаны способы их физической нагрузки и профилактики утомления. Освещается ряд вопросов, связанных с изменением двигательной активности детей, непосредственной зависимостью от специальных физических упражнений, подвижных игр и прогулок, всесторонним развитием, физическим развитием и улучшением уровня здоровья детей младшего возраста с помощью специальных упражнений.

**Ключевые слова:** Специальные упражнения, Физическое развитие, воспитание, двигательная активность, физические качества, тренировка, дошкольный возраст, упражнения, здоровье, подвижные игры, личность, закаливание, метод.

### METHODOLOGY FOR INCREASING MOVEMENT ACTIVITY OF CHILDREN 5-6 YEARS OLD THROUGH SPECIAL EXERCISES

**Annotation.** This article reveals the methodology for using special exercises in increasing the activity of pupils of a preschool educational organization of 5-6 years old. Preschool children, taking into account the different age characteristics and level of Health, have developed methods for giving them physical loads and preventing their exhaustion. A number of issues have been covered regarding changes in children's movement activity, direct dependence on special physical exercises, action games and walks, comprehensive maturation of young children using special exercises, physical development and improved health levels.

**Keywords:** Special exercises, physical development, training, movement activity, physical qualities, training, preschool age, physical exercises, health, action games, personality, temperance, method.

**Kirish.** Bugungi kunda bolalar uchun jismoniy faollikni oshirish, ularning umumiy salomatligini yaxshilash va ma'naviy dunyosini rivojlantirishda sport va jismoniy tarbiya katta

ahamiyatga ega. Sport bilan shug'ullanish nafaqat jismoniy holatni yaxshilaydi, chaqqonlik, aniqlik va reaksiya tezligini rivojlantiradi, shuningdek ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Bolalar sport orqali jamoaviy ishga, o'zaro hurmat va do'stlikka o'rganadilar, shuningdek, raqobatni to'g'ri qabul qilish va muvaffaqiyatga erishish yo'lida sabr-toqatni o'rganadilar.

Jismoniy tarbiya nafaqat organizmni mustahkamlash, balki bolalar psixologiyasini ham qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Ularning o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi, o'ziga xos qobiliyatlarni rivojlantiradi va hayotga bo'lgan ijobiy qarashni shakllantiradi.

Bolalar salomatligi millatning kelajagi va farovonligi uchun nihoyatda muhimdir. Yosh avlod sog'ligi, nafaqat ularning o'z hayotida, balki butun jamiyat va mamlakat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda ekologik vaziyatning yomonlashishi, havoning ifloslanishi, suv resurslarining kamayishi kabi omillar bolalar salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ekologik holatni yaxshilash, tabiiy resurslarni tejash va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish zaruriyatga aylandi. Maktabgacha yosh - har bir inson hayotidagi eng muhim davrlardan biri. Salomatlik darajasini oshirishning eng qulay vositasi bu jismoniy tarbiya va jismoniy faoliyatdir.

Yurtimizda ham ta'lim tizimini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish, shu jumladan o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish maqsadida ta'lim tizimining dastlabki va eng quyi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasini isloh qilish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida sifatli bilim va ko'nikma hosil qilish, maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya va sport orqali sog'ligini hamda harakat faolligini oshirish chora tadbirlari bo'yicha bir qator qonun va qarorlar qabul qilindi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun jismoniy mashg'ulot va sport bilan shug'ullanish nafaqat sog'lom o'sish, balki psixologik va ijtimoiy rivojlanish uchun ham juda zarurdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimida xorijiy davlatlar bilan hamkorlik qilish, ta'lim sifati yuqori bosqichda bo'lgan rivojlangan davlatlar bilan o'zaro tajriba almashish hamda ulardan foydalanish, ta'lim jarayoniga tadbiriq qilish izchil amalga oshirilmoqda. Shunga qaramasdan hozirgi kunda bu sohada hali ham ba'zi cheklovlar, kamchiliklar mavjud. Maktabgacha ta'lim tizimida jismoniy tarbiya va harakat faolligini oshirishga qaratilgan maxsus vositalar yetarli darajada rivojlanmagan.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun jismoniy faollikni oshirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy usullar va metodlarni ishlab chiqish, shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va mustahkamlash hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu yoshdagi bolalarda jismoniy faoliyatga bo'lgan biologik ehtiyoj yuqori bo'lishi va bu ehtiyoj har doim ham to'liq qondirilmaligi yoki shug'ullanish uchun yetarli shart-sharoitlarning yaratilmaganligi ularning harakat faolligini pasayishiga sabab bo'ladi. Ota-onalar bolalarning jismoniy faoliyatini har doim uyda ham qo'llab-quvvatlashlari, shuningdek, jismoniy tarbiya jarayoniga faol ishtirok etishlari kerak. Maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishi faqatgina ta'lim jarayonining sifati bilan cheklanmay, jismoniy faollik va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga ham bevosita bog'liq.

Maktabgacha ta'lim jarayoni haqiqatan ham bolalarning jismoniy rivojlanishi va individual ehtiyojlariga e'tibor qaratishga asoslanadi. Jismoniy tarbiya yo'riqchisi orqali bolaning harakat ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, bolaning chaqqonligi, kuchi va koordinatsiyasini kuzatish orqali ularning individual xususiyatlarini yaxshiroq tushunish mumkin. Bu metod pedagoglarga har bir bola uchun mos yondashuvlarni ishlab chiqish va ularning muvaffaqiyatlarini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, bolaning rivojlanish xaritasini yaratish orqali, ta'lim jarayonini doimiy ravishda monitoring qilish va rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Bu tizimning afzalliklaridan biri shundaki, ta'lim jarayonini individuallashtirish orqali bolalarning ehtiyojlariga mos keladigan ta'lim usullarini tanlash va ularning muvaffaqiyatlarini oshirish mumkin bo'ladi. Bu usulning davom ettirilishi bolalarning umumiy rivojlanishini yaxshilashga, shuningdek, ularning hayotga tayyor bo'lishiga yordam beradi.

Bolalar faoliyatining quyidagi turlari bo'yicha tajriba orttirish, shu jumladan koordinatsiya va egiluvchanlik kabi jismoniy fazilatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni bajarish bilan bog'liq tananing tayanch-harakat tizimini to'g'ri shakllantirishga, muvozanatni rivojlantirishga, harakatni muvofiqlashtirishga, ikkala qo'lni yirik va mayda motorikasining rivojlanishiga hissa qo'shish, shuningdek, to'g'ri, tanaga zarar yetkazmaydigan, asosiy harakatlarni (yurish, yugurish, sakrash, har tomonga burilish), ba'zi sport turlari haqida dastlabki tushunchalarni shakllantirish, harakatli o'yinlarni qoidalar bilan o'zlashtirish; jismoniy faollik sohasida maqsadga yo'naltirilganlik va o'zini o'zi boshqarishni shakllantirish; sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini shakllantirish, uning elementar me'yorlari va qoidalarini o'zlashtirish (ovqatlanishda, jismoniy faollikda foydali jihatlarni shakllantirish) zarur.

**Tadqiqot maqsadi:** Maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat faolligini oshirishda maxsus mashqlarni qo'llash metodikasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot usullari:** Adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, matematik-statistik tahlil, pedagogik tadqiqotlar.




Tadqiqot ishlari Buxoro shahridagi 19, 47 - sonli, Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi 1, 36-sonli, Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumanidagi 11, 12-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti katta guruhlarining

5-6 yoshli bolalari bilan o'tkazildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat faolligini rivojlantirish bo'yicha quyidagi maxsus hamda kompleks mashqlardan foydalandik va bolalarning yoshini inobatga olgan holda me'yorlab chiqdik:


- to'pni ikki qo'l bilan ushlagan holda 1 m masofaga uloqtirish;
- 10-15 graduslik burchak ostida to'pni uloqtirish;
- polda yurish, oyoqlarni ko'tarib yurish;
- balandligi 20 - 30 sm gacha bo'lgan to'siqlardan o'tish;
- 3x5 metr masofaga moksimon yugurish;
- turgan joydan uzunlikka sakrash;
- turgan joydan balandlikka sakrash va shunga o'xshash mashqlar.

### Maktabgacha yoshdagi bolalarning harakat faolligini oshirish uchun kompleks mashqlar

| Mashqlar mazmuni                                                                                                                                                            | Dozalash                          | Mashq                                                                                |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------|
| Oyoqlar juft holatda, qo'llarda bayroqlarni ushlab olamiz,<br>1-qo'llar oldinga cho'zing,<br>2-qo'llarni teppaga ko'taring, 3- yana qo'llar oldinga,<br>4- dastlabki holat. | 6 - marta                         |  |
| Ikki qo'lida bilan tayoqni ushlab teppaga ko'taradi va tizzada o'rib olinadi,<br>1-da – tanani o'ng tomonga aylantiramiz;<br>2-tanani tanani chap tomonga aylantiramiz.     | To'xtamasdan har tomondan 4 marta |  |
| Oyoqlar yelka kengligida, ikkala qo'lida ham kublarni ushlab olamiz,<br>1-oldinga egilib, qo'llarni orqaga tomonga ko'tarib olamiz;<br>2-dastlabki holatga qaytamiz.        | 6 marta.                          |  |

Oyoq juft holatda, halqa ikki qo'l bilan ushlanib, beliga ushlanadi.  
1- o'tirish; 2- dastlabki holat.

6 marta



Gimnastika skameykasi oldida turib, qo'llar belda.

6 marta




1-skameykaga o'tirish;

2-Dastlabki holat.

Tik turgan holda oyoqlar juft holatda, to'pni qo'lda ushlab olamiz.

6 marta



1 - qo'llaringizni oldinga cho'zamiz;


2 - yuqoriga ko'taramiz;

3 - oldinga cho'zamiz;

4- teppaga ko'taramiz.

Tik turgan holda, oyoqlari bir oz ochiq turadi, 4-5 kishi bir vaqtning o'zida uzun tayoqni ushlab turadi.

8 marta



1- qo'llaringizni oldinga cho'zing;


2-qo'llaringizni yuqoriga ko'taring

3-qo'llaringizni oldinga cho'zing;

4- dastlabki holat.

Tik turgan holda, oyoqlari bir oz ochiq turadi, 4-5 kishi bir vaqtning o'zida uzun tayoqni ushlab turadi.

Har bir  
yo'nalishda 4  
marta



Qo'llarni oldinga cho'zamiz va tayoqni barmoqlar bilan aylantiramiz.

Biz tadqiqot ishimiz bo'yicha tajriba-sinov ishlarida Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi 1-36-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining 5-6 yoshli o'g'il va qiz bolalarining jismoniy rivojlanish darajasini o'rganish maqsadida 38 nafar o'g'il bola hamda 36 nafar qiz bolalar tajriba va nazorat guruhlariga uchun saylab oldik. (1-2-jadval)

Navoiy viloyati maktabgacha ta'lim tashkiloti 5-6 yoshli o'g'il bolalarining jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida tana o'g'irligi nazorat guruhi a'zolaridagi o'rtacha natija tadqiqot boshida  $19,24 \pm 2,08$  kg ni tashkil etib, natijalar o'rtasidagi farq esa 10,8 % bo'lganligini, hamda 5-6 yoshli o'g'il bolalarining tana o'g'irligi tajriba guruhi a'zolarida o'rtacha natija tadqiqot boshida  $18,95 \pm 2,05$  kg ni tashkil etib, natijalar o'rtasidagi farq 10,8%,  $t=0,43$  ga teng bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda ishonchlilik darajasi  $p>0,05$  ga teng ekanligini ko'rsatdi.

5-6 yoshli o'g'il bolalarning tana o'g'irligi nazorat guruhi a'zolaridagi o'rtacha natija tadqiqot oxiriga kelib quyidagi natijani ko'rsatdi: nazorat guruhi o'g'il bolalarda ushbu testlash bo'yicha o'rtacha natija tadqiqot oxirida  $19,35 \pm 2,09$  kg ni tashkil etib, natijalar o'rtasidagi farq 10,7 % bo'lganligini, tarbiyalanuvchilar tana o'g'irligining tajriba guruhi o'g'il bolalarda biz taqdim etgan metodika qo'llanilganidan so'ng o'rtacha ko'rsatkich tadqiqot oxiriga kelib  $20,79 \pm 1,91$  kg ni tashkil etdi, natijalar o'rtasidagi farq 9,1 %,  $t=2,22$  ga teng bo'lganligini amalda ko'rsatdi. Bunda ishonchlilik darajasi  $p<0,05$  ga teng bo'lganligini, ya'ni ishonchlilik darajasi ancha yuqoriligini ko'rishimiz mumkin.

Metodika qo'llanilganidan so'ng, natijalar variatsiya ko'rsatkichining kamayishi bilan barqaror va yuqori sifatga ega bo'lgan. Tajriba oxirida esa tajriba guruhi natijalari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yaxshilandi Bu esa metodikaning samaradorligi yuqori ekanligini va natijalar statistik jihatdan ishonchli ekanini ko'rsatadi.

Viloyatda olib borilgan tadqiqot ishimizning maktabgacha yoshdagi bolalarda tana uzunligi nazorat guruhi a'zolaridagi o'rtacha natija tadqiqot boshida  $113,69 \pm 16,35$  sm ni tashkil etib, natijalar o'rtasidagi farq esa 16,1 % bo'lganligini, hamda 5-6 yoshli o'g'il bolalarining tana uzunligi tajriba guruhi a'zolarida o'rtacha natija tadqiqot boshida  $110,08 \pm 18,37$  sm ni tashkil etib, natijalar o'rtasidagi farq 16,6 %,  $t=0,60$  ga teng bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda ishonchlilik darajasi  $p>0,05$  ga teng ekanligini ko'rsatdi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti 5-6 yoshli o'g'il bolalarning tana uzunligi nazorat guruhi a'zolaridagi o'rtacha natija tadqiqot oxiriga kelib quyidagi natijani ko'rsatdi: nazorat guruhi o'g'il bolalarda ushbu testlash bo'yicha o'rtacha natija tadqiqot oxirida  $114,21 \pm 18,40$  sm ni tashkil etib, natijalar o'rtasidagi farq 16,1 % bo'lganligini, tarbiyalanuvchilar tana uzunligining tajriba guruhi o'g'il bolalarda biz taqdim etgan metodika qo'llanilganidan so'ng o'rtacha ko'rsatkich tadqiqot oxiriga kelib  $124,93 \pm 12,48$  sm ni tashkil etdi, natijalar o'rtasidagi farq 9,9 %,  $t=2,14$  ga teng bo'lganligini amalda ko'rsatdi. Bunda ishonchlilik darajasi  $p<0,05$  ga teng bo'lganligini, ya'ni ishonchlilik darajasi ancha yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Tajriba va nazorat guruhidagi natijalar qiyosiy solishtirilganda, ko'rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ishonchliligi tajriba guruhi o'g'il bolalarda o'sganini, nazorat guruhi o'g'il bolalarda esa deyarli katta farq yo'qligini ko'rishimiz mumkin.

Viloyatning maktabgacha ta'lim tashkilotlari 5-6 yoshli o'g'il bolalari jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida ko'krak qafasining aylanasi nazorat guruhi a'zolaridagi o'rtacha natija tadqiqot boshida boshida  $53,43 \pm 5,79$  sm ni tashkil etib, natijalar o'rtasidagi farq esa 10,8 % bo'lganligini, hamda 5-6 yoshli o'g'il bolalari ko'krak qafasining aylanasi tajriba guruhi a'zolarida o'rtacha natija tadqiqot boshida  $53,32 \pm 5,78$  sm ni tashkil etib, natijalar o'rtasidagi farq 10,8 %,  $t=0,05$  ga teng bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda ishonchlilik darajasi  $p>0,05$  ga teng ekanligini ko'rsatdi.

#### 1-jadval

#### Navoiy viloyat, Qizilteppa tumani maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchi 5-6 yoshli o'g'il bolalari jismoniy rivojlanishi darajasining dinamikasi ( $n=38$ )


| №  | Ko'rsatkichlar                    | Sinov vaqti | NG ( $n=19$ )<br>$\bar{X} \pm \sigma$ | V%   | TG ( $n=19$ )<br>$\bar{X} \pm \sigma$ | V%   | t    | p       |
|----|-----------------------------------|-------------|---------------------------------------|------|---------------------------------------|------|------|---------|
| 1. | Tana og'irligi, (kg)              | T.B.        | $19,24 \pm 2,08$                      | 10,8 | $18,95 \pm 2,05$                      | 10,8 | 0,43 | $>0,05$ |
|    |                                   | T.O.        | $19,35 \pm 2,09$                      | 10,7 | $20,79 \pm 1,91$                      | 9,1  | 2,22 | $<0,05$ |
| 2. | Tana uzunligi, (sm)               | T.B.        | $113,69 \pm 16,35$                    | 16,1 | $110,08 \pm 18,37$                    | 16,6 | 0,60 | $>0,05$ |
|    |                                   | T.O.        | $114,21 \pm 18,40$                    | 16,1 | $124,93 \pm 12,48$                    | 9,9  | 2,14 | $<0,05$ |
| 3. | Ko'krak qafasining aylanasi, (sm) | T.B.        | $53,43 \pm 5,79$                      | 10,8 | $53,32 \pm 5,78$                      | 10,8 | 0,05 | $>0,05$ |
|    |                                   | T.O.        | $53,48 \pm 5,80$                      | 10,8 | $55,43 \pm 5,51$                      | 9,9  | 1,06 | $>0,05$ |
| 4. | YuQS (daq.zar.)                   | T.B.        | $100,65 \pm 11,17$                    | 11,1 | $102,79 \pm 11,29$                    | 10,9 | 0,58 | $>0,05$ |
|    |                                   | T.O.        | $99,76 \pm 10,91$                     | 11,1 | $93,01 \pm 9,10$                      | 9,6  | 2,07 | $<0,05$ |

**Izoh:** kg-kilogram, sm-santimetr, daq-daqiqa, zar-zarba.

5-6 yoshli o'g'il bolalari ko'krak qafasining aylanasi nazorat guruhi a'zolaridagi o'rtacha natija tadqiqot oxiriga kelib quyidagicha bo'ldi: nazorat guruhi o'g'il bolalarda ushbu testlash bo'yicha o'rtacha natija tadqiqot oxirida  $53,48 \pm 5,80$  sm ni tashkil etib, natijalar o'rtasidagi farq 10,8 % bo'lganligini, tarbiyalanuvchilar ko'krak qafasi aylanasi tajriba guruhi o'g'il bolalarda biz taqdim etgan metodika qo'llanilganidan so'ng o'rtacha ko'rsatkich tadqiqot oxiriga kelib  $55,43 \pm 5,51$  sm ni tashkil etdi, natijalar o'rtasidagi farq 9,9%,  $t=1,06$  ga teng bo'lganligini amalda ko'rsatdi. Bunda ishonchlilik darajasi  $p>0,05$  ga teng bo'lganligini, ya'ni ishonchlilik darajasi pastligini ko'rishimiz mumkin. Tajriba va nazorat guruhidagi natijalar qiyosiy solishtirilganda, ko'rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ishonchliligi tajriba guruhi o'g'il bolalarda kam miqdorda o'sganini, nazorat guruhi o'g'il bolalarda esa deyarli farq yo'qligini ko'rishimiz mumkin. Tajribamiz avvalida har ikkala guruhning o'g'il bolalari orasidagi natijalar bir-biriga yaqin bo'lganini, tadqiqot so'ngidagi natijalar esa oz bo'lsada farq qilganini ko'rishimiz mumkin.



Maktabgacha ta'lim tashkiloti 5-6 yoshli o'g'il bolalarning jismoniy rivojlanishi darajasining dinamikasini aniqlash maqsadiada o'tkazilgan pedagogik testlashda yurakning qisqarish soni bo'yicha nazorat guruhi o'g'il bolalarining o'rtacha natijasi tajriba avvalida  $100,65 \pm 11,17$  daq.zarbani tashkil etib, variatsiya ko'rsatgichi esa 11,1 % bo'lganligini, hamda yurakning qisqarish soni tajriba guruhi o'g'il bolalarda o'rtacha natija tajriba avvalida  $102,79 \pm 11,29$  daq.zarbani tashkil etib, variatsiya ko'rsatgichi 10,9 %,  $t=0,58$  ga teng bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda ishonchlilik darajasi  $p>0,05$  ga teng ekanligini ko'rsatdi.



**1-rasm. Navoiy viloyat, Qizilteppa tumani maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchi 5-6 yoshli o'g'il bolalarining pedagogik tajriba oxirida jismoniy rivojlanishi darajasining dinamikasi**

Tarbiyalanuvchi o'g'il bolalarning yurak qisqarish soni tadqiqot oxiriga kelib natijalari quyidagicha bo'ldi: nazorat guruhi o'g'il bolalarda ushbu testlash bo'yicha o'rtacha natija tajriba oxirida  $99,76 \pm 10,91$  daq.zarbani tashkil etib, variatsiya ko'rsatgichi 11,1 % bo'lganligini, hamda yurak qisqarish soni tajriba guruhi o'g'il bolalarda ishlab chiqilgan metodikamizni qo'llagandan so'ng o'rtacha natija tajriba oxiriga kelib  $93,01 \pm 9,10$  daq.zarbani tashkil etdi, variatsiya ko'rsatgichi 9,6%,  $t=2,07$  ga teng bo'lganligini amalda ko'rsatdi. Bunda ishonchlilik darajasi  $p<0,05$  ga teng bo'lganligini, ya'ni ishonchlilik darajasi nisbatan yuqori bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Tajriba va nazorat guruhidagi natijalar qiyosiy solishtirilganda, ko'rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ishonchliligi tajriba guruhi o'g'il bolalarda metodika qo'llanilganidan so'ng, natijalar variatsiya ko'rsatkichining kamayishi bilan barqaror va yuqori sifatga ega bo'lgan. Tajriba oxirida esa tajriba guruhi natijalari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yaxshilandi. Bu esa ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligi yuqori ekanligini va natijalar statistik jihatdan ishonchli ekanini ko'rsatadi.

Navoiy viloyati maktabgacha ta'lim tashkiloti 5-6 yoshli qiz bolalarining jismoniy rivojlanish darajasining dinamikasini aniqlash maqsadiada o'tkazilgan pedagogik testlashda tana o'g'irligi nazorat guruhi a'zolaridagi o'rtacha natija tadqiqot boshida  $19,26 \pm 2,08$  kg ni tashkil etib, natijalar o'rtasidagi farq esa 10,8 % bo'lganligini, hamda 5-6 yoshli qiz bolalarining tana o'g'irligi tajriba guruhi a'zolarida o'rtacha natija tadqiqot boshida  $18,56 \pm 2,01$  kg ni tashkil etib, natijalar o'rtasidagi farq 10,8%,  $t=1,02$  ga teng bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda ishonchlilik darajasi  $p>0,05$  ga teng ekanligini ko'rsatdi.

5-6 yoshli qiz bolalarning tana o'g'irligi nazorat guruhi a'zolaridagi o'rtacha natija tadqiqot oxiriga kelib quyidagi natijani ko'rsatdi: nazorat guruhi qiz bolalarda ushbu testlash bo'yicha

o'rtacha natija tadqiqot oxirida  $19,29 \pm 2,12$  kg ni tashkil etib, natijalar o'rtasidagi farq 10,9 % bo'lganligini, tarbiyalanuvchilar tana o'g'irligining tajriba guruhi qiz bolalarda biz taqdim etgan metodika qo'llanilganidan so'ng o'rtacha ko'rsatkich tadqiqot oxiriga kelib  $21,52 \pm 1,83$  kg ni tashkil etdi, natijalar o'rtasidagi farq 8,5 %,  $t=3,37$  ga teng bo'lganligini amalda ko'rsatdi. Bunda ishonchlilik darajasi  $p < 0,01$  ga teng bo'lganligini, ya'ni ishonchlilik darajasi ancha yuqoriligini ko'rishimiz mumkin.

Metodika qo'llanilganidan so'ng, natijalar variatsiya ko'rsatkichining kamayishi bilan barqaror va yuqori sifatga ega bo'lgan. Tajriba oxirida esa tajriba guruhi natijalari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yaxshilandi Bu esa metodikaning samaradorligi yuqori ekanligini va natijalar statistik jihatdan ishonchli ekanini ko'rsatadi. (4-jadvalga qarang)

Olib borilgan tadqiqot ishimizning maktabgacha yoshdagi bolalarda tana uzunligi nazorat guruhi a'zolaridagi o'rtacha natija tajriba boshida  $109,91 \pm 19,20$  sm ni tashkil etib, natijalar o'rtasidagi farq esa 17,5 % bo'lganligini, hamda 5-6 yoshli qiz bolalarining tana uzunligi tajriba guruhi a'zolarida o'rtacha natija tajriba boshida  $108,62 \pm 19,12$  sm ni tashkil etib, natijalar o'rtasidagi farq 17,6 %,  $t=0,20$  ga teng bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda ishonchlilik darajasi  $p > 0,05$  ga teng ekanligini ko'rsatdi.

## 2-jadval


**Navoiy viloyat, Qizilteppa tumani maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchi 5-6 yoshli qiz bolalari jismoniy rivojlanishi darajasining dinamikasi ( $n=36$ )**

| №  | Ko'rsatkichlar                    | Sinov vaqti | NG ( $n=18$ )<br>$\bar{X} \pm \sigma$ | V%   | TG ( $n=18$ )<br>$\bar{X} \pm \sigma$ | V%   | t    | p        |
|----|-----------------------------------|-------------|---------------------------------------|------|---------------------------------------|------|------|----------|
| 1. | Tana og'irligi, (kg)              | T.B.        | $19,26 \pm 2,08$                      | 10,8 | $18,56 \pm 2,01$                      | 10,8 | 1,02 | $> 0,05$ |
|    |                                   | T.O.        | $19,29 \pm 2,12$                      | 10,9 | $21,52 \pm 1,83$                      | 8,5  | 3,37 | $< 0,01$ |
| 2. | Tana uzunligi, (sm)               | T.B.        | $109,91 \pm 19,20$                    | 17,5 | $108,62 \pm 19,12$                    | 17,6 | 0,20 | $> 0,05$ |
|    |                                   | T.O.        | $110,57 \pm 19,26$                    | 17,4 | $121,83 \pm 12,15$                    | 9,9  | 2,09 | $< 0,05$ |
| 3. | Ko'krak qafasining aylanasi, (sm) | T.B.        | $53,44 \pm 5,78$                      | 10,8 | $53,18 \pm 5,72$                      | 10,7 | 0,13 | $> 0,05$ |
|    |                                   | T.O.        | $53,47 \pm 5,75$                      | 10,7 | $55,68 \pm 5,15$                      | 9,2  | 1,21 | $> 0,05$ |
| 4. | YuQS (daq.zar.)                   | T.B.        | $100,75 \pm 10,92$                    | 10,8 | $105,14 \pm 11,03$                    | 10,4 | 1,19 | $> 0,05$ |
|    |                                   | T.O.        | $99,89 \pm 10,78$                     | 10,7 | $92,41 \pm 9,09$                      | 9,8  | 2,25 | $< 0,05$ |

**Izoh:** kg-kilogram, sm-santimetr, daq-daqiqa, zar-zarba.

Jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida 5-6 yoshli qiz bolalarning tana uzunligi nazorat guruhi a'zolaridagi o'rtacha natija tajriba oxiriga kelib quyidagi natijani ko'rsatdi: nazorat guruhi qiz bolalarda ushbu testlash bo'yicha o'rtacha natija tajriba oxirida  $110,57 \pm 19,26$  sm ni tashkil etib, natijalar o'rtasidagi farq 17,4 % bo'lganligini, tarbiyalanuvchilar tana uzunligining tajriba guruhi qiz bolalarda biz taqdim etgan metodika qo'llanilganidan so'ng o'rtacha ko'rsatkich tajriba oxiriga kelib  $121,83 \pm 12,15$  sm ni tashkil etdi, natijalar o'rtasidagi farq 9,9 %,  $t=2,09$  ga teng bo'lganligini amalda ko'rsatdi. Bunda ishonchlilik darajasi  $p < 0,05$  ga teng bo'lganligini, ya'ni ishonchlilik darajasi ancha yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Tajriba va nazorat guruhidagi natijalar qiyosiy solishtirilganda, ko'rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ishonchliligi tajriba guruhi qiz bolalarda o'sganini, nazorat guruhi qiz bolalarda esa deyarli katta farq yo'qligini ko'rishimiz mumkin.

Viloyatning maktabgacha ta'lim tashkilotlari 5-6 yoshli qiz bolalari ko'krak qafasining aylanasi nazorat guruhi a'zolaridagi o'rtacha natija tadqiqot boshida boshida  $53,44 \pm 5,78$  sm ni tashkil etib, natijalar o'rtasidagi farq esa 10,8 % bo'lganligini, hamda 5-6 yoshli qiz bolalari ko'krak qafasining aylanasi tajriba guruhi a'zolarida o'rtacha natija tadqiqot boshida  $53,18 \pm 5,72$  sm ni tashkil etib, natijalar o'rtasidagi farq 10,7 %,  $t=0,13$  ga teng bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda ishonchlilik darajasi  $p > 0,05$  ga teng ekanligini ko'rsatdi.



**2-rasm. Navoiy viloyat, Qizilteppa tumani maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchi 5-6 yoshli qiz bolalarining pedagogik tajriba oxirida jismoniy rivojlanishi darajasining dinamikasi**

Qizilteppa tumani 5-6 yoshli qiz bolalari ko'krak qafasining aylanasi nazorat guruhi a'zolaridagi o'rtacha natija tadqiqot oxiriga kelib quyidagicha bo'ldi: nazorat guruhi qiz bolalarda ushbu testlash bo'yicha o'rtacha natija tadqiqot oxirida  $53,47 \pm 5,75$  sm ni tashkil etib, natijalar o'rtasidagi farq 10,7 % bo'lganligini, tarbiyalanuvchilar ko'krak qafasi aylanasi tajriba guruhi qiz bolalarda biz taqdim etgan metodika qo'llanilganidan so'ng o'rtacha ko'rsatkich tadqiqot oxiriga kelib  $55,68 \pm 5,15$  sm ni tashkil etdi, natijalar o'rtasidagi farq 9,2%,  $t=1,21$  ga teng bo'lganligini amalda ko'rsatdi. Bunda ishonchlilik darajasi  $p>0,05$  ga teng bo'lganligini, ya'ni ishonchlilik darajasi pastligini ko'rishimiz mumkin. Tajriba va nazorat guruhidagi natijalar qiyosiy solishtirilganda, ko'rsatkichlar orasidagi statistik farqlar ishonchliligi tajriba guruhi qiz bolalarda kam miqdorda o'sganini, nazorat guruhi qiz bolalarda esa deyarli farq yo'qligini ko'rishimiz mumkin. Tajribamiz avvalida har ikkala guruhning qiz bolalari orasidagi natijalar bir-biriga yaqin bo'lganini, tadqiqot so'ngidagi natijalar esa oz bo'lsada farq qilganini ko'rishimiz mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti 5-6 yoshli qiz bolalarning jismoniy rivojlanishi darajasining dinamikasini aniqlash maqsadiada o'tkazilgan pedagogik testlashda yurakning qisqarish soni bo'yicha nazorat guruhi qiz bolalarining o'rtacha natijasi tajriba avvalida  $100,75 \pm 10,92$  daq.zarbani taashkil etib, variatsiya ko'rsatkichi esa 10,8% bo'lganligini, hamda yurakning qisqarish soni tajriba guruhi qiz bolalarda o'rtacha natija tajriba avvalida  $105,14 \pm 11,03$  daq.zarbani tashkil etib, variatsiya ko'rsatkichi 10,4 %,  $t=1,19$  ga teng bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda ishonchlilik darajasi  $p>0,05$  ga teng ekanligini ko'rsatdi.

Tarbiyalanuvchi qiz bolalarning yurak qisqarish soni tadqiqot oxiriga kelib natijalari quyidagicha bo'ldi: nazorat guruhi qiz bolalarda ushbu testlash bo'yicha o'rtacha natija tajriba oxirida  $99,89 \pm 10,78$  daq.zarbani tashkil etib, variatsiya ko'rsatkichi 10,7 % bo'lganligini, hamda yurak qisqarish soni tajriba guruhi qiz bolalarda ishlab chiqilgan metodikamizni qo'llagandan so'ng o'rtacha natija tajriba oxiriga kelib  $92,41 \pm 9,09$  daq.zarbani tashkil etdi, variatsiya ko'rsatkichi 9,8%,  $t=2,25$  ga teng bo'lganligini amalda ko'rsatdi. Bunda ishonchlilik darajasi  $p<0,05$  ga teng bo'lganligini, ya'ni ishonchlilik darajasi nisbattan yuqori bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

**Xulosa** qilib aytish mumkinki, o'tkazilgan tadqiqotlar davomida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari aniqlangan bo'lib, ular yuqori jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlariga ega emasliklari, ushbu yuqori rivojlanish

dinamikasiga ega bo'lgan jismoniy ko'rsatkichlarni, ularning mashg'ulotlari jarayonida to'g'ri tanlangan vositalar orqali yaxshilash mumkinligi aniqlandi. Sinov va o'lchovlar shuni ko'rsatdiki, bolalarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari dinamikasi past darajada bo'lib, ularning yugurish tezligi, chaqqonlik, koordinatsiya va kuch xususiyatlari sezilarli darajada rivojlanmagan. Biroq, to'g'ri tanlangan vositalar va metodlar asosida tizimli mashg'ulotlar olib borilsa, ushbu ko'rsatkichlarni sezilarli darajada yaxshilash mumkinligi aniqlandi.

Tadqiqot jarayonida tanlangan hamda mashg'ulotlarda qo'llanilgan vosita va usullarning samarasini Navoiy viloyat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining pedagogik tajriba boshidagi va yakunida qayd etgan natijalaridan ham ko'rish mumkin. Tajriba guruhi bolalarida nazorat guruhiga nisbatan sezilarli o'sish kuzatildi. Yugurish, chaqqonlik, koordinatsiya va tezkor kuch sifatlarini rivojlantirishda ilgari surilgan metodika ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Olib borilgan maxsus mashqlar va testlar natijasida bolalarning tezligi, chaqqonligi, kuchi va koordinatsiyasi yaxshilandi. Tajriba guruhi natijalari statistik jihatdan ishonchli bo'lib,  $p < 0,05$  darajasida sezilarli farq kuzatildi, tajriba guruhida qo'llanilgan maxsus metodikadan so'ng bolalarning jismoniy rivojlanishida ham o'zgarishlar ro'y berganini yuqoridagi jadval hamda diagrammalardan ham ko'rishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston-2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
3. M.X.Tadjiyeva, S.I.Xusanxodjayeva "Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi". Toshkent. "Iqtisod-moliya" 2017
4. D.N. Raxmatova, L.Z. Xolmurodov, L.B. Sobirova "Maktabgacha va boshlangich ta'limda jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati" Toshkent "Ozkitobsavdo" nashriyoti" 2020
5. F.Xo'jayev "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tkaziladigan harakatli o'yinlar" Toshkent – 2022 y
6. O.V.Goncharova "Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish" O'zDJTInashriyot-matbaa Toshkent-2005
7. Кобяков, Ю.П. Модель здоровья человека как структурная основа теории здоровья / Ю.П. Кобяков // Теория и практика физической культуры. - 2006. № 1.-С. 23-25
8. Рунова, М.А. Двигательная активность ребенка в детском саду : пособие для педагогов дошкольных учреждений, преподавателей и студентов пед. вузов и колледжей / М.А. Рунова. - М. : Мозаика-Синтез, 2004.-256 с.
9. Rustamov A. A., Ikromboyev A. Methodology for Teaching Preschool Children to the Main Types of Movement in the Medium of Action Games //International Journal of Formal Education. – 2024. – T. 3. – №. 1. – C. 103-107.
10. Askarovich R. A., Asadbek I. MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH THE MEANS OF PHYSICAL EDUCATION //Proximus Journal of Sports Science and Physical Education. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 51-55.
11. Asqarovich R. A. YOSH GANDBOLCHILARDA KUZATISH VA DIQQATNI RIVOJLANTIRISH //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2022. – T. 3. – №. 9. – C. 148-153.
12. Яковлева Т.С. "Здоровьесберегающие технологии воспитания в детском саду" Москва, Школьная Пресса, 2007 г., 48 с.

## TALABALARGA MUSIQA NAZARIYASINI O'RGATISHDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TIZIMIDAN FOYDALANISHNING AYRIM XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Maqolada Oliy ta'lim muassasalarining "Musiqqa ta'limi" yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga musiqa nazariyasini o'rgatishda zamonaviy axborot kommunikatsiya tizimidan foydalanishning ayrim xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Unda infokommunikatsiya texnologiyalari, media-ta'lim elementlari kabi axborot ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Axborot, musiqa, kommunikatsiya, texnologiya, media-ta'lim, metodika, innovatsiya, kompyuter, nazariya, solfedjio.

## НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННОЙ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ ПРИ ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ ТЕОРИИ МУЗЫКИ

**Аннотация.** В статье научно и теоретически исследованы некоторые особенности использования современной информационно-коммуникационной системы при преподавании теории музыки студентам, обучающимся по направлению «Музыкальное образование» высших учебных заведений. Он содержит научно-методические рекомендации по эффективному использованию информационных и образовательных технологий, таких как информационно-коммуникационные технологии и медиаобразовательные элементы.

**Ключевые слова:** Информация, музыка, коммуникация, технологии, медиаобразование, методология, инновации, компьютер, теория, сольфеджио.

## SOME CHARACTERISTICS OF USING THE MODERN INFORMATION COMMUNICATION SYSTEM IN TEACHING STUDENTS THEORY OF MUSIC

**Annotation.** The article scientifically and theoretically explores some of the features of using a modern information and communication system when teaching music theory to students studying in the field of "Music Education" in higher educational institutions. It contains scientific and methodological recommendations for the effective use of information and educational technologies, such as information and communication technologies and media educational elements.

**Key words:** Information, music, communication, technology, media education, methodology, innovation, computer, theory, solfeggio.

Musiqachilarning turli mutaxassisliklar bo'yicha kasbiy ta'limi birinchi navbatda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi shaxsiy, individual aloqalarning katta qismi bo'lgan amaliy jarayondir. Musiqa sohasiga tegishli turli xil maxsus bilimlar ijodiy funksiyani - musiqa ijrosini amalga oshirishga qaratilgan. Musiqachini tayyorlashga pedagogik yondashuvda amaliy musiqa ijodkorligi, ya'ni qo'shiq aytish va cholg'u chalishni o'rganish asosiy yo'nalishni tashkil etadi. Bunga ijro texnikasini o'zlashtirish, repertuar to'plash, estetik munosabat va talqin qilishning o'ziga xos usullarini o'zlashtirish kabi mashg'ulot turlari kiradi.

Musiqa talimini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish, bunda eng yangi, zamonaviy axborot kommunikatsiya tizimidan, axborot muhitidan maqsadli ravishda, samarali foydalanish hozirgi davrning eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib turibdi. Oxirgi yillarda davlatimizda musiqa sohasida respublika miqyosida amalga oshirilayotgan yangiliklar, islohotlar,



tub o'zgarishlar ham shundan dalolat beradi. Biz analitik tahlil va musiqiy hayotning ob'yektiv sharoitlari va talablariga, zamonaviy jamiyat musiqa madaniyati mazmuniga samarali moslashishga muhtojmiz.

Zamonaviy pedagogikaning innovatsion yo'nalishi axborot, infokommunikatsiya texnologiyalari, kompyuterlarning umumiy va xususan, ta'lim muassasalarida kundalik hayotga keng joriy etilishi bilan bog'liq. Bugungi kunda media-ta'lim elementlarini – amaldagi didaktik strategiyalardan biri – musiqa ta'limiga faol joriy etish zarurati tug'ildi. Bunda professional bilim elementiga hissiy singdirish uchun yashirin va kuchli imkoniyatlar yotadi. Musiqachilar uchun ham amaliy (ijro) faoliyatda ham, o'qitishda ham axborotni qayta ishlash va uzatishning raqamli usullari ulkan yangi imkoniyatlar yaratdi. Musiqa ta'limidagi tub o'zgarishlarni shunday tashkil etish kerakki, yangilanish jarayoni maqsadga muvofiq va ishonarli bo'lsin. Fanlarning musiqiy nazariy bloki – musiqaning elementar nazariyasi, solfejio, garmoniya, musiqa asarlari tahlil - bu borada izlanish va tajribalar uchun juda qulaydir.

Adabiy, musiqiy va audio matnlarni yaratish va tahrirlash uchun yaratilgan kompyuter dasturlari musiqa hayotiga yangi voqelik kiritdi. Yangi vositalar bilan jihozlangan nashriyot bazasi ham o'qituvchilar, ham talabalarning ilmiy-uslubiy faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazadi, eng muhimi, bugungi kunda o'quv jarayonini "hujjatli" jihozlash imkonini beradi. Kompyuterga ulangan elektron asboblarning konsert muhitini va amaliy musiqaning barcha turlarini o'zgartirdi. So'nggi paytlarda u musiqa san'atining asosiy turlari bilan aniq tarzda raqobatlasha boshladi. So'zning keng ma'nosida axborot texnologiyalari nafaqat kompyuterni, balki audio va video ma'lumotlarni yetkazib berishning barcha vositalarini ham o'z ichiga oladi. Ovoz standartini takrorlashning har qanday manbasi bo'lgan audio va video testlar qo'shiq kuylash va quloq bilan solishtirish uchun ishlatilishi mumkin: standart va minus fonogramma.

Tez replikatsiya qilish imkoniyatlaridan, jumladan, nusxa ko'chirish mashinalari, skanerlardan foydalanib, bugungi kunda uslubiy ishlanmalarni va tavsiyalarni har bir talabaga elektron shaklda etkazish juda qulay, tez va oson. Oliy ta'lim muassasalari ta'lim tizimida keng joriy etilgan "Hemis" dasturi bu borada keng istiqbolli imkoniyatlarga ega bo'lib, ushbu dasturning imkoniyatlari yildan-yilga kengayib, mukammallashib bormoqda. Umuman olganda, kompyuterlar talabalarga ma'lumot berish imkoniyatini – ma'lumotlar bazalaridagi (ma'lumotlar banklari) ma'lumotlar va faktlarni tubdan o'zgartirdi. Bular, birinchi navbatda, kitoblar, maqolalar, notalar, audio va video yozuvlarning elektron kataloglaridir. Musiqachi uchun ma'lumotlarning elektron mavjudligi nafaqat adabiy matnlarni, balki, birinchi navbatda, ovozli musiqani anglatadi. Turli xil ixcham raqamli yozish va tahrirlash formatlari bilan, nusxa ko'chirish va tuzatishning ko'p vaqt talab qiladigan jarayonini sezilarli darajada tejagan holda, musiqa tovushi professional shakllanish va rivojlanish uchun juda samarali bo'lgan individual vositaga aylanadi.

Axborotning multimedia shakli - video va animatsiyali musiqa individual foydalanish imkoniyati nuqtai nazaridan ayniqsa jozibali. Ayniqsa, kompyuterning takror ishlab chiqaruvchi vosita sifatida ko'p qirraliligini hisobga olsak, sinfda va mustaqil ta'lim uchun juda samarali istiqbollarni ochadi. Internet o'zining barcha kamchiliklari bilan musiqachi uchun bir qarashda ko'rinadiganidan ancha muhimroq axborot muhitini ifodalaydi. Ovozlarni va tovush spektrini kompyuterda tahlil qilish imkoniyati nafaqat sintezatorlarda ijro etilgan musiqaning tovush palitrasini boyitibgina qolmay, balki yangi tovush matnlarini yaratish harakatini o'zgartiradi va talabalarning "bastakorlik" ijodini rag'batlantiradi. Ammo didaktik qayta jihozlash muammosi umuman kompyuter bazasi bilan jihozlash va uni foydalanuvchi rivojlantirish tezligida emas. Muammo o'qituvchining hozirgi bosqichda musiqachining o'quv jarayonining mazmuni va ko'rinishini tubdan o'zgartirishga bo'lgan ob'yektiv ehtiyojga bo'lgan munosabati psixologiyasidan kelib chiqadi.

Musiqa pedagogikasida innovatsion o'zgarishlar, ularning ob'yektiv va shubhasiz majburiy amalga oshirilishi nafaqat axborot sohasi va uning texnologiyalari bilan belgilanadi. Afsuski, ularni faqat o'quv jarayonining ayrim bo'limlarida kompyuterni joriy etish orqali amalga oshirish mumkin emas. Yangi maqsadlar va yangi didaktik funksiyalarni aniq tushunmasdan yangi vositalar musiqa pedagogikasida o'z o'rnini topa olmaydi. Musiqiy madaniyat tarixiy dinamik tushunchadir. U ko'plab hodisalarni qamrab oladi, masalan, cholg'u asboblari, konsertlar, ta'lim

muassasalari, nashriyot muassasalari, radioeshittirish vositalari va boshqalar. Agar biz zamonaviy kasb-hunar ta'limi muassasasining amaliy hayotining o'ziga xos bir faktini olsak va uni chuqur va to'g'ri tushuntirishni maqsad qilgan bo'lsak, bu faqat yuqorida sanab o'tilgan jihatlarda amalga oshirilishi mumkin. Bunday holda, transformatsiyalar ikki yo'nalishda mumkin: zamonaviy ommaviy janrlardagi musiqiy materiallarni o'quv jarayoniga jalb qilish va barcha choratadbirlardan, shu jumladan, bunda axborot muhitidan, axborot texnologiyalarining barcha imkoniyatlaridan foydalanishga jonli qiziqishni rivojlantirish muhim ahamiyatga egadir.

Musiqiy nazariy fanlarda "innovatsion yo'nalish"ni shakllantirish quyidagicha ko'rinishi mumkin: asarni asl nusxada o'rganish va muayyan ijrolarda uning ovozinig xilma-xilligi masalasi. Solfedjio, garmoniya, kompyuterning universal imkoniyatlaridan foydalangan holda tahlil qilishda (va hozirda audio va video pleerlarning an'anaviy shakllarida) uslublarning xarakterli modellari kognitiv intriga misolida batafsil o'rganilishi kerak. Bu jihatdan axborot texnologiyalari o'quv jarayonni tubdan qayta jihozlashga, mashqlarning ijodiy samaradorligiga, "o'yin" jozibadorligiga va professional eshitishni rivojlantirish samaradorligiga hissa qo'shishi mumkin. Ya'ni, biz hozir musiqa informatikasi haqida emas, balki pedagogik informatika haqida – kompyuter texnologiyalarini va elektron axborot muhitini nazariy fanlar kesimida: keng miqyosda joriy etish masalasining yaqin kelajakdagi yechimlari haqida fikr yuritaymiz. Bir vaqtning o'zida ovoz bilan monitor ekranida turli ma'lumotlarning taqdim etilishi eshitish va vizual analizatorlarni o'zaro muvofiqlashtirishni boshqarish operatsiyalariga yo'l ochadi. Bu o'qituvchidan kompyuter texnologiyasidan, aranjirovka qilish dasturlaridan erkin foydalana olish malakasini talab etadi va haqiqiy kreativ va ijodiy faoliyatni nazarda tutadi. Albatta, bu materiallar musiqa adabiyoti, musiqa tarixi, nazariya va ijrochilik tarixi kabi fanlarda o'z o'rnini topishi zarur, deb taxmin qilish tabiiyroq. Ammo ular musiqiy uslubning "teksturasi" va uning musiqiy naqshlarini chuqur o'rganishga qiziqish uyg'otishga yordam beradi. Shuning uchun ham musiqa nazariy mashg'ulotlarida media ta'lim konsepsiyasidan uzoqlashmaslik kerak.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, musiqachining amaliy ko'nikmalarini, uning eshitish qobiliyatini va musiqiy tafakkurini rivojlantirish maqsadida raqamli axborot texnologiyalari va elektron vositalardan foydalanishda kompyuterning o'zi faqat yordamchi vosita bo'lib, u pedagogik strategiyani amalga oshirish vositasidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Дядченко М. Тестирование музыкального слуха в традиционной и компьютерной формах // Музыка в информационном мире. Наука. Творчество. Педагогика/ Ред. Г. Тараева, Т. Шак. Ростов н/Д, 2004.
2. Jalilov Sh. Musiqa darslarini integrativ asosda tashkil etishning metodologik aspektlari. Kognitiv va neyropedagogik tadqiqotlarning ta'lim amaliyotiga tatbig'i. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand viloyati PYMO'MM, 2024.
3. Тараева Г. Информационные технологии в музыкальном обучении: аудио и видеотесты для проверки слуховых навыков // Вопросы музыкознания и музыкальной педагогики: Тезисы межвуз. науч.-практ. конф. Тамбов, 2004.
4. Тараева Г. Музыкальная коммуникация в информационном обществе и теоретическая концепция языка музыки // Музыка в информационном мире. Наука. Творчество. Педагогика / Ред. Г. Тараева, Т. Шак. Ростов н/Д, 2004.
5. Тараева Г. О перспективах информационного подхода в изучении системы музыкального языка / / Динамика процессов в природе, обществе и технике: информационные аспекты: Материалы межд. науч. конф. Таганрог, 2003.
6. Majitov Sh.M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa tarbiyasi. BuxDU Pedagogik akmeologiya xalqaro ilmiy-metodik jurnal (10) 2024. №2. 162-165-betlar.
7. Qodirov B.G'. O'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda nota yozuvini o'rgatish. "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2024, № 12
8. Umurzakov B.N. Роль искусства и музыки в области педагогики. Экономика и социум, 2020. 10 (77) Стр. 822-825.

## SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Inson hayotining har qanday sohasi singari, chet tillarini o'qitishning hozirgi holatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridagi so'nggi ishlanmalar katta ta'sir ko'rsatmoqda. Maqolada, xususan, sun'iy intellekt (SI) ning chet tiliga kiritilishiga qaratilgan bo'lib, u mashinali o'rganish, adaptiv o'rganish, tabiiy tillarni qayta ishlash, ma'lumotlarni olish, neyron tarmoqlar yoki algoritm kabi keng ko'lamli texnologiyalar va usullarni o'rganish va o'qitishni o'z ichiga oladi. Birinchidan, tadqiqot SI-ga asoslangan vositalarni qo'llash orqali xorijiy tillarni o'qitishga kiritilgan o'zgarishlar bilan bog'liq va CALL ning bir qismi sifatida ICALL (kompyuter yordamida sun'iy tilni o'rganish) muhokama qilinadi. Ikkinchidan, unda xorijiy tillarni o'qitish uchun sakkiz turdagi sun'iy intellekt vositalari va ular kam bo'lsa-da, mavjud tadqiqot natijalarini umumlashtiradi. Uchinchidan, u oson, kamroq vaqt talab qiluvchi va samaraliroq qilish uchun sun'iy intellektga asoslangan vositalarni o'qitishga integratsiya qilish uchun chet tili o'qituvchilarini samarali tayyorlash asoslari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, kompyuter tizimlari, mashina tarjimalari, SI vositalari, shaxsiylashtirish, chatbotlar, virtual haqiqat (IVR), ICALL

## ЗНАЧЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

**Аннотация.** Как и любая другая сфера жизни человека, современное состояние преподавания иностранных языков во многом обусловлено новейшими разработками в области современных информационно-коммуникационных технологий. Наши исследования сосредоточены конкретно на внедрении искусственного интеллекта (ИИ) в иностранный язык, что предполагает изучение и преподавание широкого спектра технологий и методов, таких как машинное обучение, адаптивное обучение, обработка естественного языка, интеллектуальный анализ данных, нейронные сети или алгоритмы. Во-первых, в исследовании рассматриваются изменения, внесенные в преподавание иностранных языков с помощью инструментов на основе искусственного интеллекта, и обсуждается ICALL (компьютерное интеллектуальное обучение языку) как часть CALL. Во-вторых, в нем обобщены восемь типов инструментов искусственного интеллекта для обучения иностранным языкам и результаты существующих исследований, хотя их немного. В-третьих, обсуждаются основы эффективной подготовки преподавателей иностранных языков с целью интеграции инструментов на основе искусственного интеллекта в процесс обучения, чтобы сделать его более простым, менее трудоемким и более эффективным.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, компьютерные системы, машинный перевод, инструменты ИИ, персонализация, чат-боты.

## THE IMPORTANCE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

**Annotation.** Like any other area of human life, the current state of foreign language teaching has been greatly influenced by the latest developments in modern information and communication technologies. Our study focuses, in particular, on the introduction of artificial intelligence (SI) into foreign language teaching, which includes a wide range of technologies and

*methods such as machine learning, adaptive learning, natural language processing, data mining, neural networks or algorithms for learning and teaching. First, the study is concerned with the changes introduced into foreign language teaching through the use of SI-based tools and discusses ICALL (computer-assisted intelligent language learning) as part of CALL. Second, it summarizes the results of the existing research, although few, on eight types of SI tools for foreign language teaching. Thirdly, the basis for effective training of foreign language teachers is discussed, in order to integrate SI-based tools into teaching in order to make it easier, less time-consuming and more effective.*

**Keywords:** artificial intelligence, computer systems, machine translation, SI tools, personalization, chatbots, virtual reality (IVR), ICALL

**Kirish.** Aqlli texnologiyalar, moliyaviy texnologiyalar, elektron tijorat, marketing, ishlab chiqarish va avtomobil sanoati orqali sun'iy intellekt (SI) kundalik hayotimizning bir qismiga aylandi. Bu atama birinchi marta 1956 yilda Dartmut kollejida seminar tashkil etgan Jon Makkarti tomonidan qo'llanilgan va seminar davomida maqsadlarini yoritishda quyidagicha taklif bergan: "har bir tadqiqotimiz sun'iy intellekt asosida davom etishi lozim. Ta'limning har bir jihati yoki aqlning boshqa har qanday xususiyati prinsipial jihatdan shu qadar aniq tasvirlangan bo'lishi mumkinki, uni simulyatsiya qilish uchun mashina yasashi mumkin. Mashinalarni tildan qanday foydalanishini, abstraktsiyalar va tushunchalarni shakllantirishni, odamlarning muammolarini hal qilishini idrok etishimiz lozim [7]. Makkartining, SI bilan bog'liq kompyuterlar insonning kognitiv funksiyalarini takrorlay olishi va SI vositalari odamlar kabi fikrlashi mumkinligi, oxir oqibat odamlardan nazoratni o'z zimmasiga olishi haqidagi birinchi taxminlarining to'g'riligi isbotlangan. Kelajakda mashinalar haqiqatan ham o'ylay oladimi yoki mustaqil ongni rivojlantira oladimi, degan savol qolmoqda. Ko'pgina mualliflar yaqin kelajakda bunday kuchli sun'iy intellekt yaratilishi dargumon degan fikrga qo'shiladi. Tadqiqotlar davom etar ekan, olimlar o'zlarining taxminlarini o'zgartirdilar va o'z faoliyatlarini "inson tafakkuriga asoslangan murakkab modellar" ni, yaratishga qaratdilar [8].

Sun'iy intellektning zamonaviy ta'riflari turli jihatlarida farqlanadi va SIning yagona ta'rifini shakllantirish muammolari SI tarkibidagi doimiy o'zgarishlar (Luckin va boshq., 2016), shuningdek, tadqiqotning fanlararoligi bilan bog'liqdir (nafaqat informatika, balki falsafa, antropologiya, biologiya, pedagogika, psixologiya, tilshunoslik, kognitiv fan, nevrologiya, statistika va boshqalar).[9] Berilgan ta'riflarning bir guruhi SI ni o'rganish va muammolarni hal qilish kabi fikrlarni odatda inson ongi bilan bog'liq bo'lgan kognitiv funksiyalarga taqlid qiluvchi mashinalar, kompyuterlar yoki kompyuter tizimlari sifatida ko'rishadi (Russell & Norvig, 2010).[7] Boshqa bir guruh olimlar SI ni kompyuterlarning o'ziga xos ko'nikmalar to'plami sifatida ko'rib chiqadi, Beyker va Smit (2019, 10-bet) esa, SI ni "kognitiv vazifalarni bajaradigan, odatda inson ongi, xususan, o'rganish va muammolarni hal qilish bilan bog'liq bo'lgan kompyuterlar" deb ta'riflaydi.[6] Britaniya ensiklopediyasida aytilishicha, SI "raqamli kompyuter yoki kompyuter tomonidan boshqariladigan robotning odatda aqlli mavjudotlar bilan bog'liq vazifalarni bajarish qobiliyati", bunda aqlli mavjudotlar o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladigan mavjudotlardir.[10]

2. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'rgatish metodikasi. –Toshkent: Fan, 2004. – B.188.

### MAKTAB O'QUVCHILARIGA ANIMATSIYA ORQALI SUV AYLANISHI, OZIQ-OVQAT ZANJIRLARI VA UGLEROD AYLANISHLARI KABI EKOLOGIK SIKLLAR VA JARAYONLARNI VIZUALIZATSIYA QILISH

**Annotatsiya.** Animatsiya orqali suv aylanishi, oziq-ovqat zanjirlari va uglerod aylanishlari kabi ekologik sikllar va jarayonlarni vizualizatsiya qilish maktab o'quvchilarining o'rganish tajribasini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ushbu maqola animatsiyadan ushbu murakkab ekologik tushunchalarni soddalashtirilgan va qiziqarli tarzda o'rgatish vositasi sifatida foydalanish muhimligini o'rganadi. Animatsiyalar o'quvchilarga ekologik sikllarning dinamik va o'zaro bog'liqligini tushunishga yordam beradigan vizual tasvirlarni taqdim etishi mumkin. Ushbu raqamli vositalardan foydalangan holda, o'qituvchilar ekologik jarayonlarni chuqurroq tushunish va qadrlashni rag'batlantiradigan interaktiv va esda qolarli o'quv tajribalarini yaratishi mumkin. Ushbu maqolada suv aylanishi, oziq-ovqat zanjiri va uglerod aylanishini tushuntirish uchun animatsiyalardan qanday foydalanish mumkinligi muhokama qilinadi va ularning yosh o'quvchilarda atrof-muhit haqida xabardorligini oshirishdagi afzalliklari ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** ekologik sikllar, suv aylanishi, oziq-ovqat zanjirlari, uglerod aylanishlari, animatsiya, vizualizatsiya, maktab ta'limi, atrof-muhit haqida xabardorlik.

### ВИЗУАЛИЗАЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЦИКЛОВ И ПРОЦЕССОВ, ТАКИХ, КАК ВОДООБРАЩЕНИЕ, ПИЩЕВАЯ ЦЕПЬ И УГЛЕРОДНЫЙ ЦИКЛ, ШКОЛЬНИКАМ С ПОМОЩЬЮ АНИМАЦИИ

**Аннотация.** Визуализация экологических циклов и процессов, таких как круговорот воды, пищевые цепи и углеродные циклы, с помощью анимации может значительно улучшить учебный процесс школьников. В этой статье исследуется важность использования анимации как инструмента для преподавания сложных концепций окружающей среды в упрощенной и увлекательной форме. Анимация может предоставить визуальные эффекты, которые помогут учащимся понять динамику и взаимосвязь экологических циклов. Используя эти цифровые инструменты, преподаватели могут создавать интерактивные и запоминающиеся учебные материалы, которые способствуют более глубокому пониманию и оценке экологических процессов. В этой статье обсуждается, как анимация может использоваться для объяснения круговорота воды, пищевой цепи и углеродного цикла, а также подчеркивается их преимущества в повышении экологической осведомленности среди юных учащихся.

**Ключевые слова:** экологические циклы, круговорот воды, пищевые цепи, углеродные циклы, анимация, визуализация, школьное образование, экологическое сознание.

### VISUALIZATION OF ECOLOGICAL CYCLES AND PROCESSES SUCH AS WATER CIRCULATION, FOOD CHAIN AND CARBON CYCLE TO SCHOOL STUDENTS THROUGH ANIMATION

**Annotation.** Visualizing ecological cycles and processes such as the water cycle, food chains, and carbon cycles through animation can greatly enhance the learning experience of school children. This article explores the importance of using animation as a tool to teach these complex environmental concepts in a simplified and engaging way. Animations can provide visuals that help students understand the dynamics and interconnectedness of ecological cycles.

*Using these digital tools, educators can create interactive and memorable learning experiences that encourage a deeper understanding and appreciation of ecological processes. This article discusses how animations can be used to explain the water cycle, the food chain and the carbon cycle, and highlights their benefits in raising environmental awareness among young learners.*

**Keywords:** *ecological cycles, water cycle, food chains, carbon cycles, animation, visualization, school education, environmental awareness.*

**Kirish.** Ekologik sikllar va jarayonlarni tushunish tabiiy muhitdagi o'zaro bog'liqlikni tushunish uchun asosdir. Maktab o'quvchilari uchun ushbu sikllarni o'rganish ularning murakkabligi va mavhum tabiati tufayli qiyin bo'lishi mumkin. Ko'pincha statik tasvirlar va matnli tushuntirishlarga tayanadigan an'anaviy o'qitish usullari ushbu jarayonlarning dinamik tomonlarini samarali tarzda etkaza olmaydi. Bu erda animatsiya kuchli vositaga aylanadi.[1] Animatsiya ushbu mavhum g'oyalarni aniq, vizual tajribaga aylantirib, o'quv jarayonini yanada qiziqarli va qulayroq qiladi. Vizual ta'lim ta'limda, ayniqsa ilmiy tushunchalarni o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'rgazmali qurollar murakkab g'oyalarni boshqariladigan qismlarga bo'lish orqali ma'lumotni tushunish va saqlashni kuchaytirishi mumkin. Animatsiyalar, ayniqsa, bevosita kuzatish qiyin bo'lgan ekologik jarayonlarga hayot bag'ishlashi mumkin. Masalan, suv aylanishi orqali suv oqimi, oziq-ovqat zanjirlaridagi o'zaro ta'sirlar va uglerod aylanishidagi uglerod almashinuvi kabi jarayonlarni harakat va vaqt o'tishi bilan o'zgarishini tasvirlaydigan animatsion ketma-ketliklar orqali yaxshiroq tushunish mumkin.

Suv aylanishi - suvning Yer yuzasida, yuqorida va ostida harakatlanishini o'z ichiga olgan uzluksiz jarayon. U bug'lanish, kondensatsiya, yog'ingarchilik va yig'ish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.[2] Ushbu bosqichlarni tasvirlash uchun animatsiyadan foydalanish o'quvchilarga suvning holatini qanday o'zgartirishi, atrof-muhit bo'ylab harakatlanishi va hayotni qo'llab-quvvatlashini tasavvur qilish imkonini beradi. Animatsiyalar siklning o'tishlarini, masalan, suv bug'ining atmosferaga ko'tarilishi, bulutlarni hosil qilishi va oxir-oqibat yomg'ir sifatida Yerga qaytib, siklni yakunlashi kabilarni tasvirlashi mumkin.[3] Ushbu bosqichlarni tasavvur qilish orqali o'quvchilar suv aylanishining turli bosqichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqroq tushunishlari mumkin. Oziq-ovqat zanjirlari va oziq-ovqat tarmoqlari ekotizimdagi organizmlar o'rtasidagi ovqatlanish odatlariga asoslangan munosabatlarni ko'rsatadi. Ushbu diagrammalar ko'pincha energiya bir organizmdan ikkinchisiga qanday o'tkazilishini ko'rsatadi. Biroq, ular statik formatda taqdim etilganda, o'quvchilar uchun ularni sharhlash qiyin bo'lishi mumkin. Animatsiyalar energiya ekotizim bo'ylab harakatlanishini ko'rsatib, o'simliklar qanday qilib fotosintez orqali energiya ishlab chiqarishini, so'ngra o'txo'r hayvonlarga, keyin esa yirtqich hayvonlarga o'tishini ko'rsatib, bu o'zaro ta'sirlarni aniqroq qilishi mumkin. Ushbu munosabatlarni jonlantirish orqali o'quvchilar energiya oqimini va oziq-ovqat zanjirining bir qismidagi o'zgarishlarning butun ekotizimga ta'sirini kuzatishlari mumkin.

**Uglerod aylanishi va uning vizualizatsiyasi.** Uglerod aylanishi atmosfera, biosfera, gidrosfera va geosfera orqali uglerodning harakatlanishini o'z ichiga olgan yana bir muhim ekologik jarayondir. Ushbu sikl uglerodga asoslangan hayot shakllari qanday o'zini tutishini va inson faoliyati iqlim o'zgarishiga qanday ta'sir qilishini tushunish uchun juda muhimdir. Uglerod aylanishini jonlantirish uglerodning o'simliklar, hayvonlar, tuproq, okeanlar va atmosfera orqali harakatlanishining murakkab yo'llarini ko'rsatishi mumkin. Vizualizatsiya orqali o'quvchilar uglerod sekvestri, fotosintez, nafas olish va karbonat angidridni atmosferaga chiqarishda qazib olinadigan yoqilg'ining roli kabi tushunchalarni yaxshiroq tushunishlari mumkin.[4]

*Ekologik sikllarni o'rgatishda animatsiyadan foydalanish maktab o'quvchilari uchun ko'plab afzalliklarni beradi, jumladan:*

Kengaytirilgan faollik: Animatsiyalar o'quvchilar e'tiborini tortadi va o'rganishni yanada qiziqarli qiladi.[5]

Soddalashtirilgan murakkablik: jarayonlarni kichikroq bosqichlarga bo'lish orqali animatsiyalar murakkab tushunchalarni yanada tushunarli qiladi.

Интерактив ta'lim: Animatsiyalar ko'pincha interaktivlikka imkon beradi, bu esa o'quvchilarga o'z tezligida kashf qilish va o'rganishga yordam beradi.[9]

Xotirani saqlash: Vizual va dinamik tarkibni eslab qolish ehtimoli ko'proq bo'lib, ma'lumotni uzoq muddatli saqlashga yordam beradi.

Bir nechta ta'lim platformalari va resurslari ekologik jarayonlarni o'rgatish uchun animatsiyalarni muvaffaqiyatli birlashtirgan. Misol uchun, National Geographic Kids va BBC Bitesize kabi platformalar suv aylanishi, oziq-ovqat zanjirlari va uglerod aylanishini yosh o'quvchilar uchun tushunarli tarzda tushuntiradigan animatsion videolarni taklif qiladi. Ushbu animatsiyalar vizual jihatdan jozibali va ma'lumot beruvchi bo'lib, ularni o'qituvchilar va o'quvchilar uchun qimmatli vositalarga aylantiradi.

**Sinfda animatsiyalarni amalga oshirish.** Animatsiyalarni ekologik ta'limga samarali qo'shish uchun o'qituvchilar onlayn mavjud raqamli vositalar va resurslardan foydalanishlari mumkin.[8] O'qituvchilar yoshga mos keladigan va o'quv dasturiga mos keladigan animatsiyalarni yaratishi yoki boshqarishi mumkin. Bundan tashqari, interfaol simulyatsiyalar va animatsiyalar sinfdagi mashg'ulotlarga birlashtirilishi mumkin, bu esa o'quvchilarga real vaqtda ekologik jarayonlarni tasavvur qilish va boshqarish imkonini beradi. Planshetlar, smartboardlar va ta'lim dasturlari kabi texnologiyalardan foydalanish o'rganish tajribasini yanada yaxshilashi mumkin.

**Qiyinchiliklar va yechimlar.** Animatsiyalar ko'plab ta'lim afzalliklarini taqdim etsa-da, e'tiborga olish kerak bo'lgan muammolar mavjud:

Texnologiyaga kirish: Barcha maktablarda ilg'or raqamli vositalarni birlashtirish uchun resurslar mavjud emas.[6] Yechimlar bepul mavjud onlayn resurslar va yuqori texnologiyani talab qilmaydigan ta'lim platformalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Animatsiyalarning sifati: Animatsiyaning samaradorligi uning sifati va aniqligiga bog'liq. O'qituvchilar berilayotgan ma'lumotni mazmunning ilmiy jihatdan to'g'ri va qiziqarli bo'lishini ta'minlashi kerak.[7]

O'qituvchilar uchun trening: O'qituvchilar o'z darslarida animatsiyalardan samarali foydalanish uchun treningga muhtoj bo'lishi mumkin. Kasbiy rivojlanish seminarlari va onlayn kurslar o'qituvchilarga raqamli o'qitish ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

**Xulosa.** Animatsiya orqali ekologik sikllar va jarayonlarni vizualizatsiya qilish maktab o'quvchilarining atrof-muhit haqidagi bilimlarini o'zgartirishi mumkin bo'lgan kuchli ta'lim strategiyasidir.[9] Mavhum tushunchalarni aniq vizual tajribaga aylantirib, animatsiyalar o'rganishni yanada interaktiv, qiziqarli va esda qolarli qiladi.[8] Texnologiya taraqqiyotda davom etar ekan, yanada murakkab va samarali ta'lim animatsiyalarini yaratish salohiyati o'sib boradi va bu bizning sayyoramizdagi tabiiy jarayonlarni chuqurroq tushunish va qadrlashga olib keladi. Qolaversa, hozirgi zamonaviy texnologiyalar rivojlangan davrda, o'quvchilarga animatsiyalardan foydalanilgan dars o'tish yetarlicha samara beradi. Visual effektar bilan boyitilgan dars jarayoni o'quvchilarni butun ongini kerakli tomonga yo'naltirishga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Садовникова.Н.П. и др. Визуализация данных экологического мониторинга городской среды //Социология города. – 2022. – №. 1-2. – С. 68-80.
2. Кропотова.Н.В. Использование технологии “лекция-визуализация” в предметно-профессиональной подготовке будущих бакалавров педагогического образования в области безопасности жизнедеятельности //Ученые записки Крымского инженерно-педагогического университета. Серия: Педагогика. Психология. – 2018. – №. 2. – С. 9-12.
3. Фалевич М. С., Дыдышко Е. А., Нерода Ю. П. Компьютерная визуализация геоэкологической информации. – 2020.
4. Фокин М. Г. Автоматизация процесса формирования экологической информации в производственных машиностроительных системах : дис. – Москва : [Моск. гос. технол. ун-т “Станкин”], 2005.

5. Малышева Т. В., Шинкевич А. И. Формирование методологических основ проектного подхода к организации экологических производственных систем //Современные наукоемкие технологии. – 2020. – №. 4-2. – С. 228-233.

6. Ватулин Я. С. и др. Система мониторинга жизненного цикла экологически опасного производственного объекта //Ученые записки Российского государственного гидрометеорологического университета. – 2010. – №. 16. – С. 122-126.

7. Гринь Н. В., Арцыман А. А. Совершенствование системы информирования об экологической ситуации в регионе как фактор устойчивого экономического развития (на примере Гродненской области) //Вестник Гродненского государственного университета имени Янки Купалы. Серия 5. Экономика. Социология. Биология. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 19-29.

8. Sulaymonova.S.U. Maktablar uchun ekologiyaga oid o'quv dasturlariga animatsion kontentlarni ishlab chiqish usullari. //Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy-metodik jurnal //2024-№12:165-b.

9. Sulaymonova.S.U //Animatsiyaga asoslangan vositalar yordamida o'quvchilar uchun murakkab ekologik tushunchalarini soddalashtirish texnologiyalari //Pedagogik akmeologiya xalqaro ilmiy-metodik jurnal. - №7(15) 2024.137-b



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQA - TA'LIM TARBIYASINING MAQSAD VA VAZIFALARI

**Annotatsiya:** Musiqa insonga tez ta'sir etuvchi emotsional hissiyotni faol rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Musiqa inson ruhiyatining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Emotsional, metod, orkestr, xor, musiqiylik.

### ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ МУЗЫКАЛЬНО - ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

**Аннотация.** Музыка — мощный инструмент, способный быстро воздействовать на человека и активно развивать эмоциональные чувства. Люди знакомятся с музыкой через своих матерей, и на протяжении всей своей жизни они находят в музыке радость и поддержку. Музыка является неотъемлемой частью человеческой психики.

**Ключевые слова:** Эмоциональный, метод, оркестр, хор, музыкальность.

### GOALS AND OBJECTIVES OF MUSIC - EDUCATIONAL EDUCATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

**Annotation.** Music is a powerful tool that can quickly influence a person and actively develop emotional feelings. People are introduced to music through their mothers, and throughout their lives they find joy and support in music. Music is an integral part of the human psyche.

**Key words:** Emotional, method, orchestra, choir, musicality.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san'at turidir. Musiqa tarbiyasi, nafosat tarbiyasining asosiy va murakkab qirralaridan biri bo'lib, atrofdagi go'zal narsalarni to'g'ri idrok etishga va qadrlashga o'rgatadi. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va ma'naviy dunyoqarashini shakllantiradi.

Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir kursatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va g'oyaviy-axloqiy tarbiyalashning muhim vositasidir. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nosir al-Forobiy "Bu fan tanning sog'ligi uchun foydalidir", degan edi. Bobomiz Shayx Sa'diy aytgan edi: "Musiqa odam ruhining yo'ldoshidir".

Musiqa insonga tez ta'sir etuvchi emotsional hissiyotni faol rivojlantiruvchi vositadir. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Musiqa inson ruhiyatining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Musiqadan turli o'zuqa olish uchun inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go'zallikni his eta oladigan, o'z kasbiga, ona Vataniga mehr qo'ygan bo'lishi kerak. Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini tarbiyalash, musiqa tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi. Bu oliy maqsadni amalga oshirish uchun musiqa o'qituvchisining oldiga qo'yilgan vazifalari quyidagilardir:

1. Bolalarda musiqa san'atiga bo'lgan qiziqish va muhabbatni oshirish.
2. Musiqiy faoliyatlar jarayoni badiiy ijodkorlik va his-tuyg'ularni rivojlantirish.
3. Asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash.
4. Musiqa darslarida kasb-hunar va mehnatga nisbatan o'quvchilarda ishtiyoq uyg'otish kabi ishlarni amalga oshirish kerak.

Mazkur maqsad va vazifalarni amalga oshirish musiqa mashg'ulotlarini olib boruvchi mutaxassisning professional va axloqiy qiyofasiga bog'liq. Har qanday san'atkor ham maktabda musiqa darslarni olib borolmaydi. Buning uchun, musiqa mutaxassis o'z kasbiga va bolalarga mehr qo'ygan yuksak madaniyatli, keng dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs bo'lmog'i lozim. U pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, etika va estetika nazariyasi, musiqa nazariyasining amaliy sohalaridan, musiqa o'qitish metodikasi fanlaridan chuqur bilimga ega bo'lmog'i kerak. Musiqa o'qituvchisi musiqa san'atining nazariy va amaliy sohalaridan yetarli darajada bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lishi lozim. Ya'ni u ham cholg'uchi, xonanda, xor dirijyori, jurnavozchi, musiqa nazariyotchisi va amaliyotchisi sifatida ish ko'rmog'i lozim.

Musiqa o'qituvchisining ijodkorligi shundaki, u mashg'ulotlarni olib borish uchun senariy muallifi, uning ijrochisi va rejissyori sifatida ish tutadi. Shu bois musiqa darsi san'at darsi deyiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida musiqa tugragi rahbarining faoliyat miqyosi kengdir. Mashg'ulotlardan tashqari musiqa tarbiyasi turlarini tashkil etish va boshqarish, maktabda musiqa tarbiyasining ommaviy shakllarini (san'atkorlar bilan uchrashuvlar, suhbat-konsertlar, shoirlar bilan uchrashuvlar, ko'rik tanlovlari, bayramlarni) uyushtirish musiqa mashg'ulotlari rahbarining zimmasidagi vazifadir.

Shu bilan birga, muassasadan tashqari musiqa tarbiyasi markazlari (bolalar musiqa maktablari, o'quvchilar saroylari, bolalar teatri) bilan aloqada bo'lib, iqtidorli bolalarni ularga jalb etish va ularning faoliyatini bog'cha hayotida qo'llash ham musiqa rahbarining zimmasidadir.

Ko'pgina bolalar maktabgacha tarbiya davrida bog'chaga qatnab, bog'chadagi musiqa mashg'ulotlarida dastlabki musiqaviy malakalarni hosil qiladilar. Ko'pgina qo'shiqlar va o'yinlarni o'rganib olgan hamda ritm va raqs harakatlari bilan tanishgan bo'ladilar. Uyda tarbiyalangan bolalar ham muayyan musiqaviy tasavvurga ega bo'ladilar: radio va televideniya orqali eshittiriladigan bir qancha musiqa asarlari ularga tanish bo'ladi.

Garchi ana shu bilimlar bir tizimga solinmagan bo'lsa-da, musiqa o'qituvchisi bolalarda musiqadan nazariy tushunchalar hosil qilishda o'sha bilimlarga ma'lum darajada suyanib ish ko'rish mumkin. Bolalar muassasalarida musiqa ta'limiga asos solinadi, shuning uchun musiqa rahbari ayniqsa o'qitish metodikasini yaxshi bilishi, bog'cha yoshidagi kichik bolalarning yosh va individual xususiyatlarini, ularning musiqa va qo'shiqchilik imkoniyatlarini chuqur bilishi zarur.

Bolalar bog'chasida olib boriladigan musiqa tarbiyasining asosiy maqsad va vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Bolalarning musiqaga qiziqishini oshirish va uni sevrishga o'rgatish.
2. Musiqa asarlari bilan tanishtirish jarayonida bolalarda emotsional his-tuyg'ularini hosil etish yo'li bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitib borish.
3. Bolalarni oddiy musiqa tushunchalari bilan tanishtirish, musiqa tinglash, qo'shiq aytish, musiqa bilan harakat qilish, raqsga tushish va bolalarning oddiy musiqa asboblarida kuy chalish ko'nikmalarini shakllantirish va ijodiy qobiliyatini o'stirib borish.
4. Bolalar ovozini asrab tarbiyalash, ashula aytishning dastlabki ko'nikmalarini hosil etish, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o'rgatish.
5. Musiqa asaralaridan ta'sirlanish, shu asosda bolalarda musiqaviy did va badiiy muhokama yuritish malakalarini rivojlantirish.
6. Turli musiqa mashg'ulotlari jarayonida improvizatsiya qilish musiqadagi badiiy obrazni o'yin va xor ovozlari vositasida ifoda etish, ma'lum musiqaviy mavzuga yangi o'yin o'ylab topish.
7. Musiqaviy tarbiya mashg'ulotlarini bog'cha hayoti bilan bog'lash, bog'chada o'tkaziladigan turli mashg'ulotlarda va marosimlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlardan keng foydalanish, turli ertaliklar, konsertlar uyushtirish vositasida musiqa kundalik hayotimizning ajralmas yo'ldoshi ekanligi haqida bolalarda tushuncha hosil qilish. Musiqa bolaga har tomonlama yordam berib, tevarak atrofni obrazli, emotsional idrok etish va bola xarakterning shakllanishiga ta'sir ko'rsatish uchun musiqa tarbiyasining maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar qo'yiladi:

1. Bolada musiqiy qobiliyatni rivojlantirish.

2. Bolalarni ashula aytish va musiqaviy ritmik malakalarga o'rgatilib, ularda musiqani qabul qilishni his etish va tushunish qobiliyatlarini tarbiyalash.

3. Bolada badiiy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.

Musiqiylikning rivojlanishi tufayli bolalar musiqa obrazlarini, ularning atrofdagi qo'shimcha, obrazlarni bolalar yorqin his eta boshlaydilar. Bu esa, o'z navbatida ularning tevarakatrofni bilishda, estetik baholanishni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Bolalarni musiqa bilan shug'ullanirishning sababi bola musiqa bilan shug'ullanmasdan, qo'shiq aytish va musiqa – ritmik harakatlar qilish ko'nikmalarini yuzaga keltirib, shu soha bilan bog'liq bilimlarni o'zlashtirishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarga va tarbiya berishning o'zaro uzviy bog'langan uchta metodi bor:

1. Ko'rgazmali metod.
2. So'zlab berish metodi.
3. Amaliy faoliyat metodi.

**Ko'rgazmali metod.** 1. Eshitishga asoslangan ko'rgazmali metod. Bunda bolaga o'rgatish bevosita musiqa bilan bo'ladi. Musiqa eshitish maxsus mashg'ulot paytida yoki bola tomonidan qo'shiq va musiqaviy ritmik harakatlarning ijro etilishi. 2. Ko'rishga asoslangan ko'rgazmalilik. Musiqa sadolari bilan qo'shib olib boriladi. Turli o'yin, raqs, mashq harakatlaridan namunalar ko'rsatiladi.

**So'zlab berish metodi.** Bu metod bola ongiga mo'ljallangan bo'lib, uning faoliyatini ma'noli va mazmundor qilishga qaratiladi. Bunda pedagogning so'zi musiqa asarining dasturini tushunib olishda bolaga yordam beradi. Uning tassavvurini jonlantiradi. So'zlab berish metodining quyidagi usullari bor:

**1. Tushuntirish** – yangi asarni tinglash, qo'shiq aytish, o'yin va raqslarni qo'shib, mashq qilish davomida o'ynalaniladi.

**2. Izohlash** – izohlar ijro, raqs, mashq harakatlarini, qo'shiq aytishning turli yo'llarini ko'rsatishda qisqa va aniq shaklda beriladi.

**3. Ko'rsatma berish** – bolalar o'yini raqs va mashqlarni bajarayotgan paytda beriladi. Masalan: o'ng yelka tomondan aylanish kerak, oyoq barmoqlarini pastga cho'zish kabi.

**Amaliy faoliyat metodi.** Bu faoliyatda bolalarga qo'shiq aytish va musiqali ritmik harakatlarni bajarishda shunday rahbarlik qilish kerakki, ular topshiriqni mumkin qadar ta'sirli va ifodali bajarishga intilsin. Bolalarni o'rgatish jarayonida yosh xususiyatlarini hisobga olib topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirish mumkin.

#### **Bolalar bog'chasida bolalarni musiqaga o'rgatish bosqichlari**

1-bosqich: Musiqa asari bilan dastlabki tanishtirish; Yangi qo'shiqni o'rgatish jarayonida pedagog turli musiqa asboblarda chaldirib, kuyni o'zaro taqqoslaydi va shu yo'l bilan uni xotirasida qoldiradi.

2-bosqich: Qo'shiq va musiqa ritmik harakatlarini ijro eta olish ko'nikmalari bo'lishini shakllantirish.

3-bosqich: Ko'nikmalar hosil qilish va mustahkamlash. Bunda topshiriqni avtomatik ravishda bajara oladigan qo'shiq, o'yin va raqsni mustaqil ijro etadigan darajada musiqa ta'limini berish, turli metodik usullarning barchasidan foydalanishni taqozo etadi.

Musiqani tinglay bilish va undan estetik zavqlana olish ham katta san'at hisoblanadi. Bolalarda musiqa tinglash madaniyati yoshligidan rivojlana boshlaydi. Bog'chada amalga oshiriladigan musiqa tinglash esa uning poydevoridir. Zotan bola musiqa mashg'ulotlarining barcha elementlari jarayonida ham musiqa tinglab, uni idrok etadi. Ammo mashg'ulotning musiqa tinglash qismi oldida o'ziga xos jiddiy vazifalar turadi. Avvalo shuni eslatish lozimki, kishining kuylash imkoniyatidan ko'ra tinglash imkoniyati ancha keng bo'ladi.

Masalan: orkestr, xor, yakka cholg'u ijrosidagi asarlarni kuylab emas, balki faqat tinglab, idrok etish mumkin, xolos. Shuning uchun olimlar musiqaviy tarbiya jarayonida musiqa tinglashga alohida e'tibor qaratishadi. Chunki kishi musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida musiqa tinglash, malaka, ko'nikmalari katta rol o'ynaydi. Musiqa tinglashda bolalarning badiiy

**168** idroki yaxshi rivojlanib boradi. Mashg'ulotning musiqa tinglash qismi oldida quyidagi vazifalar turadi:

- 1) bolalarni o'z idrokiga mos xalq klassik va zamonaviy musiqa namunalari bilan tanishtirib borish;
- 2) bolalarning musiqani idrok qilish qobiliyatlarini rivojlantirib borish; Musiqa haqida boshlang'ich ma'lumotlar berishni o'rgatadigan asarlar nomlarini eslashga, ularning mazmuni, xarakteri va ifoda vositalarining farqiga borishga hamda tinglagan asarlariga ma'lum miqdorda badiiy baho bera olishga o'rgatish. Kichik guruh bolalarning diqqati uncha barqaror bo'lmaganligi tufayli ular yorqin yangraydigan kichik-kichik musiqa asarlarini idrok etishga qobil bo'ladilar.

Ular ayniqsa, kichik qo'shiqlarni yaxshi idrok etadilar. Chunki, so'z va ohang birligi musiqa mazmunini oson idrok etishga yordam beradi. Xususan, tarbiyachi ashula aytganda uning tanish ovozi va ifodalash intonatsiya mimikasi va ishoralari bolalarni maftun etadi. Shu vaqtda bolalarda hosil bo'ladigan zavqlanish, ajablanish, quvonish holatlarini kuzatish mumkin.

### **Foydalanilgan adbiyotlar**

1. Boltayev B., Xodjayev J.A. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa tarbiyasi. Darslik- Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
2. Jalilova S.M., Aripova S.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. Toshkent "Faylasuflar" nashriyoti 2017.
3. Jalilov Sh.I. Musiqa darslarini integrativ asosda tashkil etishning metodologik aspektlari. Kognitiv va neyropedagogik tadqiqotlarning ta'lim amaliyotiga tatbig'i. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand viloyati PYMO'MM, 2024.
4. Sharopova G.M.Yakubova Sh.A. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa o'qitish metodikasi Cho'lpon nomidagi nashriyot – matba uyi, 2007.

Музаффарова Нуржона Наджмиддиновна  
Бухарского государственного педагогического институт  
студент 2 курса кафедры музыкального образования

## ВЛИЯНИЕ ВНЕКЛАССНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МУЗЫКАЛЬНОГО КЛУБА НА ДУХОВНОСТЬ МОЛОДЕЖИ

**Аннотация.** В статье представлены рекомендации и концепции по организации музыкальных кружков в средних школах. Также было отмечено, что музыкальные кружки могут привить учащимся любовь к искусству, народному творчеству, духовности и культуре.

**Ключевые слова:** хор, музыкальная культура, образование и воспитание, эстетика, клуб, искусство, талант, ансамбль, вокал, инструмент.

## THE INFLUENCE OF MUSIC CLUB EXTRACURRICULAR ACTIVITIES ON YOUTH SPIRITUALITY

**Annotation.** This article presents recommendations and concepts for organizing music clubs in secondary schools. It also explains how music clubs can instill a love of art, folk art, spirituality, and culture in students.

**Key words:** choir, musical culture, education and upbringing, aesthetics, club, art, talent, ensemble, vocals, instrument.

Узбекский народ имеет богатое древнее музыкальное наследие, в котором музыкальные инструменты играют особенно важную роль. Звуки узбекских национальных музыкальных инструментов являются материальным и ни с чем не сравнимым духовным богатством нашего народа. Потому что каждая нация прославляет свое национальное и культурное наследие, свои традиции и ценности, которые сформировались с течением времени, посредством своих национальных инструментов.

Среднее образование способствует формированию духовной, художественной и нравственной культуры учащихся, воспитанию чувства национальной гордости и патриотизма, воспитанию творческих способностей, изысканности и художественного вкуса, расширению кругозора, воспитанию самостоятельности и инициативы.

Постановлением Президента нашей страны Ш.Мирзиёева “О дополнительных мерах по дальнейшему развитию сферы культуры и искусства” от 2 февраля 2022 года также предусмотрена государственная поддержка научных исследований и создания научно-методической базы в сфере культуры и искусства.

Духовно-нравственное воспитание подрастающего поколения предполагает разработку и реализацию эффективных организационно-педагогических форм и средств, основанных на богатых национальных, духовно-исторических традициях, обычаях и общечеловеческих ценностях народа. Основная задача образования — создание возможностей для умственного, нравственного, свободомыслящего и физического развития личности, полного раскрытия ее способностей. С этой целью: - подготовить молодых людей к свободному мышлению, помочь им понять смысл жизни, сформировать у них самоуправление и самоконтроль, развить целенаправленный подход к личной жизни, привить им чувство единства плана и действия; - приобщать учащихся к национальным, общечеловеческим ценностям, богатому духовному наследию нашей Родины, формировать у них потребности в приобретении культурных и светских знаний, развивать умения и навыки, постепенно развивать и обогащать эстетические представления; - выявить и развить знания и творческий потенциал каждого подростка.



Сегодня в процессе реформирования нашего общества большое внимание уделяется решению актуальных проблем, возникающих в сфере образования, повышению духовности подрастающего поколения, и особенно защите сознания учащихся от влияния вредных идей путем воспитания их на музыкальном искусстве. Мышление, образ жизни и духовное мировоззрение любого народа не формируются сами по себе. В основе их формирования и развития лежат конкретные исторические, природные и социальные факторы. Именно на этой почве формировалась духовность наших предков, основанная на благородных человеческих и духовных качествах, которые продолжают привлекать внимание и восхищение людей по всему миру, как в истории, так и в наши дни.

В воспитании нашей молодежи как духовно зрелых и полноценных личностей деятельность внешкольных клубов, наряду со школами, несомненно, имеет большое значение. Музыка играет важную роль в формировании интереса подростков к жизни, развитию их эмоций и развитии их способности наблюдать за окружающим миром через клуб. По сравнению с другими видами искусства музыка является важным образовательным компонентом эстетического воспитания. Эстетическое воспитание означает воспитание в области восприятия и понимания красоты. Внеклассные музыкальные занятия в эстетическом воспитании привлекают внимание педагогов благодаря своему уникальному, особенно сильному воздействию. Организация музыкальных клубов, охватывающих различные направления музыкального искусства, ставит перед собой важные цели. Музыкальные кружки, основанные на национальном образовании и воспитании, имеют первостепенное значение в развитии общества, поскольку воплощают в своем содержании гуманизм, патриотизм, национальную гордость, нравственные и общечеловеческие качества.

Одной из важнейших задач национального образования и воспитания сегодня является формирование у учащихся и молодежи национального самосознания и национальной культуры. Это требует, прежде всего, продуктивного, рационального и целесообразного использования национальных и духовных ценностей в образовании и воспитании. Дальнейшее усиление широкого использования народной музыки, оказывающей воспитательное воздействие на музыкальное искусство, в системе образования, в частности в средних школах, как в учебной, так и во внешкольной деятельности (различные культурно-массовые мероприятия, музыкальные кружки, подготовка к конкурсам и т. д.), позволит, во-первых, обогатить содержание образования, во-вторых, укрепить национальную основу образования.

Рассматривая формирование музыкального мышления у учащихся с использованием национального инструмента дутар, стоит кратко остановиться на сути целей и задач, поставленных перед деятельностью специализированных школ. Деятельность "ансамбля дуторов" по музыкальному исполнительству в школах искусств весьма разнообразна и охватывает широкий спектр образовательной деятельности, важнейшей из которой является формирование у учащихся навыков исполнения на традиционном инструменте дутор. Цель предмета "Исполнительство на традиционных инструментах" (класс дутора) – воплотить знания, полученные учащимися в процессе обучения, в исполнительстве на национальном инструменте дутор, научить их правильно относиться к культурному наследию, оказать положительное влияние на их идейно-художественное и духовное воспитание, дать сведения об истории возникновения наших национальных слов, их формировании, структуре и роли в современном музыкальном исполнительстве, обучить приемам исполнения музыкальных произведений на каждом из наших национальных инструментов.

Организация музыкальных кружков в школе способствует развитию творческих способностей учащихся. Вот почему музыкальные клубы имеют огромное значение для воспитания молодых людей всесторонне развитыми и умными во всех отношениях людьми, а также для содержательного проведения ими свободного времени.

С этой точки зрения мы выбрали тему нашего магистерского диссертационного исследования “Роль и воспитательное значение национального инструмента дутар в формировании музыкального мышления учащихся” для развития музыкального мышления учащихся в процессе обучения.

Талантливые, любознательные и активно участвующие в уроках музыки ученики отбираются для участия в внеклассных музыкальных кружках в средних школах. Занятия проводятся с учетом способностей и интересов каждого ребенка. В зависимости от таланта учащихся набирают в тот или иной музыкальный коллектив. Активность деятельности клуба обусловлена школьной жизнью. Учащиеся выступают с песнями и танцами на общешкольных мероприятиях, привлекают внимание школьного сообщества, участвуют в районных, городских и республиканских конкурсах. Это усилит их чувство удовольствия от своей работы, любовь к родине, уважение к музыкальному искусству и чувство привязанности среди друзей.

Созандалик — одна из древних форм узбекского музыкального исполнительства, фактор, оказывающий неоценимую поддержку жизни человечества, духу и развитию нашей духовности. Вот почему поэзия издавна развивала свои собственные традиции. Эти традиции бережно хранятся в народе, развиваются в различных формах, стилях и направлениях, передаются из поколения в поколение и продолжают сохранять свой духовный потенциал. Особенно, когда участники группы выступают как единый ансамбль, они раскрывают свою духовную красоту.

Студенты будут участвовать в массовом внешкольном музыкальном образовании. Эта форма включает в себя подготовку и участие в различных фестивалях, музыкальных конкурсах, творческих встречах, театральных постановках и концертах в составе коллектива, фестивалях “Алифбе”, встречах с поэтами, композиторами, певцами-заучивательницами и т. д. Но к каждому из них детей нужно готовить заранее, в зависимости от их возраста и интересов.

Успешная организация внеклассных музыкальных кружков имеет большое значение для дополнения содержания музыкального образования и воспитания во всех аспектах, придания ему целостности и завершенности. Основная цель внеклассного музыкального образования — всестороннее развитие мировоззрения, интересов и потребностей учащихся, воспитание их художественного вкуса и, тем самым, повышение их профессиональной культуры путем вовлечения учащихся в максимально широкое культурно-массовое и клубное движение.

### Список литературы

1. Mirziyoyev Sh. - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-son
2. D.A. Karimova Musiqa to‘garaklarini tashkil etish. – T.: “Navro‘z”, 2008. -108-b.
3. Xodjabayeva Z.P Ijodiy fikrlashda folklor to‘garaklarining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni Respublika ilmiy-amaliy konferensiya Jizzax 2022-yil 29-noyabr
3. Dilnavoz O‘Ktarnova Muratova MUSIQA MADANIYATI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI // Scientific progress. 2021. №5.
4. Ярашев Журабек Тураевич ПРАВСТВЕННОЕ И ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ УЧАЩИХСЯ В СОТРУДНИЧЕСТВЕ С СЕМЬЕЙ И ШКОЛОЙ// Academy. 2021. №3 (66). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/nravstvennoe-i-esteticheskoe-vospitanie-uchaschihsya-v-sotrudnichestve-s-semey-i-shkoley> (дата обращения: 30.03.2022).

## PEDAGOGIK HAMKORLIKDA O'QUVCHI SHAXSINI RIVOJLANTIRISH

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tasviriy san'at darslarini tashkil etishda zamonaviy pedagogika texnologiyalardan foydalanish usullari, pedagogikadagi yangilanish jarayonlarini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish va maktabda tasviriy san'atni o'qitishda pedagogik texnologiya masalasi haqida to'liq bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** tasviriy san'at, pedagogik texnologiyalar, yangilanish, tematik kompozitsiya.

### ROLE OF THE STUDENT IN THE DEVELOPMENT OF PERSONALITY IN PEDAGOGICAL COOPERATION

**Annotation.** This article fully describes the methods of using modern pedagogical technologies in the organization of fine art classes, the application of pedagogical renewal processes in educational practice, the issue of pedagogical technologies in teaching fine arts at school.

**Keywords:** fine arts, pedagogical technologies, renewal, thematic composition.

### РОЛЬ УЧЕНИКА В РАЗВИТИИ ЛИЧНОСТИ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ СОТРУДНИЧЕСТВЕ

**Аннотация.** В данной статье подробно описаны методы использования современных педагогических технологий при организации уроков изобразительного искусства, вопросы внедрения процессов обновления педагогики в образовательную практику и педагогической технологии при обучении изобразительному искусству в школе.

**Ключевые слова:** изобразительное искусство, педагогические технологии, обновление, тематическая композиция.

Hamkorlikda o'qitish pedagogika fanida ancha yillardan buyon amalga oshirilmoqda. Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi nimanidir birgalikda bajarish emas, balki birgalikda o'qishdir. Hamkorlik ta'limi pedagog va o'quvchilarni ta'limiy faoliyat jarayonida birgalikda rivojlanishi, bir-birini chuqur tushuna olishi, bir-birlariga nisbatan qalban yaqinlikni his qilishi, faoliyat bosqichlari va shu bosqichlarda erishilgan natijalarni hamkorlikda tahlil qilishdan iborat bo'lib, ilg'or, rivojlantiruvchi g'oyalarni o'zida aks ettirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

O'tgan asrning 70-yillarida J.Dyui hamkorlikda o'qitishda natijalarni oldindan ko'ra bilish, amaliy faoliyatni tashkil etish g'oyasini ilgari surdi. Ta'lim jarayonida kichik guruhlarda o'qitishdan Germaniya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Isroil, Yaponiyada foydalanilgan.

Hamkorlik pedagogikasini novator-pedagoglar (SH.A.Amonashvili, S.N.Lisenko, I.P.Volkov, V.F.Shatalov, YE.N.Ilin va boshqalar) pedagogik jarayon ishtirokchilari (o'qituvchiva o'quvchilar) o'rtasida insonparvarlik tamoyiliga asoslangan o'zaro munosabatlarni tashkil etishini ta'kidlab o'tadilar. Hamkorlik pedagogikasi uchun konseptual ahamiyatga ega qoidalar A.Avloniy, G'.G'ulom, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, J.J.Russo, Y.Korchak, K.Rodjers va boshqalarning pedagogik qarashlarida o'z ifodasini topgan.

Pedagogik hamkorlik g'oyalari bugungi kunda pedagogik texnologiyalar mazmuniga singdirilgan va "XXI asr ta'limi konsepsiyasi" asosini tashkil etadi. Bolaga insonparvarlik asosida shaxsiy yondashuv maktab ta'limi tizimida bola shaxsi, uning hali rivojlanmagan qobiliyatlari,

«men»ligi ustuvor o'rin tutadi. Maktabning maqsadi mavjud qobiliyatlarni rivojlantirish, shaxsni ijtimoiy faoliyatga jalb etish, uni erkin rivojlantirishdan iboratdir.

Shaxsiga yo'naltirilgan (rivojlantiruvchi) texnologiyalar asosida quyidagi fikrlar muhim o'rin tutadi:

1. Shaxsiga ta'limning maqsadi sifatida yangicha qarash: bola maktabda to'la huquqli shaxs, pedagogik jarayonda subyekti; shaxsning rivojlanishi – ta'lim tizimining maqsadi; har bir erkin, o'z fikrini mustaqil ifodalovchi, barkamol shaxsni tarbiyalash ta'lim maqsadining asosi kabi g'oyalarni aks ettiradi.

2. Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish bolalarga nisbatan muhabbatli bo'lish, ularning taqdiri bilan qiziqish; bolani o'z kuchi va iqtidoriga ishonitirish; pedagogik munosabatlar jarayonida u bilan hamkorlikka erishish, o'qituvchi va o'quvchining huquq jihatdan tengligi; bolaning erkin tanlash huquqi; xato qilish huquqi; o'z shaxsiy nuqtai nazariga ega bo'lish kabi holatlarni ifodalaydi.

3. Individual yondashishning yangi talqini. Uning mazmuni o'quv fanini o'quvchiga emas, balki bolani o'quv faniga yo'naltirishdan iborat. Individual yondashish quyidagilarni o'z ichiga oladi: materialni o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchilarga mo'ljallashdan chetlanish, shaxsning ijobiy sifatlariniko'ra bilish, shaxsni psixologik-pedagogik diagnostika qilish.

Hamkorlik ta'limi uch bosqichi iborat.

O'quvchilar talim jarayonini tashkil etishga tayyorgarlik ko'radilar, bunda malumotlar oldindan o'rganiladi, muammodi vaziyatlar sodir bo'lishi mumkinligi bilgan xolda mukobil usullardan foydanish etiborga olinadi, jihozlar va joy tayyorlanadi.

Talim jarayonini amalga o'shishda (yani guruh ishini tashkil etish yo'llarni ishlab chiqish va eng maqbullarni tanlash)

Talim jarayonini borishi va uning yakunlarni tahlil etish, xulosaga kelish.

Shaxsning ijobiy "Men-konsepsiyasi"ni shakllantirish. Men-konsepsiyasi– bu shaxsning o'zi haqidagi tasavvurlari asosida shaxsiy hulqini shakllantiruvchi tizim bo'lib, ijobiy Men-konsepsiyasi (Men o'zinga yoqaman, Men har ishga qodirman, Men hamma narsani bilaman) shaxsni muvaffaqiyatlarga rag'batlantirib, shaxsning ijobiy namoyon bo'lishiga yordam beradi. Salbiy Men-konsepsiyasi (Men o'zinga yoqmayman, Men hech narsani bajara olmayman, Men hech kimga kerak emasman) uning turli faoliyat yo'nalishlarida muvaffaqiyatga erishishiga halaqit beradi, o'qish natijalarini yomonlashtiradi, shaxsda salbiy sifatlarning shakllanishiga olib keladi. O'qituvchining vazifasi har bir o'quvchi timsolida komil shaxsni ko'rish, uni tushunish, qabul qilish va unga ishonishdan iborat.

"Nimaga?" va "Qanday ta'lim?" masalasini hal etishga yangicha yondashish. Uning mohiyati ta'lim mazmunini shaxs rivojlanishining vositasi sifatida tushunishdan iborat. Zamonaviy maktabda tarbiyalash konsepsiyasi. Hamkorlik pedagogikasi quyidagi muhim g'oyalarni aks ettiradi: bilimlar maktabini tarbiya maktabiga aylantirish, o'quvchi shaxsini yaxlit tarbiya tizimining markaziga qo'yish, tarbiyaning insonparvarlik xususiyatiga egaligi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarning shakllanishi, bolaning ijodiy qobiliyati hamda uning individualligini rivojlantirish, individual va jamoaviy tarbiyani uyg'unlikda olib borish.

Hamkorlik ta'limi quyidagi maqsadli yo'nalishlarga asoslanadi:

- pedagogik talabni inkor etgan holda ta'limiy hamkorlikka asoslanuvchi munosabatlarni tashkil etish;
- o'quvchilarga insonparvarlik g'oyalari asosida individual yondashish;
- ta'lim jarayonida kasbiy va ma'naviy birlikning qaror topishiga erishish. Hamkorlik ta'limining asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini birgalikda bajarish hamda birgalikda ta'lim olishni nazarda tutadi.

Hamkorlikda o'qitish metodlari quyidagi beshta xususiyatga ega:

1. O'quvchilar birgalikda, umumiy topshiriq yoki o'rganilayotgan faoliyat ustida ishlashadi, guruhiiy ish natijasida mavzu (material) yaxshi o'zlashtiriladi.

2. O'quvchilar 2-3 kishilik kichik guruhlarda birgalikda ishlashadi.

3. O'quvchilar umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o'rganish faoliyatini amalga oshirish uchun guruh tomonidan ishlab chiqilgan hamda ijtimoiy qabul qilingan hulq-atvor mezonlariga rioya qilishadi.

4. O'quvchilar mustaqil bo'lishadi. Umumiy vazifalarning yechimni topishga erishadilar. O'qituvchi o'rganish faoliyati bo'yicha ishlarni tashkil etadi, tayyorlaydi, ularni talab darajasida sifatli amalga oshirilishni ta'minlaydi, muloqot usullari hamda zamonaviy axborot texnologiyalardan samarali foydalanishni tashkil qiladi. Mashg'ulot va topshiriqlar o'quvchilarning bir-birlariga ko'maklashishlarni talab etadigan holda tuziladi.

5. O'quvchilarning ta'lim olish jarayonidagi mas'uliyati oshadi. Hamkorlikda o'qitish nimadan boshlanadi?

- guruhda har bir sherik bilan birgalikda harakat qilish;
- berilgan topshiriqlarga jiddiy qarab, faol ishlash;
- sheriklar bilan muloyim va samimiy muloqotda bo'lish;
- butun guruh, jumladan sherik yutuqlarini o'z yutug'i singari qabul qilish va birgalikda quvonish.

Hamkorlikda o'rganish o'quvchiga nima beradi?

- o'quvchining o'rganish jarayonini boyitadi;
- o'quvchilarga kognitiv (atrof olam haqidagi bilim doirasini kengaytirish, bilish ehtiyojlarini rivojlantirish ta'limi) axborot beradi;
- o'quvchilarda materialni o'rganishga ishtiyoq uyg'otadi;
- o'quvchilarning o'z shaxsiy bilim va dunyoqarashlarni shakllantirish imkoniyatlarni kengaytiradi;

- axborotni ikki tomonlama almashish samaradorligini oshiradi;
- o'quvchilarga mustaqil hayotga tayyorlanishlari uchun zarur bilimlar beradi;
- turli xil madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy darajadagi guruhlar o'rtasida ijobiy o'zaro munosabatlarni ilgari suradi;

- hamkorlik shunday holatki, ta'lim jarayoni su'bektlari birgalashib faoliyat qiladi, o'rtoqlik, o'zaro yordam, jamotchilik yuzaga keladi.

Bunday ta'lim texnologiyasini qo'llashda o'quvchilar o'quv topshiriqlarini sheriklari bilan hamkorlikda to'g'ri bajarishlari bilan birga, guruhning har bir a'zosida ta'limiy faollikni yuzaga keltirishga ham e'tibor qaratilishi lozim. Hamkorlikda o'qitish o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar guruhi, yakka tartibda, jamoa bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi, o'quvchilarning o'zaro qo'llab-quvvatlovchi hamkorligini amalga oshirishdagi interfaol jarayon hisoblanadi.

Hamkorlikda o'qitishga asoslangan pedagogik jarayonda yuqorida qayd etilgan g'oyalar asosida shaxsga yo'naltiriluvchi (rivojlantiruvchi) texnologiya yaratiladi. Ta'lim texnologiyasining mohiyati shaxsni rivojlantirish, ta'lim nazariyasini asoslash uchun nazariy shart-sharoit yaratish emas, balki unga o'z o'zini tarbiyalashga yordam berishdan iborat bo'lishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N., Matnazarova K., Xolmatov P., Shirinov M. Pedagogika. Darslik. - T.: "Navro'z", 2016

2. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. - T.: "Fan va texnologiyalar", 2008.

3. Obrazovaniye: odnim bolshe, drugim menshe? Regionalnoye issledovaniye v Oblasti obrazovaniya v Sentralnoy i Vostochnoy Yevrope i SNG. YUNISEF. – M., 2007. - S. 48.

4. Umarova F. va boshqalar. Samarali maktab va hamkorlik madaniyati: Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining metodik guruhlarini o'qitish modullari. – T.: "Ipak yo'li poligraf", 2010.



**Adizova Nigora Baxtiyorovna**  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
dotsenti

**Asadova Aziza Ikrom qizi**  
Buxoro davlat pedagogika instituti  
magistranti

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Xalq og'zaki ijodi ertaklar, maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar, doston va rivoyatlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining nafaqat nutqiy rivojlanishi balki, ularning axloqiy, mantiqiy va estetik tarbiyasida ham katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola xalq og'zaki ijodi vositalarini dars jarayoniga integratsiya qilishning didaktik asoslarni yoritishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonni samarali tashkil etish yo'llarini tashkil etadi.

**Kalit so'zlar:** san'at, ijod, ertaklar, maqollar, topishmoqlar, fikrlash, dars jarayoni, texnologiyalar, og'zaki nutq.

## РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ОБРАЗЦОВ УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА НАРОДА В РАЗВИТИИ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

**Аннотация.** Народные сказки, пословицы, загадки, поговорки, былины и повести имеют большое значение не только в речевом развитии учащихся младших классов, но и в их нравственном, логическом и эстетическом воспитании. Целью данной статьи является выяснение дидактических основ интеграции средств народного творчества в учебный процесс, а также способов эффективной организации этого процесса.

**Ключевые слова:** искусство, творчество, сказки, пословицы, загадки, мышление, учебный процесс, технологии, устная речь.

## THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF SAMPLES OF ORAL CREATIVITY OF THE PEOPLE IN THE DEVELOPMENT OF ORAL SPEECH OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

**Annotation.** Folk tales, proverbs, riddles, sayings, epics and stories are of great importance not only in the speech development of primary school students, but also in their moral, logical and aesthetic education. The purpose of this article is to clarify the didactic foundations of integrating folklore into the educational process, as well as ways to effectively organize this process.

**Key words:** art, creativity, fairy tales, proverbs, riddles, thinking, educational process, technology, oral speech.

**Kirish.** Xalq og'zaki badiiy ijodiyoti millat poetik tafakkurining o'ziga xosligini ko'rsatuvchi qadriyatlar tizimi bo'lishi bilan birgalikda, uning ma'naviy-ruhiy komillikka erishuvda muhim rol o'ynagan manbalardan biri ham hisoblanadi. Folklor asarlarida mujassamlashgan ulug'vor g'oyalar zamiridagi hayotsevarlik tuyg'usi ko'p asrlar mobaynida xalqimiz taraqqiyotining eng kuchli va o'ziga xos jihati bo'lib kelgan. Shuning uchun hozirgi yosh avlodni har tomonlama barkamol inson qilib voyaga yetkazishda, yoshlar qalbida milliy tuyg'ularni uyg'otishda folklor asarlarining alohida o'rni bor. Shu boisdan o'rta umumta'lim maktablari uchun tuzilgan darsliklarda folklor asarlarining o'rni va roliga katta ahamiyat beriladi.

**Asosiy qism.** Respublikamiz milliy istiqloлга erishganidan keyin xalq ta'limi tizimida istiqbolli islohotlar amalga oshirildi. Bu bilan milliy pedagogikamiz ham yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Yosh avlodning ma'naviy va madaniy kamolotini ta'minlash shu jamiyatning kelajagi ta'minlanganligining kafolatidir. Shuning uchun istiqlolimizning dastlabki kunlaridan boshlab ushbu muammoga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Avvalo, ta'lim-tarbiyaning

insonparvarligi oshirildi, ta'limda umuminsoniy va milliy-ma'naviy qadriyatlarning ustuvorlik qilishiga erishildi. O'quvchi-yoshlarning bilimdonligini va iste'dodini rag'batlantirish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Ta'lim tizimidagi islohotlarning bosh g'oyasi eng birinchi o'rinda, milliy maktabni shakllantirishga qaratildi. Buning uchun Ta'lim tizimini rivojlantirish va tartibga solishga qaratilgan umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi ishlab chiqildi va amalga joriy etildi. Ularning mazmunidan kelajagimiz vorislari bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash ta'lim-tarbiyadagi islohotlarning bosh mezoni ekanini bilib olish mumkin.

Xalqning akq-zakovati, qalb qo'ri bilan yaratilgan og'zaki va yozma badiiy asarlar ham yoshlarni tarbiyalashda muhim dasturulamal bo'la oladi. Ular vositasida tarbiya ta'sirchanligi oshadi. Ta'lim-tarbiya tizimimiz takomillashib, uning milliy zamini mustahkamlanadi. Agar ular zamon talablari bilan uyg'unlashtirilsa, samaradorligi yanada oshadi. Shuni inobatga olib, boshlang'ich sinflarning o'qish va ona tili darslarida folklor asarlarini o'qitish va o'rgatish, ular vositasida o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish usuliyotini tadqiq qilish dolzarb muammolardan biri ekanligini ta'kidlashga to'g'ri keladi.

Folklor qadimiy so'z san'ati sifatida nafaqat chuqur g'oyaviyligi, balki yuksak badiiyligi bilan ham ajralib turadi. Unda voqelikni ifodalashning doston, ertak, maqol qo'shiq, topishmoq, afsona, rivoyat va askiya singari xilma-xil janrlari shakllangan.

Folklor asarlari tili – jonli so'zlashuv tili, shu bilan birga arxaik ifodalar va dealiktizmlar ular uchun norma sanaladi. Bu xususiyati bilan folklor tili adabiy jihatdan sayqallangan badiiy adabiyot tilidan farq qiladi. Folklor tili – muttasil harakatdagi jonli so'zlashuv tili bo'lib, hamma zamonlarda ham adabiy tilning boyish manbai bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi.

Folklor xalq ommasining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, maishiy turmush tarzi, kundalik hayoti va ijodkorlik faoliyati bilan mahkam bog'langan, o'ziga xos g'oyaviy-estetik tizimga ega og'zaki badiiy ijod sifatida yuzaga keldi va rivojlanishda davom etayotir. O'zbek folklori xalqimiz badiiy faoliyatining tarkibiy qismi, so'z san'atining og'zaki turi sanaladi. U uzoq va murakkab tarixga, taraqqiyot bosqichlariga ega. Bu borada bolalar adabiyoti rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar alohida ahamiyatga ega. O'zbek bolalar adabiyoti haqidagi fanning yaratilishi XX asr boshlarida ma'rifatparvar pedagog va adabiyotshunoslar maqolalarida ko'zga tashlangan bo'lsa, ilk xrestomatiyalar va o'quv qo'llanmalarini tuzish harakati asr o'rtalariga to'g'ri keldi. Pedagogika bilim yurti talabalariga mo'ljallangan, I.Ahmedov, A.Suyumovlar tomonidan 1953-yilda birinchi marta tartib berilib, 1967-1978 yillarda qayta takomillashtirilib, nashr etilgan "Bolalar adabiyoti" xrestomatiyasi, 1957-yilda e'lon qilingan "Bolalar adabiyoti" o'quv materiallari qo'llanmasi shuharakatning dastlabki natijasi hisoblanadi. Keyinchalik, 1973-yilda A.Suyumov tomonidan maxsus o'rta o'quv yurtlari uchun nashrga tayyorlangan "Bolalar adabiyoti" qo'llanmasi o'zbek bolalar adabiyoti tarixini yaratish yo'lidagi dastlabki qadam bo'ldi. Bu qo'llanma keyinchalik M.Jumaboyev tomonidan qayta ishlanib, 1995-yildan e'tiboran majmua va darslik sifatida kasb-hunar kolleji o'quvchilari hamda oliy o'quv yurtlari uchun amalda foydalanib kelinmoqda.

Bu sohada P.Shermammedov, J.Tursunov, O.Safarov, X.Egamovlar muallifligidagi "O'zbek bolalar adabiyoti" darslik xrestomatiyasi (1976), O'zbekiston FA Til va adabiyot instituti tomonidan tayyorlab nashr etilgan "O'zbek bolalar adabiyoti tarixi ocherklari" (1978), "Bolalar adabiyoti va zamonaviylik" (1981), "O'zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon" (1989) kabi monografiyalar ham o'ziga xos hodisa bo'ldi. Biroq, o'zbek bolalar adabiyoti va bolalar kitobxonligi mundarijasini o'zida mujassamlashtiruvchi, XX asr o'zbek bolalar adabiyoti namunalarining g'oyaviy, janriy, badiiy-kompozitsion jihatidan o'ziga xosligi, ularning kichkintoylar, bolalar va o'smirlar yosh xususiyatlariga ko'ra ifoda olami kabilarni milliy istiqlool tafakkuri nuqtayi nazaridan chinakam tahlil va tadqiqot asosidagi ilmiy tarix hanuzgacha yaratilgani yo'q. Zotan, ushbu qo'llanma mazkur vazifani qisman ado etish maqsadini ko'zda tutadi. Bunda o'zbek bolalaradabiyotining bir asrlik tarixi, tadrijiy taraqqiyot xususiyatlari, XX asr bolalar adabiyotidagi fenomen yozuvchi va shoirlarning ijodi umumlashtirilishga, shuningdek, istiqlool davri bolalar adabiyotining yangi tamoyillariga munosabat bildirishga e'tibor qaratildi. Folklor har bir xalqning milliy-adabiy ijodini boshlab berishi ham shundan. Bu

xususiyat bolalar adabiyoti inkishofida ham muhim rol o'ynaydi. Qachonlardir Ovrupoda aka-uka Grimmlar, X.K. Andersen, Sh.Perro, J.Rodari kabilarning ertak to'plamlari paydo bo'lgan bo'lsa, vaqti kelib, o'zbek bolalar adabiyotining boshlanmasida ham bu hodisa poydevor bo'la oldi. Inson ruhiyatida o'z-o'zini anglash davri aynan bolalikda kashf etilishi ham turli xalqlarda turli davrlarda kechdi. Negaki, bolalik insondagi bebaho ichki olam sifatida, beg'uborligu ajoyibotlari bilan kattalarni o'ziga rom etuvchi davr ekani, kattalik davri esa, xuddi eng samimiy va bolalarcha beg'uborlik tark etilgan jarayon sifatida anglay boshlanishi uchun jamiyat ma'naviy ongida yangilanish zaruratini yuzaga keltirgan. Hamchunin, Yevropa adiblari XVI-XVII asrdayoq nafaqat bolalikni kashf etdi, balki uni eng sof mukammallik namunasi va mehr-shafqat timsoli sifatida insoniyatga me'ros bo'lib qoladi. Har bir mamlakatda bolalar tarbiyasiga oid, ularga bag'ishlangan yoxud maxsus yaratilgan ijod namunalari u haqdagi istilohlarni ham vujudga keltiradi. Jumladan, o'zbek bolalar adabiyoti tarixida folklordan tashqari, didaktik adabiyot, bolalar kitobxonligi, ma'rifatparvarlik adabiyoti, milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti tushunchalari uning shakllanishidagi asosiy omillar hisoblanadi. Hodisaning maydonga kelishi, uning ilmiy iste'molga olib kirilishi, nihoyat, mustaqil fan sifatidagi takomili esa yaxlit tizimni tashkil etadi. Bolalar va o'smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmui tom ma'noda bolalar adabiyotini tashkil etsa-da, asosan, sof badiiy asarlar bu tushuncha mohiyatini anglatishi taomilga kirgan. Bolalar o'qishi uchun mo'ljallangan asarlar barcha xalqlar tarixida qadimdan davom etib kelgan. Jumladan, o'zbek bolalar adabiyoti Sharq yozma adabiyotida "pandnoma", "ma'vizatnoma", "nasihatnoma", "axloq kitoblari" singari nomlar bilan tasnif qilinuvchi asarlar zaminida voqelikka aylangani, shuningdek, uning shakllanishi ma'rifatparvarlik va maktab-maorif tizimi islohotlari bilan chambarchas bog'liqligi ayon haqiqat. Bolalar adabiyoti avvalo, turli yoshdagi bolalar va o'smirlarga mo'ljallangan so'z san'atidir. U voqelikni aynan o'n olti-o'n yetti yoshgacha bo'lgan bolalar idroki, tasavvuri, tafakkur obrazlarida gavdalandiruvchi badiiy asar namunalari o'zida mujassamlashtiradi. Shu jihatdan u umumbadiiy adabiyot bag'rida shakllangan. Ayni paytda, u qator xususiyatlariga ko'ra alohidalik kasb etadi. Bolalarbop barcha asarlarda yosh avlodning dunyoqarashi, tafakkuri, o'ykechinmalari, orzu-istaklari, voqelikka estetik munosabati o'z ifodasini topadi. Ularning aksariyati yozuvchilar (kattalar) tomonidan yaratilsa-da, voqelik bolalar dunyoqarashi nuqtayi nazaridan talqin va tadqiq etiladi, bolalar tilidan hikoya qilinadi va baholanadi. Binobarin, xuddi shu xususiyatlarni o'zida namoyon qila oladigan o'zbek bolalar adabiyoti XX asrning 20-30-yillarida to'liq shakllanib, umumadabiyotning alohida tarmog'i sifatida maxsus yo'nalish kasb etadi. Bunda Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy singari ilk namoyandalari, Shokir Sulaymon, G'ayraty, Dorjiya Oppoqova, G'ulom Zafariy, Elbek, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Ilyos Muslim, Zafar Diyor, Sulton Jo'ra, Quadrat Hikmat, Quddus Muhammadiy, Shukur Sa'dulla, Hakim Nazir, Po'lat Mo'min kabi professional yozuvchi-shoirilar o'z ijodi orqali sohaning shakllanishi va taraqqiyot xususiyatlarini belgilay oladi. Natijada, bolalar *she'riyati*, *nasri* o'tgan asrning ikkinchi yarmidan ancha yuksaldi. Bolalar *dramaturgiyasi* va *publitsistikasiga* asos solindi. Bolalar *kinosi* va *teatri* rivojlandi. Muhimi, bu istiloh ruscha "detskaya literatura" so'zining aynan tarjimasini tarzida emas, balki real voqelikka aylangan, o'zbek bolalariga mo'ljallanib yaratila boshlangan, ularga ixtisoslashgan adabiy hodisani ifodalagan holda dunyoga keldi. Buning tarixiy-tadrijiy tamoyillari, ilmiy-nazariy umumlashmasi esa "**Bolalar adabiyoti**" deb nomlangan mustaqil fan tarixida o'z ifodasini topa bordi. Endilikda bolalar va o'smirlarga mo'ljallanib yozilgan asarlarda ularning faqat yosh xususiyatlarigagina emas, asar janri, mavzusi, uslubi va tasvirda o'ziga xos yondashuvlar bo'lishini taqozo etayotir. XXI asr bolalarining badiiy asarni qanday qabul qilish darajasi ham jiddiy masala. Yosh kitobxonlarga ongi va tafakkurini boyitish bilan birga, ularning qalbini, zavqini uyg'otadigan ya'ni, tuyg'ulariga ham kuchli ta'sir etadigan san'at asarlari zarur. Zotan, bolalar adabiyoti fanining predmetini bolalar va o'smirlarga bag'ishlangan asarlarning g'oyaviy-mavzuviy, janriy-badiiy xususiyatlari, ularga oid ilmiy-nazariy qarashlar, tadqiqotlar umumlashmasi, mualliflar hayoti va ijodini batafsil o'rganish kabilar tashkil qiladi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi, jahon bolalar adabiyoti namunalari tahlil va tadqiq etish, bolalar kitobxonligi ko'rinishlarini oydinlashtirish bundagi muhim hodisalardandir. "Bolalar adabiyoti, – deb yozgan

edi N.Fozilov, – nozik adabiyot. Bolalaradabiyoti biz bilgan kattalar adabiyotining boshi... Bolalar yozuvchilari o'z asarlari bilan katta adabiyotga boshlovchi darg'alar. Bu adabiyot – hurmattalab adabiyot, e'zoztalab adabiyot. Chunki, bolalar uchun yozilayotgan har bir asarda o'zing bolaga aylanmasang, u jonsiz tana bo'lib qoladi. Bolaning ko'ngli ham shunday. Uni sindirib bo'lmaydi. Unga hamisha e'tibor darkor. Shundagina uning ko'ngli to'lib o'sadi. U – mehrtalab. Shundagina u muhabbatingiz mevasiga aylanadi, izingizni bosadi". Bolalar adabiyotining bosh xususiyati ham ana shunda: *narsahodisalarga bolalar ko'zi bilan qaray bilish, ularni bolalarcha idrok eta bilish, ularga bolalarcha munosabat ko'rsata olish hamda ulardan bolalarcha hayratlanishda*. Bolalarni onalaridan yaxshiroq tarbiyalaydigan odam yo'q, chunki ular bolalar his qilgan narsani his etadilar, ular bilan birga kuladilar, yig'laydilar. Bunday ijodiy fazilat nafaqat bolalar adabiyotiga, balki uning bunyodkorlariga ham xos xususiyat bo'lib, har qanday yozuvchiga ham nasib qilavermaydi. Buni chuqur his etgani bois K.I. Chukovskiy: "Bolalar – bizning ustozimiz", – deya iqrar bo'lgan edi. Chindan ham bolalarni ustoz darajasida anglamoq – bu, avvalo, ularga yuksak ehtirom ko'rsatmoq, ularning xarakterlarini, qiziqish va intilishlarini, kishilarga, narsa va hodisalarga munosabatlarini, quvonch va iztiroblarini sinchkovlik bilan o'rganmoq, ayni zamonda shu jarayonni bolalarcha his etish, idrok qilish asosida ular uslubiga muvofiqlashtirish, badiiyat sintezidan o'tkazmoqdan iborat san'atkorlikdir. Rost, inson ulg'aygani sari o'z bolaligidan uzoqlashadi, bolalik tabiatidagi xususiyatlarni yo'qota boradi. Biroq bolalar yozuvchisi bundan mustasno; u inson sifatida har qancha ulg'aymasin, baribir, bolalik tabiatini saqlab qolmog'i, uni tobora teranlashtirmog'i, bolalarcha sinchkov va qiziqsinuvchi bo'lib, ular ko'ngliga yo'l topmog'i, ruhiy dunyosiga kira bilmog'i shart. Shundagina u chinakam bolalar yozuvchisiga aylana oladi. Xulosa qilib aytganda, bugungi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda, ma'naviyatini yuksaltirishda ko'plab usul vositalar, metodlar mavjud. Biroq bu usul va metodlar birinchi navbatda so'z san'atining ibtidosi sanalgan folklor namunalari suyangan holda amalga oshirilsa yanada samarali va ta'sirchan bo'ladi. Xalqimizning milliy taraqqiyotida, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy yuksalishida folklor umuman badiiy so'z san'ati hamisha tayanch nuqta bo'lib kelgan. Zero, folklor – bu millatning quvvati, tirikligi va mavjudligidir. Bugungi global jamiyatda davlat chegaralari qo'riqlangani, muhofaza etilgani kabi millat tili va tafakkuri, estetik didi ham xuddi shunday asrab avaylanishiga va qattiq himoyalanihiga muhtojdir. Inson nutqi shakllanishi bilan og'zaki ijod ham yuzaga kelgan. Xalq poetik ijodining dastlabki bosqichi ibtidoiy inson faoliyatining turli shakllari bilan mahkam bog'langan bo'lib, qadimiy kishilarning diniy, mifologik qarashlarini, boshlang'ich ilmiy bilimlarini, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlarini aks ettirganligi bilan xarakterlanadi.

Mustaqillik yillarida istiqloлга tashna xalqning orzusi ushaldi. Barcha sohada – ilmda, ijodda, mehnatda milliy hurlikka, ijodiy erkinlikka erishildi. Azaliy urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz tiklana boshlandi. Uning bir qismi bo'lgan xalq marosimlari, xalq ijodi namunalari ham e'tibor kuchaytirildi. Ularni to'plash, o'rganish, ommalashtirish ishlari yanada jonlantirildi. Ularni ommalashtirishda nashriyotlarning, radio, televidiniening roli yanada oshirildi. Darsliklarda ham ularga keng o'rin ajratildi. Hozirgi paytda folklor merosimizning bugungi hayotimiz bilan hamnafasligini namoyish etishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

**Xulosa qilib aytganda,** istiqloл yillarida folklor namunalari tashviq va targ'ib etishga jiddiy e'tibor qaratildi. Folklor – milliy qadriyatimizning tarkibiy qismi sifatida yuksak qadr topdi. Xalqning barcha janrlardagi og'zaki ijodi durdonalari ijroda saqlanib qolmoqda. Sho'ro davrida kam e'tibor qaratilgan ayrim janrlar qayta tiklanmoqda. Istiqloл yillarida nafaqat xalq badiiy ijodiga, balki xalq ommaviy dekorativ san'ati, xalq musiqasi va raqsiga nisbatan ham e'tibor kuchaytirildi. Xalq ijodi bilan bog'liq barcha sohalariga milliy qadriyatlarimiz sifatida keng yo'l ochib berildi. Xalq og'zaki ijodi namunalari yosh avlodni yuksak axloqli, ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qila olishini inobatga olib, maktabdan boshlab o'quvchilarga xalq og'zaki ijodi namunalari o'rgatish ko'zda tutildi. Bugungi kunning barcha jabhalarida bo'lgani kabi ilmiy izlanishlar bilan bir qatorda o'qish va o'qitish ishlarida ham yangilanish jarayoni avj olgan. Xususan, ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni va ilg'or o'qitish usullarini, ilm-fan yutuqlarini qo'llashga e'tibor kundan-kunga

kuchaytirilmoqda. Ayniqsa, o'quv dasturlariga kiritilgan materiallarni yoshlarning har tomonlama chuqurroq o'zlashtirib olishlariga yordam beradigan vositalarni aniqlashga ehtiyoj ortmoqda. Folklor shunday vositalardan biri ekanligi bilan alohida e'tiborni tortadi.

Xalqimizning ma'naviy mulki bo'lgan folklor asarlari yoshlarni hamisha imon-e'tiqodga, insof-diyonatga, Ona Vatanni e'zozlash va uni ko'z qorachig'iday saqlashga da'vat etib kelgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Bobomirzayev H. Xalq og'zaki ijodi va ta'lim-tarbiyaning samaradorligi. Pedagogika oliy ilmgohlarining talabalari va maktab tarbiyaviy ishlar tashkilotchilari uchun qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1991. – 174 b.
2. Mutalipova M.J. "Xalq pedagogikasi". –T.: Fan va texnologiya, 2015.
3. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Darslik.– T.: Musiqa, 2010.–367 b.
4. Mirzayev T., Safarov O., O'rayeva D. O'zbek xalq og'zaki ijodi xrestomatiyasi. – T.: Aloqachi", 2008. – 560 b.



Sulaymonova Saodat Usubxonovna  
Namangan davlat pedagogika instituti  
pedagogika va psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi

**MAKTAB O'QUVCHILARIGA ANIMATSIYA ORQALI SUV AYLANISHI, OZIQ-  
OVQAT ZANJIRLARI VA UGLEROD AYLANISHLARI KABI EKOLOGIK SIKLLAR  
VA JARAYONLARNI VIZUALIZATSIYA QILISH.**

**Annotatsiya.** Animatsiya orqali suv aylanishi, oziq-ovqat zanjirlari va uglerod aylanishlari kabi ekologik sikllar va jarayonlarni vizualizatsiya qilish maktab o'quvchilarining o'rganish tajribasini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ushbu maqola animatsiyadan ushbu murakkab ekologik tushunchalarni soddalashtirilgan va qiziqarli tarzda o'rgatish vositasi sifatida foydalanish muhimligini o'rganadi. Animatsiyalar o'quvchilarga ekologik sikllarning dinamik va o'zaro bog'liqligini tushunishga yordam beradigan vizual tasvirlarni taqdim etishi mumkin. Ushbu raqamli vositalardan foydalangan holda, o'qituvchilar ekologik jarayonlarni chuqurroq tushunish va qadrlashni rag'batlantiradigan interaktiv va esda qolarli o'quv tajribalarini yaratishi mumkin. Ushbu maqolada suv aylanishi, oziq-ovqat zanjiri va uglerod aylanishini tushuntirish uchun animatsiyalardan qanday foydalanish mumkinligi muhokama qilinadi va ularning yosh o'quvchilarda atrof-muhit haqida xabardorligini oshirishdagi afzalliklari ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** ekologik sikllar, suv aylanishi, oziq-ovqat zanjirlari, uglerod aylanishlari, animatsiya, vizualizatsiya, maktab ta'limi, atrof-muhit haqida xabardorlik.

**ВИЗУАЛИЗАЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЦИКЛОВ И ПРОЦЕССОВ, ТАКИХ, КАК  
ВОДООБРАЩЕНИЕ, ПИЩЕВАЯ ЦЕПЬ И УГЛЕРОДНЫЙ ЦИКЛ,  
ШКОЛЬНИКАМ С ПОМОЩЬЮ АНИМАЦИИ.**

**Абстрактный.** Визуализация экологических циклов и процессов, таких как круговорот воды, пищевые цепи и углеродные циклы, с помощью анимации может значительно улучшить учебный процесс школьников. В этой статье исследуется важность использования анимации как инструмента для преподавания сложных концепций окружающей среды в упрощенной и увлекательной форме. Анимация может предоставить визуальные эффекты, которые помогут учащимся понять динамику и взаимосвязь экологических циклов. Используя эти цифровые инструменты, преподаватели могут создавать интерактивные и запоминающиеся учебные материалы, которые способствуют более глубокому пониманию и оценке экологических процессов. В этой статье обсуждается, как анимация может использоваться для объяснения круговорота воды, пищевой цепи и углеродного цикла, а также подчеркивается их преимущества в повышении экологической осведомленности среди юных учащихся.

**Ключевые слова:** экологические циклы, круговорот воды, пищевые цепи, углеродные циклы, анимация, визуализация, школьное образование, экологическое сознание.

**VISUALIZATION OF ECOLOGICAL CYCLES AND PROCESSES SUCH AS  
WATER CIRCULATION, FOOD CHAIN AND CARBON CYCLE TO SCHOOL  
STUDENTS THROUGH ANIMATION.**

**Abstract.** Visualizing ecological cycles and processes such as the water cycle, food chains, and carbon cycles through animation can greatly enhance the learning experience of school children. This article explores the importance of using animation as a tool to teach these complex environmental concepts in a simplified and engaging way. Animations can provide visuals that help students understand the dynamics and interconnectedness of ecological cycles. Using these digital tools, educators can create interactive and memorable learning experiences that encourage

a deeper understanding and appreciation of ecological processes. This article discusses how animations can be used to explain the water cycle, the food chain and the carbon cycle, and highlights their benefits in raising environmental awareness among young learners.

**Key words:** ecological cycles, water cycle, food chains, carbon cycles, animation, visualization, school education, environmental awareness.

**Kirish.** Ekologik sikllar va jarayonlarni tushunish tabiiy muhitdagi o'zaro bog'liqlikni tushunish uchun asosdir. Maktab o'quvchilari uchun ushbu sikllarni o'rganish ularning murakkabligi va mavhum tabiati tufayli qiyin bo'lishi mumkin. Ko'pincha statik tasvirlar va matnli tushuntirishlarga tayanadigan an'anaviy o'qitish usullari ushbu jarayonlarning dinamik tomonlarini samarali tarzda etkaza olmaydi. Bu erda animatsiya kuchli vositaga aylanadi.[1] Animatsiya ushbu mavhum g'oyalarni aniq, vizual tajribaga aylantirib, o'quv jarayonini yanada qiziqarli va qulayroq qiladi. Vizual ta'lim ta'limda, ayniqsa ilmiy tushunchalarni o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'rgazmali qurollar murakkab g'oyalarni boshqariladigan qismlarga bo'lish orqali ma'lumotni tushunish va saqlashni kuchaytirishi mumkin. Animatsiyalar, ayniqsa, bevosita kuzatish qiyin bo'lgan ekologik jarayonlarga hayot bag'ishlashi mumkin. Masalan, suv aylanishi orqali suv oqimi, oziq-ovqat zanjirlaridagi o'zaro ta'sirlar va uglerod aylanishidagi uglerod almashinuvi kabi jarayonlarni harakat va vaqt o'tishi bilan o'zgarishini tasvirlaydigan animatsion ketma-ketliklar orqali yaxshiroq tushunish mumkin.

Suv aylanishi - suvning Yer yuzasida, yuqorida va ostida harakatlanishini o'z ichiga olgan uzluksiz jarayon. U bug'lanish, kondensatsiya, yog'ingarchilik va yig'ish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.[2] Ushbu bosqichlarni tasvirlash uchun animatsiyadan foydalanish o'quvchilarga suvning holatini qanday o'zgartirishi, atrof-muhit bo'ylab harakatlanishi va hayotni qo'llab-quvvatlashini tasavvur qilish imkonini beradi. Animatsiyalar siklning o'tishlarini, masalan, suv bug'ining atmosferaga ko'tarilishi, bulutlarni hosil qilishi va oxir-oqibat yomg'ir sifatida Yerga qaytib, siklni yakunlashi kabilarni tasvirlashi mumkin.[3] Ushbu bosqichlarni tasavvur qilish orqali o'quvchilar suv aylanishining turli bosqichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqroq tushunishlari mumkin. Oziq-ovqat zanjirlari va oziq-ovqat tarmoqlari ekotizimdagi organizmlar o'rtasidagi ovqatlanish odatlariga asoslangan munosabatlarni ko'rsatadi. Ushbu diagrammalar ko'pincha energiya bir organizmdan ikkinchisiga qanday o'tkazilishini ko'rsatadi. Biroq, ular statik formatda taqdim etilganda, o'quvchilar uchun ularni sharhlash qiyin bo'lishi mumkin. Animatsiyalar energianing ekotizim bo'ylab harakatlanishini ko'rsatib, o'simliklar qanday qilib fotosintez orqali energiya ishlab chiqarishini, so'ngra o'txo'r hayvonlarga, keyin esa yirtqich hayvonlarga o'tishini ko'rsatib, bu o'zaro ta'sirlarni aniqroq qilishi mumkin. Ushbu munosabatlarni jonlantirish orqali o'quvchilar energiya oqimini va oziq-ovqat zanjirining bir qismidagi o'zgarishlarning butun ekotizimga ta'sirini kuzatishlari mumkin.

#### **Uglerod aylanishi va uning vizualizatsiyasi**

Uglerod aylanishi atmosfera, biosfera, gidrosfera va geosfera orqali uglerodning harakatlanishini o'z ichiga olgan yana bir muhim ekologik jarayondir. Ushbu sikl uglerodga asoslangan hayot shakllari qanday o'zini tutishini va inson faoliyati iqlim o'zgarishiga qanday ta'sir qilishini tushunish uchun juda muhimdir. Uglerod aylanishini jonlantirish uglerodning o'simliklar, hayvonlar, tuproq, okeanlar va atmosfera orqali harakatlanishining murakkab yo'llarini ko'rsatishi mumkin. Vizualizatsiya orqali o'quvchilar uglerod sekvestri, fotosintez, nafas olish va karbonat angidridni atmosferaga chiqarishda qazib olinadigan yoqilg'ining roli kabi tushunchalarni yaxshiroq tushunishlari mumkin.[4]

*Ekologik sikllarni o'rgatishda animatsiyadan foydalanish maktab o'quvchilari uchun ko'plab afzalliklarni beradi, jumladan:*

Kengaytirilgan faollik: Animatsiyalar o'quvchilar e'tiborini tortadi va o'rganishni yanada qiziqarli qiladi.[5]

Soddalashtirilgan murakkablik: jarayonlarni kichikroq bosqichlarga bo'lish orqali animatsiyalar murakkab tushunchalarni yanada tushunarli qiladi.

Интерактив ta'lim: Animatsiyalar ko'pincha interaktivlikka imkon beradi, bu esa o'quvchilarga o'z tezligida kashf qilish va o'rganishga yordam beradi.[9]

Xotirani saqlash: Vizual va dinamik tarkibni eslab qolish ehtimoli ko'proq bo'lib, ma'lumotni uzoq muddatli saqlashga yordam beradi.

Bir nechta ta'lim platformalari va resurslari ekologik jarayonlarni o'rgatish uchun animatsiyalarni muvaffaqiyatli birlashtirgan. Misol uchun, National Geographic Kids va BBC Bitesize kabi platformalar suv aylanishi, oziq-ovqat zanjirlari va uglerod aylanishini yosh o'quvchilar uchun tushunarli tarzda tushuntiradigan animatsion videolarni taklif qiladi. Ushbu animatsiyalar vizual jihatdan jozibali va ma'lumot beruvchi bo'lib, ularni o'qituvchilar va o'quvchilar uchun qimmatli vositalarga aylantiradi.

### **Sinfda animatsiyalarni amalga oshirish**

Animatsiyalarni ekologik ta'limga samarali qo'shish uchun o'qituvchilar onlayn mavjud raqamli vositalar va resurslardan foydalanishlari mumkin.[8] O'qituvchilar yoshga mos keladigan va o'quv dasturiga mos keladigan animatsiyalarni yaratishi yoki boshqarishi mumkin. Bundan tashqari, interfaol simulyatsiyalar va animatsiyalar sinfdagi mashg'ulotlarga birlashtirilishi mumkin, bu esa o'quvchilarga real vaqtda ekologik jarayonlarni tasavvur qilish va boshqarish imkonini beradi. Planshetlar, smartboardlar va ta'lim dasturlari kabi texnologiyalardan foydalanish o'rganish tajribasini yanada yaxshilashi mumkin.

**Qiyinchiliklar va yechimlar.** Animatsiyalar ko'plab ta'lim afzalliklarini taqdim etsa-da, e'tiborga olish kerak bo'lgan muammolar mavjud:

Texnologiyaga kirish: Barcha maktablarda ilg'or raqamli vositalarni birlashtirish uchun resurslar mavjud emas.[6] Yechimlar bepul mavjud onlayn resurslar va yuqori texnologiyani talab qilmaydigan ta'lim platformalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Animatsiyalarning sifati: Animatsiyaning samaradorligi uning sifati va aniqligiga bog'liq. O'qituvchilar berilayotgan ma'lumotni mazmunning ilmiy jihatdan to'g'ri va qiziqarli bo'lishini ta'minlashi kerak.[7]

O'qituvchilar uchun trening: O'qituvchilar o'z darslarida animatsiyalardan samarali foydalanish uchun treningga muhtoj bo'lishi mumkin. Kasbiy rivojlanish seminarlari va onlayn kurslar o'qituvchilarga raqamli o'qitish ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

**Xulosa.** Animatsiya orqali ekologik sikllar va jarayonlarni vizualizatsiya qilish maktab o'quvchilarining atrof-muhit haqidagi bilimlarini o'zgartirishi mumkin bo'lgan kuchli ta'lim strategiyasidir.[9] Mavhum tushunchalarni aniq vizual tajribaga aylantirib, animatsiyalar o'rganishni yanada interaktiv, qiziqarli va esda qolarli qiladi.[8] Texnologiya taraqqiyotda davom etar ekan, yanada murakkab va samarali ta'lim animatsiyalarini yaratish salohiyati o'sib boradi va bu bizning sayyoramizdagi tabiiy jarayonlarni chuqurroq tushunish va qadrlashga olib keladi. Qolaversa, hozirgi zamonaviy texnologiyalar rivojlangan davrda, o'quvchilarga animatsiyalardan foydalanilgan dars o'tish yetarlicha samara beradi. Visual effektar bilan boyitilgan dars jarayoni o'quvchilarni butun ongini kerakli tomonga yo'naltirishga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Садовникова.Н.П. и др. Визуализация данных экологического мониторинга городской среды //Социология города. – 2022. – №. 1-2. – С. 68-80.

2. Кропотова.Н.В. "Использование технологии" лекция-визуализация" в предметно-профессиональной подготовке будущих бакалавров педагогического образования в области безопасности жизнедеятельности //Ученые записки Крымского инженерно-педагогического университета. Серия: Педагогика. Психология. – 2018. – №. 2. – С. 9-12.

3. Фалевич М. С., Дыдышко Е. А., Нерода Ю. П. Компьютерная визуализация геоэкологической информации. – 2020.

4. Фокин М. Г. Автоматизация процесса формирования экологической информации в производственных машиностроительных системах : дис. – Москва : [Моск. гос. технол. ун-т" Станкин"], 2005.

5. Малышева Т. В., Шинкевич А. И. Формирование методологических основ проектного подхода к организации экологических производственных систем //Современные наукоемкие технологии. – 2020. – №. 4-2. – С. 228-233.

6. Ватулин Я. С. и др. Система мониторинга жизненного цикла экологически опасного производственного объекта //Ученые записки Российского государственного гидрометеорологического университета. – 2010. – №. 16. – С. 122-126.

7. Гринь Н. В., Арцыман А. А. Совершенствование системы информирования об экологической ситуации в регионе как фактор устойчивого экономического развития (на примере Гродненской области) //Вестник Гродненского государственного университета имени Янки Купалы. Серия 5. Экономика. Социология. Биология. – 2021. – Т. 11. – №. 1. – С. 19-29.

8. Sulaymonova.S.U. Maktablar uchun ekologiyaga oid o'quv dasturlariga animatsion kontentlarni ishlab chiqish usullari. //Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy-metodik jurnal //2024-№12:165-b.

9. Sulaymonova.S.U //Animatsiyaga asoslangan vositalar yordamida o'quvchilar uchun murakkab ekologik tushunchalarini soddalashtirish texnologiyalari //Pedagogik akmeologiya xalqaro ilmiy-metodik jurnal. - №7(15) 2024.137-b

**Kambarova Maxfuza Botirovna**

Abdurauf Fitrat nomidagi Buxoro maqom  
san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internati  
o'qituvchisi (tayanch doktorant)  
[kambarovamahfuza9@gmail.com](mailto:kambarovamahfuza9@gmail.com)

## BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA KREATIV QOBILIYATNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

**Annotatsiya.** Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashda, xususan, hozirgi zamon talabiga mos o'quv-ilmiy adabiyotlarni yaratish va ularni bevosita dars jarayonida joriy etish, ta'lim muassalarini zamonaviy pedagogik-axborot va kommunikasiya vositalari bilan ta'minlash, ta'lim sifatini oshirishga alohida qaratishni taqozo etmoqda. Ushbu maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarida kreativ qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ijodkorligini oshirish, o'qitish metodlari va vazifalarini takomillashtirish haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** kreativ, kommunikasiya, pedagog, qobiliyat, ko'nikma, divergent, metod, takomillashtirish, axborot, usul, modernizasiya.

## ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ

**Аннотация.** Подготовка будущих учителей музыки требует особого внимания к созданию учебной и научной литературы, отвечающей современным требованиям, и ее непосредственному внедрению в учебную практику, оснащению образовательных учреждений современными педагогическими и информационно-коммуникационными средствами, повышению качества образования. В статье рассматриваются вопросы развития творческих способностей будущих учителей музыки, повышения педагогического творчества, совершенствования методов и задач обучения.

**Ключевые слова:** креативный, коммуникация, учитель, способность, умение, дивергентный, метод, улучшение, информация, метод, модернизация.

## WAYS TO FORM CREATIVE ABILITIES IN FUTURE MUSIC TEACHERS

**Annotation.** In the training of future music teachers, in particular, it is necessary to pay special attention to the creation of educational and scientific literature that meets the requirements of the present time and their direct introduction into the teaching process, to provide educational institutions with modern pedagogical information and communication tools, and to improve the quality of education. This article discusses the development of creative abilities in future music teachers, improving pedagogical creativity, and improving teaching methods and tasks.

**Keywords:** creative, communication, pedagogical, ability, skill, divergent, method, improvement, information, method, modernization.

**Kirish.** XXI asr axborotlar oqimi davrida ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalariga, shu jumladan ta'lim-tarbiya sohasiga ham ko'plab yangiliklar kirib kelmoqda. Ushbu yangiliklar bilan bir qatorda ularni yorituvchi yangi tushunchalar ham bizning ilmiy tilimizda qo'llanilishi kuzatilmoqda. Jumladan pedagogika, ya'ni ta'lim-tarbiya sohasida keyingi ikki yil ichida "kreativlik" tushunchasiga alohida to'xtalib o'tilgan. Bu tushuncha so'nggi yillarda ta'lim-tarbiya jarayonlarida ma'lum darajada keng qo'llanilmoqda. Ammo bu tushunchaning mazmuni va ma'nosini tahlil etishga hamda insonlarda kreativlikning shakllanganlik darajasini aniqlashga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Hozirgi zamonda talabalarni erkin fikrlashga o'rgatish, darslarni yangi metod va usullar orqali o'tish talabidagi musiqiy-pedagogik bilim va ko'nikmalarni




shakllantirish bilan birga ulardagi kreativlik, yaratuvchanlik qobiliyatini ham shakllantirishga xizmat qiladi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativlik sifatini rivojlantirish jarayoni uning umumiy mohiyatini anglash uchun avvalambor "kreativlik" tushunchasining ma'nosini tushunib olish zarur.

*Xo'sh, O'zbekistonda kreativlikka asoslangan ta'limning vujudga kelishida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini musiqiy-pedagogik, ijodiy fikrlashga qanday o'rgatish mumkin?* Hozirgi zamonda talabalarni erkin fikrlashga o'rgatish, darslarni yangi metod va usullar orqali o'tish talabadagi musiqiy-pedagogik bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bilan birga ulardagi kreativlik, yaratuvchanlik qobiliyatini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Kreativlik – shaxsning muammoli vaziyatlardan tafakkuri orqali, takrorlanmas yo'l bilan chiqib ketishi unga ijodiylik bilan yondasha olish qobiliyati hisoblanadi.

**Metodlar.** "Ijodkorlik – bu ko'pchilikka noma'lum va murakkab xususiyatlarni o'rganishga imkon beruvchi tafakkuri va ruhiyatining har xil sharoitlarda jamol ko'rsatishi bilan bog'liq, o'ziga xos fikrlash faoliyati modeli", "ijodkorlik bu aql gimnastikasi u nafaqat donishmandlargagina kerak va hatto oddiy ijodkor odamga ham zarur", "Ijodkorlik – bu avvalo mehnatga ijodiy munosabatda bo'lishni tarbiyalash, yangi bilimlarni o'zgartirishni uddalay olish, maqsad sari intiluvchanlik, g'alaba uchun kurash, o'z-o'zini takomillashtirish va o'zlikni anglashdir"[1. 19-bet]



Shu kesimda musiqa ta'limida bo'lajak musiqa o'qituvchisining keng qamrovli va chuqur ilmiy-metodik asosini ishlab chiqish bugungi kunning jiddiy masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Buning uchun, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativ qobiliyatini, ijodiy mahorati va uning pedagogik ko'nikmalarini rivojlantirib takomillashtirish talab etilmoqda.

Kreativ qobiliyatlar – bu bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kamoloti va faoliyat samaradorligida muhim o'rin tutuvchi omillardan biri bo'lib, ularning xohish – istagi tufayli emas, jamiyatning qonuniy ehtiyojlaridan kelib chiqadigan zaruriyatdir. [2; 192-bet]

Kreativ qobiliyatni rivojlantirishga bo'lgan e'tibor bugungi kunda muammo emas, albatta. Hozirgi zamon talabiga mos musiqa o'qituvchilarining tabiatdagi go'zallikka, musiqiy-nafosat olamiga olib kirish natijasida zamon bilan hamnafas kadrlar yosh avlodni yuzaga keltirish biz pedagoglarning oldida turgan juda muhim vazifalardan hisoblanadi. Chunki kreativ ijodkorlik tarbiyasi ijtimoiy hayotimizdagi barcha sohalarga tegishlidir. Bu yo'lda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijodkorligini oshirish, musiqiy layoqatni rivojlantirish va o'quvchilar bilan munosabat kirishish qobiliyatini o'stirish mumkin.

Bu esa, o'quvchilarning musiqiy tafakkuri, san'atni tushunishi va unga bo'lgan estetik didini o'sishiga olib keladi.[3]

Oliy ta'lim muassasalarida dars jarayonida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirishda ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va pedagogic omillar bilan bog'lab olib boriladi. Pedagogik ilm-fanning zamon talabidagi darajasi bo'lgan bo'lajakmusiqa ta'limi o'qituvchisining ijod borasidagi faoliyatiga tayyorgarlik jarayonini alohida jihatlari orqali o'rganish uchun integral yondashuv zarur. Zamon taqozosi bilan hozirda musiqa ta'limi modernizasiyalashib, yangi pedagogik yondashuv va shakllarni o'z ichiga olib, rivojlanib bormoqda.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarni kelajakdagi musiqiy tarbiyasini amalga oshirishda musiqa sohasi bo'yicha kadr tayyorlanadigan oliy ta'lim muassasalarida musiqiy fanlar tarmoqlar kesimida o'zining alohida o'rniga ega. Unda musiqiy madaniyat, musiqiy tarbiya mazmuni, metod va shakllari, sifat hamda samaradorlikka erishish yo'llari, qonuniyatlari bilan birga musiqiy ijodkorlikka nasbatan kreativ faoliyatni takomillashtirish jarayoni chuqur isloh qilinadi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kreativligi o'z tajribasini qayta ko'rib chiqishi, yaxshilashi hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi natijasida ijodiy foydalana olishi, sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

O'quvchilarning musiqa san'atiga qiziqishi va ehtiyojini tarbiyalab, musiqa madaniyati darslari oldiga qo'yiladigan talablarga erishish har bir o'qituvchining vazifasi hisoblanadi. Shu jumladan o'sib kelayotgan yosh avlod bilan ishlaydigan o'qituvchilarga ham ko'plab talablar va mas'uliyat yuklanmoqda. O'qituvchi, zamonaviy o'quvchilar nima bilan yashayotganini tushinishi hamda ularga mos holda bo'lishi darkor.

Kreativlik bo'lajak musiqa o'qituvchilarining o'z sohasidagi bilimdonli va maqsad sari qilinayotgan ijodkorligi bo'lib, bu bevosita ijodkor yoshlarni tarbiyalashdek muhim vazifani amalga oshiradi.

Kreativ bo'lajak musiqa o'qituvchilarini musiqiy-pedagogik rivojlantirish, mamlakatning intellektual boyligi kafolati bo'lib, ijodkor talabalarni tarbiyalash orqali yoshlarning divergent (bo'linish) tavakkurini rivojlantirish hozirgi kun pedagogikasining asosiy masalasidir.

Kreativlik — shaxsning muammoli vaziyatlardan ongi va tafakkurini ishlatgan holda chiqib ketishi va unga ijodiylik bilan yondasha olish qobiliyati hisoblanadi.

Kreativlik orqali ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish hamda o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil eta olish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asosanib talabaning musiqiy-pedagogik faoliyatida kreativ fikridagi, muloqotidagi, alohida faoliyat turidagi ijodiy yondashish rivojlantirishning asosiy omili deb ta'rif berish mumkin. Uning zahirida originallik, amaliylik, noodatiylik va erkin ijodiy faoliyat yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash bir narsaga turli tomondan (divergent) yondashishni anglatadi. Har qanday inson tug'ilganda o'ziga xos kreativ qobiliyat bilan dunyoga keladi. Uni qaysi yo'lga yo'naltirish va rivojlantirish har tomonlama o'qituvchi zimmasiga yuklatiladi. Maktabda ta'limning barcha turlarida o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratish shuningdek, keyinchalik oliy ta'limda kreativ bo'lajak musiqa o'qituvchilarini musiqiy-pedagogik faoliyatini rivojlantirishda tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim oluvchilarda musiqiy-pedagogik faoliyatni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan bo'lib, yuqorida keltirilgan nazariy asoslarga tayangan holda quyidagi xulosaga kelish mumkin:

➤ Kreativlik bo'lajak musiqa o'qituvchilarining qobiliyatlarini shakllantirishda, interfaol ta'lim metodlari va texnologiyalari katta ahamiyat kasb etadi. Kreativlikni rivojlantirish, o'qitish jarayonining muayyan mazmuni, vositalari, pedagogik xususiyatlari va usullariga ega.

➤ Bo'lajak musiqa o'qituvchisining musiqiy-pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarni tizimli tarzda o'rganish, bunda ularning kreativ faoliyatini tashkil etishida uchraydigan psixologik to'siqlarni bartaraf etishning samarali yo'llarini belgilash lozim bo'ladi.

Kelgusida o'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, bo'lajak pedagoglarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikirlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'ladi. Ta'lim oluvchilarning ijodkor

va kreativ bo'lishi yoki bo'lmashligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etish, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Kreativ fikrlash" I.S.Xotamov, M.K.Olimov, G.R.Madrahimova, I.S.Foziljonov. Toshkent "Innovasiya - Ziyo" 2022 yil. 19-bet
2. N.N.Azizxodjayeva "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat". – T.: Moliya, 2003 – 192 bet.
3. D.T.Namozova "Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mazmuni" "Oriental Art and Culture" Scientific methodical Journal. /https:// OAC.dsmi – qf.uz
4. M.B.Kambarova, J.T.Yarashev "O'zbekistonda kreativlikka asoslangan ta'limning vujudga kelishi". "Pedagogik ta'lim: Xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlar" mavzusidagi an'anaviy ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro, 2022-yil 6 aprel. 826-830 betlar
5. M.B.Kambarova, J.T.Yarashev "Oliy ta'limda musiqiy-pedagogik faoliyatni rivojlantirishda kreativlik". Uzlaksiz ta'lim tizimida ta'lim mazmunini yanada takomillashtirish. Muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-nazariy anjumani. 2022 yil 25 aprel. 418-421 betlar
6. M.B.Kambarova "Umumta'lim maktablarida musiqa darslarining nazariy asoslari". Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 08.06.2022, Maxsus son. 117-119 betlar.
7. M.B.Kambarova, J.T.Yarashev "Zamonaviy pedagogikada kreativlik tushunchasi" Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 08.06.2022, Maxsus son. 112-116 betlar
8. M.B.Kambarova "Emergence of creative education in Uzbekistan" International Scientific and Practical conference "Actual issues science" and part, 6-441 pages. Committee List for 2021-2022. 160-163 betlar
9. M.B.Kambarova, J.T.Yarashev "Creativity in the development of music and pedagogical activity in higher education" Thematics Journal of Arts and Culture. Informing scientific practices around the world through research and development. 2022 yil
10. M.B.Kambarova, E.Z.Ro'ziyeva "Dutor – markaziy osiyoda tarqalgan an'anaviy ikki torli musiqa asbobi." Central Asian Journal of education and innovation. 13-14-15 betlar. 28.11.2022
11. M.B.Kambarova, J.T.Yarashev "Talabalarning musiqiy-pedagogik faoliyatida kreativlikdan foydalanish imkoniyatlari." Eurasian Journal of Academic Research. Xalqaro ilmiy jurnali (ISSN: 2181 - 2020) 420-424 page
12. M.B.Kambarova, J.T.Yarashev "Scientific-theoretical basis of introducing creativity the development of musical-pedagogical activity of students" "San'at, til, madaniyat masalalarini ilmiy o'rganishda fan va innovasiyalar" mavzusidagi ilmiy amaliy anjuman. 198-199-200 betlar. 2023 yil 4-may
13. M.B.Kambarova, J.T.Yarashev "Musiqiy-pedagogik faoliyatni rivojlantirishda talabalarni kreativlikka tayyorlash". "San'at, til, madaniyat masalalarini ilmiy o'rganishda fan va innovasiyalar" mavzusidagi ilmiy amaliy anjuman. 200-202 betlar. 2023 yil 4-may
14. M.B.Kambarova, J.T.Yarashev "Ijodiy ta'limning paydo bo'lishi". So'z san'ati xalqaro jurnali. 1-maxsus son. 21-24. 20-03.2023
15. M.B.Kambarova "O'quvchiarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari" Scientific journal Scholar volume2, Issue 3. ISSN 2181-4147 VOLUME2, ISSUE 3 JANUAR 31.01. 2024. 36-40 betlar
16. M.B.Kambarova "Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida kreativlik qobiliyatlaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari". International scientific-online conference "Science and innovation in the education system" with an article entered. 11.03.2024. 29-34 betlar

Murodova Saodat Uyg'un qizi  
Buxoro Innovatsiyalar universiteti  
o'qituvchisi  
[murodovasaodat82@gmail.com](mailto:murodovasaodat82@gmail.com)

## BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish muammosi o'rganilgan. Ushbu tadqiqotda axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi ahamiyati, ularni qo'llash usullari va o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida tutgan o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari kelgusida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakasini oshirish va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga moslashtirish yo'nalishida foydalanish mumkin.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, zamonaviy axborot texnologiyalari, raqamli pedagogika, interaktiv ta'lim, o'qituvchilarning malakasini oshirish.

## ФОРМИРОВАНИЕ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НАВЫКОВ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается проблема формирования у учителей начальных классов навыков эффективного использования современных информационных технологий. В данном исследовании анализируется значение информационных технологий в образовательном процессе, методы их применения, а также роль в профессиональной подготовке учителей. Результаты исследования могут быть использованы в дальнейшем для повышения квалификации учителей начальных классов и адаптации их к работе с современными технологиями.

**Ключевые слова:** начальное образование, современные информационные технологии, цифровая педагогика, интерактивное образование, подготовка учителей.

## FORMATION OF SKILLS IN THE EFFECTIVE USE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGY IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS

The rapid growth of tourism affects the environment in terms of both natural attractions and local community identities. For instance, the physical environment may deteriorate due to the destruction of geological features, erosion along sensitive trails, pollution and contamination and the extraction and overharvesting of resources. Teaching the concept of eco-tourism to young learners makes a vital role in bringing up well-educated ecotourists. This study emphasis on young people who are likely to be first-time eco-tourists or to have little experience of ecotourism. However, young people are a great capacity to spread ecotourism awareness both in the present and the future. There is, therefore, a need for more studies into young people's awareness of the problems relating to ecotourism, and their perceptions and expectations of this issue must be considered as vital elements in the implementation and promotion of ecotourism [3;126]

It is obvious that the behavior and interest of young people pursued when traveling varies from that of the older generation, for example, young people quickly embrace modern travel technologies to find motivation for where to travel, study where to travel and do activities during a trip. Despite the fact that social media does not effect senior travelers, young travelers believe that social media is powerful. In this study, younger people are likely the first time eco-tourists with little knowledge of eco-tourism practices. They are the "information hungry" travelers, for using a search engine to schedule a journey, gathering information they need, and exchange information with others [4;80]. Consequently, the design of the smart ecotourism application is essential to understand the behaviors of the young travelers.

**Literature review.** In our country the concept of ecotourism is still a new phenomenon since tourism has recently started developing. That is the reason we investigated mostly foreign researchers' findings. There have been just a little number of studies of ecotourism that have focused on young people, for instance, that of Cini et al.[3], who investigated the knowledge of ecotourism of university students from South Africa, Mexico, USA, Germany, and Italy and found that the students gained only limited knowledge eventhough their knowledge varied among countries, and the researchers noted that activities such as field trips and attending ecotourism events and workshops were a means of boosting young people's understanding. Kasim and Wickens[5] investigated the awareness, intentions and opinions about ecotourism among a sample of young Malaysians aged between 19 and 30, the age-group considered to be a key player in the growth of ecotourism, while Sangpikul and Batra [6]investigated the ecotourism experiences of young Thais and suggested that knowledge of environmental and ecotourism issues should be

provided through both formal and informal channels, with formal channels including educational institutions like schools, colleges or universities who can provide special courses on the environment and ecotourism. Meanwhile, Kasim and Wickens noted that interest in environmental issues among young people could be generated by their own experience of travelling or knowledge gained from non-formal sources, such as television or the internet.


**Discussion and results.** Eco-tourism is supposed to make efficient, responsible and sustainable use of tourism resources at the destination. The aims of ecotourism can be accomplished by encouraging the appropriate activities, enhancing eco-tourist experiences, and managing tourism resources in a sustainable manner. Youth travel has become one of the most significant sectors in the global tourism industry because of the number of young travelers, the frequency of their trips, and the popularity of long distant travel [8]. The rise in youth travel has led governments to develop tourism policies and services specific to young people as well as other related niche markets. World Tourism Organization [7] noted that youth travel is a continuously growing market and that young people spend more money proportionately than other groups while their travel goals are gaining knowledge, having the opportunity to learn about different cultures, experiencing daily life at their destination and behaving responsibly in relation to issues affecting tourist attractions, the environment and society. Youth travel is a big and growing global market, a vital aspect of which is the social and cultural dimensions of the travel destination.

Information and Communication Technologies (ICTs) play an important role in developing tourism businesses. ICTs can build long-term relationships with travelers, provide more flexibility in terms of service timing and destinations, improve service quality and reduce operating costs [9;554]. ICTs are now regarded as a significant means by which tourists obtain information, make bookings, etc. Furthermore, recent trends in its use have increased the range of activities in which it is used, for example, by using multimedia technology to gain knowledge and enhance flexible learning including learning how certain activities can negatively affect the natural environment. ICTs can thus be used to educate people and build knowledge of ecotourism attractions through the use of digital media and also replace some tourism activities which could lead to the destruction of natural resources by replicating locations which are fragile or difficult to access on virtual platform.

The key aspects of ICTs relating to ecotourism, are concerned with (1) the conservation and minimizing the negative impacts of tourism on nature-based destination and local communities, (2) increasing awareness and educational opportunities, and (3) supporting stakeholders' contribution to conservation [10;105].

The nature-based destination relates to the activities at a destination which take place primarily in natural surroundings with minimal human interference and entail a healthy ecotourism, as well as providing an opportunity for tourists to visit natural areas. In terms of environmental education, the activities involved are building ecotourism knowledge, encouraging interaction with nature and increasing awareness and understanding of the natural area.

Smart ecotourism technologies include advanced ICTs and other strategic tools used in developing solutions for ecotourism. Advanced ICTs can play a significant role in facilitating ecotourism, for example in managing destination resources, visualizing sites and attractions, providing tourism education, collaborating with local businesses at the destination, providing information to tourists and planning transport routes to protect and maintain the natural environment [11;179] and the use of social media and mobile apps to allow travelers to communicate and increase their ability to obtain information. For instance, when people use social media or mobile phone apps to share their experiences through location-based services, other tourists and local residents also obtain information. Additionally, tourism services can use smart technology to suggest their services and gain information through user feedback to ensure service sustainability. Finally, Destination marketing organizations, which are responsible for providing information to potential visitors can use smart technologies to encourage visitors to purchase destination-related products.



Picture 1. Research framework adopted in designing and developing the smart ecotourism system [12;895]

As illustrated in the picture above, in the pre-travel phase, the system can be used in planning an eco-tour prior to travelling to the destination [12] and potential tourists can use the system to learn about ecotourism attractions, with the information included being directly provided by the local community [13]. In the during-travel phase, the system demonstrates data related to the local environment, accommodation, tourist attractions and activities, community stores, etc., to ensure that tourists are able to experience the most fascinating features of the areas [12]. Finally, in the post-travel phase tourists can contribute reviews including both photographs and written evaluations of the quality of the local services and any goods they purchase while in the [12]. The information gained from the post-travel phase can be used to enhance the local services and to disseminate information to future newcomers as well as encouraging further visits, since it has been found that information gained from users in this phase has an effect on repeated tour.

**Conclusion.** From the findings it can be concluded that the research manages information, boosts learning and creates opportunities for young people to understand and be aware of ecotourism, as well as allowing a destination to advertise its attractions. The previous literature revealed that there has been little research attention devoted to the study of ecotourism emphasizing young people although the topic is significant in terms of the impact on future ecotourism.

Young people may be first-time eco-tourists or may have limited experience or knowledge of ecotourism. Therefore, gaining knowledge and experience of ecotourism using ICTs will enhance travelers understanding of the possible negative environmental effects of ecotourism and its impacts on local ecosystems by raising their awareness of environmental and cultural considerations. This study contributes to the current ecotourism literature and broaden understanding of the ICTs-based ecotourism, particularly on Uzbek context. Moreover, they will provide suggestions for ecotourism business in Uzbekistan to develop the smart application attractive to the targets of young people.

### Used literature

1. Donohoe, H. M., & Needham, R. D. (2006). Ecotourism: The evolving contemporary definition. *Journal of Ecotourism*, 5(3), 192–210. <https://doi.org/10.2167/joe152.0>
2. Cobbinah, P. B. (2015). Contextualising the meaning of ecotourism. *Tourism Management Perspectives*, 16, 179–189. <https://doi.org/10.1016/j.tmp.2015.07.015>
3. Cini, F., & Passafaro, P. (2019). Youth and ecotourism: A qualitative exploration. *Tourism and Hospitality Research*, 19(1), 126–131. <https://doi.org/10.1177/1467358417704887>



4. Bai, B., Hu, C., Elsworth, J., & Countryman, C. (2005). Online travel planning and college students: The spring break experience. *Journal of Travel and Tourism Marketing*, 17(2–3), 79–91. [https://doi.org/10.1300/J073v17n02\\_07](https://doi.org/10.1300/J073v17n02_07)
5. Kasim, A., & Wickens, E. (2018). Exploring youth awareness, intention and opinion on green travel: The case of Malaysia. *Tourism and Hospitality Research*, 18(4), 1–15. <https://doi.org/10.1177/1467358418781441>
6. Sangpikul, A., & Batra, A. (2007). Ecotourism: A perspective from Thai youths. *The Journal of Hospitality Leisure Sport and Tourism*, 6(1), 81–85. <https://doi.org/10.3794/johlste.61.153>
7. World Tourism Organization. (2010). *Youth travel matters – Understanding the global phenomenon of youth travel*.
8. World Tourism Organization. (2016). *Global Report on The Power of Youth Travel*. IN UNWTO Affiliate Memers Programme, Ed. Madrid, Spain: UNWTO. [https://www.wysetc.org/wp-content/uploads/2016/03/Global-Report\\_Power-of-Youth-Travel\\_2016.pdf](https://www.wysetc.org/wp-content/uploads/2016/03/Global-Report_Power-of-Youth-Travel_2016.pdf)
9. Buhalis, D., & Amaranggana, A. (2013). Smart tourism destinations. In Z. Xiang & T. Iis (Eds.), *Information and Communication Technologies in Tourism*, 2014, 553–564. Dublin, Ireland: Springer, Cham [https://doi.org/10.1007/978-3-319-03973-2\\_40](https://doi.org/10.1007/978-3-319-03973-2_40)
10. Hunter, W. C., Chung, N., Gretzel, U., & Koo, C. (2015). Constructivist research in smart tourism. *Asia Pacific Journal of Information Systems*, 25(1), 105–120. <https://doi.org/10.14329/apjis.2015.25.1.105>
11. Ali, A., & Frew, A. J. (2010). ICT and its role in sustainable tourism development. In U. Gretzel, R. Law, & M. Fuchs (Eds.), *Information and communication technologies in tourism 2010* (pp. 479–17). Springer, Vienna. [https://doi.org/10.1007/978-3-211-994078\\_40](https://doi.org/10.1007/978-3-211-994078_40)
12. Cohen, S. A., Prayag, G., & Moital, M. (2014). Consumer behaviour in tourism: Concepts, influences and opportunities. *Current Issues in Tourism*, 17(10), 872–909. <https://doi.org/10.1080/13683500.2013.850064>
13. Chafe, Z. (2007). Consumer demand for quality in ecotourism. In R. Black & A. Crabtree (Eds.), *Quality assurance and certification in ecotourism* (pp. 164–195). CABI. <https://doi.org/10.1079/9781845932374.0164>

**Jo'rayev Nurbek Sa'dullayevich**

Qo'qon davlat pedagogika instituti  
ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

## **PEDAGOG SHAXSIDAGI MOTIVASION SOHA – PEDAGOGIK FAOLIYAT MUVAFFAQIYATINI TA'MINLOVCHI OMIL SIFATIDA**

**Annotatsiya.** Maqolada pedagog shaxsida motivasion sohaning rivojlanishi ular faoliyatidagi muvaffaqiyatini ta'minlovchi omil hisoblanadi. Bunda bo'lajak pedagog shaxsida motivasion sohaning rivojlanishi va uning tarkibiy qismlarini o'zaro aloqadorligi masalalari atroflicha yoritib berilgan. Ayniqsa, bo'lajak pedagog shaxsidagi motivasion sohaning kasbiy faoliyat bilan o'zaro uyg'unlashuvi masalalari nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** pedagog shaxsi, motivasion soha, pedagogik faoliyat, kasbiy shakllanish, qadriyatlar yo'nalishi, ijtimoiylashuv, xulq-atvor, faoliyat motivatsiyasi, kasbiy sifat, professionalizm, kasbiy mahorat, kasbiy rivojlanish.

## **МОТИВАЦИОННАЯ СФЕРА ЛИЧНОСТИ ПЕДАГОГА КАК ФАКТОР, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЙ УСПЕХ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

**Аннотация.** В статье говорится, что развитие мотивационной сферы в личности педагога является фактором, обеспечивающим успех в их деятельности. При этом подробно освещены вопросы развития мотивационной сферы личности будущего педагога и взаимосвязи ее компонентов. В частности, на основе теоретических подходов проанализированы вопросы взаимосвязи мотивационной сферы личности будущего педагога с профессиональной деятельностью.

**Ключевые слова:** личность педагога, мотивационная сфера, педагогическая деятельность, профессиональное становление, направление ценностей, социализация, поведение, мотивация деятельности, профессиональное качество, профессионализм, профессиональное мастерство, профессиональное развитие.

## **THE MOTIVATIONAL SPHERE IN THE PERSONALITY OF A TEACHER AS A FACTOR ENSURING THE SUCCESS OF PEDAGOGICAL ACTIVITY**

**Abstract.** In the article, the development of the motivational sphere in the personality of a teacher is considered a factor ensuring the success of their activities. At the same time, the issues of the development of the motivational sphere in the personality of the future teacher and the interrelationship of its components are comprehensively covered. In particular, the issues of the mutual integration of the motivational sphere of the personality of the future teacher with professional activity were analyzed on the basis of theoretical approaches.

**Keywords:** teacher's personality, motivational sphere, pedagogical activity, professional formation, value orientation, socialization, behavior, motivation of activity, professional quality, professionalism, professional skill, professional development.

Zamonaviy talaba - bo'lajak mutaxassis shaxsining motivasion sohasini rivojlantirish muammosi hozirgi ijtimoiy rivojlanish sharoitida psixologiya fanida ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda. Psixologiya va pedagogika fanlari doirasida shaxsiy yondashuvning rivojlanishi shaxsning motivasion sohasiga, kasbiy shakllanishida uni rivojlantirish omillari, shart-sharoitlari

va vositalariga chuqur qiziqish uygʻotdi. Talaba shaxsining motivatsion sohasini oʻrganish muammosi eng dolzarb hisoblanadi, chunki koʻplab qadriyat yoʻnalishlarining ahamiyatini qayta baholash, jamiyatdagi oʻz oʻrnini qayta anglash, hayotiy faoliyat natijalari uchun javobgarlikni oʻz zimmasiga olish shaxs motivlarida yashiringan boʻlib, ularni nafaqat bilish, balki shakllantirishni boshqarishni ham talab qiladi.

Maʼlumki, ijtimoiylashuv-individuallashuvning yagona jarayonida shaxsning yangi ijtimoiy-madaniy vaziyatga integratsiyalasha olmasligi namoyon boʻladi. Shuningdek, shaxsning atrofdagilarga va oʻziga boʻlgan munosabatida psixologik deformatsiya yuz beradi. Bularning barchasi shaxs xulq-atvori va faoliyatining motivatsiyasini belgilaydi.

Shaxsning motivatsion sohasini oʻrganishning oʻziga xos xususiyatlari taniqli psixolog olimlar: A.G. Asmolov, K.A. Abulxanova-Slavskaya, Ye.P. Ilin, V.G. Leontev, A.K. Markova, B.I. Sarsenbayeva va boshqalar tomonidan koʻrib chiqilgan.

Hozirgi vaqtda har qanday sohada mutaxassisni tayyorlash nafaqat uning mutaxassis sifatida kasbiy shakllanishining yuqori darajasini, kompetentligini, harakatchanligini, balki uning shaxsini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni taʼminlashga qaratilgan.

Zamonaviy jamiyatning yangilanishi, qadriyatlarning qayta koʻrib chiqilishi sharoitida taʼlimning ijtimoiy va kasbiy samarasini izchil va toʻliq amalga oshiradigan, erkin tanlov, ijodkorlik va oʻzini oʻzi anglashga tayyor avlodni tarbiyalashga qodir boʻlgan pedagogga ehtiyoj yetildi. Boʻlajak mutaxassisni, mutaxassisni rivojlantirish va professionalizmni shakllantirish uzoq davom etadigan, murakkab hamda koʻp bosqichli jarayondir. U mehnat kishisining subʼyekt, layoqatli va malakali mutaxassis, yetuk shaxs sifatida shakllanishini oʻz ichiga oladi.

Kasbiy va shaxsiy sifatlarning uygʻunlashuvi, rivojlanishning subʼyektiv va shaxsiy darajalarining shakllanishi umuman mehnat kishisining professional sifatida rivojlanishiga yordam beradi.

Maʼlumki, A.A.Derkachning fikricha, professionalizm - bu kasbni egallashning real erishilgan, yetarlicha yuqori darajasidir. Kasbiy faoliyat va uning eng yaxshi namunalari darajasida oʻzlashtirgan (kasbiy mahorat); kasbiy tajribasiga ijodiy hissa qoʻshadigan (kasbiy ijodkorlik); oʻz kasbiy faoliyati va kasbiy rivojlanishining subʼyekt boʻlgan mehnat kishisini professional deb hisoblash mumkin: oʻz kasbiy faoliyatining (va uning turlarining) tuzilishini anglay oladi, uni qayta qurish va oʻzgartirishni, uning oʻzini oʻzi boshqarish va oʻzini oʻzi korreksiya qilishni amalga oshirishni biladi; muayyan malakaga ega, yaʼni jamiyatda ishlab chiqilgan oʻz kompetentligining kasbdagi toifalar, razryadlar, lavozimlarga muvofiqligini sifat va miqdoriy baholash mezonlariga javob beradi; kasbning zamonaviy qadriyatlari, ideallari, mentalitetlarini oʻzlashtirgan va qabul qilgan, kasbning axloqiy kodeksiga rioya qiladigan yetarlicha yetuk shaxs hisoblanadi; inson oʻz mehnatining oʻrtacha ijobiy natijalari bilan qanoatlanmasdan, balki yuqori mahsuldor faoliyatga, oʻz shaxsiy imkoniyatlarini toʻliq roʻyobga chiqarishga va shu bilan ijtimoiy taraqqiyotga toʻliq individual hissa qoʻshishga intiladigan psixik va kasbiy rivojlanish jarayonining faol ishtirokchisi hisoblanadi.

Professional rivojlanishning bu "qatlamlari" individual kasbiy-shaxsiy rivojlanish jarayonida notekis shakllanishi mumkin. Chunonchi, har qanday xodim ham oʻz faoliyatining real subʼyekt boʻlavermaydi. Faoliyat subʼyekt oʻz kasbiy faoliyatini joʻshqinlik bilan qurayotgan va boshqarayotgan shaxs sifatida yetuk inson boʻlmasligi ham mumkin.

Yetuk shaxs (ruhlangan shaxs) oʻzining yetuk motivlari va yuksak intilishlari mavjud boʻlgani holda oʻz kasbiy faoliyatini tashkil eta olmasa, oʻzining psixik resurslarini oʻylamasdan sarflab yuborsa, faoliyat subʼyekt darajasiga yetib bormasligi ham mumkin. Har qanday faoliyat subʼyekt ham malakali mutaxassis darajasiga koʻtarilavermaydi. Har qanday mutaxassis ham professional boʻlib ulgʻaymaydi.

Pedagogik ishlar muvaffaqiyatining hal qiluvchi omili oʻqituvchining shaxsi, uning psixologik xususiyatlarining murakkab xilma-xilligi hisoblanadi. Oʻqituvchining ijobiy fazilatlarini oʻzgarmas holatda boʻlmaydi, balki kasb tanlash va oliy oʻquv yurtida oʻqish jarayonida ham, pedagogik faoliyat jarayonida ham rivojlanadi va kuchayadi.

O'z mutaxassisligi predmetiga chuqur va jiddiy qiziqishning o'zi, o'qituvchi uchun qanchalik zarur bo'lmasin, undan haqiqatan ham yaxshi pedagog chiqara olmaydi. O'quvchilarni o'qitishga bevosita aloqasi bo'lmagan hamma narsadan voz kechish pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatlarga olib kelmaydi. Odatda, hayotning turli-tuman ta'sirlari va qiziqishlaridan ajralib qolgan o'qituvchilar juda tor doiradagi insonlarga aylanadilar, o'zlariga xos cheklangan dunyoqarashga ega bo'lgan pedantlarga aylanadilar.

O'qituvchining muhim fazilatlari va ularni o'z faoliyatida rivojlantirish imkoniyatlari haqidagi bilimlarga qiziqish kasb tanlash paytidayoq namoyon bo'ladi. Pedagoglik kasbini tanlash ko'pincha sevimli va hurmatli o'qituvchiga taqlid qilish bilan asoslanadi.

Bolalar o'yinlaridayoq pedagogik faoliyatga "did"ni rivojlantiruvchi ko'pgina elementlar mavjud. Maktabdagi bundan keyingi mashg'ulotlar va o'rtoqlariga dars tayyorlashda yordam berish, to'garaklarda hamda bolalar tashkilotlarida ishlash, nihoyat, kattalarning ta'siri - bularning hammasi pedagoglik ishiga moyillik va qobiliyatlarning paydo bo'lishi va shakllanishida hal qiluvchi holatlar bo'lib chiqadi.

Pedagogika oliy o'quv yurtiga kirish motivlaridan biri muayyan fanga qiziqish bo'lib, u odatda o'rta maktabdayoq paydo bo'ladi. Garchi bu motivning pedagogik ish bilan aloqasi kam bo'lsa-da, u ko'pincha sof pedagogik qiziqishlar va mayllarning paydo bo'lishiga turtki bo'ladi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, odamlar iste'dodli pedagog bo'lib tug'ilmaydilar, balki ularga aylanadilar, shu bilan birga, bu shakllanish yo'li yetarlicha uzoq davom etadi, ko'pincha o'smirlik (va hatto bolalik) yillarida boshlanadi va katta pedagogik stajga ega bo'lgan o'qituvchida, agar u o'z ustida ishlashni to'xtatmasa, davom etadi. Talabalarda o'qituvchining ijobiy fazilatlari namoyon bo'lishini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda psixologik-pedagogik sikl fanlari alohida o'rin tutadi.

Yaxshi o'qituvchining kuchi bilimning ko'pligidagina emas, balki o'qitilayotgan materialning mohiyatini chuqur tushunib yetganligidadir. O'qituvchining intellektual faoliyati shu bilan tavsiflanadiki, pedagogik ish jarayonida uning fikri hamisha o'quvchilar tomonidan to'g'ri tushunilishiga yo'naltiriladi, ularga nisbat beriladi. Aynan shu narsa o'qituvchining tafakkurini pedagogik yo'naltirilgan qiladi. Pedagogik yo'naltirilgan tafakkur, avvalo, o'qituvchining ushbu jarayonlarning yanada aniqroq bo'lishiga erishishga intilishi bilan tavsiflanadi.

O'qituvchi shaxsining ijobiy fazilatlarini namoyon qilish uchun boshqa insonning, birinchi navbatda, o'quvchining psixologiyasini tushunish eng yuqori darajada xarakterlidir. Birovning nuqtai nazariga qo'shilishga mutlaqo qodir bo'lmagan insonlar uchraydi. Ular egosentrizm deb ataladigan psixologik xususiyat bilan ajralib turadi.

Shuning bilan birga o'quvchi psixologiyasini tushunish bola yoshidagi umumiy qiziqish va ehtiyojlarni hisobga olishnigina emas, balki u yoki bu o'quv materialini tushuntirishda o'quvchining nuqtai nazariga qo'shila olishni ham bildiradi. O'qituvchi nafaqat o'zi uchun, balki o'quvchi uchun ham o'ylashi kerak.

U o'z tushuntirishining har qanday paytida tinglovchisining "fikrlar oqimi" haqida ozmi-ko'pmi to'g'ri tasavvurga ega bo'lishi kerak. O'quvchilarning bunday "tushunishi" nihoyatda muhim pedagogik fazilat bo'lib, u ba'zan hatto tajribali pedagoglarga ham yetishmaydi.

Mulohazali pedagog har doim u yoki bu darajada psixolog hisoblanadi.

Lekin o'quvchi shaxsidagi asosiy narsani tez "ushlab olish", sinfda vujudga kelgan vaziyatni to'g'ri aniqlash, boshqa kishi uzoq vaqt aniqlay olmaydigan narsani bevosita va tez payqab olish, asosan, tajribali pedagoglarga xosdir.

O'quvchilarning "tushunish jarayonidan tushunish"ini rivojlantirishning asosi kuzatuvchanlik, o'quvchilarning xarakterologik xususiyatlarini, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini payqay olish qobiliyatidir. O'quvchilarni o'rganish natijalarini yozma qayd etish pedagogning kuzatuvchanligini oshiradi, bu yozuvlarsiz osongina e'tibordan chetda qolishi mumkin bo'lgan narsalarni ko'rishga yordam beradi.

O'qituvchining o'quvchiga mohirona yondashuvi uning ruhiy sifati bilan belgilanadi, bu odatda pedagogik nazokat deb ataladi. Takti fikrlash faoliyatining ko'rinishlariga ham, insonning

his-tuyg'ulari sohasiga ham kiritish mumkin. Shu o'rinda "Odob tuyg'usi" haqida fikr yuritish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

O'qituvchi o'z amaliy faoliyatida har doim ham o'z xatti-harakatlarini mantiqiy dalillar va xulosalar nuqtai nazaridan o'ylab ko'rish va baholash imkoniyatiga ega bo'lavermaydi. Ba'zida u nima uchun bunday qilayotganini emas, balki nima uchun shunday qilayotganini to'liq anglamasdan harakat qiladi. Bu ba'zi psixologlarga o'qituvchining fikrlash jarayonlarida ko'plab ong osti, irratsional narsalar mavjudligini ta'kidlash uchun asos bo'ldi.

Vaholanki, o'qituvchilar faoliyatini kuzatish shuni ko'rsatadiki, pedagogik nazokat, sezgirlik va shu kabi sifatlar o'qituvchining sog'lom aqli, amaliy sezgirligi, kuzata olishi, tez ilg'ab olishi, har bir faktga to'g'ri va tez munosabatda bo'lishi, yuzaga kelgan vaziyatda oson mo'ljal ola bilishining namoyon bo'lishidir.

Shuning uchun ham takt va intuisiyani diskursiv tafakkur jarayonlariga qarama-qarshi qo'yish mutlaqo noto'g'ri hisoblanadi. Aslini olganda, bir tomondan, pedagogik nazokat, "sezgi", "intuisiya" va, ikkinchi tomondan, tafakkurning sof aqliy aktlari yagona tafakkur jarayonining faqat turli tezlikda va turli darajada o'tmish tajribasi ma'lumotlariga tayanadigan qismlarini tashkil etadi. O'qituvchining pedagogik nazokati turlaridan biri me'yor tuyg'usidir. Umuman hayotda katta ahamiyatga ega bo'lgan bu fazilat o'qituvchi uchun ayniqsa zarurdir.

Pedagog faoliyatining predmeti murakkab, xilma-xil va o'zgaruvchan psixik dunyosiga ega bo'lgan tirik odamlardir. Shuning uchun pedagogning fikri ko'pincha takrorlanmas vaziyatlarda ishlaydi va har qanday vaqtda o'qituvchi oldida nostandart yechimni talab qiladigan yangi muammo paydo bo'lishi mumkin. O'qituvchi hayotning barcha holatlari uchun stereotip ko'rsatmalar bilan ta'minlashga urinayotgan reseptura metodikasining pedagogik faoliyatda muvaffaqiyat qozonmayotganligi shu bilan izohlanadi. Bu esa o'qituvchiga mustaqil fikrlash qobiliyati, ijodiy tafakkur tarzi kabi fazilatlarining zarurligini taqozo etadi.

Qobiliyatli o'qituvchi boshqa pedagoglarga ko'r-ko'rona taqlid qilmaydi, balki o'zi oldida turgan vazifalarni hal qilish yo'llarini izlaydi. U ko'p o'qiydi, boshqalarning tajribasini o'rganadi, biroq uni o'z sinfiga mexanik ravishda ko'chirmaydi, balki o'z o'quvchilarining psixologik xususiyatlariga tatbiqan ijodiy qayta ishlaydi.

Kasbiy muhim sifatlarni rivojlantirish muammosi hozirgi vaqtda tobora ko'proq tadqiqotchilarning e'tiborini tortmoqda. Bu bo'lajak mutaxassisning oliy o'quv yurtida amaliy tayyorgarligini ta'minlash va uning faoliyat sharoitlariga predmetli va ijtimoiy moslashish davrini qisqartirish imkonini beradigan o'qitish modelini yaratish zarurati bilan izohlanadi. Kasbiy muhim sifatlarning yaxlit tizimini shakllantirish shaxsning kasbiy rivojlanishining tugun nuqtasi hisoblanadi.

Talabalik yoshi insonning katta ish qobiliyatiga ega bo'lishi, ijodkorlikka, intellektual faoliyatning murakkab usullarini egallashga maksimal darajada qodirligi bilan tavsiflanadi. Bu davrda insonning kasbga kirib kelishi, bo'lajak mutaxassisning shakllanishi va uning professionalligi bilan tavsiflanadigan juda muhim bosqich sodir bo'ladi.

Mutaxassis shaxsini shakllanishining har bir bosqichida insonning faoliyatga bo'lgan ichki turtkisi bo'lgan komponent - uning motivasion sohasi mavjud. Shaxs professionalizmiga kiruvchi boshqa tarkibiy qismlar bilan bir qatorda motivatsiya insonni yo'naltiruvchi, maqsad sari yetaklovchi, uning shakllanishiga, o'z rivojlanishida eng yuqori darajaga erishishiga ko'maklashuvchi tayanch va markaziy elementlardan biri hisoblanadi. A.A.Bodalevning ta'kidlashicha, haqiqiy professionallik har doim ma'lum bir faoliyatni amalga oshirish va unda noyob, g'ayrioddiy natijaga erishish uchun kuchli va barqaror motivatsion soha bilan bog'liq.

So'nggi o'n yillikda talabalarining kasb tanlash motivatsiyasi birmuncha o'zgardi. Bugungi kunda yoshlar ko'pincha oliy o'quv yurtlariga kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, mutaxassis bo'lish uchun emas, balki oliy o'quv yurtini tamomlaganlik to'g'risidagi diplomni olish uchun o'qishga bormoqda. Bunday usul bilan inson o'zini to'laqonli va samarali ishlay olmasligiga undaydi. Demak, unda o'zini namoyon qilish, kasbiy faoliyatda o'z salohiyatini namoyon etish imkoniyati bo'lmasligi ehtimoli yuqori ekanligini ko'rsatadi. Ushbu tendensiya



bo'lajak mutaxassislar, professionallarni shakllantirish va rivojlantirish uchun unchalik yaxshi istiqbolni taqdim etmaydi.

Shu munosabat bilan mutaxassis shaxsini tahlil qilish va uning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish zarurati tug'iladi. Bu, birinchi navbatda, professional shaxsning motivatsion sohasiga tegishli, chunki u inson faolligining manbai va inson xulq-atvorining asosiy determinantlaridan biri hisoblanadi. Kasbni, ish joyini, muloqot doirasini, mashg'ulot turini, tovar yoki xizmatni tanlash, o'quv va mehnat faoliyatining muvaffaqiyati - bularning barchasi u yoki bu tarzda shaxsning motivatsion sohasiga bog'liq.

Turli psixologik va pedagogik tadqiqotlar doirasida shaxsning motivatsion sohasi nafaqat kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish, balki kasbiy tanlov, kasbiy ta'lim, kasbiy mahoratni shakllantirish va takomillashtirish, uning cho'qqisi - professionalizmga erishish jarayonida ushbu sohaning rolini anglash uchun ham muhim ahamiyatga ega ekanligi isbotlangan.

Faoliyatning turli sohalarida (kasbiy, ilmiy, o'quv) namoyon bo'lib, faoliyatga ijodiy, tashabbuskorona munosabatni belgilaydigan va mehnatning xarakteri hamda sifatiga ta'sir ko'rsatadigan motivatsiyaning keng shakllarini tadqiq etish katta ahamiyatga ega. Bunday motivatsiyaning asosiy turlaridan biri yutuq motivatsiyasi bo'lib, u insonning o'z mahorati va qobiliyatini namoyish etish imkoniyati bo'lgan har qanday joyda faoliyat yuqori sifat darajasida bajarishga intilishini belgilaydi. Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi shaxsning tashabbuskorlik, mas'uliyatlilik, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lish, vazifalarni qo'yishda o'z imkoniyatlarini baholashda reallik va shu kabi sifatlari bilan chambarchas bog'liqligi prinsipial muhimdir.

Muvaffaqiyatga yo'naltirilgan xulq-atvor har bir insonda muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivlarining mavjudligini nazarda tutadi. Boshqacha aytganda, barcha odamlar muvaffaqiyatga erishishdan manfaatdor bo'lish va muvaffaqiyatsizlikdan xavotirlanish qobiliyatiga ega. Biroq, har bir alohida shaxsda yutuq motivi yoki muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi ustunlik qiladi. Aslida yutuq motivi faoliyatni unumli bajarish bilan bog'liq bo'lsa, muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivi xavotirlanish va himoyalalanish xulq-atvor bilan bog'liq.

Shuningdek, insonning taqdiri va uning jamiyatdagi mavqei, kasbiy yutuqlari ko'p jihatdan unda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi yoki muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi ustunlik qilishiga bog'liq. Muvaffaqiyatga erishish istagi kuchliroq ifodalangan odamlar hayotda muvaffaqiyatga erishish istagi kuchsiz ifodalangan yoki mavjud bo'lmagan odamlarga qaraganda ko'proq narsaga erishishlari kuzatilgan. Yutuq motivi shaxsning muvaffaqiyatsizlikka uchramaslik va istalgan natijaga erishish uchun barcha mavjud vositalardan foydalanishga bo'lgan ehtiyojini aks ettiradi. Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi ko'pincha har qanday yo'llar va vositalar bilan xatolar, muvaffaqiyatsizliklardan qochishning psixikada ishlab chiqilgan mexanizmi sifatida qaraladi. Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi ustun bo'lgan shaxs uchun asosiysi xatoga yo'l qo'ymaslik, dastlabki, asosiy maqsadning kuchli o'zgarishi, unga to'liq yoki qisman erishmaslik evaziga ham muvaffaqiyatsizlikka uchramaslikdir. Shunga ko'ra, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi ustun bo'lgan pedagog ham kasbiy vazifalarni hal qilishga ijodiy yondashadi. O'z navbatida olingan natijalarni aks ettiradi hamda o'z faoliyatidagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik sabablarini anglaydi va lokalizatsiya qiladi (bu holda - ichki nazorat lokusining ustunligi), rivojlanish va o'zini o'zi rivojlantirish yo'llarini belgilaydi va hokazo).

Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi shakllangan (yutuqlar motivatsiyasining past darajasi) pedagog o'z faoliyatida ta'lim jarayonida o'zlashtirilgan uni amalga oshirish usullarini, ko'pincha reproduktiv usullarni qo'llaydi, muvaffaqiyatsizlik sabablarini tashqi sharoitlarda ko'radi (nazoratning tashqi lokusi). Shuning uchun o'zini o'zi rivojlantirish va o'zini o'zi takomillashtirish zarurligini anglamaydi. Pedagog o'zini o'zi faollashtirishi, o'zini o'zi rivojlantirish va o'zini o'zi ro'yobga chiqarish motivatsiyasi uning ijodiy va ma'naviy salohiyatini har tomonlama va uzluksiz rivojlantirish, uning barcha imkoniyatlarini maksimal darajada ro'yobga chiqarish, atrofdagi, dunyoni va undagi o'z o'rnini adekvat idrok etish, hissiy soha va ma'naviy hayotning boyligi, ruhiy salomatlik va axloqning yuqori darajasini o'z ichiga oladi.

Shaxsning motivatsion sohasi dinamik bo'lib, u his-tuyg'ular bilan chambarchas bog'liq va ularga ta'sir qiladi. Va aksincha, his-tuyg'ular motivatsiyaning kuchi, davomiyligi va barqarorligini belgilashi mumkin. Motivatsion soha inson irodasini belgilaydi va shaxsning hissiy-irodaviy sohasini o'zaro shakllantiradi.

Shaxsning motivatsion sohasini rivojlantirish mexanizmi quyidagilardir: ehtiyojni anglash, uning rag'batlari - ehtiyojni motivga aylantirish - motivni anglash. Motiv kuchi shaxsning yengib bo'lmagan intilishlari ko'rsatkichidir. U ehtiyojlarni anglashning chuqurligi va motivning jadalligi bilan baholanadi.

Keltirilgan fikrlarga ko'ra, "kuchli" va "zaif" talabalar bir-biridan intellekt darajasi bo'yicha emas, balki o'quv faoliyati motivatsiyasi va kasb tanlash bo'yicha farq qiladi. Bundan tashqari, yuqori ijobiy motivatsiya zarur bilim, ko'nikma va malakalar zaxirasi yetarli bo'lmagan yoki maxsus qobiliyatlar yetarli darajada rivojlanmagan taqdirda kompensator omil rolini o'ynashi mumkin. Shunday qilib, pedagog shaxsining motivatsion sohasi uning akmeologik yo'nalganligi bilan tavsiflanadi. Pedagogik faoliyat muvaffaqiyatining motivatsiyasi va motivlarini shakllantirish va rivojlantirish ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshirilishi kerak. Darhaqiqat, u kasbiy-shaxsiy rivojlanish samaradorligining, bo'lajak kasbiy faoliyat muvaffaqiyatining va pedagogning kasbiy mahoratini rivojlantirishning zaruriy shartidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Деркач А.А. Акмеологические основы развития профессионала. – М.: Издательство Московского психолого-социального института; Воронеж: НПО «МОДЭК», 2004. – 752 с.
2. Бирюлин В.А. Особенности мотивационной сферы будущих учителей и психологов: дис.... канд. психол. наук. – Самара, 2007. – 188 с.
3. Слотина Т.В. Психология личности: Учебное пособие. – СПб.: Питер, 2008. – 304 с.
4. Жунисбекова Ж.А., Керимбеков М.А., Жунисбекова Д.А. Характеристика психологических основ формирования профессионального самоопределения будущих педагогов // Международный журнал экспериментального образования. – №5 (часть 1). – 2014. – С. 53-57.

**Ramazonov Jahongir Djalolovich**

Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti,  
psixologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)  
[rajahongir807@gmail.com](mailto:rajahongir807@gmail.com)

## **TALABALARDA AXBOROT ALMASHINUVI VA ISTEMOLINING MUHIM PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**Annotasiya.** Ushbu maqolada talaba-yoshlarda axborot almashinuvi hamda axborot istemoli madaniyatini rivojlantirish imkoniyatlari, axborot bilan ishlash madaniyatining psixologik xususiyatlari hamda, globallashuvi sharoitida yoshlar dunyoqarashidagi axboriy kompetensiyalar yetishmasligining psixologik oqibatlari, axborot istemoli madaniyati shakllanishida manipulyativ tasirlarning psixologik xususiyatlari va yoshlardan talab etiladigan axboriy psixologik shartlar haqida fikir mulohazalar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot madaniyati, axborot globallashuvi, axborot tahdidlari, ma'naviyat, semiotik madaniyat, konseptual va texnologik madaniyat, terminologik madaniyat, muloqot madaniyati, axborot dunyoqarashi, axborot savodxonligi, axborot, madaniyat.

## **ВАЖНЫЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОБМЕНА И ПОТРЕБЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ У СТУДЕНТОВ**

**Аннотация.** В статье излагаются соображения о возможностях формирования культуры информационного обмена и потребления информации у студенческой молодежи, психологических особенностях культуры работы с информацией, психологических последствиях отсутствия информационных компетенций в мировоззрении молодежи в условиях глобализации, психологических особенностях манипулятивных воздействий при формировании культуры потребления информации, информационно-психологических условиях, требуемых от молодежи.

**Ключевые слова:** информационная культура, информационная глобализация, информационные угрозы, духовность, семиотическая культура, понятийно-технологическая культура, терминологическая культура, культура общения, информационное мировоззрение, информационная грамотность, информация, культура.

## **IMPORTANT PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF INFORMATION EXCHANGE AND CONSUMPTION IN STUDENTS**

**Annotation.** This article presents considerations on the possibilities of developing information exchange and information consumption culture among students, the psychological characteristics of the culture of working with information, and the psychological consequences of the lack of information competencies in the worldview of young people in the context of globalization, the psychological characteristics of manipulative influences in the formation of information consumption culture, and the information psychological conditions required of young people.

**Keywords:** information culture, information globalization, information threats, spirituality, semiotic culture, conceptual and technological culture, terminological culture, communication culture, information worldview, information literacy, information, culture.

Jahonda axborot globallashuvi sharoitida yoshlarning dunyoqarashidagi salbiy ta'sirlarning psixologik xususiyatlarni aniqlashtirish, virtual borliqqa talabalarda aksiologik

munosabatni tarkib toptirishning psixokorreksion usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Axborot madaniyati” tushunchasi quyidagi mazmunlarni o‘zida mujassam etadi: inson bilim egallashning zamonaviy vositalari, qayta ishlash va tizimlashtirish malakasiga ega bo‘lishi; tabiat va jamiyatda kechayotgan axborot jarayonlari mohiyatini tushunish; faoliyat sohasiga oid xususiyatlari hamda turli manbalar bilan ishlashni bilish, axborotni tahliliy, sintezli qayta ishlash asoslarini o‘rganish va boshqalar. Axborot madaniyati xabarlarini saralash, ularning ahamiyatli jihatlarini belgilab olish, sohalarga ajratish, sofligiga e‘tibor qaratib, munosabat bildirish, g‘oyaviy-psixologik asoslarini aniqlash, xabar manbaini topishda namoyon bo‘ladi[1].

Axborot madaniyati umumiy madaniyatning bir bo‘lagi sifatida shaxs ijodiy qobiliyatining mahsuli hisoblanib, quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- axborot-texnologiya vositalarini qo‘llash jarayonida aniq ko‘nikmalarga ega bo‘lish;
- OAV va media vositalarining manipulyativ va psixologik ta‘sir etish mexanizmlarini to‘g‘ri anglay olish;
- faoliyat davomida kompyuter texnologiyalarini qo‘llay olish;
- faoliyat davomida media vositalaridan samarali foydalana olish;
- elektron manbalardan axborotni qo‘lga kiritishni bilish, uni maqbul ko‘rinishda taqdim etish va samarali foydalanish;
- turli axborot manbalaridan ijtimoiy va kasbiy qiymatga ega bo‘lgan axborotlarni tanlab olish.

Professor A.Umarovning yozishicha, axborotning jamiyat va inson hayotidagi o‘rni oshgani sari axborot madaniyatini shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buning, uchun, eng avvalo, shaxsning axborot madaniyatini tarkib toptirish lozim.

Sodda qilib aytganda, axborot madaniyatini egallagan kishi kutubxonachilik, bibliografiya va kompyuter sohasida savodxon bo‘lishi bilan birga, axborot va axborotlashtirishning huquqiy jihatlaridan xabardor, zamonaviy axborot resurslari va axborot tizimlari (kutubxona, arxiv, ma‘lumotlar bazalari va banklari)ning xususiyatlarini biladigan, axborot texnologiyalaridan foydalana oladigan, yangiliklarni ilg‘ash va o‘zlashtirib borishga intiladigan xislatlarni ham o‘zida mujassam etgan bo‘lishi kerak[2].

Shu bois axborot almashinuvining muhim vositasi va mexanizmi bo‘lgan “muloqot” va “kommunikasiya” tushunchalariga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq.

“Muloqot murakkab jarayon bo‘lganligi sababli unga yagona to‘g‘ri ta‘rif berish qiyin. “Muloqot” tushunchasining mazmuni uning ayrim jihatlariga to‘xtalib o‘tish orqali yoritilib beriladi.

Axborot maydonida qo‘llanadigan belgilar (so‘zlar, imo-ishoralar va h.k.) zamiridagi mohiyat muloqotda ishtirok etayotganlarga tanish va o‘zlashtirilgan holatda bo‘lgan taqdirda axborot almashish imkoni paydo bo‘ladi.

“Muloqot” tushunchasini “kommunikasiya” tushunchasidan farqlash lozim. Kommunikasiya jonli va jonsiz tabiatdagi tizimlar o‘rtasidagi axborot almashinuvini anglatadi. Hayvonlar o‘rtasidagi signallar almashinuvi, daraxtlardagi irsiy belgilarning uzatilishi, insonning turli-tuman texnik vositalar bilan aloqaga kirishishi – bularning barchasi kommunikasiya hisoblanadi.

Shuningdek, B.F.Lomov[3], L.Karpenko va boshqalar tomonidan muloqotning funksiyalari, ichki tuzilishi, xususiyatlari bo‘yicha jiddiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularning nuqtai nazarini rivojlantirgan holda muloqotning kommunikativ (axborot olish, uzatish), interaktiv (hamkorlikda kompromiss va konsensus tarzida harakat qilish) va perseptiv (o‘zaro birgalikda muayyan axborotni idrok etish) funksiyalarining har biri alohida tavsiflanadi. Natijada, mazkur 3ta funktsiyaning birligi hamkorlikdagi faoliyat sub‘ektlari va muloqot ishtirokchilarining o‘zaro ta‘sir etish maqsadidagi harakatlarini tashkil etish usuli sifatida maydonga chiqadi.

1. Muloqotning kommunikativ jihatida muayyan axborot olish, uzatish ehtiyoji bo‘lgan individlarning o‘zaro ma‘lumot almashinish holati sodir bo‘ladi.

2. Muloqotning interaktiv jihatida individlar nafaqat bilim va g'oyalar, balki harakatlar bilan ham o'zaro ta'sirni amalga oshirishadi. Yanada aniqlik kiritadigan bo'lsak, muloqot shaxslararo birgalikdagi harakati, odamlar o'zaro hamkorlikdagi faoliyati jarayonida o'z tarkibiga olgan aloqalari va o'zaro bir-biriga ko'rsatadigan ta'sirining jamlanmasi ko'rinishida yuzaga chiqadi. Hamkorlikdagi faoliyat va ijtimoiy munosabat qoidalar–odamlarning birdamlikdagi harakati va o'zaro munosabatlarini qat'iyon belgilab qo'yadigan hamda jamiyatda o'rnatilgan xulq-atvor namunalari bo'yicha amalga oshiriladigan ijtimoiy nazorat sharoitida yuz beradi. Jamiyat sotsial qonun qoidalar sifatida qabul qilgan, udumga aylangan va uning bajarilishini har bir kishidan kutayotgan namunalarning o'ziga xos tizimini yaratadi. Ularning tartibsizligi qoidadan chetga chiqadiganlarning xulq-atvori to'g'rilanishini ta'minlaydigan ijtimoiy nazorat mexanizmlari (ma'qullamaslik, ta'na qilish, jazolash) ni o'z ichiga oladi.

Yuqorida qayd etilgandek, muloqot, birinchi navbatda, axborotni qabul qilish, saralash, saqlash, uzatish va boshqarishdan iborat ko'p qirrali ijtimoiy jarayon. Axborot jarayonlari butun jamiyat organizmini qurshab olib, ijtimoiy hayotning har qanday, hatto, eng kichik qismida ham mavjudligi bilan ahamiyatlidir.

Demak, ijtimoiy axborotning asosiy turlari ichida axborot almashinuvidan iborat muloqot turi ustunlik qiladi. Insonlar muloqotining chuqur ijtimoiy determinasiyasi hayot faoliyati va umuman olganda, butun jamiyat rivojlanishi uchun axborot almashinuvining o'rni qanchalik muhimligidan dalolat beradi.

Mashhur faylasuf M.Kaganning fikricha, kommunikasiya va muloqot kamida ikki jihatdan farqlanadi. Birinchidan, "muloqot – amaliy, moddiy va ma'naviy axborot almashinuvidir va u amaliy-ma'naviy xarakterga ega, kommunikasiya esa ... u yoki bu xabarlarini uzatish bilan bog'liq sof axborot jarayonidir"[4]. Ikkinchidan, ular o'zaro munosabatga kirishayotgan tizimlarning aloqa xossalari bo'yicha bir-biridan ajralib turadi.

Kommunikasiya hodisasiga tadqiqotchilar, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan keyin, qiziq boshlashdi. Bunga yaqqol misol sifatida o'tgan asrning 60-yillari boshiga kelib, falsafa va sosiologiyaga doir ilmiy adabiyotlarda "kommunikasiya" tushunchasining yuzdan ortiq ta'riflari ishlab chiqilganligini aytish mumkin. Tasavvur hosil bo'lishi uchun mazkur ta'riflardan to'rttasini keltirib o'tamiz:

1. Kommunikasiya – bu murakkab dinamik tizimlar va uning axborotni qabul qilish, to'plash, o'zgartirish imkoniga ega qismlari o'rtasida axborot almashinuvi[5].

2. Kommunikasiya – bu axborotni o'ziga xos almashish, uning emosional va intellektual mazmunini aks ettirish jarayoni[6].

3. Kommunikasiya – insonlarning kognitiv va amaliy faoliyati jarayonida o'zaro munosabatlarga kirishishning o'ziga xos shakli[7].

4. Kommunikasiya – noverbal va verbal harakatlar natijasida axborot olish demakdir[8].

Ko'rinib turibdiki, bu ta'riflarda mazkur fenomenning ayrim jihatlarigagina urg'u berilgan. Shuning o'zi kommunikasiyaning naqadar keng qamrovli va murakkab hodisa ekaniga ishoradir.

Shunday qilib, jamiyatning hayotiy faoliyatida va shaxslararo munosabatlarda axborot almashinuvi o'zaro ta'sirning, birgalikdagi harakatlarning asosiy vositasi bo'lib maydonga chiqadi. Inson kamoloti va pirovardida, jamiyat taraqqiyoti o'zaro axborot almashinuv jarayonlarining qay darajada samarali tashkil etilishiga bog'liq. Bu jarayonlarda muloqot va kommunikasiya asosiy bosita, ya'ni o'ziga xos bog'lovchi ko'priq vazifasini bajarishi, shubhasiz.

Axborot almashinuvi madaniyatining nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Ijtimoiy tizim murakkab ichki tuzilishga ega, yaxlit, ma'lum tartibdagi, o'zaro uzviy aloqadorlikdagi axborot almashinuvi asosida shakllangan ijtimoiy munosabatlar birligini hosil qiladi.

2. Zamonaviy jamiyat ierarxialashgan murakkab tizim bo'lib, undagi funksional jarayonlar, sosial-tuzilmali munosabatlar transformasiyasi shaxs va guruhlarining sosial mobilligi, ierarxik tuzilmadagi o'rnini belgilaydi. Zero, jamiyatdagi mavjud barcha tizimlar va tizimosti



tuzilmalarning universal elementi inson hisoblanadi. Konkret shaxslarning o'zaro munosabatlaridan ijtimoiy tuzilma hosil bo'ladi.

3. "Axborot" tushunchasi uzoq tarixi va ko'p qirrali ma'nosiga ega bo'lgan holda, ijtimoiy hayotga nisbatan u insonlar, predmetlar, faktlar, hodisalar va boshqa jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni anglatadi. "Axborot" tushunchasiga oid tahlillardan kelib chiqib, axborot – jamiyat uchun nafaqat muloqot predmeti, balki insonlararo muloqotda axborot almashinuviga hamda uning uzviyligiga ta'sir ko'rsatuvchi ob'ektiv omildir.

4. Axborot madaniyati umumiy madaniyatning bir bo'lagi sifatida shaxs ijodiy qobiliyatining mahsuli hisoblanib, axborot-texnologiya vositalarini qo'llash jarayonida aniq ko'nikmalarga ega bo'lishda, OAV va media vositalarining manipulyativ va psixologik ta'sir etish mexanizmlarini to'g'ri anglab olishda, elektron manbalardan axborotni qo'lga kiritishni bilish, uni maqbul ko'rinishda taqdim etish va samarali foydalanishda o'z aksini topmoqda.

5. Bugungi kunda axborot madaniyati xabarlarini saralash, ularning ahamiyatli jihatlarini belgilab olish, sohalarga ajratish, sofligiga e'tibor qaratib, munosabat bildirish, g'oyaviy-psixologik asoslarini aniqlash, xabar manbaini topish yo'nalishlarida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Самаров Р., Саттаров Ё. Ахборот маданияти ва уни шакллантиришнинг назарий-амалий аҳамияти.-Замонавий таълим, 2014.-№1.

2. Умаров А.А. Мутолаа ва ахборот маданиятини шакллантиришда ахборот-кутубхона муассасаларининг ўрни//Фан, таълим маданият ва бизнесда интернет ва ахборот-кутубхона ресурслари. IX Халқаро конф. Central Asia 2015. –Тошкент: 2015. –Б.189.

3. Ломов Б.Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии. – М., 1984. –С.242-271.

4. Коган. М.С. Человеческая деятельность: опыт системного анализа. –М.:Изд. полит. лит. 1974. – С.45

5. [http://elib.sfu-kras.ru/bitstream/handle/2311/125072/vkr\\_pleskach\\_na\\_sayt.pdf?sequence=1](http://elib.sfu-kras.ru/bitstream/handle/2311/125072/vkr_pleskach_na_sayt.pdf?sequence=1)

6. [https://studme.org/12790912/menedzhment/glossariy\\_teoriya\\_kommunikatsii](https://studme.org/12790912/menedzhment/glossariy_teoriya_kommunikatsii) // Мурожаат санаси 23.04.2019 й

7. [https://studme.org/51629/menedzhment/kommunikatsii\\_obschenie](https://studme.org/51629/menedzhment/kommunikatsii_obschenie) // Мурожаат санаси 23.04.2019 й

8. [https://bachelor.ucoz.ru/load/belaja\\_e\\_n\\_teorija\\_i\\_praktika\\_mezhkulturnoj\\_kommunikatsii/slovar\\_terminov/](https://bachelor.ucoz.ru/load/belaja_e_n_teorija_i_praktika_mezhkulturnoj_kommunikatsii/slovar_terminov/)

## OTALIK-PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

**Annotatsiya.** Otalik fenomeni, onalik fenomenidan farqli o'laroq, psixologiya fanida kam o'rganilgan. Maqolada zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammosi sifatida "otalik" fenomenini o'rganishning ilmiy yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Maqolada "otalik" doimiy rivojlanib boruvchi dinamik fenomen sifatida qaraladi, bu esa zamonaviy jamiyat oldida turgan talablar bilan bog'liq. Onalik va otalikni o'rganish bo'yicha qiyosiy tahlil o'tkazilgan.

**Kalit so'zlar:** fenomen, otalik, onalik, psixologiya, zamonaviy jamiyat, oilaviy tarbiya, oila, munosabat, tadqiqot, bola.

## ОТЦОВСТВО КАК ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ФЕНОМЕН

**Аннотация.** Феномен отцовства, в отличие от феномена материнства, до сих пор мало изучен в отечественной психологии. В статье рассматриваются научные подходы к изучению феномена "отцовства" как актуальной проблемы современной психологии. В статье "отцовство" рассматривается как постоянно развивающееся динамическое явление, что связано с требованиями, стоящими перед современным обществом. Проводится сравнительный анализ по изучению отцовства и материнства.

**Ключевые слова:** феномен, отцовство, материнство, психология, современное общество, семейное воспитание, семья, отношения, исследование, ребенок.

## FATHERHOOD AS A PSYCHOLOGICAL PHENOMENON

**Annotation.** The phenomenon of paternity, unlike the phenomenon of motherhood, is still poorly studied in local psychology. The article examines scientific approaches to the study of the phenomenon of "paternity" as a pressing problem of modern psychology. In the article, "paternity" is considered as a constantly evolving dynamic phenomenon, which is connected with the demands facing modern society. A comparative analysis is conducted on the study of paternity and motherhood.

**Keywords:** phenomenon, fatherhood, motherhood, psychology, modern society, family upbringing, family, relationship, research, child.

**Zamonaviy jamiyatda an'anaviy jinsiy stratifikatsiya tizimi buzilmoqda, bu gender** rollarining, jumladan, ota-onalik rollarining o'zgarishiga olib kelmoqda. Oila muammolari sifatida ijtimoiy institut va ijtimoiy tizim sifatida, oilaviy tarbiya masalalari, oilaning bola va kattalar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri, oilaning ijtimoiylashtirish funksiyasini bajarishi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Ushbu muammolarni o'rganish doirasida, zamonaviy oila inqirozini yengib o'tish jarayonida otalikning rolini aniqlash uchun otalik masalalariga e'tibor qaratish zarur. Otalik fenomeni, onalik fenomenidan farqli o'laroq, psixologiya fanida hali ham kam o'rganilgan. "Onalik" fenomeni S.Yu. Meshcheryakova, G.G.Filippova, K.Xorni kabi tadqiqotchilarning ishlarida o'z aksini topadi.

Onalik tibbiyot, fiziologiya, falsafa, pedagogika va boshqa fanlarda alohida o'rganiladi. Ochig'i, buning sababi onaning bola rivojlanishi uchun rolining ahamiyatida yotadi. Biologik nuqtai nazardan, onalik otalikka nisbatan muhimroq hisoblanadi, otalikka esa faqat ikkinchi darajali "yordamchi" rol beriladi. Biroq, oilaviy tarbiya jarayonida otaning roli va u hal qiladigan vazifalar asosiy, hattoki yetakchi o'ringa chiqadi, ayniqsa bolada mustaqillik, erkaklik, shaxsiy chegaralarni himoya qilish qobiliyati, qiyin vaziyatlarda o'ziga ishonch va xavfsizlik tuyg'usi kabi

asosiy tushunchalarni shakllantirish haqida gap ketganda. Shubhasiz, ona bolaga eng yaqin, ham fiziologiya, ham psixologiya nuqtai nazaridan. Bu ko'p jihatdan onaning homiladorlik va tug'ruq davrida bolani ko'tarishi bilan bog'liq; ona bolaga ruhiy jihatdan ham yaqinroq [8].

Fransuz psixologlarining mashhur tajribasida 27 ona magnitafon yozuvidan o'zining 3-10 kunlik bolasining ovozi boshqa to'rt nafar chaqaloqning ovozidan ajrata olgan. Shu bilan birga, onalarning 80% dan ortig'i (22 ona) o'z chaqalog'ining ovozi xatosiz tanib oldi [2]. Psixologiyada birinchilardan bo'lib, shaxs tarbiyasi jarayonida ota-onalarning ahamiyati haqida psixoanalitik yo'nalishdagi tadqiqotchilar gapirgan, ammo ular asosiy e'tiborini ona rolga va "ona-bola" tizimidagi o'zaro munosabatlarga qaratganlar [7].

Biroq, bizning fikrimizcha, otaning bolaga munosabatini va otalikning erkak kishiga ta'sirini o'rganish Z. Freyd, K. Yung, Sh. Bart, S. Mateychik va boshqalar tomonidan nazariy jihatdan belgilab qo'yilgan, lekin ehtimol unchalik ravshan bo'lmagan, shuning uchun kam o'rganilgan ko'p jihatlarni aniqlashtirishga imkon beradi. Hozirgi vaqtda onaning roli, onalikning ayol va bola shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud. Ushbu tadqiqotlar eng keng yo'nalishlar spektriga ega: homiladorlikni o'rganishdan tortib, onaning bolani qabul qilishi va uning hissiy munosabatining bola rivojlanishiga ta'sirini o'rganishgacha. G.G.Filippova, R.J. Muxamedraximov va boshqalarning ishlarida onalikning bola rivojlanishi uchun ahamiyati qayd etiladi va oiladagi o'zaro munosabatlarda asosiy blok sifatida "ona-bola" bloki ajratib ko'rsatiladi [8]. Oilaga psixologik yordam ham ko'proq ona va bolaga ko'rsatiladi, lekin ota va bola juftligiga emas. Shu bilan birga, "otalar va bolalar" muammosi deb ataladigan masala keng tarqalgan bo'lib, bu bilan mutaxassislar tez-tez ishlaydi. Bizning fikrimizcha, bu stereotip bugungi oilalardagi mavjud munosabatlarni juda aniq va qisqacha aks ettiradi: "ona-bola" bloki konstruktiv, "ota-bola" bloki esa muammoli hisoblanadi.

Ba'zi tadqiqotchilar otalik, xuddi onalik kabi, ijtimoiy va madaniy jihatdan shartlangan xususiyatga ega ekanligiga shubha bilan qarashadi. Ushbu fenomenning paydo bo'lishi bola salomatligi va farovonligi haqida g'amxo'rlik qilishning madaniy-tarixiy zarurati bilan bog'lanadi.

Otaning bola rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvdagi roli, shuningdek, otalikning boshqa jihatlari haqidagi savol kam o'rganilgan, garchi ular dolzarb va oilaga tibbiy, psixologik, pedagogik yordam dasturlarini tuzishda amaliy ahamiyatga ega bo'lsa ham [13]. Shuning uchun bizning fikrimizcha, ushbu e'tibordan chetda qolib ketayotgan fenomen haqida yana bir bor eslatib o'tish zarur.

Ota deganda kim nazarda tutiladi? Ota – bu oilaning boshlig'i; ota – rahbar, yetakchi, himoyachi va oilaning kuchi. Tarixan oila yaratuvchisi erkak – ota bo'lib, u o'z naslini boshlaydi yoki davom ettiradi, zarur bo'lganda esa bolalariga o'z mulkini meros qilib qoldiradi. Meros qoldirish tushunchasi ham zarurat natijasida paydo bo'lgan, chunki na ilk ibtidoiy jamoalar, na hatto Rim huquqi buni to'liq tan olmagan. Bu shuni anglatadiki, har kim o'lgan kishining mulkini hech qanday xavf-xatarsiz egallab olishi mumkin edi va unga hech narsa tahdid solmasdi. O'z oilasida, boshqalardan alohida yashash afzalliklarni berardi: otalik aniq, xotin aniq, mulk aniq edi [9].

Shunday qilib, aynan ota oila resurslari qanday taqsimlanishi haqidagi asosiy qarorni, uning hayoti davomida ham, vafotidan keyin ham qabul qilish huquqini saqlab qoladi. Otalik – eng an'anaviy tushunchada – bu erkakda tug'ma tuyg'u bo'lib, uni o'z bolasi yoki bolalariga nisbatan hamdardlik bilan mas'uliyatli tarzda harakat qilishga undaydi.

Otaning rolga ikki xil yondashuv mavjud: umumiy qabul qilingan yondashuv va so'nggi paytlarda mashhur bo'lgan atama-"yangi otalik". Umumiy qabul qilingan yondashuv, otaning faqat biologik rolga e'tibor qaratib, uning boladan ajralib turishini ta'kidlar edi, chunki bolaga nisbatan aloqalar vaqtinchalik va onalik munosabatlariga qaraganda uzoqroq edi [11].

Erkakning ota bo'lish, oila qurish va uni ta'minlash istagini tadqiqotchilar shunday izohlashgan: erkak turmush qurish orqali jamiyatda ko'p huquqlar va mavqega ega bo'ladi, bunday huquqlar turmush qurmagan erkaklarda mavjud emas edi. Bu huquqlar bolalarga ega bo'lishni ham o'z ichiga olardi, chunki faqat turmush qurganlarga qonuniy ravishda bolali bo'lish huquqi

berilardi. Bolalar qadriyatli deb hisoblangan, ular hissiy qoniqish keltiruvchi va ichki muvozanat hissini shakllantiruvchi omil sifatida qabul qilingan; befarzandlik esa salbiy baholangan.

Onalik singari, otalik ham ijtimoiy-madaniy hodisa bo'lib, har bir madaniyatda aniq belgilangan va dostonlar, rivoyatlar, qo'shiqlar hamda milliy an'analarda o'z aksini topgan. Bolaning rivojlanishida otaning roli haqida Z.Freyd ham yozgan bo'lib, u bola otaning himoyasiga tabiiy ehtiyoj sezishini ta'kidlagan. Shunday qilib, erkak o'zidan kutilganidek, oilaning barcha a'zolari manfaatlarining ishonchli himoyachisi vazifasini bajaradi. Aynan shunday himoya kelajakda mustaqil shaxsning shakllanishiga zamin yaratadi. Agar ona obrazi bola uchun muhabbat va so'zsiz qabul qilish ramzi bo'lsa, ota obrazi harakatlarni, keyinchalik esa fikrlarni nazorat qilish (tashqaridan ichki planga o'tish) ramzidir.

X.Jinnotning ta'kidlashicha, otaning asosiy vazifalaridan biri o'z turmush o'rtog'ini, onani bolalarning tajovuzlari va haqoratlaridan himoya qilishdan iborat, o'z navbatida, ota bolani ortiqcha ona g'amxo'rligidan himoya qiladi. X.Jinnot otasi bilan birga o'sgan va tarbiyalangan yoki uning fikriga asoslangan bolalar "ayol" oilalarida tarbiyalangan bolalarga qaraganda mulohazaliroq bo'lib o'sishini kuzatgan. Shu bilan birga, u "agar ona mehri bolaga uni sevishlarini ko'rsatsa, otaning ishonchli mehri bolaga uning qobiliyatli ekanligini ko'rsatadi" deb ta'kidlaydi [5]. Mazkur holatda kompetentlik bolaning mulohaza yurita olishi va o'z fikriga, o'zining vazmin va asosli shaxsiy pozitsiyasiga tayanishni o'rganishini anglatadi. Aynan bolalik davrida bolada ota-onalar bajaradigan rollar va funksiyalar haqida tasavvur shakllanadi.

N.A. Koval ta'kidlaganidek, aynan bolalikda o'z "Men"ini anglash, umuminsoniy qadriyatlar bilan birlamchi aloqa o'rnatish sodir bo'ladi. O'g'il bolalarda ehtiyoj rasmiylashtirilmoqda. Oilaviy tarbiya jarayonida otaning roli haqida fikr yuritib, V.A. Suxomlinskiy fikricha: "Xotinning tashvish va g'amlari asta-sekin uning ham tashvishlariga, ham g'amlariga aylanadigan joyda, oila bolalarni hissiy va axloqiy tarbiyalash maktabidir" [6].

Ta'kidlash joizki, oilaviy tarbiya - bu oilaviy an'analar, umumiy madaniyat va ota-onalarning shaxsiy tajribasi bilan tanishish orqali bolaning shaxsiy pozitsiyasini shakllantirish jarayonidir.

Shunday qilib, oila jamiyatda tarbiyaviy funksiyani bajaradi, ota-onalar esa, birinchi navbatda, hayotning turli jabhalariga hissiy jihatdan bo'yalgan munosabatni namoyish etadilar, buning asosida bolaning bilim, ko'nikma va malakalari keyinchalik shakllanadi. Sodda qilib aytganda, tarbiya - bu o'z munosabatini o'tkazishdir. Ota tomonidan amalga oshiriladigan tarbiyaviy vazifalar ichida eng ko'p talab qilinadigani o'g'il bolada erkaklikni tarbiyalashdir. Erkaklik tushunchasi inson ongida ko'p yillar davomida, maktab, oila, tengdoshlar ta'sirida shakllanadi va bir qator omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida eng muhimlari quyidagilardir: ushbu shaxs uchun ahamiyatli bo'lganlarning kutishlari, qadriyat yo'nalishlari va atrof-muhitning jinsiy rolli ko'rsatmalari. O'g'il bolalarni bolaligidanoq kuchli va jasur bo'lishga, his-tuyg'ularini ko'z-ko'z qilmaslikka, vazmin bo'lishga o'rgatishadi. Ular erkak, er va ota bo'lgach, hamma vaqtni ishga bag'ishlash kerak, bolalarga g'amxo'rlik qilish esa onaning ishi, deb hisoblaydilar. Shunday qilib, biz erkaklarning ota rolga munosabati tarixan shakllangan oila himoyachisi roli bilan bog'liq degan xulosaga keldik, unga o'z oila a'zolariga g'amxo'rlik va mehribonlik ko'rsatish xos emas. Shunga qaramay, bunday xatti-harakatlar, Ye.A. Petrovaning, fikriga ko'ra, ayol tomonidan erkakka ishonch uyg'otadi va xavfsizlik va ishonchlilikni ta'minlashga qodir deb hisoblanadi. Ushbu stereotiplar jamiyat tomonidan o'rnatilgan bo'lib, odamlarning kutishlari va tasavvurlariga katta ta'sir ko'rsatadi[9].

Dunyodagi barcha xalqlarda azaldan otaning roli onaning rolga qarama-qarshi qo'yilgan. Qabila yoki oilaning boshlig'i faqat kuchli va jasur hisoblangan erkak bo'lishi mumkin edi. Jamiyatda otalikning o'ziga xos xususiyati, Ye.A.Petrovaning fikriga ko'ra, erkak-ota qiyofasining tarixiy shakllarini buzishdir. Bunga ko'plab erkaklar halok bo'lgan ko'plab urushlar sabab bo'ldi va natijada ayol-onaning xo'jalikni saqlashdagi roli oshdi. Oilada erkak va ayol funksiyalari va rollarining o'zgarishi industrial jamiyatning rivojlanishi bilan bog'liq. Bolalar to'g'risida ham, uydagi shinamlik to'g'risida ham o'zaro g'amxo'rlik qilish ehtiyoji paydo bo'ldi. Erkak bu rolni salbiy qabul qildi, deb bo'lmaydi, aksincha - yirik megapolislarda, rivojlanayotgan

shaharlarda, keyinroq esa viloyatlarda ham erkaklar tayyorlik bilan va nisbatan tez, tarixiy jihatdan, ovchi rolini ayollarga, onalarga topshirdilar va ularning oiladagi vazifalarini xuddi shunday tez bajarishni o'rgandilar[9]. Demak, otaning pozitsion roli obro'sizlantirildi va deyarli barbod bo'ldi. Otalik instituti ishlamasa, er oilada yetakchi bo'lmaydi. Keyinchalik, stereotiplar o'zgarib boshlagach, erkaklar o'z his-tuyg'ularini tabiiyroq namoyon qila boshladilar va endi hech kim erkakning o'z farzandlari va yaqinlariga nisbatan his-tuyg'ularini qanday namoyon qilishiga tushunmovchilik bilan qaramadi. Shu bilan birga, erkak o'z his-tuyg'ulari va harakatlarini nazorat qiluvchi, hech kimning yordami va g'amxo'rlikiga muhtoj bo'lmagan oila boshlig'i degan fikr hali ham dolzarbdir. Bunday stereotiplar bosimi ostida ko'pchilik erkaklar bolaga zarur bo'lgan barcha g'amxo'rlik va mehrni onasi beradi deb o'ylab, o'zlaridagi otalik tuyg'ularini bo'g'ib qo'yadilar. Shuni ta'kidlash kerakki, ota rolini samarali bajarish ko'p jihatdan erkakning bu rolni qanchalik qabul qilishiga bog'liq.

Ye.V. Vorobeva va V.A. Popova oilaviy tarbiyaning bolaning intellektual rivojlanishiga ta'sirini o'rgangan. Natijada intellektni rivojlantirish uchun nazorat va emotsional qo'llab-quvvatlashning mavjud bo'lishi zarurligi ko'rsatib berilgan. Oilada bu vazifalarni ota ham, ona ham bajarishi mumkinligi kuzatilgan[3].

Yu.V. Borisenko otalik rolining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni 4 ta katta guruhga ajratadi. Birinchisiga er-xotinlik diadasidagi o'zaro munosabatlar bilan bog'liq omillar kiradi. Ikkinchisi - bolaning onasi (erkakning turmush o'rtog'i) ning erkakning ota roliga shakllanishiga ta'siri bilan bog'liq[2].

Xulosa qilib aytganda, ota va onaning bola tarbiyasiga yondashuvidagi farq ham katta. Amerikaning 33- prezidenti Garri Trumen otalik yondashuvi haqidagi tasavvurlarini shunday ifodalagan: "Mana sizga bolalar tarbiyasi bo'yicha eng yaxshi maslahat: ularga eng yoqadigan narsani toping va buni maslahat bering". Bu iborada ota nigohining butun soddaligi va "silliqligi" ifodalangan. Ota ham xuddi ona kabi bolaga g'amxo'rlik va mehribonlik ko'rsatishga, oilani moddiy jihatdan ta'minlashga harakat qiladi. Erkak-ota, bola rivojlanishining barcha jihatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy otalar bolaga to'laqonli g'amxo'rlik va parvarish qilishni ta'minlashga, shuningdek, yosh ehtiyojlarini qondirishga qodir. Bu oiladagi munosabatlarning rivojlanishiga va otalik tuyg'ularining shakllanishiga eng qulay tarzda ta'sir ko'rsatadi. Shubhasiz, otalik fenomeni kam yoritilgan, ammo otalik psixologiyasini o'rganish bo'yicha ishlar bugungi kunda tugallanmagan va psixologiyada davom etadi. Zamonaviy pedagogik -psixologik fanlar uchun otalikning eng kam o'rganilgan jihati sifatida otalik fenomeni eng katta qiziqish uyg'otadi. Bolaning rivojlanish jarayonida otaning roli onaning roligidan kam emas, ammo u bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularni bajarish erkakka yuklatiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Белогай К.Н., Борисенкова Ю.В. Специфика формирования отцовства как психологического феномена // Сибирский психологический журнал. 2007. – № 26. – С. 102-107.
2. Борисенко Ю.В. Психология отцовства. – М.: 2007. – 220 с.
3. Воробьева Е.В., Попова В.А. Исследование интеллекта и мотивации достижения близнецов // Российский психологический журнал. 2009. – № 1 (6). – С 46-51.
5. Джиннот Х. Воспитавай счастливого ребенка. Развитие личности от 3 до 12 лет. М.: Центрполиграф. 2008. – 192 с
6. Коваль Н.А. Социально-психологические основы духовности личности // Вестник ТГУ. 2011. Выпуск 8 (100). – С. 23-28.
7. Мещерякова С.Ю. Психологическая готовность к материнству // Вопросы психологии. 2000. – № 5. – С.18-27.
8. Мухамедрахимов Р.Ж. Мать и младенец: психологическое взаимодействие. – СПб.: СПбГУ. 2001. – 288 с.



9. Петрова Е.А. История становления имиджелогии. // Курс лекций по психологии имиджа. РГСУ. – М.: 2007.
10. Петронюк И.С. Современные проблемы психологии отцовства // Вестник ТОГИРРО. 2016. – № 2(34). – С. 92-94.
11. Савинков С.Н. Кризис современной семьи: история, тенденции, перспективы // Высшее образование сегодня. 2017. – № 8. – С. 53-55. 12. Савинков С.Н. Отношение родителей к ребенку как основа семейного воспитания // Вестник РМАТ. 2019. – № 1. – С. 97-103.
13. Смыслов Д.А., Доценко И.В. Отцовство как общественный и социально-психологический феномен // Ученые записки Российского государственного социального университета. 2011. – № 7 (95). – С. 133-139.

VOYAGA YETMAGAN YOSHLAR HUQUQBUZARLIGI PROFILAKTIKASINI  
TASHKIL QILISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada voyaga yetmaganlar huquqbuzarligini nazariy jihatdan o'rganilishi, yoshlar asotsial guruhlarining shakllanishi, o'smirlar huquqbuzarligini oldini olish bo'yicha ko'riladigan barcha chora – tadbirlar, pedagogik qarovsiz qolgan o'smirlarni tarbiyalashda qo'llaniladigan ishlar rejasi to'g'risidagi ma'lumotlar nazariy jihatdan tahlil qilinib, xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** voyaga yetmagan yoshlar, huquqbuzarlik, jamoa, umumiy psixologik yondashuv, kriminologik-sotsiologik yondashuv "Tarbiyasi og'ir" o'smirlar, pedagogik qarovsiz qolgan o'smirlar, qayta tarbiyalash, huquqiy tarbiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПРОФИЛАКТИКИ  
ПРАВОНАРУШЕНИЙ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

**Аннотация.** В данной статье теоретически рассматриваются правонарушения несовершеннолетних, формирование асоциальных молодежных групп, все меры, принимаемые для предотвращения подростковой преступности, а также информация о планах и методах воспитания педагогически запущенных подростков. Проведен теоретический анализ и сделаны соответствующие выводы.

**Ключевые слова:** несовершеннолетние, правонарушение, сообщество, общий психологический подход, криминологико-социологический подход, "трудные" подростки, педагогически запущенные подростки, перевоспитание, правовое воспитание.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE ORGANIZATION OF JUVENILE  
DELINQUENCY PREVENTION

**Annotation.** This article theoretically examines juvenile delinquency, the formation of asocial youth groups, and all preventive measures taken to reduce adolescent offenses. It also analyzes the plans and methods used in educating and rehabilitating pedagogically neglected adolescents. Theoretical conclusions are provided based on the analysis.

**Keywords:** juveniles, delinquency, community, general psychological approach, criminological-sociological approach, "difficult-to-educate" adolescents, pedagogically neglected adolescents, re-education, legal education.

Mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni, xususan, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, bu borada davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini takomillashtirish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida "notinch oilalar farzandlari, uyushmagan yoshlar, ish bilan band bo'lmagan, "ommaviy madaniyat" ta'siriga tushib qolgan voyaga yetmagan yigit-qizlarning xatti-harakatlarini nazoratga olishda ularning ota-onalari mas'uliyatini oshirish, kashandalik, alkogolli ichimliklar iste'mol qilish va boshqa illatlar profilaktikasi" kabi dolzarb vazifalar nazarda tutilgan. Bu esa, ichki ishlar organlari faoliyatiga ilg'or ish usullarini joriy etish, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash bo'yicha fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorlikni tashkil etishni taqozo etadi.

Bugungi kunga kelib ham voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik profilaktikasini tashkil etish masalasi o'z ahamiyatini yo'qotgan emas va hattoki bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shu sababdan jamiyat taraqqiyoti uchun yuqori intellektli, huquqiy ongli, jamiyat tomonidan belgilangan qonun qoidalarini xurmat qilib, ularga to'liq rioya qiladigan yoshlarni tarbiyalash masalasi muhim hisoblanar ekan, biz ham inson kamoloti uchun eng ahamiyatli sanalgan voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqiy ongini rivojlantirish ilmiy muammo sifatida tadqiq etish muammoning dolzarbligini belgilab beradi.

Pedagogika va psixologiya sohalarida guruh va jamoaviy faoliyat hamda ularning tashkil etilishi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlar tarixan shakllangan bo'lib, ulardan ayrimlari asotsial yo'nalishdagi guruhlar uchun ham qo'llanilishi mumkin. Masalan, bugungi kungacha dolzarbligini yo'qotmagan ijtimoiy-psixologik jamoa nazariyasi (A.S. Makarenko, A.I. Doncov va boshqalar) mavjud bo'lib, u muhim metodologik tamoyil – shaxslararo munosabatlarning bilvosita shakllanishi tamoyiliga tayanadi va tizimli xususiyatga ega. Ushbu nazariya doirasida shaxs va guruhga oid turli ijtimoiy-psixologik hodisalarni o'rganish bo'yicha katta tajriba to'plangan. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, o'rganilgan hodisalar, asosan, ijtimoiy jihatdan foydali guruhlar bilan bog'liq. Shu bilan birga, yoshlar asotsial guruhlarining shakllanishi, rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq muammolar ushbu nazariya doirasida faqat qisman ko'rib chiqilgan bo'lib, u hali yetarlicha ishlab chiqilmagan va nafaqat ijtimoiy psixologiya, balki unga yaqin boshqa fanlarda ham yetarli darajada yoritilmagan.

XX asrning 50-yillari boshidan 70-yillar oxirigacha, shuningdek, 80-90-yillarda yoshlar guruhlarining asotsial xulq-atvorini o'rganishda psixologik-pedagogik ilm-fan va amaliyotda nazariy-metodologik yondashuvlar ishlab childi. Chunki aynan shu davrlarda jamiyatda yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy shart-sharoitlar vujudga kelgan edi. Bularga demokratizatsiya va plyuralizm, iqtisodiy va ijtimoiy tafovutlarning chuqurlashuvi, inson huquqlari va majburiyatlari, hayot mazmunining qayta talqini, shaxs va oila, shaxs va jamiyat ehtiyojlari va manfaatlariga qaratilgan e'tibor kiradi [6].

O'smirlar guruhlaridagi huquqbuzarlik hodisalarni pedagogik va psixologik o'rganishda ikki asosiy yo'nalish ajralib turadi: umumiy psixologik (individual-psixologik) va kriminologik-sotsiologik yondashuvlar. Umumiy psixologik (individual-psixologik) yondashuvning asosini psixologiyaning muhim tamoyillaridan biri – shaxsiy yondashuv tashkil qiladi. Bu tamoyil S.L. Rubinshteyn tomonidan shakllantirilgan bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, "psixik hodisalarni tushuntirish jarayonida shaxs ichki sharoitlarning yaxlit majmuasi sifatida namoyon bo'ladi, tashqi ta'sir aynan shu ichki sharoitlar orqali aks etadi"[1]. Kriminologik-sotsiologik yondashuvning mazmuni shundan iboratki, profilaktik ta'sir markazida guruh ishtirokchisi – uning individual-psixologik xususiyatlari, psixik jarayonlari va holatlari turadi. Shu bilan birga, K.K. Platonov tomonidan ilgari surilgan fikrga ko'ra: bu tamoyil "har qanday inson psixik hodisalarini o'rganishni uning shaxsiyati tushunchasi orqali amalga oshirishni talab qiladi" [1].

O'smirlarning huquqbuzarligini oldini olish bo'yicha ko'riladigan barcha chora – tadbirlarning samarali bo'lishi, asosan, mohirona ravishda tuzilgan rejaga bog'lik bo'ladi. Chunki, uzoq muddatni ko'zlab va jiddiy muvaffaqiyatga erishish uchun rejasiz ishlab bo'lmaydi.

"Tarbiyasi og'ir" o'smirlar bilan ishlashni rejalashtirishdagi asosiy omillardan biri, ta'lim – tarbiya borasida bolalarning qarovsizligini oldini olish maqsadida, umummaktab, sinflar bo'yicha, guruhviy va individual ravishda olib boriladigan chora – tadbirlarning birgalikda olib borilishi hisoblanadi.

Ta'lim – tarbiya borasida bolalarning qarovsiz qolishining oldini olish bo'yicha quyidagi chora – tadbirlar olib borilishi kerak:

- ta'lim – tarbiya borasida qarovsiz qolgan o'smirlarning o'qituvchilar, o'quvchilar guruhi, va ota-onalar bilan munosabatlarini ijobiy psixologik muhitini shakllantirish bo'yicha aniq chora – tadbirlarni ishlab chiqish;

- ta'lim olishining zarurligiga, o'zining xulq-atvoriga javobgarligiga ishonitirish hissini shakllantirish;

- o'smir uchun oilaning tarbiyaviy ta'sirini yaxshilash;

– maktab o'quvchisining shaxslararo munosabati xususiyatini o'zgartirish, uning o'zga shaxslar bilan muloqatini nazorat qilish;

– o'smirlarni maktabdan tashqari turli xil to'garak va sport seksiyalariga jalb qilish[8].

Pedagogik qarovsiz qolgan o'smirlarni tarbiyalashda, uzoq muddatli reja tuzishning mazmuni, o'quvchining individual xususiyati, pedagogik qarovsizligi darajasi va sabablarini aniqlash hamda oilaning tarbiyalashdagi imkoniyatlari orqali aniqlanishi lozim.

Ta'lim – tarbiya borasida qarovsiz qolgan har bir o'smir uzining individual xususiyatiga ega, uni qayta tarbiyalashda alohida individual reja tuzilishi zarur. Qayta tarbiyalash keng ma'noda – bu hayotiy sharoitining mosligi bo'yicha insonning ichki dunyosini qayta-qurish, boshqatdan tuzish, rivojlanayotgan jamiyat qo'yadigan talablar asosida tarbiyalash jarayonidir[3].

Qayta tarbiyalash bo'yicha quyidagi reja tavsiya sifatida taklif etiladi:

Maktabda:

1. Sinf rahbari va o'smir o'rtasidagi aloqani o'rnatish.

2. Sinf faoli bilan birgalikda, o'smirning(qayta tarbiyalanayotgan) barcha fanlardan o'zlashtira olishi va intizomli o'quvchi bo'lishiga ishonch hissini uyg'otish.

3. Dars jarayonida va qo'shimcha olib boriladigan mashg'ulotlar paytida, o'smirning bilim olishida hosil bo'ladigan muammolarga asosiy diqqatni bergan holda, individual reja tuzish.

4. O'smirning qiziqishini inobatga olgan holda, uni sinf jamoasining ijtimoiy foydali faoliyatiga jalb qilishga harakat qilish.

5. O'smirlar bilan alohida suxbatlar olib borish.

6. Qiziqishini hisobga olgan holda, uni turli seksiyasiga jalb qilish.

Oilada va yashash joyi bo'yicha:

1. Sinfning ota-onalar qo'mitasi bilan hamkorlikda o'smirning ta'lim – tarbiya borasida qarovsizligining asosiy sababini bartaraf etish, bunda uchun uning yashashi va o'qishi uchun oilada qulay sharoit yaratish kerak.

2. O'smirlar bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etishga yordam berish.

3. Onaga o'g'lini tarbiyalashda individual suhbatlar olib borish, yakka va guruxiy maslahatlar berish orqali pedagogik yordam ko'rsatish, zaruriyat bo'lganda esa, ota – onalar o'quvi fondidan moddiy yordam ko'rsatish.

4. O'smirning yashash joyi bilan aloqani o'rnatishga asosiy diqqatni qaratish lozim, bu aloqalarning xususiyati, o'smirlar ijobiy ta'sir ko'rsata oladigan shaxsni topib, unga biriktirish kerak.

5. Bola tarbiyasida, zaruriyat yuzasidan, jamoa tashkilotlari, oila va maktab hamkorligi uyushmasi xamda korxonalaridan onaga yordam berishni so'rash.

Tarbiyasi og'ir o'smirlarga, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni kelajakda kengaytirish uchun qo'shma tadbirlarni doimiy ravishda rejalashtirish maqsadga muvofiqdir[5].

Maktabda ishlab chiqarish jamoasi hamkorligi:

– O'quv – tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish, ta'lim – tarbiya borasida qarovsiz qolgan o'smirlarga yagona pedagogik talablarni qo'yish, unda ongli intizomni tarbiyalash;

– To'garaklar, klublar, ilmiy tashkilotlarni kengaytirish, bular orqali intizomsiz o'quvchilarni qamrab olish;

– O'quvchilar kontingentini saqlash uchun xar bir o'qituvchi va tarbiyachining mas'uliyatini oshirish;

– Voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha inspeksiylarida o'qituvchilar va tarbiyachilarning doimiy navbatchiligini tashkil etish, ota-onalar va yoshlar tashkilotlari bilan jamoat joylarida o'smirlarning huquqbuzarligini oldini olish maqsadida reydlar uyushtirish;

– O'qimaydigan, ishlamaydigan o'smirlarni topish va ishga joylashtirish yoki ularni o'qishga qaytarish bo'yicha chora – tadbirlarni amalga oshirishda uy xo'jaligi qo'mitalari hamkorligi;

– Xalq universitetlari ishlari shaklini o'zgartirib turish, otalar konferensiyalarini uyushtirish, oilaga tayyorlash savollari bo'yicha disputlar o'tkazish, korxonalarda doimiy ravishda pedagogik tashviqotlar olib borish;

– Korxonalar va ota – onalar qo‘mitalari bilan hamkorlikda “Mehnat bayrami”, “Bilimlar kuni”, “Ochiq eshiklar kuni” kabi tadbirlarni o‘tkazish;

Sinf rahbarining ishlari rejasi ta’lim – tarbiya borasida qarovsiz qolgan o‘quvchilar, ularning ota – onalari, jamoa va xuquqni himoya qilish tashkilotlari ishlarini o‘z ichiga oladi. Ta’lim – tarbiya borasida qarovsiz qolgan o‘quvchilar bilan huquqiy – tarbiyaviy ishlashlarni olib borishda, asosan, ularning psixologik, ijtimoiy va huquqiy jihatlarini inobatga olgan holda amalga oshirish lozim.

Huquqiy tarbiyaning asosiy vazifasi – ta’lim - tarbiya borasida qarovsiz qolgan o‘quvchining huquqbuzar o‘quvchiga, huquqbuzar o‘quvchining esa jinoyatchiga aylanishini oldini oladi[7]. Bu faoliyatlarning barchasi maorif va huquqini himoya qilish tashkilotlarining hamkorligini talab qiladi.

Ularni o‘zaro ta’sirining asosiy shakllari quyidagilar hisoblanadi:

– O‘quvchilarni jinoiy faoliyatlar, ya’ni ichkilikbozlik, bezorilik va boshqa shunga o‘xshash jamiyatga qarshi xatti-xarakat shakllariga jalb qilishga urinishlarni chetlab o‘tish;

– Voyaga yetmaganlar ishi bo‘yicha inspeksiyasi hisobida turgan o‘smirlar bilan doimiy ravishda pedagoglar tomonidan olib borilgan ishlar;

– Muvaffaqiyatsiz oila o‘smirlari bilan maktab va voyaga etmaganlar ishlari bo‘yicha inspeksiyalarining hamkorlikdagi ishlari.

Quyidagi bajariladigan ishlar asosida, umumta’lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasidagi huquqbuzarlikni oldini olish bo‘yicha o‘tkaziladigan qo‘shma tadbirlarni rejalashtirish orqali pedagoglar jamoasi katta yutuqlarga erishishmoqda:

– Umumiy bajariladigan ishlar rejasining tuzilishi;

– Sodir bo‘ladigan huquqbuzarlikning sabablari va sharoitlarini o‘rganish;

– Boshqa umumta’lim maktablarida huquqbuzarlikni oldini olish ishlarining holatlari bilan tanishtirish.

Umumiy bajariladigan ishlar rejasini tuzishda, o‘quvchilar o‘rtasida umumiy va yakka tartibdagi huquqbuzarlikni oldini olish masalasi bo‘yicha, korxonalararo o‘tkaziladigan seminar treninglar va uchrashuvlar, shuningdek, ta’lim – tarbiya borasida qarovsiz qolgan o‘smirlarga, ular tomonidan amalga oshiriladigan huquqbuzarliklarni oldini olishga ko‘rsatiladigan ta’sirning uslub hamda shakllarini samarali qo‘llanilishi kabilar inobatga olinishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, voyaga yetmagan huquqbuzar guruhlarining fikrlari, his-tuyg‘ulari, kayfiyatlari, normalari, qarashlari, qadriyatlari va boshqa xususiyatlari, asosan, shu guruh tarkibidagi alohida shaxslarning holati sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, voyaga yetmagan huquqbuzarlar guruhlarining asotsial xulq-atvorini o‘rganishda o‘smirlarning o‘zaro muloqot va interaktsiya jarayonlariga e’tibor qaratish juda muhimdir.

Zero, asotsial guruhlarining xususiyatlarini aniqlash uchun faqat ularning muloqot jarayonlarini tahlil qilish kifoya emas, balki yanada chuqurroq manbaga – o‘smirlarning guruh ichidagi faoliyatini va bu faoliyat jarayonida shakllanadigan munosabatlarini tahlil qilishga murojaat qilish lozim. Chunki muloqot – bu ushbu munosabatlarning faqat bir jihati hisoblanadi. Individual-psixologik yondashuv esa bunday chuqur tahlilni to‘liq amalga oshirish imkonini bermaydi.

Voyaga yetmaganlarning asotsial xulq-atvori va huquqbuzarliklarini oldini olish faoliyatini tashkil etish, avvalo, jinoyatchilikning dolzarb ildizlari va sabablarini ijtimoiy hodisa sifatida har tomonlama nazariy tahlil qilishni, huquqbuzarlikning og‘ishgan xatti-harakat sifatidagi tabiati tadqiq etilishini nazarda tutadi. Oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, ularning metodologik asoslarini jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichiga mos ravishda shakllantirish uchun kriminologiya, yurisprudensiya, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya, tibbiyot kabi turli ilmiy sohalarda olib borilgan tadqiqotlar asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Profilaktika amaliyoti va nazariyasining hozirgi holatiga kelishdan oldin, o‘smirlar tomonidan tuzilgan asotsial guruhlar faoliyatining mohiyatini, huquqbuzarliklar sabablarini aniqlash lozim.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

225

1. Александров С.Г. Девиантные отклонения в структуре личности юношей, совершивших преступления: Дис.канд. юрид. наук, 1999. – 183с.
2. Кудрявцев В.Н. и др. Социальные отклонения. Вт. Изд. М., Юрист, 2011. – 269 с.
3. Клейберг Ю.А. Психологические основы девиантного поведения подростков: диссертация в виде научного доклада на соискание ученой степени доктора психологических наук. Тверь, Чу До, 1999. - 65 с.
4. Никитин А.В. Психологические особенности агрессивного поведения в подростковом возрасте: Дис. ... канд. психол. наук. - М., 2006. – 173.
5. To'laganova G.Q. Deviant xulq atvor psixologiyasi. – T.: Universitet, 2014. – 168 b.
6. Umarov B.M. O'zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ijtimoiy-psixologik muammolari: Avtoref. dis. ... dok.psixol. – T.: 2009. – 44 b.
7. Хомич А. В. Психология девиантного поведения: учебник / А. В. Хомич. - Ростов-на-Дону: Южно-Российский Гуманитарный Институт, 2006. – 358 с.
8. Шахназарова Н.В. Профилактика девиантного поведения у под-ростков с акцентуациями личности // Тезисы докладов и сообщений Всероссийской конференции “Актуальные проблемы сферы психологии и права”, 15-17 мая 1998 г., г. Калуга; под ред. В.Ф. Енгальчева. – Калуга, 1998. – С. 199 –201.

**Buxoro davlat pedagogika instituti muassisligidagi  
"PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA"  
xalqaro ilmiy-metodik jurnali  
barcha ta'lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.**

**"PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA" xalqaro ilmiy-metodik jurnalida o'zbek, rus, ingliz  
tillarida maqolalar chop etiladi.**

**Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi 11-uy  
Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat rekvizitlari:**

«Садриддин Салим Бухорий» МЧЖ  
Манзил: Бухоро, Муҳаммад Иқбола қўчаси, 11  
Р/с 20208000104858465002  
Бухоро шаҳри Ҳамкорбанк МФО 00966  
ИНН 301637939 ОКНХ 87100

Мақолаларни қабул қилиш учун  
<https://t.me/alijonhr>, <https://t.me/AzizaHusenovaSh>

|                                                                                                                                                                                                                     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p><b>PEDAGOGIK<br/>AKMEOLOGIYA</b></p> <p><b>Xalqaro ilmiy-metodik jurnal</b></p> <p><b>2025-yil 3-son (20)</b></p> <p><b>2022-yil avgust oyidan<br/>chiqa boshlagan.</b></p> <p><b>Нашр индекси:<br/>1397</b></p> | <p><b>Buxoro davlat universiteti nashri</b></p> <p>Jurnal davlat va nodavlat oliy o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, kasb-hunar maktablari hamda maktab o'qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo'ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p><b>Nashr uchun mas'ul:<br/>Alijon HAMROYEV.<br/>Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.</b></p> | <p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 31.03.2027<br/>Bosmaxonaga topshirish vaqti<br/>04.04.2025<br/>Qog'oz bichimi: 60x84. 1/8<br/>Tezkor bosma usulda bosildi.<br/>Shartli bosma tabog'i – 32,0<br/>Adadi – 100 nusxa<br/>Buyurtma №158.<br/>Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>"Sadriddin Salim Buxoriy" MCHJ<br/>bosmaxonasida chop etildi.<br/>Bosmaxona manzili: Buxoro shahri<br/>M.Iqbol ko'chasi 11-uy.</p> |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|